

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

B.A.ALIYEV, T.HOSHIMOV

**O‘ZBEKISTONDA
DEMOKRATIK JAMIYAT
QURISH
NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti
Toshkent — 2005

Aliyev B. A., Hoshimov T.P. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005 - 160 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonda davlat mustaqilligiga erishilishi, yangi demokratik jamiyat qurish davrida siyosiy islohatlarning amalga oshirilishi, huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir talablar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash omillari, ma'naviy-ruhiy tiklanish va milliy qadriyatlarining tiklanishi, Respublikaning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi kabi masalalar bayon etilgan.

Mualliflar ma'lum qiladilarki, mavzular hajmi cheklanganligi sababli, hamda Politologiya va Sotsiologiya fanlarida 2, 5, 11, 13 ("O'zbekistonda demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari", "Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash - demokratik jamiyat qurish omili", "Oila demokratik jamiyat qurilishining asosiy bo'g'ini", "Demokratik jamiyatni barpo etishda nodavlat va jamoat birlashmalarining o'rni") mavzularga tegishli o'xshash mavzular mavjudligini hisobga olib takrorlamalik maqsadida qisqartirilgan.

Qo'llanma talabalar va ushbu fandan ta'lim berayotgan o'qituvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: **G'ayrat Rafiqov,**

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrası professori, falsafa fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Muhammadjon Jakbarov,

Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish Akademiyasi "Jamiyat qurilishi va milliy manfaatlar" kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori;

Sherqul Shodmonov,

TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi"

kafedrası mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor;

Auvar Qodirov,

Toshkent yuridik instituti "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrası professori, falsafa fanlari doktori.

Ekspertlar:

Ortiqxo'ja Abduvahobov,

Ichki nazorat va monitoring bo'limi

boshlig'i, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Tursunboy Sultonov,

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

Алиев Б.А., Хошимов Т.Р. Теория и практика строительства демократического общества в Узбекистане. Учебное пособие - Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2005. 160 с.

В данном учебном пособии раскрывается сущность национальной независимости Узбекистана, проводимых политических реформ в период построения демократического государства, формирования правового государства и гражданского общества, а также углубления экономических реформ. Вместе с тем в ней рассматриваются вопросы обеспечения общественно-политической стабильности в Республике духовно-психологического возрождения, укрепления национальных ценностей и место Узбекистана в мировом сообществе.

В учебном пособии неполностью отражены все темы указанные в типовой учебной программе.

Данное учебное пособие предназначено для бакалавриата.

Ответственный редактор:

Гайрат Рафиков,
профессор кафедры "Теория и практика строительства демократического общества", кандидат философских наук.

Рецензенты:

Мухаммаджон Жакбаров,
заведующий кафедры "Строительство общества и национальных интересов" в Академии Государственного общественного строительства при Президенте Р.Уз,
доктор философских наук;

Шеркул Шодмонов,
"Экономическая теория", доктор экономических наук,
профессор, ТГЭУ, заведующий кафедрой;

Анвар Кадыров,
профессор кафедры "Социально-гуманитарных дисциплин" Ташкентского юридического института.

Эксперты:

Оргикхужа Абдувахобов
начальник отдела Внутреннего контроля и мониторинга, кандидат экономических наук, доцент;
Турсунбай Султанов
доцент кафедры "Теория и практика строительства демократического общества", кандидат философских наук.

Aliyev B.A., Hoshimov T.R. The theory and practice of building democratic society in Uzbekistan. Manual – T.: pub. LFUWU 2005, 160 p.

In the present manual reaching the state liberty of Uzbekistan, performance of political reforms in the period of building new society, building of the legal democratic society in Uzbekistan Formation of citizen's society, requirements for opening the economic reforms, factors of providing social and political stability in the country, reinforcement and reinforcement of national traditions and other problems are covered psychological rebirth and the place of Uzbekiston in the world arena.

The manual is deigned for students and teachers of this course and prepared according to the advice of scientific and methodological soviet of the faculty of "Economics and statistics", of Tashkent State University of Economics.

Editor in chief:

Gayrat Rafikov,

Candidate of sciences, professor of the chair

"Theory and Practice for constructing democratic society".

References: Muhammadjon Jakbarov,

the chief of chair Constructing society and National interests, doctor of Philosophy sciences of the Akademy "State social Construction" attached to the President of the Republic of Uzbekistan;

Sherkul Shodmonov,

the chief of chair "Economic theory",

the doctor of economics sciences,

Anvar Kodirov,

professor of the chair "Social –

Humanitarian disciplines" Tashkent Law Institute.

Experts: Ortiqkhoja Abduvahobov,

the head of the department "Domestic control and Monitoring", candidate of economics sciences, docent;

Tursunbai Sultonov,

docent of the chair "Theory and practice for constructing democratic society" candidate of philosophy sciences.

KIRISH

Fanni o'rganishning dolzarbligi. Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurish pirovard maqsadimiz.

Bunday yuksak maqsadga mustaqillikni qo'lga kiritish orqaligina erishish mumkin. Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etadi. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U qalbida o'zini hamisha har jihatdan erkin his qilishga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashning shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

Mustaqillik nima? Istiqloq nimalarga asoslanadi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

Eng avvalo shuni aytish kerakki, mustaqillik tenglik sari yo'l qo'yilgan birinchi qadamdir. Chunki tenglik bo'lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo'ladi. Mutelik bir joyda hukmronlik, o'zgalari hisobiga yashashi kabi illatlar paydo bo'ladi. "Tenglik" so'zining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro munosabatlaridan tartib, mamlakatlararo munosabatlarga hamma narsani me'yor-mezonga soladi, turli kamsitishlarga chek qo'yadi.

Istiqloq - o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatlarida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Mustaqillik - jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqloq haqida o'ylashdir. Istiqloq - erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir.

Mustaqil yashashga, mustaqil fikrlashga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'z hayotini o'zi izga solishga qodir odam ziddiyatlarni osonlik bilan yengadi, bu dunyoning shiddatli muammolar bo'roni qarshisida dovdirab qolmaydi. Ana shunday haqiqatni davlat mustaqilligiga qiyoslash mumkin.

Mustaqillik mustamlakachilikning har qanday shaklini, u taqozo etadigan to'siqlar va zo'rvonliklarni inkor etadi. Ayni paytda mustaqillik jahon taraqqiyotining ilg'or tajribalari asosida o'z ravnaqining o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish bilan birga yagona zamin, yagona makon taqdirini belgilashda o'zaro hamkorlikning yangi, sifat jihatdan yuqori bo'lgan, umuminsoniy manfaatlariga mos keladigan andozasi asosida yashash demakdir. Shuning uchun ham istiqloqning ana shu hayot tajribasidan o'tgan tamoyillari hamma vaqt dolzarb bo'lib qolaveradi. Chunki u doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib, ong va tafakkurni charxlab boradigan voqeilikdir.

Mustaqillik - tabiatdan ongli yashash, ongli munosabatni qaror toptirish mezoni. Ayni paytda u harakatlarning, intilishlar va qobiliyatlarning kuchayishini taqozo etadigan hodisadir. Bu ayniqsa sobiq-ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan mustaqil respublikalar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki 130 yillik mustamlakachilik yillarida turli sohalarda, turli shakllarda yuz bergan qatag'onlar, ta'qib etishlar, otib tashlashlar xalq ruhiyatini sindirdi. Odamlar mislsiz qirg'inlar natijasida bir umr tahlika va qo'rquv bilan yashadi. Ana shu xadikisrashlar millat hayotini zaharladi. Turmush lazzatini, yashash zavqini zaqqumga aylantirdi.

Mustaqillik ana shunday iztiroblar, qon yutushlar iskanjasida qolgan xalqimiz qalbiga nur, umudlariga qanot, dardlariga malham bo'lib keldi. Mustaqillikning manaviy-ijtimoiy mazmuni, uning beqiyos mohiyati ana shunda. Mazkur xulosalardan kelib chiqib Prezident I.A.Karimov: "Mustaqil o'zbek davlati xalqimizning tarixiy yutug'idir. Xalq yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan. O'zbekiston chinakam mustaqillikni ko'lga kiritib, gullab yashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi - biz ko'zlayotgan oliy maqsadimizdir".

O'zbekistonning tanlagan yo'li bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar demokratik odil, fuqarolik jamiyatini qurish bosh strategik vazifa deb belgilandi.

Ushbu oliy maqsadga erishish murakkab jarayondirki buni anglab yetish uchun xalqimizdan yuksak manaviylikni, chuqur bilimni va jasoratli mehnatni talab etadi.

Albatta bu vazifa nazariy jihatdan har taraflama puxta ishlangan bo'lishi kerak.

Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurish uchun eng avvalo uning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va ijtimoiy hayotda bo'layotgan iqtisodiy siyosiy va boshqa jarayonlarni anglab olish va tahlil etish mahoratini egallash kerak. Erishilgan yutuq va natijalarni, aniqlangan kamchiliklarni, dunyo voqeeliklarining o'zgaruvchanligi, milliy manfaatlarimizning mutlaq ustunligi shartini hisobga olgan holda jamiyatimizning rivojlanishini yangi, o'zgargan sharoitlarda ta'minlashga qaratilgan ustuvor vazifalarning mazmun va mohiyatini anglash dardkor. Demak, bu barcha jamiyat a'zolaridan chuqur nazariy bilimdonlikni talab etadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurishni bir butun holda har tomomlana nazariy va amaliy jihatdan mohiyatini ochib berishga qaratilgan fandir.

Fanning asosiy maqsadi Prezident I.Karimov asarlarida ilgari surilgan ilmiy ta'limotlar hamda mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar, Prezident farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlanga bag'ishlangan majlislarining hujjatlari, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o'tish masalalariga bag'ishlab nashr etilgan jamiyatshunos olimlarimizning kitoblari, monografiyalari, risolalari bilan talabalarni yaqindan tanishtirish hamda ishlab chiqilgan nazariy xulosalarni amaliy hayotga to'g'ri qo'llashga o'rgatishdan, o'quvchilarni har tomomlana kamolotga erishishlarida yordam berishdan iborat.

Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarining qiyosiy tahlili.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu fan bo'yicha Rossiya Federatsiyasi va MDHning boshqa davlatlarida darslik, o'quv qo'llanmalar yaratilmagan. O'zbekistonda bu fan bo'yicha Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasida professor I.Ergashev tomonidan 2005 yilda darslik yaratilgan. Ammo, hozirgi kunda bu darslik ma'lum darajada davr talablarini to'liq qamrab olmaydi. Shuni e'tiborga olgan holda biz tavsiya qilayotgan ushbu qo'llanma bu boradagi kemtikni to'ldirishga bir oz bo'lsada yordam berishi mumkin.

Jamiyat doimo ravon yo'ldan, qarshiliklarsiz rivojlanmasdan, balki yutuq va kamchiliklardan iboratligi, to'siqlarni bartaraf etish orqali bosqichma-bosqich taraqqiy etadigan murakkab jarayon ekanligini talabalar ongiga singdirishni ushbu fan navbatdagi vazifa deb biladi. Toki yosh mutafakkirlar o'tish davri o'zgarishlari, yangilanish va islohotlar davri

ekanligini, har bir islohot, u qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning tabiiy rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi muqarrarligini, shu sababdan, islohotlar jarayonida ko'zlangan natijalardan tashqari, kutilmagan, favqulodda holatlar ham vujudga kelishi tabiiyligini, ana shunday holatlarni bartaraf etish, jamiyat oldida yangi maqsad va vazifalar qo'yish barobarida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ularni jamiyat taraqqiyotining yangi darajasi bilan muvofiqlashtirish davr talabi ekanligini tushunib yetishlari kerak.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fani yangi o'quv dasturi doirasiga qaratilgan masalalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va manaviy hayotimizning ko'p qirralarini qamrab olgan bo'lib demokratik huquqiy davlat fuqarolik jamiyatini qurish haqida keng ma'lumotlarni beradi.

Talabalar ushbu fanni o'zlashtirish jarayonida O'zbekiston zaminida adolatli jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar, uning manbalari va rivojlanishi haqidagi, O'zbekiston demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari, o'tish davrining barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyat ekanligi, I.Karimov tomonidan O'zbekistonning "Evolyutsion tadrijiylik" asosida demokratik jamiyatga o'tishga doir nazariy kontseptual metodologiyasining mohiyatini, demokratik jamiyat qurishning milliy va umumbashariy tamoyillari, demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishning nazariy va amaliy asoslarini puxta o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Hech shubha yo'q, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanida ilgari surilgan nazariy xulosalar, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va manaviy hayotida ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlarni aks ettirish ma'lumotlar talaba va o'quvchilarning siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirishga, o'zining yangilanayotgan jamiyatimizdagi o'rni yaxshiroq anglab olishiga yordam beradi.

Mualliflar ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida Prezidentimiz asarlari, ma'ruzalaridan Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlariga bag'ishlangan majlislari hujjatlari, qarorlaridan har bir bobga tegishli ravishda foydalandilar. Shuningdek, mamlakatimiz jamiyatshunos olimlari tomonidan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-manaviy sohalarini aks ettirishga bag'ishlab yozgan kitoblari, monografiyalari, matbuot sahifalari va jumallarida chop etirilgan maqolalari manba sifatida xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanini o'qitishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan maxsus kurs tomonidan o'qilgan ma'ruzalar, ma'ruza matnlaridan ham foydalanildi.

Mualliflar o'z ilmiy-nazariy tayyorgarliklari va amaliy tajribalariga tayanib siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va manaviy sohalariga tegishli masalalar va muammolarni baholi qudrat hal etishga harakat qildilar. Shuning uchun ham qo'llanma kamchiliklardan xoli emas. Biz, o'z tanqidiy mulohazalarini bildirib kamchiliklarni bartaraf etishga o'z hissalarini qo'shgan kasbdoshlarimizga minnatdorchiilik bildiramiz.

1-BO'LIM. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA RIVOJLANISHI

I BOB

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Milliy davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng o'tgan qisqa vaqt ichida o'zbek milliy davlatchiligi shakllanib, qaror topish jarayoni samarali ravishda tez sodir bo'lmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tganidek "ochiq demokratik davlat va jamiyat qurish maqsadida yangicha boshqaruv va bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot tizimi shakllangan hamda o'zimizga mos va o'zimizga xos mustaqil rivojlanish strategiyasini amalga oshirayotganligimiz, jahon hamjamiyatida munosib obro'-e'tibor qozonganimiz, Vatanimizning buyuk kelajagi sari qo'yilgan muhim qadamdir".

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani biz qurayotgan yangi jamiyatni har tomonlama nazariy, amaliy jihatdan mohiyatini tushuntirib berishga xizmat qiladi. Demokratik insonparvar jamiyat qurish, uning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, amalga oshirilayotgan ishlarni chuqur tahlil qilish maqsadida "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani o'qitila boshlandi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro uyg'unlikda amal qilsada u o'zini mustaqil fan sifatida namoyon etayotganligini e'tirof etish kerak.

Mustaqil O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritib jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va manaviy hayotida bo'layotgan chuqur o'zgarishlarni ham nazariy ham amaliy yoritishda ushbu fan predmeti va obyektining to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki mustaqil O'zbekistonning yangi tarixini o'zida ifoda etgan ushbu fan uchun ham barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda bo'lgani kabi predmet va obyekt masalasi asosiy hisoblanadi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining o'ziga xos hususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, u fan sifatida o'zining asosiy e'tiborini mustaqillik yaratgan imkoniyatlar sharofati bilan mamlakatimizda inson manfaatlarini, tinchligi va farovonligiga xizmat qiluvchi erkin, ochiq ijtimoiy-siyosiy tizim barpo etishni ta'minlovchi huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlarini o'rganadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston milliy huquqiy davlat fuqarolik jamiyati qurilishida xalqaro tan olingan demokratik tamoyillarga, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga hamda ko'p ming yillik o'zbek davlatchiligi tarixi va o'ziga xos milliy manaviy, axloqiy qadriyatlariga tayangan holda, bir butunlikda o'rganadi.

Uchinchidan, ushbu fan ko'p qirrali va xilma-xil xususiyatga ega. U bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish, mamlakat xavfsizligi, barqarorligini ta'minlash, ya'ni mamlakat taraqqiyotining faqat bir tamonigagina emas, balki uning (jamiyatning) hamma tomonlarini uzviy bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani demokratik huquqiy davlat fuqarolik jamiyatini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va manaviy-madaniy jihatdan qurishni nazariy jihatdan asoslaydi hamda amaliyotini o'rganadi. Demak demokratik jamiyat to'g'risidagi qarashlarni, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari, o'tish davrining zarurligini, demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy, demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish asoslarini, milliy-manaviy negizlarga tayanishni, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini o'rganish ushbu fanning asosiy yo'nalishidir.

Demokratik jamiyatning mohiyatini yahlit ijtimoiy hodisa sifatida yoritish "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmetidir. Unda: 1. Demokratik jamiyatning makro va mikro darajalarida zaruriy tizim elementlarini, uning ichki va tashqi aloqa va munosabatlarini aniqlash; 2. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida va jarayonlarda amal qilayotgan qonuniyatlarni, asosiy tendensiyalarini hamda taraqqiyotning istiqbollarini aniqlash va boshorat qilish; 3. Demokratik davlatning fuqarolik jamiyatiga o'tishning obyektiv mezonlarini ishlab chiqishni amalga oshiradi.

"O'zbekiston demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining kategoriyalarini yaxshi o'zlashtirib olish, yosh mutaxassislarning kelajakdagi ish faoliyatlarida, umuman mustaqillikning mohiyatini va ahamiyatini chuqur bilib olishlarida katta rol o'ynaydi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani qator ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan, ya'ni O'zbekiston xalqlari tarixi, siyosatshunoslik, iqtisodiyot nazariyasi, bozor iqtisodiyoti, falsafa, sotsiologiya, davlat huquqi asoslari, manaviyat-ma'rifat kursi kabi fanlar bilan uzviy aloqada bo'lib, ularning xulosalariga asoslangan holda o'rganiladi va rivojlanadi.

Ushbu fan ijtimoiy fanlarning ilmiy xulosalarini qanday bo'lsa, shundayligiga foydalanmasdan, balki, jamiyat, davlat va fuqarolar hayotida bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va manaviy o'zgarishlar, hamda bu o'zgarishlarni amalga oshirish usullari, mexanizmlarini o'rganadi xulosa va takliflar beradi.

Har bir fanning o'z yo'nalishi va maqsadi bor. Bu yo'nalish mazmun va mohiyatiga ko'ra O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, manaviy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Eng muhimi, O'zbekistonda bo'layotgan tub o'zgarishlar jarayoni amalda qanday usullarda qo'llanilayotganligi haqida aniq ma'lumotlar beradi hamda talabalarni nazariy va amaliy jihatdan hayotga tayyorlaydi.

Demak, ushbu fan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turuvchi ilmiy bilimlar majmui bo'lish bilan birga, uning muayyan sohalariga oid asosiy g'oyalari tizimi hamdir. Bu tizimda ijtimoiy voqea, hodisalar, ular o'rtasidagi muhim aloqa va bog'lanishlar aniq voqelik bilan chambarchas holda tadqiq etiladi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmeti jahon sivilizatsiyasining tarixiy tajribalariga asoslangan va respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, odil, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning nazariy masalalarni tadqiq etadi hamda uni amaliyotchilar uchun dastur sifatida taklif etish bilan shug'ullanadi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining obyektini O'zbekiston jamiyati hayotini tashkil etish sohalarini (Ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va manaviy sohalarini) demakdir.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani ijtimoiy voqealikning o'ziga xos qonuniyatlarini kashf etish asosida jamiyatdagi jarayon va hodisalarni tahlil qilish, tushuntirish va ilmiy xulosalar chiqarish bilan shug'ullanadi. Shu bois, ushbu fan hozirgi ijtimoiy ehtiyoj sifatida vujudga keldi va shakllanmoqda. Shu bilan birga, u barcha fanlarning ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rini belgilaydi va hatto, dunyoqarashini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shishi muqarrar. U o'z mantiqiy tuzilishiga hamda ilmiy tahlil usullari va vositalariga ko'ra mustahkam nazariy manbaga asoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilgan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning asosiy qoidalari misol bo'la olishi mumkin.

O'tgan yillar davomida ushbu hujjat jahon ham jamiyati o'rtasida tan olindi va shu asosda demokratik davlatlar konstitutsiyalari ishlab chiqildi. Binobarin, mazkur deklaratsiya va konstitutsiyalar demokratik, odil davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim mezonlari va kursning nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi, desak mulohaza bo'lmasa kerak.

Demokratik jamiyat qurish sharoitida nazariya bir yoki bir nechta, tor doiradagi ijtimoiy-siyosiy guruhlar, shu jumladan, yagona millat manfaatlarinigina emas, balki butun insoniyatning yuksalishiga xizmat qiladigan g'oyalarga tayanishi kerak bo'ladi. Zero, hozirgi ilm-fan, texnika rivoji va taraqqiyotning ustivor yo'nalishlari insoniyatning yer yuzida qanday keskin ijtimoiy-siyosiy vaziyatda yashashi va faoliyat ko'rsatishi masalasini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Agar ushbu muammoni hal etish o'zaro maqbul va manfaatli yo'llar bilan amalga oshirilmasa, aksincha, sinfiy manfaatlar nuqtai-nazardan hal qilinsa, umumbashariy falokat muqarrardir. Bu falokatning oldini olish endilikda jamiyatda tutgan ijtimoiy o'rni va mavqeidan qat'iy nazar, barcha insonlarga bog'liq. Uni bartaraf etish sinfiy va guruhviy manfaatlarini ustun qo'yishni inkor etadi. Natijada, ijtimoiy totuvlik, murosasizlik birinchi va hal qiluvchi o'ringa chiqadi. Shunga ko'ra fanning nazariy va metodologik asoslariga yangicha, zamonaviy fikrlash talablari taqozosi bilan yondoshish zarur. Bu umuminsoniy qadriyatlarining biri bo'lgan milliylikni sinfiylikdan va shovinistiklikni baynalminalchilikdan ustun qo'yishdir. Zero, bu muammolarni hal etmay demokratik jamiyat qurish, uning mafkurasi va nazariyasi muammolarini yechish g'ayritabiiydir.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanning asosiy vazifasi va uning o'ziga xos tomoni shundaki, u jamiyatni yaxlit, bir butun ijtimoiy jarayon sifatida o'rganadi hamda hozirgi davrga mos ravishda tadqiq etadi.

O'zbekiston jamiyati hayotidagi voqea va jarayonlarni o'rganishda "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani turli tadqiqiy usullaridan foydalanadi.

Qiyosiy taqqoslash usuli jamiyat hayotida ro'y beradigan voqea va hodisalarni o'zaro taqqoslash ularni bir-biriga solishtirish asosida ilmiy xulosalar qilishni ko'zda tutadi.

Emperik-sotsiologik usul so'rov, anketalashtirish, tajriba o'tkazish, statistik tahlil qilish, matematik modellashtirishga asoslangan.

Dialektik usul jamiyat hayotida bo'ladigan o'zgarishlarni umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir etish natijasiga asoslangan holda tahlil etishga asoslanadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda jahon xalqlarining tarixiy tajribalari, xalqimizning boy va qadimiy me'rosi hamda sharqona turmush tarzining

o'ziga xos jihatlari, shuningdek, komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq ilmiy-falsafiy qarashlar va amaliy tajribalarni ham kursning nazariy asosi sifatida o'rganish mumkin.

Shubhasiz, yuqorida tilga olingan masalalarni o'rganish va mulohaza qilish talabalarida yuksak manaviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yoshlarni tarixiy an'analarga umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani inson manfaati, erkinligi va qadr-qimmatiga xizmat qiluvchi tinchlik, mehnat, ozodlik, birodarlik, adolat va baxt kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, demokratik jamiyat qurishning umumbashariy ilg'or g'oyalari amalga oshirishning qulay usul va yo'nalishlarini o'ziga aks ettiradi.

Demak, "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining maqsadi talabalarimiz va keng jamoatchilikni Prezidentimiz asarlarida ilgari surilgan ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishtirish hamda bu ta'limotlarni amaliy hayotga to'g'ri qo'llashga o'rganishdan, talabalarning intellektual kamolotga erishishlarida yordam berishdan iboratdir.

Fanning nazariy asoslari bu respublikamizda demokratik odil fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyatda bo'layotgan tub o'zgarishlarning maqsad va mohiyatini, amalga oshirish usullarini to'g'ri anglashga, respublikada bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-manaviy va ma'rifiy o'zgarishlar jarayonining amaliy usullari majmuasini to'g'ri tushunib, bilib olishga yordam berishdan iboratdir.

Kelajak sari intilish, taraqqiyot va yuksalishning ta'minlanishi uchun respublikamizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning nazariy asoslarini, amaliy uslublarini tushunib olish va o'zlashtirish g'oyat muhim. Bu ayniqsa ertaga, mamlakatning kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak bo'lgan bo'lg'usi mutaxassislar, umuman yoshlar uchun zarurdir.

Fanning asosiy vazifasiga kiradi:

O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li, uning shart-sharoitlari va asoslari, o'ziga xos xususiyatlarini aks etuvchi bilimlar bilan qurollantirish;

Talabalar ongini, ijtimoiy ruhiyati, tafakkurini Mustaqillik talablariga, bozor ehtiyojlariga javob beradigan tarzda tarbiyalash;

Milliy istiqlolning mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik haqidagi buyuk g'oyalarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni talabalar ongiga singdirish;

Prezident I. Karimov asarlaridagi nazariy qoidalar, dasturiy yo'riqlardan foydalanib talabalarning g'oyaviy-siyosiy bilim saviyasini, butun manaviy dunyosini chuqurlashtirish;

Milliy istiqlol g'oyalari turmushga tadbiiq etuvchi, amaliy ishga, faol voqeilikka aylantaruvchi yetuk mutaxassislarni tarbiyalashni ta'minlash;

Mustaqillik sharoitida tanlangan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot tizimida manaviy mafkuraviy salohiyot tushunchasining rolini, mazmun-mohiyatini ochib berish;

Milliy istiqlol mafkurasida yoshlarni, xalqimizni birlashtirish, yanada jiplashtirish.

1.2. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH FANINING QONUN VA KATEGORIYALARI

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub

islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi.

Ma'lumki har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, o'ziga xos xususiyatlarini, xalq turmush tarzini hisobga oluvchi o'z yo'lga qat'iy va izchil amal qilish kerak.

Buning uchun, biz qanday davlat, qanday jamiyat, qanday tuzum barpo etayotganligimizni, uning siyosiy, ijtimoiy va manaviy asoslari nimalardan iborat degan savolga javob berishimiz kerak. Ma'lumki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi - huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. U milliy istiqlol g'oyasining ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat bo'lgan bosh g'oyasida o'z ifodasini topgan.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani orqali mamlakatimizning siyosiy va davlat qurilishining o'ziga xos xususiyatlarini bilib olish mumkin bo'ladi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani demokratik davlat fuqarolik jamiyatini qurishning mexanizmi, vositalari hamda amaliyotini o'rganishda muayyan qonunlarga tayanadi hamda amal qiladi. Fanning qonuniyatlariga O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, bunyod etilishi va amal qilishi bilan bog'liq qonuniyatlar kiradi. Bu o'rinda u umumiy qonuniyatlarga tayanadi va xususiy alohidalikni hisobga oladi.

Masalan, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos bo'lishi qonuni: Demokratik jamiyat qurishda milliy xususiyatlarni hisobga olish qonuni;

Demokratik jamiyat qurishning milliy-manaviy qadriyatlar bilan bog'likligi; O'ziga xos xususiyatlarni O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan aloqadorligi qonuni;

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumbashariy qonuniyatlarini.

Fan amal qiladigan qonunlar ko'lami turli xil bo'lib mamlakat ichki hayoti, umumbashariy demokratik taraqqiyot bilan xalqaro tizimlar bilan bevosita daxildordir. Jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish, umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishni nazarda tutadi.

Bu qonunlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va manaviy hayotida amal qiladigan qonunlar bo'lib, u o'z ichiga: a)-jamiyatni siyosiy, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish; b) jamiyatni demokratiyalash asosida fuqarolik jamiyatini qurish; v) siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayot munosabatlari; g) shaxs, jamiyat va davlat tizimida inson manfaatlarining ustuvorligi.

Ikkinchisi, xalqaro munosabatlarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy aloqalar bilan bog'liq bo'lib ular; a) xalqaro xavfsizlik va o'zaro ishonchni rivojlantirish; b) xalqaro va davlatlararo ihtiloflarni bartaraf etishning siyosiy vositalari; v) umumbashariy muammolarni bartaraf etishning siyosiy, iqtisodiy, madaniy yo'llari, turli mamlakatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani o'rganadigan qonuniyatlarning asosiy guruhlari. 1) demokratik davlat fuqarolik jamiyati

haqidagi konsepsiyalar va nazariyalarning paydo bo'lishi, amal qilishi va rivojlanish qonuniyatlarini; 2) davlat hokimiyatining mazmuni va xarakterining o'zgarishi, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish qonuniyatlari; 3) mamlakat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratiyalashtirish qonuniyatlari; 4) milliy-manaviy negizga tayanish qonuniyatlaridan iborat.

Biz o'rganayotgan fan o'z ichiga jamiyat hayotining barcha sohalariga tegishli keng qamrovli tushunchalarni olgan bo'lib, ular O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, bunyod bo'lishi va amal qilishini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga yordam beradi.

Ushbu fanning kategoriyalarini quyidagi tushunchalar tashkil etadi: O'zbekistonning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li, demokratiya, dunyoviy davlat, demokratik huquqiy davlat, demokratik jamiyat, demokratik ong, demokratik jamiyatning milliy-manaviy negizlari, milliy davlatchilik, demokratik jamiyatga o'tish davri, o'zbek modeli, demokratik jamiyatning umumbashariy qadriyatlari va tamoyillari, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining ustuvor yo'nalishlari, jamiyat hayotini erkinlashtirish va demokratiyalash. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi va h.k.

Quyidagi tushunchalar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy mohiyatini o'zida aks ettiradi. O'zbekiston taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan mamlakatlarning murakkab tajribasini va shu bilan birga, respublikaning o'ziga xos xususiyatlari, yashash sharoitlari, an'analari, urf-odatlari, xalqning turmush tarzini hisobga oluvchi o'z yo'li sari dadil borish O'zbekiston Respublikasi davlat qurilishining bosh yo'lidir.

O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarning ustuvorligi, xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolarning erkinligi, inson huquqlarining ajralmasligi prinsiplarini e'tirof etishga asoslangan davlatdir.

O'zbekiston dunyoviy davlat, din davlatdan, maktab esa dindan ajratilgan. Din faqat o'z diniy aqidalari, marosim tafablari va an'analarni ado etishdan iborat diniy funksiyalarni ado etishdan iborat diniy funksiyalarni din to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonunlari talablarini hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Demokratik jamiyat xalqning jamiyat siyosiy hayotida ishtirok etishini ta'minlash demakdir. Demokratik jamiyat qonunlar ustivorligini amalda ta'minlash bilan belgilanadi.

Jamiyatda demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va uning mustahkamlanib borish insonda demokratik siyosiy ong shakllanishining hal qiluvchi shartidir. Bunday siyosiy tizim inson siyosiy ongi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag'batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo'lsa, inson siyosiy hayotda shunchalik faol ishtirok etadi.

Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga naf yetkazadigan insonlar demokratik tafakkurga ega bo'lgan insonlardir.

Demokratik jamiyatning milliy-manaviy negizlari quyidagilarga asoslanadi.

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning manaviy me'rosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Bu negizlar xalq dunyoqarashi, yashash tarzi, voqea-hodisalarga munosabati,

manaviy-ruhiy ehtiyojlardan kelib chiqqanligi uchun ham alohida ahamiyatga ega bo'lishda. Qadimdan Sharqda manaviyatga tayanib yashash, hamjihatlikka intilish, har tomonlama barkamollik oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Odamlar millatidan, irgi, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, yagona o'lchov - insonni insonligi uchun ulug'lash bosh mezon qilib olingan.

Ma'naviy olamimizda o'zgarishlar barcha yangilanishlarning asosidir. Zero, Vatan, milliy tushunchalari tobara chuqurlashmoqda. Biz endi yashab turgan zaminimiz, fuqaroligimiz jihatdan daxldor bo'lgan mamlakatimiz, milliy ravnaqimiz va istiqbolimiz xususida jiddiy rol o'ynaydigan bo'ldik. Har qanday milliy manfaatdorlik, har qanday iqtisodiy taraqqiyot bevosita manaviy yetuklik, manaviy barkamollik tuyg'ulari bilan bog'liq holdagina rivoj topishi mumkinligini yaqqol ko'ryapmiz.

Demokratik jamiyatga o'tish davri hamma mamlakatlar uchun umumiy qonuniyat hisoblanib bu davr eskining o'rmiiga yangining shakllanishi va qaror topishi bilan bog'liq. Bu eski taraqqiyot davriga xos bo'lgan munosabatlarni tugatib davlat siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va manaviy hayoti taraqqiyoti ehtiyojlariga javob beradigan yangi mexanizmlarni shakllantirish jarayonlarini taqazo etadi.

Taraqqiyotning "O'zbek modeli" rivojlanish dasturi O'zbekistonning milliy manfaatlari, taraqqiy topgan mamlakatlarning tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarining asosini adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik, shafqatlilik va zo'rvonlikka qarshi kurash, inson huquqlari kabi umuminsoniy qadriyatlar tashkil etadi.

Demokratik tamoyillar xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning asosiy tamoyillaridir. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolarning erkinligi va tengligi, inson huquqlurining ajralmasligi prinsiplariga asoslanadi.

Demokratik jamiyat o'z navbatida fuqarolik jamiyatga o'tishning muhim sharti hisoblanadi.

Demokratik jamiyat uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar o'tish davrida yaratiladi. Barcha sohalarida demokratik tamoyillar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Prezident I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida "Taraqqiyotning har bir bosqichi - bu yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo'lidagi yangi vazifalar demakdir" deb ko'rsatib o'tadi. Ma'ruzada mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning yetti ustivor yo'nalishdagi vazifalar o'zining to'liq nazariy ifodasini topgan.

Biz uchun eng asosiy, eng muhim ustivor maqsad tengsiz oliy ne'mat mustaqillikni bundan buyon ham asrab - avaylash, himoya qilish va mustahkamlash.

Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tengligi va osoyishtaligini ta'minlash;

Bozor islohatlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish;

Inson huquqlari va erkinliklarini, soʻz va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda oʻtkazilayotgan islohatlarning ochiqqligini taʼminlaydigan demokratik tamoyillarni soʻzda yoki qogʻozda emas, amaliy hayotda joriy qilish;

jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarning oʻrni va ahamiyatini keskin kuchaytirish, "kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish;

Sud-huquq sohasini isloh qilish boʻyicha boshlangan ishlarni izchil davom ettirish bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va taʼsirchan faoliyatini soʻzda emas, amalda taʼminlash;

Barcha islohatlarning bosh yoʻnalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va meʼzoni demografik va boshqa milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish.¹

Prezidentimiz taʼkidlaganidek fuqarolik jamiyatni shakllantirish taraqqiyotning oʻzbek modeliga xos asosiy yoʻnalishlar qatoriga kiradi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda belgilab berilgan ustivor yoʻnalishlar oʻzbek modeli jamiyat taraqqiyoti jarayonida rivojlanib boradigan va hayot talablariga javob beradigan tamoyillar majmui ekanligining yorqin dalilidir.

Oʻzbek xalqaro demokratik tamoyillariga, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga hamda koʻp ming yillik oʻzbek davlatchiligi tarixi va oʻziga xos milliy, manaviy, axloqiy qadriyatlarga tayangan holda milliy-huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Demokratik tamoyillar ichida umumjahon eʼtirof etgan tamoyillar asosiy oʻrinni egallaydi. Bular, birinchidan, hokimiyat va boshqaruv organlari chiqargan qarorlardan xalqning xabardorligi; ikkinchidan ushbu qarorlar boshqarilishi ustidan xalqning nazorati; uchinchidan, qonun va qarorlarni qabul qilishni xalqning ishtiroki tamoyillaridir.

Undan tashqari, insonning oʻz xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning koʻpchilikka boʻysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisobot berishi, tayinlash yoʻli bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi oldidagi javobgarliklari, barcha fuqarolarning teng huquqligiga va boshqa holatlar shular jumlasiga kiradi.

"Oʻzbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani Oʻzbekistondagi demokratik rivojlanishning ana shu qonuniyatlarini atroficha tahlil etib, uning amaliy jihatlarni yoritadi, fikrlar xilma-xilligi yaʼni "mulk shakllari xilma-xilligi", "dunyoqarash xilma-xilligi", "siyosiy xilma-xillik" demokratik jamiyatning asosiy xususiyati ekanligini, rivojlanishning eng muqobil yoʻlini tanlashdagi rolini ochib berishdan iborat.

"Oʻzbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining bugungi kundagi ahamiyati va rolining oʻsib borishi quyidagi bilan izohlanadi.

Ushbu fanni oʻrganish va oʻrganish hozirda jadal kechiyotgan islohotchilik va yangilanish harakati davrida ijtimoiy zaruriyatgina emas, balki hayotiy ihtiyojiga aylangan. Bu ijtiyoj milliy, manaviy-maʼskuraviy uygʻonish, madaniy va iqtisodiy yuksalishlarga boʻlgan ehtiyojning bosh mezoni hisoblanadi.

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг иккинчи қақриққ Олий Мақлисининг тўққизинчи сессиясидаги "Ўзбекистонда демократик ўзгартишларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамият асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари" номли маърузаси -Т.: 2002.

Ikkinchidan, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog'liq jarayonlarining mazmun mohiyatini chuqur ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishidir. Bu ushbu jarayonni atroflicha siyosiy tahlil etib borishni taqozo etadi.

Uchinchidan, hozirgi davrda har bir fuqaroning siyosat bilan shug'ullanishiga bo'lgan ehtiyoj siyosatni anglash, unda ongli faoliyat ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojning ortishi jadal ravishda yuz berayotgan demokratik jarayonlar bilan belgilanadi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin olishi, xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishi, terrorizimning o'ta xavfli xalqaro siyosiy hodisaga aynaliyotgani ushbu hodisani atroflicha o'rganishni taqozo etadi.

Beshinchidan, fuqarolarning siyosiy madaniyati va faolligini oshirish, jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida bo'layotgan voqea va jarayonlarning mohiyatini chuqur anglab yetish, demokratik jamiyatga xos bo'lmagan holatlarning oldini olish uchun uning asosiy kafolatlaridan biri mamlakatimizda fuqarolarning huquqiy manaviy va siyosiy faoliyatini rivojlantirish ehtiyojining ortishi.

Shunday qilib "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani O'zbekistonda fan va amaliyot, siyosat va hayot haqidagi nazariy qoidalariga bo'lgan ehtiyoj, hozirgi zamonda insoniyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan voqeilikdir.

Qisqacha xulosalar

Mustaqilligimizning dastlabki o'n yilligini o'z ichiga olgan tarixan qisqa davrda mamlakatimiz hayotida ham, odamlar turmushida ham keskin burilish yasaldi. Turmush tarzimiz o'zgardi. Tafakkurimiz kengaydi.

Mustaqillik yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tezkorligi, voqea va hodisalarning shiddatliliigi, inson taqdiriga daxldor bo'lgan dunyoviy muammolar serqirra hayotning barcha javhalarni qamrab olgan umumiy qarashlarimizdan tortib, eng kichik yumushlarimizgacha bo'lgan barcha hodisalarni o'zida mujassam etadi.

Tabiiyki, bunday hayotiy zaruriyat barcha ijtimoiy gumanitar fanlar qatori "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi. Tadqiqotchilar birinchi navbatda xalqning istiqolga erishish yo'lidagi fidoiy mehnatini, milliy mustaqillikka erishish yo'llari va vositalarini, milliy davlatchilik qurilishiga doir tajribani, istiqololni mustahkamlashning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillarini o'rganish va milliy istiqolol mafkurasini yaratish kabi bir qator muhim muammolarni har tomonlama mulohaza qilmoqlari lozim. Darhaqiqat, o'rganishga, tatqiq etishga, dastlabki ilmiy-nazariy xulosalarni o'rtaga tashlashga endilikda yetarli darajada asoslari bor.

Hayotimizda sodir bo'layotgan chuqur o'zgarishlarni har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan asoslash orqali ularni yosh avlodga yetkazish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani aynan shu asosga qurilgan bo'lib, unda O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi,

ya'ni jamiyatga o'tish davrida siyosiy islohatlarning amalga oshirilishi, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash omillari, manaviy-ruhiy poklanish va milliy qadriyatlarining tiklanishi hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishi kabi masalalar qamrab olganki, bular mustaqil O'zbekiston fuqarolari siyosiy tafakkurining vujudga kelishiga, ulardagi vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmeti qanday? Uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Barcha siyosiy fanlarning qonuniyatlari, kategoriyalari, uslublari, obyekti bo'ladi va ular o'z predmetlaridan kelib chiqib jamiyat taraqqiyotining u yoki bu sohasining ochib berishga qaratilgan. Aytingchi, siz o'rganayotgan fanning qonuniyatlari, uslublari va obyektiga nimalar kiradi?

3. Ushbu fanning boshqa siyosiy-huquqiy fanlar bilan o'zaro bog'liq tomonlari qanday? Farq qiluvchi tomonlari bo'lsa tushuntirib bering?

4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning asosiy tushunchalari qaysilar. Ular haqida qisqacha izoh bering?

5. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning umumjahon e'tirof etgan qonuniyatlari va uning o'ziga xos tomonlari mavjud. Siz umumiy qonuniyatlar va o'ziga xoslikni qanday izohlaysiz?

6. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishning ahamiyati nimada?

7. "Fuqaro - jamiyat davlati" o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bayon eting.

8. Demokratik jamiyat va siyosiy institutlar.

9. "Fuqaro - jamiyat davlati" o'rtasidagi munosabat.

10. Fuqarolarning erkinligi huquqlarini tan olinishi va himoya qilinishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.

2. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат мустақиллиги тўғрисида"ги Қонун. 1991 йил 31 август -Т.: "Ўзбекистон", 1991.

3. Каримов И.А. "Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли". -Т.: "Ўзбекистон", 1992.

4. Каримов И.А. Ҳозирги даврда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг долзарб вазифалари. Т.5. -Т.: "Ўзбекистон", 1996.

5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.

6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.

7. Каримов И.А. Ўзбекистон демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асрий

йўналишлари. -Т.: "Ўзбекистон", 2002.

8. Каримов И.А. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. -Т.: "Ўзбекистон", 2005.

9. Каримов И.А. Қонун ва адолат устиворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Сурхондарё вилоят Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқи. // "Халқ сўзи", 2004 йил 2 июн.

10. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишидир. Т.: "Ўзбекистон", 2005.

11. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. -Т.: "Академия", 2005.

12. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик курашлар, изтироблар ва қувончлар. -Т.: 2001.

13. Отамуродов С. Қувватов Н. Кучли давлатдан кучли жамиятга. -Т.: 2003.

14. Истиқлол, демократия ва фуқаролик жамияти. "Шарқ". -Т.: 2003.

15. Эргашев И. Демократия-миллий ва умумбашарий қадрият. Жамият ва бошқарув. №2, 2004.

16. Ўзбекистон 13 йил мустақил тараққиёт йўлида. -Т.: "Ўқитувчи", 2004.

17. Қодиров К. Сиёсат фалсафаси. -Т.: Тошкент давлат юридик институту. 2005.

18. Жўраев С. Фуқаролик жамияти: Назария ва амалиёт (Илмий таҳлилий мақолалар тўплами) -Т.: 2003.

19. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номи маърузаси. // "Халқ сўзи", 2005 йил 7 декабр.

20. www.edu.uz

21. www.zuyo.edu.uz

22. www.ec.edu.uz

23. www.performance.edu.uz

24. www.gov.uz

25. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru

26. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru

27. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm

28. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

II BOB MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING "O'ZBEK MODEL"

2.1. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "O'ZBEK MODEL"

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Sobiq markazdagi ba'zi karomadgo'ylar O'zbekistonga nisbatan "O'zlaringni mustaqil boshqarishga, mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar", "Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, sizlar esa bajarasizlar, xolos" deb shovinistlarcha g'arazgo'ylik qilsa, mamlakat ichkarisidagi ayrim toifalar o'rtasida "Endi O'zbekiston qanday yo'ldan boradi?". "Markazsiz yashay oladimi..?" qalbidagi savollar vujudga kelgan edi.

Tabiiyki, ana shunday ziddiyatli va murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat qurish uchun o'z andozasini ishlab chiqish g'oyat murakkab va ahamiyatli edi. O'z vaqtida bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqazo etar edi. Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribalarini o'rganish, O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'analariga tayanish lozim edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi.

I. Karimov "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li"¹ asarida ko'rsatib o'tilganidek, — O'zbekiston "Bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'lini tanlab olishida aholining tafakkur va milliy-tarixiy turmush tarzini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama" hisobga oldi.

Prezident I. Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" nomli asarida O'zbekiston istiqloqlining nazariy asoslari chuqur tahlil etildi. Unda O'zbekiston istiqloqlining ham nazariy, ham amaliy muammolari ilmiy jihatdan o'rganilib jamiyat siyosiy rivojining, iqtisodiy taraqqiyotining, manaviy poklanishning asosiy yo'l - yo'riqlari yangicha mushohada va yondoshuv bilan ko'rsatib berildi.

Ma'lumki, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida jamiyatning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi hal qiluvchi bir necha ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'liq.

Bular:

Davlatning islohotlarni o'tkazishdagi bunyodkorlik roli;

Jamiyatning moddiy, manaviy va ijtimoiy imkoniyatlarini safarbar etish;

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -T.: "Uzbekiston", 1994.

O'rtaxol sinfni shakllantirish;

Xalqaro hamkorlikni yanada takomillashtirish masalalaridir.

I.Karimov taraqqiyotning O'zbekiston uchun maqbul yo'lini ishlab chiqar ekan, avvalo, mamlakatda yaratilajak jamiyat qanday mazmun kasb etishiga e'tibor beradi va uning fikricha, O'zbekistonda bunyod etiladigan jamiyat barcha "izm"lardan va u qanday joylanishidan qat'iy nazar adolatli, xalqchil, insonparvar jamiyat bo'lmog'i lozim.

Prezident I.Karimov "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" risolasida "O'zbekiston o'zi uchun tanlab olgan yo'l ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan respublikaning manfaatlariga, shart-sharoitlari va xususiyatlarigaeng ko'p darajada mos keladigan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir".

Bu jarayonning ma'no-mohiyati shundan iboratki, umuman olganda, tizimning bir (mavjud) holatdan boshqa (maqsadli holatga o'tish ikki yo'l bilan amalga oshirishi mumkin xos (entropiya yuqori darajada yoki) tartib (entropiya past darajada) orqali. Ya'ni, Islom Karimovning modeli jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion (tadrijiy) ravishda isloh etishni taqozo etadi. Mazkur model jamiyatning iqtisodiy tizmlari islohoti bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha, manaviyat, umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

Avni ana shunday yo'l O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinliklarini kafolotlashi, milliy an'analarni va madaniyatning qayta tiklanishi, insonni shaxs sifatida manaviy axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin, - deb qat'iy ko'rsatib berilgan edi.

I.Karimov mamlakatning dastlabki yillaridagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy qoidani o'rtaga tashladi:

Biminchidan, iqtisodning hamisha siyosatdan yuqori turishi, u hech qachon siyosatning dumida osilib turmasligi, ikkinchidan, davlat - qonuniy yo'l bilan saylangan hokimiyat bosh islohotchi sifatida maydonda turishi, boshqaruv jilovini qo'lidan chiqarmay, xalq xo'jaligining barcha sohalarida qat'iy talabchanlik va boshqaruvchilikni amalga oshirishi darkor. Uchinchidan, aholisi ayni paytda 26 mln.dan oshib ketgan, har yili o'rta 550 ming kishiga ko'payayotgan mamlakatda davlat o'z fuqarolarini muhofaza qilishga qodir bo'lishi; to'rtinchidan, qonun hamma narsadan ustun bo'lishi, qonun ustivorligiga erishish va barchaning qonun oldida tengligini ta'minlash; beshinchidan, hech qanday ijtimoiy larzalarsiz, qahatchiliksiz va qashoqliksiz, odamlarga ziyon etmaydigan tarzda ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga bosqichma-bosqich o'tish.

Ana shu muhim qoidalar O'zbekistonning mustaqil rivojlanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olindi. Yangi jamiyatga o'tish davrining negizini tashkil etdi. O'tgan davr mobaynida bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikani ijtimoiy - siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchi harakat qilishni ta'minladi.

O'zbekiston hukumati tomonidan ishlab chiqilgan nazariy ham amaliy yo'nalishlar, ilmiy qoidalar va yo'l - yo'riqlar O'zbekiston mustaqil rivojlanishning o'n uch yili davomida hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi, boshqa mustaqil rivojlanish yo'lga kirgan davlat siyosatdonlari e'tiborini tortdi.

Nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bu dastur yashab turgan fuqarolarning taqdirigagina emas, balki kelajak avlodning taqdirini ham o'ylab tuzilgan bo'lib, o'z davrda hukumron bo'lgan yakka hokimlik tizimining ishlatmalarini tezroq bartaraf etish, mamlakatimizni rivojlangan madaniyatli mamlakatlar darajasiga chiqib olishini ta'minlashni ko'zda tutgan edi.

Bu yo'l haqiqatdan ham, Prezident nomi bilan jahonga tanilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli" edi va u mavjud bo'lgan modellarning birortasini takrorlamagan holda o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot yo'nalishi bo'ldi. Hattoki, ushbu rivojlanish yo'lini tanlagan dastlabki yillardayoq ya'ni Prezident I.Karimov 1993 yili Shvetsariyada "Forum Fond" xalqaro iqtisodiy tashkiloti 1 sessiyasidagi katta nutqida va o'zining mamlakatni tubdan isloh qilishga doir ana shu besh tamoyilini dunyo minbaridan turib e'lon qildi. Uning chiqishi yangi davlat rahbarining naqadar keng imkoniyatlarini, zamonaviy va ilg'or qarashlarini yorqin ko'rsatdi. Bu konsepsiya jahon davlatchiligi nazariyasi va amaliyotini yangi tarixiy sharoitda rivojlantirishga muhim xissa bo'lib qo'shilganligi mutaxassislar tomonidan alohida ta'kidlandi. Kiritib 130 yillik mustamlakachilikda yashagan yosh mustaqil davlat ham siyosiy, ham iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos mustaqil yo'li, aniq, puxta - pishiq, ilmiy asoslangan prinsiplari borligini namoyon etdi. I.Karimov tomonidan ishlab chiqqan bu besh tamoyil mazkur sissiyada yuqori baholandi.

2.2. "O'ZBEK MODELI"NING JAMIYAT IJTIMOYIY, SIYOSIY, IQTISODIY VA MANAVIY HAYOT SOHALARIDA NAMOYON BO'LISHI

Bozor munosabatlariga o'tishning "O'zbek modeli"ning nazariy jihatini atroflicha va chuqur o'rganish mamlakatimizning salohiyat va imkoniyatlari, ishlab chiqarish kuchlari rivoji, infratuzilmasi, yurtimizning tabiiy va intellektual resurslari, demografik vaziyati, aholining ongi, bilimi, kasbi, turmush shart-sharoitlari kabi omillarni hisobga olgan holda rivojlanish konsepsiyasini Islom Karimov iborasi bilan aytganda o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'limiz yanada samoraliroq ro'yobga chiqishiga xizmat qilmoqda.

"O'zbek modeli"ning iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish bilan bir davrda davlat qurilishi, jamiyatni demokratiyalashtirish, mulkdorlar sinfini va xususan, o'rta sinfni shakllantirish ijtimoiy tuzilmani takomillantirish, kadrlar tayyorlash, madaniy me'ros va manaviyat bilan bog'liq bir qator sohalarni qamrab olgani uning o'ziga xos ustivor xususiyatlardan biridir.

Jamiyatimiz yangi ichki va tashqi vaziyatga kirib borishi bilan taraqqiyotning o'zbek modeli o'z chegara shartlarini uzviylik asosida transformatsiya qildi. Jumladan, respublikamizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri - bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat. Mazkur yo'nalish o'zbek modelining birinchi tamoyili, ya'ni iqtisodiyotni siyosat va mafkuradan xoli etish siyosatining mantiqiy davomidir.

O'zbek modelida hech qachon iqtisodiy munosabatlarni mutlaqlashtirish nazarda

tutilmagan. Bu tamoyillar iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular turli maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan iqtisodiyot emas, balki iqtisodiyot masalalarini hal qilishga, inson uchun munosib turmush sifatlarini ta'minlashga, yo'naltirilgan siyosatga asoslanadi. O'tgan davr ushbu xulosalarning to'g'ri ekanligini to'liq isbotladi.

Davlat o'zining islohotchilik funksiyasini ishonchli ravishda bajardi. O'tgan yillar davomida davlatimiz yangi jamiyatga o'tish jarayonini tartib orqali amalga oshirilishini ta'minladi, yetakchi islohotchilik vazifasini hayot talablariga muvofiq bajara oldi deyishga to'liq asosimiz bor. Buning sabablaridan biri, boshqaruv tizimida hududiy hokimiyat vakolatlarini kengaytirish, mahalliy hokimiyatga qator masalalarni "yuqori"ning ko'rsatmalarini kutib o'tirmasdan, mustaqil hal qilish uchun inkoniyatlar yaratib berilganligidadir. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning 9-sessiyasidagi Prezidentimiz ma'ruzasida qayd qilinganidek "Hozirning o'zidayoq mamlakat byudjeti daromad qismining 56 foizi va xarajat qismining 52 foizini hududiy byudjetlar tashkil etmoqda. Shu tariqa davlat byudjetining daromadlar va xarajatlari bilan bog'liq kattagina qismi hududlar tomonidan nazorat qilinmoqda".

Prezidentimiz davlat faoliyati iqtisodiy rivojlantirish borasidagi chuqur ustuvor yo'nalishlarni, qabul qilingan qonunlar va huquqiy normalarni so'zsiz bajarilishi, tashabbus va tadbirkorlikni rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida raqobat muhitini qaror toptirish borasida sezilarli natijalarga erishadi.

Davlat va jamiyatning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarining bajarilishi taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri bo'lishi qonun ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligiga olib kelmoqda. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun sud hokimiyatini mustahkamlanishi, sudlarning mustaqilligini ta'minlash, ularning faqat qonunlarga bo'ysunishi o'z natijasini ko'rsatmoqda. Natijada odamlarda Sobiq ittifoq davrida shakllangan, hokimiyatning bu tarmog'iga jazolovchi idora sifatida qarash unga insonning haq-huquqlarini, adolatni himoya qiluvchi tuzilma sifatida yondoshish ko'nikmasi shakllanib bormoqda.

O'zbek modelining to'rtinchi tamoyili sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish sohasida qator tadbirlar amalga oshirildi, uning ijobiy natijasini ko'rmaslik mumkin emas. Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan bir qator davlat dasturlari qabul qilinib, amalga oshirildi. Bularning barchasida xalqimizni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash asosiy ustuvor vazifalardan biri qilib belgilandi. Masalan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uchun davlat byudjetining 38 foizi ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish jarayonini amalga oshirish yo'lida sarflanmoqda. Bu mablag'larning asosiy qismi mutlaq yangi bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim turi, ya'ni akademik litseylar va kasb-hunar litseylarining moddiy bazasini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan.

Hozir o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga ega bo'lgan yoshlar egallagan bilimlar tufayli hayotga mustaqil shaxs sifatida kirib kelib, o'z o'rnini topmoqda. Natijada, kelgusi 5-7 yil ichida ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamning keskin kamayishi ta'minlanadi.

¹ Каримов И. А. Узбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Т. 11. -Т.: 2002 йил.

Bu esa kuchli ijtimoiy siyosatning eng muhim maqsadi va natijasidir. Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish masalasiga barcha islohotlarning bosh yo'nalish va pirovard natijasini ta'minlovchi omil, deb qaralmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek modeli jamiyat taraqqiyoti jarayonida rivojlanib boradigan va hayot talablariga javob beradigan tamoyillar majmui ekanligining yorqin dalilidir.

2.3. DUNYOVIY DAVLAT VA MILLIY DAVLATCHILIK TUSHUNCHALARI

O'zbekiston o'z suverenitetini qo'lga kiritgandan keyin, erkin fuqarolik dunyoviy jamiyat qurish yo'lini tanladi.

Dunyoviy taraqqiyot bu qanday yo'l? Dunyoviylik degan tushuncha nimani anglatadi?

Dunyoviy davlatni mohiyatini yechib beruvchi bir qancha moddalar, Konstitutsiyada o'z ifodasini topgan. Jumladan "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan.... Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi" (61-modda). "Diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'kidlandi" (57-modda). "Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas" (12-modda).

Dunyoviylik tushunchasini mohiyatini ochib beradigan ta'rif bo'lmasada, dunyoviy demokratik davlatlar tajribasidan kelib chiqib shunday izohlash mumkin: "dunyoviylik" tushunchasi u diniylikni ham daxriylikni ham inkor etmaydi, ularning har ikkalasini obyektiv ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etadigan jamiyatga nisbatan ishlatiladigan tushunchalar degan xulosaga kelish mumkin.

Dunyoviy davlat qurish pirovard umummilliy maqsad darajasiga ko'tarilgan mamlakatlarda din har qanday boshqa obyektiv hayotiy hodisa kabi, muhim ijtimoiy-madaniy omil sifatida e'tirof etiladi. Dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarda dinga munosabat demokratiya, erkin fikrlar xilma-xilligiga asoslangan bo'lib, ularda din hayotda ijtimoiy-madaniy va manaviy-ruhiy muhit rang-barangligini ta'minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlarga bir vaqtda amal qilish huquqini berishga asoslangan holda qurilgan. O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik dunyoviy davlat ham shu negizga qurilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolar millatidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar vijdon erkinligi kafolatlangan.

O'zbekistonda islom dinidan tashqari boshqa dinlar: jumladan: pravoslavlar, yahudiylar, baptistlar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, bahontlar, krishnaitlar, buddiatlar singari bir necha din va mashablar mavjud. Ana shunday xilma-xillikdan va haqiqiy demokratik tamoyillardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega" degan qoida kiritilgan. (31-modda)

Dunyoviy davlat quyidagi tamoyillarga tayanadi:

Inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariiga asoslanadi;

Demokratiya va ijtimoiy adolatni e'tirof etadi;

Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan oladi;

Fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta'minlash maqsadi;

Insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlaydi;

O'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanadi;

O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining huquqiy asoslari uning Konstitutsiyada belgilab qo'yiladi va unga tayanib ish olib borishni anglatadi.

Yuqorida aytilgan holatlardan, Konstitutsion maqomlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkin. Birinchidan, jamiyatda insonparvarlik ruhini shakllantirishda, yuksak madaniyat va manaviyat quroli, beqiyos axloqiy tarbiyasi, insonlarni kamtarlik, kamsuqumlikka, halollik, poklikka undashi kabi qadriyatlarni barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida tan olganligi bo'lsa; ikkinchidan, dindan g'arazlik yo'lida foydalanish, diniy omillardan foydalanib siyosatga, davlat ishlariga aralashishni, hokimiyatga intilish, kabi holatlarni qat'iyyan man etishidir.

2.4. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHI JARAYONIDA INSON ERKINLIGI, HUQUQLARI VA MANFAATLARINING USTIVORLIGI

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida Prezidentimiz I.A. Karimov jamiyatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy - iqtisodiy siyosiy islohotlarning markazida inson huquqlari va uning erkinliklari turishini alohida ustivor yo'nalish sifatida ta'kidladilar. Chunki, inson huquqlari masalasi demokratik huquqiy davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatni vujudga keltirishining muhim belgilaridan biri bo'lib, ushbu belgi har bir davlatning qay darajada taraqqiy ekanligini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Zero, "inson huquqini qonunda va amalda ta'minlay olmagan, buning uchun yetarli kafolatlar yaratib berolmagan jamiyat demokratik jamiyat emas"¹

O'zbekiston davlati o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kundan e'tiboran inson huquqlari uning erkinliklari masalasiga asosiy e'tibor berib kelmoqda. Buni biz mustaqillikning qisqa bir davri mobaynida inson huquqlari va erkinliklarini belgilovchi qonunlarning qabul qilinganligida, inson huquqlari masalalari bilan shug'illanuvchi milliy institutlar, ya'ni Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudeman), inson huquqlari milliy markazi tashkil topganligida qurishimiz mumkin. Bu institutlarning asosiy vazifasi mamlakatimiz fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilishga ko'maklashishdir.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarining huquqiy asoslarini yaratish hamda mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Chunonchi, asosiy qonunimiz hisoblanmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishda etmish yillik mustabid tuzum davrida xalqdan yashirib kelingan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasidagi barcha qoidalar to'liq inobatga olindi hamda ular mustaqil davlatimizning birinchi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limi bevosita inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan 29 ta moddadan iborat bo'lib, uarda shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar o'z ifodasini topgan.

¹ Каримов И.А. *Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари*. Т. 11. -Т.: 2002.

Inson huquqlari va erkinliklari Konstitutsiya asosida qabul qilingan bir qator joriy qonunlarda ham aks etgan. Bularga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Referendum to'g'risida"gi, "Fuqarolik to'g'risida"gi, "Saylov to'g'risida"gi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonning BMT va EXHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi ham mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va teng huquqli hamkorlikni rag'batlantirish, mahaliy va mintaqaviy nizo-janajallarga yo'l qo'ymaslik, harbiy harakatlarning oldini olish, inson huquqlarini himoya qilish, insonning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik kabi insonparvarlik tamoyillarini amalda tadbiq etishga katta yordam bermoqda.

O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qiladigan ko'pgina xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi, ular bilan yaqindan hamkorlik qilish, ko'plab xalqaro konvetsiyalar paktiga qo'shilishi, shuningdek mamlakatimizda "Inson manfaatlarini yili", "Sog'lom avlod yili", "Ayollar yili", "Onalar va bolalar yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Mehr va muruvvat yili", "Sihat-salomatlik yili" kabi tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etilishi, sport, tibbiyot, ta'lim muassasalarini rivojlantirishga, ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgan keng qo'llashli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini qog'ozda yoki so'zda emas, balki hayotda joriy etilayotganligidan dalolatdir.

So'z va matbuot erkinligi borasida ham talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. So'z va matbuot erkinligining mohiyati shundaki, har bir shaxs fikrlash huquqigagina emas, o'z fikrini ochiq-oydin izhor qilish, ya'ni so'z erkinligiga ham egadir. O'zining va o'zgalarning xatti-harakatlari, amalga oshirayotgan ishlaridan qoniqmaslik, ijtimoiy hayotdagi turli negativ holatlar haqida mahallada, maktabda, ishxonada, boshqaruv organlarida va matbuotda faol munosabat bildirish, shu nukson va kamchiliklarning tuzatilishiga erishish - aslida jamiyat rivojini ta'minlashning ilk qirralaridir.

So'z va matbuot erkinligi, jamiyatning biror jabhasi, boshqaruv sohasi yoxud har bir kishining o'z ish sohasi bilan bog'liq kamchilik va nuqsonlarga tanqidiy mulohaza bildirgani uchun ta'qib etmaslik va boshqa huquqiy cheklanishlarga duchor qilinmasligina ham kafolatlaydi.

"Ommaviy axborot vositalari sohasida iqtisodiy munosabatlarning asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilinishining Prezidentimiz tomonidan dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilishi bozor iqtisodi va o'zini-o'zi ta'minlashga o'tish jarayonlarining tabiiy maxsulidir. Ommaviy axborot vositalari sohasida iqtisodiy munosabatlarning asoslarini qonuniy yo'l bilan belgilab berilishi, ommaviy axborot vositalarini kimgadir qaramlikdan qutqarish, uning axborot berish yoki ma'lum bir voqea-hodisani sharhlash, xalqqa yetkazishdagi erkinligi, axlolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston - o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. O'ning ratsional mag'izi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion - tadjiriy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

O'zbek modelining tarkibidagi beshta tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta'minlamoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, fuqarolik jamiyatini shakllantirish taraqqiyotning o'zbek modeliga xos asosiy yo'nalishlar qatoriga kiradi. Bu esa mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yagona to'g'ri yo'lni tanlaganimiz va unda sobitqadamlilik bilan borayotganligimizni yana bir karra tasdiqlamoqda. O'zbek modeli jamiyat taraqqiyoti jarayonida rivojlanib boradigan va hayot talablariga javob beradigan tamoyillar majmui ekanligining yorqin dalilidir.

Davlatimiz tanlab olgan yo'l dunyoviy davlat. Shunday bo'lsada davlatimiz diniy yuksak qadrlaydi, uning barkamol insonni voyaga yetkazishdek, jamiyatda hamjihatlik, millatlararo totuvlikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini e'tirof etadi.

Jamiyatni yanada rivojlantirish va sifat jihatdan yangilashning eng muhim ustivor yo'nilishi - bu inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek oshkorolikni ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'lining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
2. O'zbek modelining asosini belgilaydigan tamoyillar qaysilar?
3. O'zbek modeli jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va manaviy hayot sohalarida qanday namoyon bo'lmoqda?
4. Dunyoviy taraqqiyot yo'li - bu qanday yo'l, uning diniy, islom taraqqiyot yo'lidan farqi nimada?
5. Nima uchun inson huquqlari va erkinliklariga ustivor yo'nalish sifatida qaralmoqda?
6. Ommaviy axborot vositalari, hokimiyatining to'rtinchisi bo'lishi kerak, degan so'zda qanday ma'no bor?
7. Demokratik jamiyat qurishda turli xil modellarning bayoni.
8. "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzma" konsepsiyasining g'oyaviy mazmuni nimalarni anglatadi?
9. Dunyoviy davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy va milliy davlatchilik tushunchalari.
10. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarajonida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustivorligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон", 2003.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.11. -Т.: "Ўзбекистон", 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. Т.5. -Т.: "Ўзбекистон", 1993.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т.3. -Т.: "Ўзбекистон", 1995.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т. 6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.
6. Каримов И.А. Халқ фаровонлиги - фаолиятимиз мезони. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон". 1999.
7. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз - келажак йўқ. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 1999.
8. Каримов И.А. Ўзгариш ва янгиланиш - ҳаёт талаби. Т.8. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.
10. Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. -Т.: "Ўзбекистон", 2003.
11. Каримов И.А. Қонун ва адолат устиворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. // "Халқ сўзи", 2004, 2 июн.
12. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократия-лиштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир. -Т.: "Ўзбекистон", 2005.
13. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Т.: "Академия", 2005.
14. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: қурашлар, изтироблар, қувончлар. -Т.: "Шарқ", "Академия", 2001.
15. Тараққиётнинг "Ўзбек модели": "Миллий истиқлол ғояси, асосий тушунча ва тамойиллар" ўқув фани бўйича махсус методологик комиссия тасвия этган. -Т.: "Ижод дунёси" нашриёт уйи, 2002.
16. Истиқлол демократия ва фуқаролик жамияти. -Т.: "Шарқ", 2003.
17. Ўзбекистон 13 йиллик мустақил тараққиёт йўлида -Т.: "Ўқитувчи", 2004
18. www.edu.uz
19. www.zuyo.edu.uz
20. www.ec.edu.uz
21. www.performance.edu.uz
22. www.gov.uz
23. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
24. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru
25. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru www.atiso.htm
26. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

III BOB

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYATNI BARPO ETISHDA O'TISH DAVRINING ZARURLIGI, UNING XUSUSIYATLARI

3.1. O'TISH DAVRI TUSHUNCHASI, UNING ZARURLIGI VA MOHIYATI

Jahon taraqqiyoti tajribasi shuni tasdiqlaydiki, mustaqillikni qo'lga kiritgan har qanday mamlakat taraqqiyotining yuksak darajasiga birdaniga emas, balki bir qator tarixiy bosqichlarni bosib o'tishlari orqali erishganlar.

Har qanday o'tish davri muayyan jarayonni o'z ichiga oladi. Bir holatdan ikkinchi maqsadli holatga, bir tizimdan ikkinchisiga o'tish sodir bo'lishi uchun muayyan chegara (o'tish) shartlari bajarilishi kerak.

Tabiatda bir sifat holatining ikkinchi bir sifat chegarasining shakllanishida muayyan davr o'tadi va bu davrda ko'pdan-ko'p o'zgarishlar sodir bo'ladi. Jamiyatda ham xuddi shunday. Demak, o'tish davri hamma mamlakatlar uchun umumiy qonuniyat ekan. Sababi, mamlakatning bir ijtimoiy siyosiy tizimdan ikkinchisiga o'tishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda taraqqiyotga to'siq bo'lgan, avvalgi davlat siyosiy hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy va manaviy negizlari bilan bog'liq barcha mexanizmlarni tugatib, o'miga yangi taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan yangi mexanizmlarni shakllantirishni taqazo etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bir tizimdan ikkinchisiga, "markazlashtirilgan tartibda rejalashtirilgan va boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik uslubidan bozor iqtisodiyotiga o'tish - bu mavjud xo'jalik yuritish usuliini yangilash yoki taqomillashtirish emas, balki tamoman yangicha xo'jalik yuritish tizimini joriy etishdir. Bu bir sifat holatidan ikkinchisiga o'tishdir. Bu odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasidir. Shunga ko'ra u bir vaqtning o'zida bo'ladigan tadbir sifatida amalga oshirilishi mumkin emas, balki bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uzoq davrni talab qiladi".¹

O'tish davrining zarurligi va undagi muammolar yechimining xilma-xilligi hamda vazifalarning murakkabligi bu - eski tuzum, uning tartib qoidalari, an'analar, boshqaruv tizimi, manaviy-mafkuraviy asoslari va dunyoqarashi bilan yashagan aholining ongi va siyosiy tafakkurini tubdan yangi shakllanayotgan tuzumga o'rganishi, moslashishi, yana ham aniqrog'i, ularning ko'nikishi bilan bog'liq bo'ladi.

Demak, faqat farmonlar va farmoyishlar chiqarish bilan yangi taraqqiyotga xos munosabatlarni barpo etib bo'lmaydi. U uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lib, tegishli infratuzulmani va huquqiy asosni yaratishdangina emas, shu bilan birga qadriyatlar tizimida chuqur o'zgarishlarni, xo'jalik faoliyati va amaliy munosabatlarni asoslanishni ham ko'zda tutadi.

Yuksak rivojlangan yoki kam taraqqiy qilgan, yoxud endigina rivojlanish tomon qadam tashlayotgan mamlakatlarning bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayoni aynan o'tish davri umumiy qonuniyat hisoblandsada biri ikkinchisiga o'xshamaydi.

Bu borada Vatan tarixi, milliy davlatchilik an'analari, xalqning mintaliteti, turmush

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. -T.: "Uzbekiston", 1994.

tarzi bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlar, tajribalar, progressiv jahon andozalari hisobga olinadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asr taraqqiyot darajasi ibratli bo'lgan Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning rivojlanish tamoyillari ko'proq iqtisodiy bazaga asoslangani yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu mamlakatlarning birortasida iqtisodiy islohatlar davrida milliy davlatchilikni, manaviy qadriyatlarni, madaniy merosni va ona tilini tiklash singari masalalar dolzarb bo'lmagan.

Hozirgi kunda taraqqiyot tajribasidan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, davlatlar qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tmasinlar, ularning bugungi yuksak taraqqiy darajasiga, aholining farovonligiga erishishlarini ta'minlagan asosiy omil-demokratik taraqqiyot yo'lini tanlaganligidir.

Demokratik jamiyatga o'tish shuni anglatadiki, bu davrda siyosiy sohada davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi, uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob bera oladigan mexanizmlar shakllantirilib boriladi, iqtisodiy sohada, bozor manfaatlari qaror topadi, taraqqiyot ommanig o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi, manaviyat-ma'rifat sohasida, inson omili, uning qadr-qimmatini yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi voqeilikka aylanadi.

Shu tufayli taraqqiyotning demokratik yo'li insoniyatning orzu, umid va istaklarini o'zida to'la ifoda etgan jamiyat sifatida qabul qilinmoqda.

O'tmish davri keng va o'ta murakkab jarayon. Uning kengligi shundaki, o'tish davri boshlanishida yuzaga keladigan muammolarning ko'lamini nihoyatda keng bo'lib uni qay tarzda amalga oshirishda nomoyon bo'lsa, uning murakkabligi har bir mamlakat o'z imkoniyatlarini ishga solishdagi vaziyat, aholining ongliklik va uyushqoqlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'tish davrining chegarasi bormi, u qachon boshlanadi-yu, qachon tugallanadi. Xorij va Vatanimiz jamiyatshunos olimlarining xulosalaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, o'tish davri mamlakatlarning ularga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi mamlakatda bo'ladigan eng avvalo siyosiy o'zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiyot, ijtimoiy hamda manaviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lsa, oxiri yangi vujudga kelgan jamiyatning o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqara bilishi, zamon nuqtai nazaridan barqaror taraqqiyot uchun imkoniyatlarning ta'minlanganligi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda o'tish davri eng avvalo siyosiy hokimiyat pirovardida demokratik jamiyatga olib boruvchi tub o'zgarishlarning sodir bo'lishi va uning zaminida iqtisodiyot hamda manaviy-ma'rifiy sohalarida olib boriladigan islohatlarning boshlanishi bilan xarakterlanadi. O'tish davrining tugashi esa demokratik tamoyillarning to'laligicha hayotiy realikka aylanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Hozirgi demokratik taraqqiyot yo'lidan rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib o'tish davrining uchta yo'li mavjud ekanligini aytish mumkin. Bular : "Klassik", "Inqilobiy", "Evolutsion" yo'llari.

"Klassik" yo'lining xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy davr davomida amalga oshiriladi va u siyosiy sohada qancha buxtonlar bo'lishiga qaramay asosiy o'tishning islohatlari iqtisodiy sohada amalga oshiriladi va bunda xususiy mulkchilik yerakchi o'ringa ko'tarilishiga erishiladi. Ushbu tadbirlarning muvaffaqiyati amalga oshirilishi

ijtimoiy-siyosiy va manaviy sohalarida islohatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bu tanlangan yo'l asosan Yevropa mamlakatlariga xos bo'lib, dastlab aholining ko'pchiligining noroziligiga, so'ng esa qarshilik ko'rsatishiga sabab bo'lgan va bunday kayfiyat aholi farovonligining o'sib borishi bilan so'nib o'zining samarasini bera boshlagan va bu 2- 2.5 asr chamasi davom etgan.

Bu yo'lning klassik (an'anaviy) deb atalishiga sabab shuki, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda nomoyon bo'ldi va bugun yuksak taraqqiyotga erishgan aksariyat mamlakatlar ana shu yo'ldan bordilar.

Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi "inqilobiy" yo'l bo'lib uning xarakterli xususiyati shundaki, davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat va ko'pchilik aholining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib dastlab siyosiy sohada keskin o'zgarishlarni amalga oshirish so'ng iqtisodiy sohada islohatlarni o'tkazish orqali demokratik jarayonlarni rivojlantirishga qaratildi. Shunday yo'l orqali mamlakat siyosiy hayoti bir tizimdan ikkinchisiga o'tdi. Bu o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va manaviy-ma'rifiy sohalarining o'zgarishiga olib keldi. O'tishning bu yo'lini sobiq jahon sotsializmi tizimiga kirgan ayrim mamlakatlar o'z boshlaridan o'tkazdilar. Ularning ayrimlarida bu jarayon murakkab kechdi.

Siyosiy sohadagi o'zgarishlar, ayniqsa, bozor tomon harakat qilish borasidagi tanlangan yo'l katta ijtimoiy larzalami keltirib chiqardi. Bu yo'l, Xalqaro valyuta fondining maslahatlariga amal qilib, narx-navoga tezroq erkin tus berishga, soliq, kredit va valyuta siyosatining cheklangan choralari vositasida moliya-pul barqarorligiga erishishga zo'r berildi. "Falaj qilib davolash" usulidan foydalanish iqtisodiyotni totalitar tuzumdan birdaniga ajratib olish, pul-moliyaviy usullarni bozor munosabatlariga xos rivojlantirishning o'ziga xos tezlatkichiga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Biroq bunday yondashuvlarning oqibati juda og'ir bo'ldi. Yugoslaviyada iqtisodiy islohatning amalga oshirilishi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni keskin ravishda pasaytiribgina qolmay federatsiyaning parchalanishiga, millatlararo-etnik guruhlar o'rtasida mojarolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ammo, ana shunday murakkab holatlarning vujudga kelishiga qaramay, demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratildi.

O'tish davrining uchinchi yo'li bosqichma-bosqich, ya'ni evolyutsion yo'l. Bosqichma-bosqich o'tish: 1) ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy o'zgarishlari; 2) jamiyat taraqqiyotining bir davridan ikkinchisiga o'tish shakllaridan biri; 3) jamiyat hayotining turli sohalarida islohatlar olib borish usuli. Bosqichma-bosqich o'tish eskilik o'rniga yangiliklarni uzluksiz, izchil shakllantirish va yangi sifatni yuzaga keltirishni anglatadi. U jamiyat o'zgarishining inqilobiy yo'lini rad etadi.

Unga xos bo'lgan xususiyatni aniqlashtirib quyidagicha izohlash mumkin. Mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan eskini keskin, bir zarb bilan tugatilmasdan bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto, ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohatlarni olib borishda va boshqa yo'nalishlarda yangi munosabatlar shakllantiriladi.

Nima uchun asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish zaruriyati tug'iladi. Bunday yo'lning O'zbekiston xususiyatlaridan kelib chiqib izohlaydigan bo'lsak uning sabablari quyidagicha:

Respublikada vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat, oilalar aksariyat ko'pchiligining turmush darajasi pastligi, eski tuzumga moslashganligi xalqning dunyoqarashi, moddiy boyliklarni yaratishga bo'lgan munosabati, siyosiy madaniyati yetarli darajada emasligi bo'lsa;

Ikkinchidan, tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy-kredit tizimlarini o'zgartirish, tegishli huquqiy asosni, bozor infratuzilmasini barpo etish, xodimlarni tayyorlash uchun vaqt kerak. Ishlab chiqarishni tayyorlash va qayta jihozlash uchun talab qilinadigan texnologik vaqt omilini ham hisobga olish kerak. Nihoyat talab va taklifning mutanosibligiga asoslangan qonunlar amal qila boshlagunga qadar eski tasavvurlar va normalarni o'zgartirish uchun vaqt kerak bo'ladi.

Uchinchidan, kishilarning tafakkurini, odat tusiga kirgan qoidalarni o'zgartirish uchun muhimdir. Har bir bosqichda kishilarning tafakkuri o'zgarishlarni qabul qilishga tayyorlab, ularni amaliy ishlar bilan yangi tuzumning afzalligiga ishonitirib, boshqa mamlakatlarda yuz yillar davomida barpo etilgan qadriyatlarga erishish mumkin.

Zarur shart-sharoitlarni yaratmay turib, odamlarni ularning turmush sharoitidagi katta o'zgarishlarga ruhan tayyorlamay turib ko'zlangan maqsadga erishish mumkin emas. O'tishning evolyutsion yo'lining ijobiy tomoni shunda, madaniy hayotga asta-sekinlik bilan moslashtirib boriladi. Bu esa jamiyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sotsial portlashlarning oldini olish, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Xullas, taraqqiyotning bosqichma-bosqich (evolyutsion) yo'li hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining ayniqsa mustaqillikni qo'lga kiritib rivojlanishning demokratik yo'lini tanlagan davlatlar uchun eng samarali yo'ldir.

3.2. O'ZBEKISTONNING TOTALITAR MUSTAMLAKA MAMLAKATDAN DEMOKRATIK JAMIYATGA O'TISHINIG O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekistonning o'ziga xos yo'lini amalga oshirishning asosiy omili va tarkibiy qismini so'zsiz mustaqillik, uni avaylab-asrash, himoya qilish va mustahkamlash tashkil etadi. Har bir inson mustaqil bo'lishiga, o'z erkiga o'zi egalik qilishiga intilgani kabi, tarix har bir xalq o'z davlatining mustaqilligi uchun kurashlar olib borganligi to'g'risida guvohlik beradi. Ammo, unga erishish, uni saqlab qolish, mustahkamlash, o'zining taraqqiyot yo'lini tanlab unga erishish barchaga nasib etavermaydi.

O'zbekiston suverenlikni qo'lga kiritgandan so'ng demokratik davlat qurishni o'ziga maqsad qilib olgan ekan, uning uchun demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, mulkchilik, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish omillari, boshqarishning bozor va rejali tartibga solish mexanizmlari, davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyati va unga erishish yo'llari kabi tushunchalar keng mazmun kasb etdi.

Tafakkurning mafkuraviy aqidalaridan xoli bo'lgan har bir mamlakatning va butun jahon ma'rifatparvarligining sifat jihatdan yangi holatga o'tishi shakllari va yo'llarining xilma-xilligini ko'rsatib beradigan yangi turi va uslubini yaratish zarurati etildi. Hozir ijtimoiy siyosiy, shu jumladan iqtisodiy rivojlanishning hammabop, har qanday mamlakat uchun birday tafsiya etish mumkin bo'lgan andozalari yo'qligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. Ijtimoiy rivojlanishning turli madaniy, ma'rifiy, tarixiy an'analarning nodirligi va o'ziga xosligiga tayanadigan shakllari va usullari xilma-xilligi umum tomondan e'tirof etildi.

O'tmish tajribasi shundan dalolat beradiki, aniq-ravshan tarixiy, ijtimoiy-

iqtisodiy, milliy-ruhiy, demografik, tabiiy-iqlim va boshqa sharoitlarni, mintaqalarning obyektiv farqini hisobga olmaydigan siyosat va xo'jalik tajribasi inqirozga uchrashi muqarrardir.

O'z erkini qo'lga kiritgan mustaqil davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarda iqtisodiy kurashishlarga mutlaqo yangicha yondashuvlar va nuqtai nazarlarni asoslab berish muhim ahamiyatga ega. Bu davlatlar o'zini mustaqil deb e'lon qilgani har bir suveren respublika o'z manfaatlariga mos keladigan mustaqil ichki va tashqi siyosatni o'tkazishga jazm qilganligini bildiradi.

Hozir mustaqil respublikalarda siyosiy islohatlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va isloh qilish muammolari yechimini zo'r dasturiy yondashuvlarni o'rganish shundan dalolat beradiki, ularning hammasi bozor iqtisodiyotini amalga oshirish usuli, bosqichlari va muddati bilan bir-biridan farq qiladi.

Bunday sharoitda o'z siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimov o'zining bir qator asarlarida, jumladan, " O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li", " O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li", " O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida", " O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" da O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari batafsil nazariy jihatdan asoslab berilgan.

O'tish davri o'zgarishlar, yangilanish va islohatlar davridir. Har bir islohat u qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning tabiiy rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi muqarrar. Shu sababli, islohatlar jarayonida ko'zlangan natijalardan tashqari kutilmagan favqulodda holatlar ham vujudga kelishi tabiiy. Ana shunday holatlarni bartaraf etish, jamiyat oldida yangi maqsadlar va vazifalar qo'yish barobarida islohatlarni yangi darajasi bilan muvofiqlashtirish davr talabidir. Yurtboshimiz " O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida ham mustaqilligimizning o'n bir yili davomida erishilgan yutuq va natijalarni aniqlangan kamchiliklarni, dunyo voqealarining o'zgaruvchanligi, milliy manfaatlarimizning mutloq ustunligi shartini hisobga olgan holda jamiyatimizning rivojlanishini yangi, o'zgaruvchan sharoitda ta'minlashga qaratilgan ustivor vazifalar ishlab chiqilgan.

Prezident I.A. Karimov "O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li Respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanganligini ko'rsatadi".

Respublika qulay jug'rofiy-siyosiy mavqega ega. Hozirgi O'zbekistonning hududida tarixan eng qadimiy savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni avj olgan joy bo'lib kelgan. Hozir ham O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining o'z mustaqil energetika va suv tizimlariga ega markazi bo'lib, ko'pgina masalalarda qo'shni respublikalarni bog'lovchi xizmatini o'taydi.

Respublika tovarlar, sarmoya va ishchi kuchining davlatlararo harakati, iqtisodiyot, madaniyat va siyosat sohalarida mintaqaviy manfaatlarni yaqinlashtirishda o'ziga xos mintaqaviy markazga aylanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Tabiiy-iqlim sharoitlarining o'ziga xosligi O'zbekistonda islohatlarni amalga

o'shish yo'llari va unga yondashuvlarni tanlab olishga hal qiluvchi ta'sir o'tkazmoqda. Respublika iqtisodiyotining dehqonchilik tarmog'ini keng rivojlantirish, alohida qimmatli, jahon bozorida g'oyat xaridorgir bo'lgan ekinlar va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun qulay bo'lgan iqlim mintaqasida joylashgan.

Tarixan tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mazmuniga ko'ra Osiyoda shakllangan an'anaviy ishlab chiqarish usuli va mehnatni tashkil etish shakllari O'zbekistonga xos ekanligi ham iqtisodiy islohatlarning yo'llari va andozalarini tanlab olishga ta'sir qilayotgan jiddiy omildir.

Respublikadagi demokratik vaziyat o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanlab olish zarurligini belgilab beruvchi g'oyat muhim xususiyatlardan biridir. O'zbekiston tug'ilish darajasi va aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lgan mamlakatlar jumlasiga kiradi. Keyingi o'n yilliklar mobaynida respublika aholisi har yili o'rta hisobda 2.5 % dan ko'payib bordi. Hozir O'zbekiston aholisi 26.4 mln. kishini tashkil etadi.

Aholi tarkibida bolalar va o'smirlarning ko'pligi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatidir. O'zbekistonda 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar 43.1 % ni tashkil etadi. Respublikadagi jami aholining yarmidan ko'prog'i- bolalar, o'quvchi yoshlar, nafaqador, ya'ni ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalardir. Aholining 60 % i qishloq joylarda yashaydi va asosan dehqonchilik bilan mashg'uldir. Ajdodlarning an'anaviy yashash joylariga bog'langanligi (o'troqligi) aksariyat respublika aholisiga xos bo'lib, bu hol mehnat bozorini shakllantirish muammolariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Respublika milliy tarkibining o'ziga xosligi uning farqlanuvchi xususiyatlaridir. Etnik tarkibida tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Respublikada yashab turgan aholining 72 % dan ko'prog'ini o'zbeklar tashkil etadi. Ayni vaqtda O'zbekiston hududida o'z madaniyati va o'z an'alariga ega bo'lgan 130 ga yaqin millat vakillari yashaydi. O'zbekistonning milliy-madaniy rang-barangligi milliy o'zlikni anglashning o'sishi va manaviy jihatdan qayta uyg'onish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatni yangilash, uning ochiqligining qudratli omili bo'lib xizmat qiladi hamda respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'lini tanlab olish aholining tafakkur va milliy-tarixiy turmush tarzini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama e'tiborga olishga hal qiluvchi darajada bog'liqdir.

Ijtimoiy jihatdan uyushib yashashning jamoa shakli O'zbekiston xalqiga tarixan xos bo'lib, bu uning an'anaviy turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu narsa oila manfaatlarining usivorligida, aholining hayot faoliyatining jamoaga sodiqligida, mahalla shaklini avaylab saqlash va mustahkamlashdagina namoyon bo'libgina qolmay, shu bilan birga jamiyatning butun ijtimoiy tuzilmasiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston xalqining milliy ruhiyatiga xos bo'lgan etnopsixologik me'yorlarning xususiyatini ham e'tiborga olish zarur. Bu hol ijtimoiy ong darajasida odamlarning yangiliklarga, qadriyatlar tizimini o'zgartirishga, qaror topgan me'yorlarni, ularning xatti-harakat qoidalari va andozalarini barbod qilishga olib keladigan tub o'zgarishlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatida namoyon bo'ladi.

So'nggi o'n yilliklarda odamlarda o'z qadriyatlariga ega bo'lgan muayyan ijtimoiy ong shakllanganligini ham hisobga olmaslik mumkin emas. Bu ijtimoiy tenglikka intilishda, kafolatli mehnat qilish huquqi, umumiy bepul ta'lim va tibbiy xizmat

ko'rsatilishini yoqlab chiqishda ko'rinmoqda.

Shunday qilib, mazkur o'ziga xos shart-sharoitlarni, bir mintaqaning vakilligini faqat shu yerga xos bo'lgan barcha xususiyatlari va belgilari bilan aniq hisobga olmay turib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatga o'tishni biror yo'li to'g'risida gapirib bo'lmaydi.

"O'zbekiston kelajagi buyuk davlat", deb ta'kidlamoq uchun barcha asoslar bor. Respublikada hamma narsa: tabiiy boyliklar, unumdor er, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va manaviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, bu yerda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi.

O'zbekiston juda katta tabiiy va iqtisodiy potentsialga ega bo'lgan mamlakat. Noyob tabiiy xom-ashyo imkonoyatlari haqida alohida aytib o'tish lozim. O'zbekiston zaminida mavjud bo'lgan boyliklarga ega davlatlar jahon xaritasida ko'p emas.

Prezident I.A.Karimov Sho'rtan gaz-kimyo majmui ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida bu haqda shunday deydi: "O'looh taoloning marhamati bilan ona diyorumiz behisob tabiiy boyliklarga makon ekani haqida gapirish o'rindir. qashqadaryoning mo'tabar zamini o'zining noyob boyliklari, shu jumladan, birinchi navbatda, neft va gaz kabi qimmatbaho xoma-shyolarning ulkan zahiralari bilan dunyoga mashhurdir".

O'zbekistonda Mendeleev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom-ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 mlrd.AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga umumiy mineral xom-ashyo potentsiali 3,3 trln. AQSH dollaridan ortiqroq baholangan.

G'oyat muhim strategik manbalar neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha 40 dan ortiq, rangli nodir metallar bo'yicha 40, konchilik kimyo xom-ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd. dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,9-7,0 mlrd. dollarlik yangi zahiralari qo'shilmogda.

Oltin zahiralari bo'yicha respublika dunyoda 4 o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7 o'rinda, mis zahiralari bo'yicha 10-11 o'rinda, uran zahirasi bo'yicha 7-8 o'rinda turadi.

O'zbekiston oltini keyingi yillarda dunyodagi eng sof, eng bebaho, asl oltin sifatida e'tirof etildi. "Savdodagi yaxshi nomi uchun"(Madrid, 1991, 1992, 1993, 1995 yillar), "Oltin yulduz"(Madrid, 1993 yil), "Oltin globus"(AQSH, 1995 yil), "Olmos yulduz"(Mexiko, 1993 yil) kabi 20 ga yaqin xalqaro mukofotlari, sovrinlarga munosib deb topildi. Nufuzli Tokio birjasida 1998 yili unga sifat sertifikatini berilib, oltin etaloni, ya'ni butun dunyo bo'yicha tilla sifatini baholashning oliy andozasi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida ishga solingan foydali qazilma konlari MDH dagi boshqa mamlakatlarnikidan o'zining juda katta zahiralari bilangina emas, balki bir qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Bu xususiyatlardan quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Birinchidan, tabiiy va mineral xom-ashyo zahiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor; Ikkinchidan, foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibidagi foydali

komponentlar yuqori darajada bo'libgina qolmay, katta miqdorda yo'ldosh elementlarga ham ega;

Uchinchidan, konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy;

To'rtinchidan, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan mintaqalarda joylashgan. Ular transport yo'llariga va hududlar o'rtasida resurslarni taqsimlash vositalariga, shu jumladan, suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega;

Beshinchidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura, malakali kadrlar, tog'-kon mutaxassislari tayyorlaydigan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tizimi mavjud.

Prezidentimiz "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitoblarida respublika, uning mustaqilligi va iqtisodiy qudrati uchun hal qiluvchi, strategik ahamiyatga molik resurslarga e'tiborni qaratgan.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan o'n yil ichida juda katta hayratomuz ishlab chiqarish inshootlari, jumladan, qashqadaryoda "Ko'kdumaloq" kompressor stansiyasi, Qo'ng'iro't soda zavodi, "Qabul-O'zbek-Ke" O'zbekiston-Janubiy Koreya qo'shma korxonasi, "Xobas-TAPO" O'zbekiston-Shveysariya-Germaniya qo'shma korxonasi, "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasi, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi qurib ishga tushirildi. Bu zamonaviy ishlab chiqarish boy tabiiy resurslar zaminiga asoslanganligidan guvohlikdir.

O'zbekistonning iqlimi keskin o'zgaruvchan, quruq iqlim bo'lib, quyosh yog'dusi serobliligi bilan xarakterlanadi. Issiqlik va yorug'lik miqdorinig yetarli ekanligi bu yerda paxta, uzum, meva va issiqlikni sevadigan boshqa ekinlar yetishtirish imkonini beradi.

Respublikaning qudratli agrosanoat kompleksi asosan sug'oriladigan dehqonchilik erlardan iboratdir. Uning tarmoqlarida ijtimoiy mahsulotning qariyb yarmi etishtiriladi. Aholining xalq xo'jaligida band bo'lgan qismining yarmidan ziyodrog'i, respublika ishlab chiqarish asosiy fondlarining uchdan bir qismi mana shu soha tarmoqlariga to'g'ri keladi. O'zbekiston-paxta etishtiradigan eng yirik o'lkalardan biridir.

Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari, avvalo, qorako'chilik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik va sholikorlik singari sohalari ham keng miqyoslarda rivojlanib bormoqda.

Respublika Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar ichida qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqliligi bilan bir qatorda keng tarmoqli sanoati bilan ham ajralib turadi. Sanoatda hozirgi zamonning bir qator eng muhim tarmoqlari rivojlanib bormoqda. O'zbekistonning iqtisodiy potentsialida og'ir sanoatning hissasi salmoqli o'rin tutadi. Uning yarmidan ziyodini transport, avtomobilsozlik, elektr texnika, to'qimachilik hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi, kimyo va tog'-kon sanoati tarmoqlari tashkil etadi.

Umuman olganda, O'zbekistondagi ikki yuzdan ziyod sanoat tarmoqlarining qariyb ikki ming zavod va fabrikalarida hozirgi zamon samolyotlari va traktorlari, qattiq qotishmali va issiqqa chidamli materiallar, qimmatbaho va rangli metallar, paxtachilik va to'qimachilik sanoati uchun mashinalar, ekskavator va yuk ko'taruvchi krantarlar, yuqori kuchlanishli transformatorlar hamda kinoapparatlar, tranzistorlar va boshqa xil radio qismlari, muzlatgichlar, binokorlik materiallari, mineral o'g'itlar, tabiiy vasun'iy tolalar, ipak va p tolalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Respublikada bir yilda 50 milliard kilovatt-soatdan ziyod elektr energiya ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan elektr stansiyalari mavjud.

O'zbekistondagi umumiy uzunligi 4000 kilometrdan ziyod bo'lgan temir yo'llar amalda respublikaning barcha iqtisodiy markazlarini bir-biri bilan bog'laydi. Respublikadagi usti qattiq qoplamali avtomobil yo'llarining uzunligi 40 ming kilometrdan ziyoddir. Respublika hamdo'stlik mamlakatlari va boshqa davlatlarning ko'pgina poytaxtlari bilan avtomobil yo'llari orqali bo'lgan.

2000 yil 29 avgustda poytaxtimizni 9,5 million aholi istiqomat qiladigan Farg'ona vodiysi bilan tutashiradigan qamchiq dovoni tagidan o'tgan tunellarning ochilishi olamshumul voqea bo'ldi. Tog'li yo'l uzunligi 2484 metr keladigan ikki tomonlama tunel orqali tutashtirildi.

Ilmiy tadqiqot ishlari keng miqyosda rivojlanib bormoqda. 1943 yildan beri respublika fanlar Akademiyasi ishlab turibdi. Mustaqillik yillarida yangi akademiyalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi tashkil etildi. 1992 yildan O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jalik fanlar Akademiyasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Xullas, Respublikaning ilmiy-tadqiqot majmui akademiyasi, oliy o'quv yurtlari va tarmoq yo'nalishidagi 362 muassasani, shu jumladan, 101 ilmiy tadqiqot institutini, oliy o'quv-yurtlaridagi 55 ilmiy-tadqiqot bo'limlarni, 65 loyiha-konstruktorlik tashkilotini, 32 ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va tajriba korxonalarini, 30 ilmiy axborot-hisoblash markazini o'z ichiga olgan. Ushbu ilmiy dargohlarda 100 mingdan ziyod ilmiy xodimlar mehnat qilmoqdalar. O'zbekiston olimlari fizika, mexanika, elektronika, matematika, kibernetikaning fundamental muammolari sohasida muvaffaqiyatli ish olib bormoqdalar. Ular qishloq xo'jalik fanlari sohasida, biofizika, bioximiya, makrobiologiya, mikrometreologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va fanning boshqa turli yo'nalishlarida salmoqli natijalarga erishdilar.

Respublikaning eng muhim boyligi, uning odamlaridadir. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohatlar va tub o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab borishini ta'minlab beradi.

O'zbekistonning muhim xususiyati shundan iboratki, bu yerda aholining o'sish sur'atlari yuqori. 1990-1996 yillarning o'zida mamlakat aholisining soni 13,3 % ko'paydi. Aholi sonining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 1996 yilda 2,0 % ni, 2000 yilda 1,8% ni tashkil etdi yoki aholi bir yilda 430-450 ming kishiga ko'paydi.

Hozir respublika qudratli mehnat salohiyatiga ega. Mehnat zahiralari butun aholining deyarli 50% ni tashkil etadi va har yili 210-220 ming kishiga ko'payib bormoqda. Mehnat salohiyatining muhim xususiyati-uning yosh va kasb tarkibidadir. O'zbekiston aholisining o'rtacha yoshi 24 yoshga teng. Bu XXI asr bo'sag'asida mehnat zahiralari yuksak mehnat faolligi va kasb tayyorgarligi bilan ajralib turadigan odamlar ko'pchilikni tashkil etishiga imkon beradi.

O'zbekistondagi mehnat salohiyatining muhim xususiyati-uning ta'lim darajasi yuqoriligidir. Respublikada aholisining yalpi savodxonligi muammosi to'la hal qilingan. Savodxonlik darajasi 99,06 % ni tashkil etadi. Bu esa respublikani inson salohiyati yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar bilan bir qatorga olib chiqadi.

Mehnat zahiralarning umumiy va professional ta'lim darajasi ham

yuqori.respublikada majburiy umumiy o'rtta ta'lim qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan. Bunday ta'limni umumiy ta'lim maktablari, litseylar, gimnaziyalar, o'rtta kasb-hunar kollejlari va tijorat maktablarining keng tarmoqlari orqali olish mumkin.

Hozirgi vaqtda respublikada o'quv yurtlarining keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmoqda.

2000 yilda respublikaning har bir tumani va shahari zamonaviy talablarga javob beradigan yangi turdagi o'quv yurtlari bilan ta'minlanishi uchun 180 ta yangi kasb-hunar kolleji va 15 ta akademik litsey qurib, foydalanishga topshirildi. 2005 yilga qadar biz respublikamizda 1611 ta kasb-hunar kolleji va 181 ta akademik litseydan iborat bo'lgan o'rtta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarining zamonaviy tarmoqlarini bunyod etishimiz kerak. Bu to'qqizinchi sinflarni bitiruvchilarni o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktablariga to'la qamrab olishni ta'minlaydi.

Yuqorida qayd etilgan "o'ziga xos shart-sharoitlar ham alohida, ham birgalikda hozirgi bosqichda O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi"

Mamlakatimizda o'tish davrida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar izchillik bilan real hayotga tadbiiq etilmoqda. Eng asosiysi, demokratik kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun zarur bo'lgan o'tish davrining birinchi navbatdagi asosiy vazifalari to'g'ri belgilab olindi. Ular mavhum xayollar asosida emas, balki Prezident tomonidan ishlab chiqilgan aniq kontseptual g'oyalar asosida amalga oshirilmoqda.

O'tish davri jarayonlarining tartibsiz holatga kelmasligi uchun har qanday tizimning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan va bu o'zgarishlarni bir yo'nalishga sola oladigan muayyan kuch lozim bo'ladi. Agar har bir tizim o'zini-o'zi ushlab turadigan, ichki jarayonlarni muayyan yo'nalishga sola oladigan kuchga ega bo'lmasa, uni tashkil etib turadigan elementlar orasidagi bog'lanish va aloqadorliklarning doimiyiligini ta'minlay olmaydi, oxir-oqibat tarqalib ketadi, o'z-o'zidan halok bo'ladi. Jamiyatdagi mavjud elementlarni, ya'ni turli tizimlar faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan bunday kuch vazifasini davlat bajaradi. Davlat o'zining ana shu funksiyasini bajara olmasa, o'z hududidagi jarayonlarni bir yo'nalishga sola olmaydi, ya'ni mavjud jamiyatdagi tartibni saqlab qola olmaydi. Voqealar rivojini oldindan ko'ra olgan yurtboshimiz ana shu sababdan ham o'tish davri yetakchi islohatchilik vazifasini davlat bajarishi lozimligini asoslab berdi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning uchta bosqichini bosib o'tdi. Ushbu o'tish bosqichlarining har biri Prezidentimiz tomonidan qilingan ma'ruzalarda o'zining to'liq, asosli ifodasini topgan. Jumladan: Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning VI sessiyasida (1996 yil 29 avgust) "Hozirgi bosqichda demokratik islohatlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari" bobidagi ma'ruzasida; 1999 yil 14 aprelda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning o'n to'rtinchi sessiyasida "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" va 2002 yil 29 avgustda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" ma'ruzasida ko'rsatib berildi.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиқдол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. - Т.: «Ўзбекистон» 1996.

Demak, bir tizimdan ikkinchisiga asta-sekin, evolyutsion ravishda o'tish qonuniy ravishda quyidan yuqoriga, qo'yilayotgan ustivor vazifalarning ko'lamlarining kengligi bilan ajralib turadi. Ko'rinib turibdiki, jamiyatimiz yangi ichki va tashqi vaziyatga qarab borishi bilan o'tish davri o'z chegarasi shartlarini uzviylik asosida transformatsiya qiladi.

Qisqacha xulosalar

O'tish davri shartlarini bajarish uchun muayyan vaqt kerak. Bu vazifalarni bajarish jamiyat a'zolaridan maqsad sari intilish, chidamlilik va harakatchanlikni, liderlardan esa tashabbuskorlik, qat'iyatlik va yuksak jasorat talab qiladi. Shunday paytda, mustaqillik tashqi hamda ichki tahdidlar va qarshiliklarga dosh bergan holda, barcha islohatlarning, o'tish davri vazifalarining amalga oshirishini ta'minlab beruvchi asosiy vositadir. Mavjud ulkan resurslar, aql-ziyo va ishlab chiqarish potentsiali davlat mustaqilligi bilan birgalikda, respublikada iqtisodiyotni yangilash, uni ma'rifiy rivojlanish yo'liga o'tishga doir tub islohatlarni amalga oshirishga shart-sharoit va imkoniyat yaratadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Nima uchun mustaqillikni qo'lga kiritgan barcha mamlakatlar uchun "o'tish davri" zarur va umumiy qonuniyat hisoblanadi?

2. O'tish davrining "klassik", "inqilobiy", "evolyutsion" yo'llari mavjud. Ularning har biriga qisqacha izoh bering. O'zbekiston uchun tanlangan eng maqbul bo'lgan yo'l qaysi va nima uchun?

3. O'tish davrining umumiy qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ular o'rtasida qanday umumiylik mavjud?

4. O'tish davrining aniq belgilab qo'yilgan chegarasi bormi. Yoki u uzluksiz jarayonmi?

5. O'zbekiston mustaqillik yillarida demokratik jamiyatga o'tishning nechta bosqichini bosib o'tdi. Siz buni Prezident I. Karimovning qaysi ma'ruzalariga asoslangan holda asoslashga harakat qilgan bo'lar edingiz?

6. Bugun O'zbekiston demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning qanday vazifalarini izchillik bilan amalga oshirishdan iborat bo'lgan o'tish davrini o'z boshidan kechirmoqda?

7. O'zbekistonda bosqichma-bosqichlik asosida demokratik jamiyatga o'tishning asosiy omillari.

8. O'tish davrining barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonunlari.

9. O'z taqdirini o'zi belgilash huquqi.

10. "O'tish davri" muammolarini hal etishning o'ziga xos yo'llari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон", 2003.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т.1, - Т.: "Ўзбекистон", 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид,

- барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон-бозор муносабатларига утишдаги ўзига хос йўли. Т.5. -Т.: "Ўзбекистон", 1996.
 5. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида. Т.5. -Т.: "Ўзбекистон", 1996.
 6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.
 7. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Т.11. -Т.: 2002.
 8. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг еттинчи сессиясида сўзлаган маърузаси. // "Халқ сўзи" 2001 йил 7 декабр.
 9. Каримов И.А. Қонун ва адолат устиворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Сурхондарё вилоят Халқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқи. // "Халқ сўзи", 2004 йил 2 июн.
 10. Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократиялаш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. -Т.: "Ўзбекистон", 2005.
 11. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. -Т.: "Академия", 2005.
 12. Абулқосимов Х.П., Ваҳобов А.В. ва бошқалар. Ўзбекистонда иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш ва иқтисодиётни эркинлаштириш йўллари. -Т.: ТДИУ, 2001.
 13. Тараққиётнинг "Ўзбек модели": "Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар" ўқув фани бўйича махсус методологик комиссия тавсия этган. -Т.: "Ижод дунёси" нашриёт уйи, 2002.
 14. Иқтисод, демократия ва фуқаролик жамияти. -Т.: "Шарқ", 2003.
 15. Эргашев И. Сиёсат фалсафаси. -Т.: Академия. 2004.
 16. Ўзбекистон -13 йил мустақил тараққиёт йўлида -Т.: "Ўқитувчи", 2004 .
 17. Жўраев С. Фуқаролик жамияти: назария ва амалиёт (илмий таҳлилий мақолалар тўплами) -Т.: 2003.
 18. www.edu.uz
 19. www.zuyo.edu.uz
 20. www.ec.edu.uz
 21. www.performance.edu.uz
 22. www.gov.uz
 23. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
 24. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru
 25. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm
 26. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

IV BOB

O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING MILLIY, UMUMBASHARIY TAMOYILLARI VA QADRIYATLARI

4.1 DEMOKRATIK JAMIYATNING MILLIY, UMUMBASHARIY TAMOYILLARI VA QADRIYATLARI TUSHUNCHASI

Demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish, ushbu jamiyatga uyushgan kishilar, ijtimoiy guruhlar, elatlar va millatlarning milliy, umuminsoniy qadriyatlarni anglab, unga amal qilib o'z faoliyatini belgilashga ham bog'liq.

Mavzuni qadriyat tushunchasi, uning milliy, mintaqaviy va umuminsoniy xarakterni kasb etgan mohiyatini ochib berishga e'tiborni qaratamiz.

Qadriyatlar muammosi ilm-fanda, amaliy hayotda, istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsadni amalga oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Qadriyatlar deb, inson va insonning o'tmishda va hozirgi zamonda yaratgan, uning uchun g'oyat qimmatli, qadrli bo'lgan, xalq, millat, elat, ijtimoiy guruhlarning manfaat va maqsadlariga xizmat qiladigan moddiy va manaviy boyliklarga aytiladi.

Qadriyatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, boyimaydi. Ularning shakllanishi, rivojlanishi uchun muayyan ijtimoiy, iqtisodiy sharoit zarur. Masalan, tarixda uyg'onish davri deb nom olgan o'rta asrlarda mutafakkirlarning boy manaviy qadriyatlarni shakllantirishlariga o'sha davrda ilgari asrlardagiga nisbatan qulay iqtisodiy negiz, ijtimoiy tuzum bo'lmaganda ular bu ishni qilolmas edilar.

Qadriyatlarni shakllantiruvchi ma'naviy asoslarga ilm-fan, jumladan, tabiiy, ijtimoiy fanlar, adabiyot, san'at, din ham kiradi. Bular qaysi mamlakatda, xalqda nechog'lik boy bo'lsa, o'sha davlatda xalq ommasi ularni har taraflama o'zlashtirsalar jamiyat a'zolari shunchalar ma'rifatli bo'ladi.

Qadriyatlar asosan uch turga (guruhga) bo'linadi. Birinchidan, milliy qadriyatlar bo'lib, ular muayyan elat, millatga, uning uzoq va yaqin ajdodlariga xos bo'lgan qimmatli boyliklardir.

Milliy qadriyatlarimizni asliga keltirish va rivojlantirishda xalqimizning ko'p asrlik an'analari, madaniyati, urf-odatlar, har-xil bayramlari, boy qadimiy me'rosi o'zining alohida o'rni va ahamiyatiga ega. Madaniy-manaviy me'rosimiz, asriy an'analar-o'tmishdan, avlod-ajdodlarimizdan bizlarga yetib kelgan, bugungi hayotimiz uchun xizmat qilayotgan eng katta manaviy boylik, buyuk xazinadir. "Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojealar vaqtda omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi".¹

Qadriyatlarning ikkinchi turi (guruhi) mintaqaviy qadriyatlar bo'lib, ular muayyan jo'g'rofiy mintaqqa xalqlariga, masalan, Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo'lgan moddiy, ijtimoiy, manaviy boyliklardir. Bunday qadriyatlar, ayniqsa bu o'lkalarning tabiiy-ilmii, badiiy meroslarida yaqqol ko'rinadi.

Boshqa qadriyatlar kabi bularning shakllanishining obyektiv va subyektiv asoslari bor. Obyektiv asoslar shundan iboratki, bu qadriyatlar yuzaga keltirilayotgan, shakllantirilayotgan davrda o'sha mintaqada ishlab chiqarish resurslari va moddiy

¹ Каримов И. А. Узбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. «Ўзбекистон», 1996.

hayot rivojlanayotgan bo'ladi. Subyektiv zaminlar esa shundan iboratki, o'sha davrda dunyoviy ilm, madaniy muassasa, ta'lim-tarbiya o'choqlari nisbatan ko'paytiriladi, bu soha doirasiga donishmandlar ilm-fan namoyondalari chiqadilar. Masalan IX-XII asrlarda butun bir boshli olimlar pleyadasi ilm-ma'rifat maydoniga kirib keladilar.

Mintaqaviy qadriyatlarda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, mehnat faoliyati, kasb-kori, malakalari, turmush tarzi va moddiy hayotga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi.

Qadriyatlarining uchinchi turi (guruhi) umuminsoniy qadriyatlar bo'lib, ular butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ilm-fan, iqtisodiy (moddiy), siyosiy, ijtimoiy, axloqiy, badiiy, diniy, hurfiylik boylıklaridan iborat.

Qadriyatlar orasida asosiy, belgilovchi, yetakchi o'rinni umuminsoniy qadriyatlar egallaydi. Ular uzoq va yaqin o'tmishdagi, hozirgi davrdagi moddiy jihatlardan g'oyat qimmatli, o'chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati, ehtiyoji ezigulikka xizmat qiladigan umuminsoniy, ijtimoiy, iqtisodiy, manaviy boylıklardir.

Umuminsoniy qadriyatlar ikki qismga, chunonchi, moddiy umuminsoniy qadriyatlar va manaviy umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi. Bulardan birinchilariga, asori-atika obidalari - me'morchilik binolari, milliy san'at buyumlari, tasviriy san'at asarlari kiradi; yana ularga uy-ro'zg'or buyumlari, hunarmandchilik asbob-uskunalarining eng nodirlari, noshirlik, hattotlik, haykaltaroshlik, zeb-ziyat, turli musiqa, dehqonchilik asboblarining eng noyoblari va hokazolar kiradi. Ikkinchisiga, ilm-fan muvaffaqiyatlari, yirik asarlari, kashfiyot uxtirolar, manaviy madaniyat durdonalari, hurfiylik, qoidalari kiradi.

Madaniy qadriyatlar insoniyatga madaniy yashash, shunday faoliyat ko'rsatish imkonini bersa, manaviy qadriyatlar unga hayotning mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan samarali foydalanish, kundalik xatti-harakatlarni ana shu manaviy manfaat, ijtimoiy, axloqiy talablarga mos tarzda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Demak, umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarning eng azaliy orzu umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy ma'no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat deyish mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar qandaydir o'zgarimas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, manaviy kamolotining muayyan yo'llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisadir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'priklar vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar xalqlarning barcha madaniyatlarini yaqinlashtiradi va ularni tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi.

Insonparvarlik g'oyalarga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish.

kishilarni doʻtlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlardir.

1994 yil 23 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika manaviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida" gi farmoni, 1996 yil 9 sentyabrda esa "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish to'g'risidagi farmoni va boshqa manbalarda qadriyatlarning bir necha shakllarda namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Bular:

Vatan eng oliy makon, u menikidir.

Eng oliy qadriyat-inson.

Mulkning eng oliy shakli-intelektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi-intelektual mehnat.

Vaqt - eng oliy boylik.

Umuminsoniy qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar.

Milliy qadriyatlar.

Tabiiy qadriyatlar.

Iqtisodiy qadriyatlar.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar.

Ma'naviy qadriyatlar.

Ahloqiy qadriyatlar.

Diniy qadriyatlar.

Oilaviy qadriyatlar.

Shaxsiy qadriyatlar.

Demokratik qadriyatlar va h.k.


Qadriyatlarning barcha tur va shakllari bilan manaviy, ayniqsa madaniy meros orasida dialektik birlik va tafovutlar bor. Birlik shundaki, hamma qadriyatlarning asosiy ildizlari shu merosga borib taqaladi, uning qonuniy davomi, mahsulidir.

Tafovut shuki, qadriyatlar ilm-fan, amaliyot, ijtimoiy hayot, madaniyat, adabiyot, san'at yutuqlari bilan boyib, yangilanib turadi. Merosning aynan o'zi boyimaydi, u qanday bo'lsa shunday saqlanadi, faqat tahlil-targ'ib qilinishi, baholanishi, foydalanishi mumkin. Rejalarimizdagi masalani oldiga qo'ygan yana bir muhim muammosi - bu demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari (prinsiplari) masalasidir. Demokratiyaning xalqaro e'tirof etilgan tamoyillari to'g'risida gap ketganda, u yoki bu davlat konstitutsiyasining tuzilishi qaysi siyosiy boshqarish formasiga mansubligini aniqlashdan iboratdir.

Bizga ma'lumki, dunyodagi rivojlangan davlatlar tomonidan tan olingan to'rt demokratik boshqaruv formasi mavjud. Qaysi davlat yoki yangi tashkil topgan davlatlar demokratik taraqqiyot yo'lini tanlasalar, albatta, to'rt siyosiy boshqarish formasining bittasiga mos ravishda o'zlarining siyosiy yo'lini belgilab olishlari to'g'ri keladi.

Nima uchun bu siyosiy boshqarish formalari demokratik boshqarish shakllari qisoblanadi. Ularda hokimiyat klassik taqsimlash konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, hokimiyatni bir kishi quyida yoki bir necha kishilar qo'lida to'planib qolishiga va jamiyatga raqbarlik qismida hokimiyatni suiste'mol qilishga yo'l qo'yilmaydi. Bu tamoyillar eng muqim va eng asosiy tamoyillardan biridir.

Demokratik siyosiy boshqarish formalari:



Undan tashqari, insonning o'z qoqish-irodasini erkin bildirishi, hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida qisobot berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi oldidagi javobgarliklari, barcha fuqarolar jinsi, millati, irqidan qat'iy nazar, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda teng huquqliligi, meqnat qilishlari va dam olish, meditsina ishlaridan teng foydalanish, maorif, ta'lim tizimidan foydalanishlarida barcha fuqarolarning teng huquqligi kafolatlanganligi va boshqa qoatlar jumlasiga kiradi. Bu tamoyillar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarning konstititsiyalarida o'z aksini topgan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham jahon xalqlari e'tirof etgan demokratik tamoyilla eng yuksak darajada o'z izohini topgan.

4.2. MILLIY TAMOYILLAR VA QADRIYATLARNING DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHDA AKS ETISHI. UNING TARIXIYLIGI VA ZAMONAVIYLIGI

Demokratik qadriyatlarni, ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini tarixiy va etnik-madaniy tahlil qilib, qadriyatlarni xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari bilan uyg'un holda yoshlarga berilishi nazariy, amaliy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Demokratik qadriyatlarga ijodiy yondoshish lozim, balki undan "nusxa ko'chirish" yarashmaydi.

"Milliy qadriyatlar-milliy muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatdir. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, madaniyat hamda manaviyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi."

Negaki milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan manaviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatlil, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir.

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarimas hodisalar emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, manaviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlarining o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarni vujudga keltiradi. Aynan shu jarayon adolatlil va demokratik jamiyatning shakllanishida xalal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarisiz demokratiya

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдил, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафюлатлари. Т.6. Т. "Ўзбекистон". 1997.

tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir.

Demokratik qadriyatlarga ega bo'lish shartlari

Davlatning ichida siyosiy erkinliklarini ta'minlash-puxta o'ylab har tomonni hisobga olib yondashishni, odamlar ongida uzoq muddat moslashishni talab qiladigan jarayondir.

Bizning manaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir.

Hozirgi demokratik jamiyatning eng muhim voqe'liklaridan biri ijtimoiy raqobatdir. Xalqimizning an'anaviy qadriyatlari u bilan uyg'unlashtirilmo'g'i kerak. Bozor tuzilmalari rivojlanib borgan sari bu raqobat be'mani tus olishi, ijtimoiy ziddiyatga aylanib ketishi, mumkin. Bunday raqobatga, ma'rifiy, ijodiy tus berishga, uni musobaqaga, bunyodkorlikka aylantirishga, birinchi navbatda iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lmagan, eng avvalo, madaniy-axloqiy mexanizmlar yordamida erishish mumkin.

Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat bilimli, ma'rifali jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishi va aksincha, bilini kam, omi odamlar avtoritarizmi va totalitar tuzumi ma'qul ko'rishni hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamog'ida.

Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni mahalda o'z xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishishlik, bir necha chet tillarini tez o'rganib olish kabi noyob fazilatlari to'la-to'kis ro'yobga chiqishga imkon berdi. Ayni shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va sahovat an'analari yanada rivojlanadi.

Demokratik qadriyatlarga ega bo'lish shartlari.

Ikkinchi tomondan esa, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib, o'zgarib boradi. Xullas, millat qadriyatining haqiqiy egasi ekan, uning makon va zamondagi harakati ham o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham avloddan avlodga yetkazib beruvchi ham, uning asosiy obyekti ham millatdir.

Xalqimiz madaniy me'rosi, an'analari, urf-odatlari bizlar uchun faqat o'tmishdan qolib kelayotgan yodgorlikkina emas, balki manaviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurining buyuk yutug'i hamdir. Daraxt o'z ildizlari bilan zamindan suv, ozuqa olib voyaga yetganidek, inson ham avlod-ajdodlaridan qolib kelayotgan bebaho boyliklardan ruhiy ozuq, kuch-quvvat oladi, ularga tayanadi. Har bir millat va elat ajdodlari bilim boyliklaridan, tajriba va tarixiy saboqlaridan, ahloq-odob, ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari va yo'l-yo'rig'laridan foydalanadi, demokratik jamiyat qurishda unga amal qiladi.

O'tmishga, madaniy merosga hurmat-bu birinchi galda, uning yaratuvchisi, ko'z qorachig'iday avaylab-asrovchi va rivojlantiruvchisi bo'lgan xalqqa ko'rsatilgan izzat-ikrom, mehr-oqibatdir. O'zining o'tmishi tarixiga, madaniyatiga, tarixiy me'rosiga, milliy an'analarga katta e'tibor va hurmat bilan qaraydigan xalqning

istiqboli porloq bo'ladi. O'tmishdoshlarimizga bizlar qanday munosabatda bo'lsak, nasl-nasabimiz ham bizlarga xuddi shunday javob qaytaradi. O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqilligimiz istiqboli va ahamiyatini shunchalik chuqur va mukammal tushunamiz.

Xalqimizning madaniy-manaviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, odilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodlarning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-manaviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur o'rganib, yangi yuqori bosqichga ko'tarish va shu orqali demokratik davlat, fuqarolik jamiyati amaliyotiga olib kirish demakdir.

Ma'naviy imkoniyatlar haqida

Biron-bir jamiyat manaviy imkoniyatlarini, odamlar ongida manaviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Biz manaviy qadriyatlarini tiklanishni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning manaviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishidan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho manaviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Tarix xotirasi, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizda moddiy-manaviy qadriyatlarni amaliy hayotga olib kirish, demokratik jamiyat qurish talablaridan kelib chiqib uni boyitish mustaqillik tufayli, istiqbolni belgilash imkoniyatlari sababli mumkin bo'ldi. Milliy istiqbol ozod hayot, erkin tafakkurdir. Ichki erkinlik yo'q mamlakatlarda tashqi erkinlik, ya'ni jamiyat mustaqilligi to'la sodir bo'lmaydi. Tafakkur erkinligi manaviy-ma'rifiy qadriyatlari samarasi. Shu sababli milliy istiqbol manaviyat va ma'rifatdek bebaho qadriyatlar samarasidir. Masalan, fuqaro qanchalik manaviy jihatdan boy, ma'rifiy jihatdan bilimdon, ongi yuksak bo'lsa, uning qadr-qimmatini shuncha yuqori o'ladi. Bularsiz odam qadrsizlanadi. O'z milliy qadriyatlaridan bahra olgan kishigina o'ziga va millatdoshlariga qadrlil mazmun va samara baxsh etadi.

Milliy istiqbol g'oyat muhim ijtimoiy qadriyatdir. U xalqimiz, mamlakatimiz tarixidagi buyuk voqea. Uning ahamiyati beqiyos. Bu qadriyatning buyuk tarixiy ahamiyati shundaki, u ilk bor dunyoviy, mustaqil o'zbek davlatchiligiga asos soldi. Bu qadriyat tufayli jahon O'zbekistonni tanidi, milliy manaviy qadriyatlarimizdan voqif bo'ldi.

Bulardan tashqari respublikamiz ichkarisidagi moddiy va manaviy hayot ham butunlay yangi mazmun kasb etdi, qaror topdi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

Ijtimoiy hayot negizi, poydevori bo'lmish mulkiy munosabatlar shakli o'zgarib bormoqda.

Mulk shakllari, xilma-xilligi, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, erkin tijorat faoliyatining huquqiy asoslari yaratilmoqda.

Demak, milliy istiqbol beqiyos o'zbek milliy qadriyati sifatida barcha qadriyatlarimizni asrab avaylash, ardoqlashning kafolatidir.

O'zbek xalqining eng qadimi davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlardan yana biri-ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromlari, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchig'i, bitmas-tugalmas boyligidir. Hech ikkilanmasdan shuni aytish kerakki, ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi.

Shunday ekan ota-onani qadrlash, ularning beo'lchov xizmatiga bir umr sodiq bo'lib, duolarni olish-bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

Ma'rifatli demokratik jamiyatni qurishda jamiyat a'zolari madaniy-manaviy, axloqiy kamoloti sur'atlarini tezlashtirish, ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish katta ahamiyatga ega. Jamiyat hayotidagi barcha muammolar manaviy jihatdan barkamol bo'lgan kishilarning fidokorona, halol mehnati, halol va pokligi asosida ro'yobga chiqadi. "Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini oolganda, ahloq-manaviyatning o'chog'i. Inson ahloqi shunchaki salom alik, xush muomaladagina iborat emas. Ahloq-bu avvalo inson va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani".¹

Milliy qadriyatlarimizda bilim va bilimdonlik juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmat, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-manaviy, axloqiy kamoloti uchun ahamiyati haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hamma yaxshi biladi.

Allomalarimizning va buyuk donishmandlarimizning ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy, tibbiy, axloqiy, huquqshunoslikka oid va boshqa qator asarlarining ham kelajak yo'lini, istiqbolini ilm-ma'rifat nuri bilan mash'ala kabi yoritib turadi.

Odamlarda ilmu-hunar qancha ko'p bo'lsa, o'zini shuncha oddiy, kamtar tutadi. Kamtarlik odamni bezaydi, obro'sini oshiradi, do'stlarini ko'paytiradi.

Kamtarlik-inson ichki manaviy dunyosining namoyon bo'lishidir. Agar insonning qonida, qalbida kamtarlik, sahovat, odob-andisha, sharm-hayo bo'lmasa, ming harakat qilmasin, baribir, odamlar ko'ziga kamtar bo'lib ko'rinsa olmaydi.

O'zbek xalqida urf-odatlarida, milliy qadriyatlarimizda takabburlik qiluvchilar, firibgarlar, dilozorlar, maqtanchoqlar, munofiqlar keskin qoralanadi. Katarga-kamol, manmanga-zavol, o'g'itlar behikmat emas.

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Zotan, o'tmishni anglash, uni to'g'ri tushunish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jiddiy o'zgarishlar yasashga, shu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir-oqibatda esa jamiyatni manaviy isloh qilishga erishiladi. buni nimalarda ko'rish mumkin. Birinchidan, tarixni anglash orqali hayotni anglash qobiliyati shakllanadi.

Ikkinchidan, tarixiy tafakkur va tarix falsafasi orqali bugungi hayot mazmuni chuqurroq tushuniladi va istiqbolni ko'rish falsafasi dunyoga keladi. Bu har bir

insonning o'ziga xos tafakkur tarzini shakllantirish orqali shaxs sifatidagi o'zligini vujudga keltirishga, fe'l-atvorining shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tarixiy o'rganish orqali mustamlakachilik ta'sirida va kommunistik zo'rvonlik mafkurasi natijasida o'zligini yo'qotgan fuqaroni uyg'otishga, o'zligini anglashga, o'z haq-huquqlarini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga da'vat etadi.

To'rtinchidan, ajdodlari buyuk bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaro qalbida o'tmishni o'rganish orqali milliy g'ururining uyg'onishi mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan bir paytda katta ijtimoiy-manaviy qudrat va ulkan siyosiy iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, har bir fuqaroni manaviy-ruhiy va axloqiy jihatdan yangilash orqali jamiyatni yangilash, turmush tarzini yangilash kabi g'oyatda chuqur, keng miqyosli islohot amalga oshiriladi.

Asltni olganda tarix faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yoki tushunchalarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o'tmishni o'rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo'liga solish borasidagi fikrlarni, g'oyalarni o'zida mujassam etganida namoyon bo'ladi. Prezident I.Karimov tarixga ana shunday nuqtai-nazardan qaraydi va uning barcha imkoniyatlarini inson manaviyatiga to'la safarbar etish zarurligini asoslab beradi.

O'zbek xalqi tarixi, uning kelishi Yevropa tarix falsafasi va tarixiy tafakkur orqali bugun odamlarni uyg'otmoqda, ular diqqatini o'ziga tortmoqda. Zamondoshlarimiz ongi, qalbi orqali butun o'tmish o'z yutuqlari va nuqsonlari bilan yaxlit holga jamlanmoqda. Shu asosda xalqimizning manaviy qudratiga, ruhiy tayanchiga aylanmoqda, o'lis istiqbolni belgilashda o'ta muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar o'tmish bilan bugungi kun kelajakni bog'laydigan vosita. Buni faqat bilimli yoshlarga kelajakka olib o'tishi mumkin, chunki qadriyatlar anglanmasdan u qadrlanmaydi va kelajakning mulkiga aylanmaydi. Shu o'rinda Prezidentimiz I.Karimovning "Kuch bilim va tafakkurda" - degan fikrni o'zlarida mujassamlashtirgan yoshlarga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga munosib hissalarini qo'sha oladilar.

4.3. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETISHDA MILLIY VA UMUMBASHARIY QADRIYATLARNING UYG'UNLIGI

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo'lmaydi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishda umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, uning bu xususiyati, ya'ni nisbiylik har doim ham ko'zga tashlanavermaydi. Shunga ko'ra demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda uning quyidagi namoyon bo'lish shakllarini alohida ta'kidlash zarur. Umuminsoniy qadriyat deganda eng avvalo, jamiyat va inson nasli uchun eng qadri va uning manaviy kamoloti uchun xizmat qiluvchi umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalarning nomi, ularning ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy tushunchalarni nazarda tutadi. Demak,

umuminsoniy qadriyat deganda jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarining mezoni sifatida baholanadi. Shu bilan ham umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik qadriyatlarining o'zi uning shakllanishi uchun keng maydon ochib beradi. Biroq bu deganda milliy qadriyatlarining o'zini ana shu tizimda passiv holatda ekan xulosani chiqarmaslik kerak. Negaki, qadriyatlar tizimida millat, unga xos bo'lgan belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan hudud, makon va u bilan bog'liq tuyg'ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi.

Odob-ahloq, ta'lim-tarbiya, sohasidagi qadriyatlarmiz bizlar uchun faqat milliy merosgina emas, balki insoniyat manaviy hayoti borasida katta o'rin olishi mumkin bo'lgan manaviy boylikdir. Ana shu milliy qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lish, yoki avlodni ular bilan tanishtirish demokratik jamiyat qurishda, odamlarda insonparvarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarini qaror toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Gap manaviy va axloqiy poklik, imon, insof, or-nomus, mehr-oqibat mehmondo'stlik va boshqa umuminsoniy va milliy qadriyatlar ustida bormoqda. Ularning jamiyatimizning iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy-manaviy kamoloti uchun nechog'li muhim o'rin tutishini barcha yaxshi biladi.

"Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha asrab-avaylab kelmoqdalar. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi shuki ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir".

Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi asosiy bog'ich hisoblanadi. Shunga ko'ra, millat har qanday milliy qadriyatning obyektini yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini muttasil vujudga keltirib turganligi bilan ham u yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlarini o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ular doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarni vujudga keltiradi. Aynan shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlarsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas., demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki millatning ruhiyati hamdir. Ikkinchi tomondan esa, demokratik jarayonlar davomida qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib va o'zgarib boradi. Demak, millat milliy qadriyatning haqiqiy egasi ekan, uning makon va zamondagi harakati ham o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham avloddan avlodga yetkazib beruvchisi ham, uning asosiy obyektini ham millatdir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi shu narsaga olib keladiki, butun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni

¹ Каримов И. А. Узбекистон: Миллий истиқлол, иқтисол, сиёсат, мафкура. - Ё.: «Ўзбекистон», 1998.

barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirishga xizmat qiladi. Bu borada biron kishilarga, milliy maxdudlikka va kalondimog'likka yo'l qo'yish nihoyatda jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar mahalliy sharoit, imkoniyatlar, tarixiy an'analar bilan bog'langandagina kerakli samara beradi.

Taraqqiyot mantig'i, sivilizatsiya ehtiyojlari shunday. Biz o'tmishda yashamasligimiz, uni takrorlamasligimiz, aksincha, uni o'rganishimiz, taraqqiy ettirishimiz va aniq xulosalarga kelib yashashimiz kerak. Ayni shu xulosalar asosida istiqbolimizni belgilashimiz, o'zimizni ham, jamiyatni ham manaviy jihatdan kamolotga yetkazishimiz kerak.

Biz milliy qadriyatlarimizni tiklashimiz, umuminsoniy qadriyatlarni ustuvor anglab, o'zaro uyg'unlikda tafakkurimizni boyitib barcha qobiliyatimizni demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurishga safarbar etishimiz kerak.

Qisqacha xulosalar

Qadriyatlarni inson yaratadi, boyitadi, yangilaydi. U hamma vaqt ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. Qadriyatlar o'tmish bilan bugungi kunni kelajak bilan bog'laydigan vosita rolini o'taydi. Qadriyatlar milliy, mintaqaviy va umuminsoniy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. qadriyatlar orasida asosiy, belgilovchi, yetakchi o'rinni umuminsoniy qadriyatlar egallaydi. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy ma'no va mazmun kashf etadigan qadriyatlar yotadi.

O'zbekiston milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligiga asoslangan holda insonni kamolotga yetaklaydi, hayotda, jamiyatda o'z mavqeiga, o'rniga, nufuziga ega bo'lishini ta'minlaydi, pirovard natijada demokratik davlat fuqarolik jamiyatini qurishning garovi hamdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qadriyat, bu nima degani? Qadriyatlarining mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni qanday?

2. Qadriyatlarining eng muhim ikki turi mavjud: bular milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar. Ularning har ikkalasining mohiyatini ochib bering

3. Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz tasavvur etish mumkinmi? Agar mumkin bo'lmasa uning sababini asoslang.

4. Umuminsoniy qadriyat deganda umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, hodisalar tushuniladi. Ana shu narsalar, hodisalar, tushunchalar nima va siz uni qanday tushunasiz?

5. Milliy qadriyatlar va demokratiya tamoyillari o'rtasidagi mutanosiblikka erishishning jahondagi sinalgan tajribasi bormi?

6. O'zbekistonda adolatli demokratik jamiyat qurishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mutanosibliigi amaliy hayotda o'zini qanday namoyon etmoqda?

7. Demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlari.

8. Demokratik jamiyat qurishda milliy demokratiya tamoyillari.

9. O'zbekistonda demokratik tamoyillarga amal qilish shart-sharoitlari.

10. Terrorizm - demokratik jamiyatga qarshi tahdid.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т. I. - Т.: "Ўзбекистон". 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: "Ўзбекистон". 1997.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. Т.6. -Т.: "Ўзбекистон". 2000.
5. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Т. II. -Т.: 2002.
6. Каримов И.А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ. -Т.: "Ўзбекистон", 2004.
7. Каримов И.А. Эл-юртга ҳалол, виждонан хизмат қилиш - ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи. Андижон вилоят Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқи. // "Халқ сўзи", 2004 йил 26 май.
8. Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократиялаш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: "Ўзбекистон", 2005.
9. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. -Т.: "Академия", 2005.
10. Эргашев И. Демократия - миллий ва умумбашарий қадрият. Жамият ва бошқарув. № 2, 2004.
11. Ўзбекистон: 13 йил мустақил тараққиёт йўлида. Т. "Ўзбекистон". 2004.
12. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номли маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.
13. www.edu.uz
14. www.zuyo.edu.uz
15. www.ec.edu.uz
16. www.performance.edu.uz
17. www.gov.uz
18. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
19. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru
20. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
21. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

II. BO'LIM O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISH ASOSLARI

V BOB

QONUN USTUVORLIGI DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI QURISHINING ASOSI

5.1. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI QURILISHIDA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILINING MUSTAHKAMLANISHI

Davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi insonparvar demokratik tuzumga o'tish yo'lini o'zi uchun maqbul deb bildi. Bu yo'l demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish va mustahkamlash yo'lidir.

Prezidentimiz "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida juda aniq va mukammal qilib ta'riflanganidek - "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. Bu demokratik, huquqiy davlatdir".

Demokratik davlat o'zining mazmuni, tub mohiyati, keng xalq ommasi maqsad va manfaatlarini o'zida chuqur aks ettirishi, ijtimoiy bazasining keng va turli-tumanligi, qanday ijtimoiy kuchlarga tayanishi, fuqarolar oldidagi burchi va mas'uliyatining nihoyatda kattaligi va boshqa fazilat hamda xususiyatlariga ko'ra davlatning boshqa shakllaridan keskin farq qiladi.

O'zbekistonda tashkil etilayotgan demokratik davlat xalqimiz davlatchiligining bir necha ming yillik tarixiy an'alariga asoslanishi, uning ildizlari o'tmish davrlariga borib taqalishini alohida ta'kidlamasdan o'tib bo'lmaydi.

Davlatchilik sohasida o'zbeklarning avlod-ajdodlari tarixda o'zlaridan sezilarli iz qoldirganlar. Ular Samoniylar (937-1005), Chig'atoy ulusi (1227-1370), Temur va temuriylar davlati (1370-1506)ning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynadilar. O'zbeklarning ajdodlari Saljuqiylar (1038-1194) va G'aznaviylar (977-1186) davlatining harbiy-siyosiy tayanchi bo'ldilar. O'zbeklar XVI asrning boshida shayboniylar davlati (1500-1601) ga asos soldilar, ashtarxoniylar (1601-1757) va magnitlar (1757-1920) davlatini ham asosan ular boshqardilar. Qo'qon (1512-1920) xonliklari ham o'zbeklarning davlati edi".

Ko'rinib turganidek, bizda davlat mustaqilligining barcha an'anaviy belgilari-milliy puli, davlat ramzlari, milliy bayrog'i, o'zining alohida hududi, uni qo'riqlaydigan qo'shni-armiyasi, qonunlar majmuasi -Konstitutsiyasi, boshqaruvning o'ziga xos uslublari, an'analari, mafkurasi va boshqa shu kabilari bo'lgan va to'la amal qilgan.

Allomalarning tarixiy, ilmiy, badiiy, falsafiy asarlari, maxsus tavsifanomalari va shariat qonun-qoidalari davlatchilik tizimining insonparvarlik mazmuniga alohida e'tibor berilgani, mansabdorlarning oliy insoniy fazilatlarini davlat boshqaruvining asosiy omili sifatida qaralgani, saltanat ishlarini saidlar, ulamolar, shayxlar, fozilufuzalolar, oqilu-donolar maslahatlariga asoslanib olib borish lozimligiga undalgani, xukmdorlarning o'z mamlakatlarida adolat, insof-diyonat eshigini ochib, zulmu sitam yo'lini to'sishga da'vat etilgani e'tiborga sazovordir.

O'tmishda dunyoga kelgan bir qancha asarlar va ta'limotlarda davlatni boshqarish, uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy-manaviy asoslarini mustahkamlash, ichki va tashqi

rajobuvlardan muhofaza etish, hokimiyatning kucli-qudrat manbai adovatda emas, adolatda ekanligi, haq yo'lda, xalq manfaati uchun qilinadigan bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzalligi to'g'risida bayon etilgan chuqur mazmunli sharqona g'oyalari. eng muhim yo'l-yo'riqlar ham huquqiy davlatimiz mazmuni va negiziga chuqur singdirilib yuborilganligi eslatib o'tish joiz deb hisoblaymiz. Bu joyda biz, birinchi navbatda, "Temur tuzuklari", Xondamir (1475-1535) yozgan "Qonuni Humoyun", Alisher Navoiyning "Xamsa", "Maxbub ul-qulub", Mirzo Boburning "Bobumoma", asarlarini nazarda tutaymiz. Shular orasida "Temur tuzuklari" muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. "Tuzuklar"ni hech bir ikkilanmasdan markazlashgan Temuriylar davlatining asosiy qonuni deb atash mumkin.

Sohibqiron bobomizning dono o'g'itlari va saboqlarining hozirgi davrda demokratik huquqiy davlatimiz ishlarini boshqarishda, xalq bilan muomala qilishda, mansabdor shaxslarning o'zlariga ishonib topshirilgan mas'uliyatni vijdonan, xalol bajarishlarida O'zbekiston Respublikasining bugungi va ertangi hayoti, istiqboli uchun fidokorlik ko'rsatishlarida da'vat bo'lib xizmat qilishini aytib o'tirmasa ham bo'ladi.

Jamiyat va davlatni boshqarish uchun qonun kerak. Qonunchilikning yuragi esa konstitutsiyadir. O'zbekistondagi demokratik davlatda birinchi o'ringa huquqni, ikkinchi o'ringa davlatning qo'yilishi bejiz emas. Demokratik huquqiy davlatning asosiy tamoyili huquqning oliy hukmronligidir.

Demokratik huquqiy davlatda hamma narsa qonunlar, huquqiy normalar asosida adolatli yo'l bilan hal etiladi. Yetuk millatparvar kishilar o'z shaxsiy manfaat va maqsadlarini demokratik va adolatli talablardan ustun qo'ymaydilar.

Demokratik huquqiy davlatda, birinchi navbatda, davlatning o'zi, uning barcha organlari, mansabdor shaxslari ham qonunga itoat etishlari majburiydir. "qonunning ustuvorligi" - demokratik davlatning asosiy prinsidir. U hayotning hammasohalarida qonunning qat'iyyan hukmronligini nazarda tutadi. qonun oldida hamma barobardir. qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartiga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istenosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi.

Demokratik huquqiy davlatda qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar konstitutsiyamiz asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Birorta qonun yoki normativ huquqiy hujjat unga zid bo'lmasligi kerak.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur aytdiganlaridek, "qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi". Qonunga amal qilish, unga chuqur hurmat bilan qarash - ijtimoiy adolat qaror topishining asosidir.

Demokratik huquqiy davlatda qonun oldida hamma barobardir. Bu fikr O'zbekiston respublikasidagi barcha fuqarolarga ham, siyosiy partiyalar, tabaqalar, ijtimoiy guruhlariga ham, yurtimizda istiqomat qilayotgan jamiki xalq, elat va millat vakillariga ham to'la taalluqlidir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi subyekt yoki ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobar. Qonun ustuvorligini ta'minlash jamiyatning barqaror rivojlanish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish kafolatidir.

Demokratik huquqiy davlat - qonun asosida faoliyat ko'rsatadigan, qonun asosida nafas oladigan, qonun belgilab bergan chiziqdan har qanday holatda ham

chiqmaydigan obro'-e'tibori ham, qalbi, jon-tani va tirikligi ham - qonundir.

Qonunga qat'iy amal qilib ish ko'radigan davlatimizni xalq ommasi, jami fuqarolar o'zlarining birdan-bir suyanchig'i deb biladi, hurmat qiladi. Boshqacha aytganda, xalq bunday qonunning quli sifatida xizmat qilishni o'zi uchun sharaf deb biladi.

Demokratik huquqiy davlatda qonun yakka hokimlikka, zo'rvonlikka, vazifasini suiste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Qonunlarni buzgan, amalga oshirilishiga qarshilik qilgan, uni hurmat qilmagan kishilar kimligidan qat'iy nazar jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Insonparvar, demokratik huquqiy davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga to'la asoslangan va uni tan olgan holda bironta ham odamning asossiz tarzda qamoqqa olinishi, ushlab turilishi, quvg'in etilishi, tazyiq ostiga olinishi, haq-huquqlarini cheklash, qadr-qiymati va shaxsiyatini kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida bu haqda shunday yozilgan: "Hech kim qiynoqqa solinish, zo'rvonlikka, shavqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas"¹

Demokratik huquqiy davlatda inson oliy qadriyat hisoblanadi, uning barcha huquqlari qonun izmi bilan muhofaza qilinadi.

Demokratik huquqiy davlatning prinsiplari, insonparvarlik mohiyati BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" da bayon etilgan asosiy qoidalarga mos va hamohangdir. Uning uchinchi moddasida "Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir" deyiladi.

Demokratik huquqiy davlat fuqarolar tinchligi va xavfsizligini muhofaza etadi. Tartib va intizomga amal qilish, milliy an'analarga, milliy tilga, din, tarix va qadriyatlarga o'zaro hurmatda bo'lish, demokratik huquqiy davlat fuqarolarining muhim burchi va mas'uliyatidir.

Har qanday qonunning kuchi, obro'si, ta'siri, amaliy ahamiyati, hayotda uning halol, haqqoniy, odilona tatbiq etilishiga bog'liq. Agar qonun ijodkorlari o'z burchlari va mas'uliyatlariga xolisona yondashib qonunlarni hayotga to'g'ri joriy etsalar bundan jamiyatimiz ham, O'zbekiston fuqarolari ham naf ko'radilar.

Shunday qilinsa ijtimoiy adolatsizlik, davlat mulkini talash, mansab lavozimidan shaxsiy boylik orttirishlarga urinishlarning oldi olinadi.

Demokratik huquqiy davlatning qanchalik tez ulg'ayishi, kuch-quvvat ato etishi, dunyo hamjamiyatida o'ziga xos munosib o'rin egallashi birinchi navbatda mustaqil O'zbekiston Respublikasi xalqining madaniy-manaviy saviyasi, siyosiy madaniyati, milliy o'zligini anglashi qanchalik yuksak bo'lishiga bevosita bog'liq. Bu masalada huquqiy bilim va madaniyatni qanchalik mukammal bilib olish va o'zlashtirishning ahamiyati juda katta.

Huquqiy madaniyat umuminsoniy qadriyatlarning ajralmas qismi, siyosiy madaniyat esa uning o'zagidir. Siyosiy madaniyat milliy ong o'sishining, o'zligini anglashning asosidir.

Huquqiy bilim va madaniyati o'sgan xalq va millat o'z-o'zini anglab yetadi, o'zining kuchi va imkoniyatlariga xolisona baho beradi, buyuk istiqbolni ko'zlab ish tutishga ishonadi.

Huquqiy madaniyat kishini faqat shaxsiy, milliy manfaatlar qobig'ida o'ralib qolishidan asraydi, milliy va umummilliy maqsad va muammolarga e'tibor berishga chorlaydi.

Huquqiy bilim va madaniyat kishilarga juda katta ta'lim va tarbiya beradi. Ana

¹ "Узбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.

shunday bilim va madaniyatga ega bo'lgan odam oq bilan qorani farqlaydigan bo'ladi. Huquqiy madaniyatning ahamiyati shu qadar kattaki, uning yordamida inson o'g'irlik, bezorilik, birovlarining mulkiga ko'z olaytirish katta gunoh ekanligini tushunib yetadi.

Afsuski xalqimizning o'tmishdagi fojearalarning muhim sabablaridan biri - huquqiy bilim va madaniyatining past, nochor ahvoldaligi bo'ldi.

Bugun biz istiqloq tufayli jumhuriyatimiz mehnatkashlarini, barcha katta-yu kichikni madaniyat va manaviyatga dav'at etadigan jamiyat qurmoqdami. "Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi demokratik huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajada ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero huquqiy normalar odamlar ongiga singan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro'yobga chiqadi", deyiladi yurtboshimizning "O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarida.

Qonunchilik palatasi va senat, Prezidentlik instituti Vazirlar Mahkamasi. Sud mustaqilligi. Davlat organlari vakolatlari.

Konstitutsiyaning II-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatigabo'linishi prinsipi asoslanadi". Asosiy qonundanashu uchta hokimiyat idoralarning o'zaro uyg'un faoliyat vositalari, shuningdek, bu idoralarning o'zaro bir-birini tiyib turish tizimini vujudga keltiruvchi qoidalar mustahkamlangan.

Chunonchi, qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlis tomonidan, ijroiya hokimiyati esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va uning rahbarligi ostida Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyat - Konstitutsiyaviy sud. Oliy Sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalda oshirilib, ular birgalikda respublikaning yagona tizimini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning maxsus bobi (21-bob) joylardagi davlat hokimiyati organlariga bag'ishlangan. Bu bobda o'z-o'zini boshqarish prinsiplarini mustahkamlash bilan bir qatorda mahalliy hokimiyatning boshlig'i bo'lgan hokim tartiboti joriy etiladi. Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda mahalliy hokimiyat o'z-o'zini boshqarish jamoasi organlari shaklida amalga oshiriladi. Fuqarolarning yig'inlari bunday o'z-o'zini boshqarishning organlari hisoblanadi. Fuqarolar ikki yarim yil muddatga rais (oqsaqol) va uning maslahatchilarini saylaydilar. (105 modda).

Ularning har biri faoliyatida huquqiy asosda avtoritarizm va totalitarizmning xurujlarini istesno etuvchi chinam demokratik me'yorlar va yo'l-yo'riqlar qaror toptirildi.

Ma'lumki, yangi konstitutsiyaning u bo'limi davlat hokimiyatini tashkil qilish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Shu bo'limning XVIII bobi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga bag'ishlangan va uning 76 moddasida "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi" deb mustahkamlandi.

O'zbekistonda Konstitutsiya talablari asosida izchil ravishda siyosiy islohotlar amalga oshirilar ekan, 1993 yil 28 dekabrda bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining XIV sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida" qonun qabul

qilindi. Bular demokratik tamoyillarga assoslangan hokimiyat bo'linishining eng xalqchil va zamonaviy shakllari hisoblanadi. Oliy Kengash XVI sessiyasidan (1994 yil, sentyabr) so'ng O'zbekistonda yangi qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlisi shakllantirish uchun amaliy choralar kurila boshlandi. Sessiya qaroriga muvofiq 1994 yil 25 dekabrda Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar belgilandi.

1995 yil 23 fevralda o'z ishini boshlagan yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning birinchi sessiyasi O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. O'zbekiston Parlamenti - Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi.

Oliy Majlisning qo'mita va komissiyalari tarkibida, ishchil organ sessiyalar oralig'ida kotibiyat bilan birgalikda qonun yaratish jarayonini boshqaradilar. Bundan tashqari, yil davomida Oliy Majlisning kollegial rahbar organi-Kengash, turli sohalarga ixtisoslashgan 13 ta komita va 3 ta komissiyasi muntazam faoliyat yuritadi. Turli masalalar, xususan, qonun yaratish jarayonlari bo'yicha Oliy Majlisda uchrashuv, muzokaralar, majlislar, muhokamalar fraksiya yig'ilishlari bo'lib o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, bir palatali Parlament hali yetarli huquqiy bazasi shakllanmagan, turli sohalarda bo'yicha qonunlar tansiqiligi sezilayotgan yosh davlat uchun muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Chunki bunda, birinchidan, qonun yaratuvchilik jarayoni tezlashadi va o'ziga xos jo'shqinlik yuzaga keladi. Shu bois Oliy Majlisning dastlabki 5 yillik faoliyati unumli bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 138 ta qonun, 468 ta qaror, 10 ta Kodeks, 2 ta Milliy dastur qabul qilindi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki bosqichida bir palatali parlamentning ijobiy tomonlaridan to'liq foydalana oldi.

Oliy Majlisning 2001 yil dekabrda bo'lgan yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. 2002 yil 27 yanvarda ikki palatali parlament tuzish masalasida referendum o'tkazildi. Referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 93,65%i ikki palatali parlament tizimini yoqlab ovoz berdilar. 2002 yil aprelda bo'lgan Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasi "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonun qabul qildi va ikki palatali parlament tizimiga tayyorgarlik boshlab yuborildi.

2002 yil 12-13 dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning o'ninchi sessiyasida xalqimizning xohish-irodasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunda ham ikki palatali parlament tizimining huquqiy asoslari belgilab berildi.

Bundan keyin ham O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat vakillik organi - Parlamentning nomi Oliy Majlis deb atalaveradi. Uning tarkibida ikki palata tuziladi. Yuqori palata Senat, quyi palata qonunchilik palatasi deb ataladi. Ikki palatali parlamentga 2004 yil 26 dekabrda saylovlar asosida shakllantirildi. quyi palataga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 120 ta deputat saylandi. Senat 100 ta senatordan iborat bo'ldi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda 6 nafardan jami 84 nafar senator saylandi. 16 nafar senator fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa

tormoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan, alohida xizmat ko'rsatgan obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Prezidenti tomonidan tayinlandi. Ikkala parlamentning vakolati muddati - 5 yil etib belgilandi.

Konstitutsion qonunning 8-moddasiga binoan qonunchilik palatasi va Senatning yigirma bitta banddan iborat birgalikdagi vakolatlari yozib qo'yilgan. Ana shu vakolatlarga daxldor masalalar qoida tariqasida, avvalo qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi. 9 moddada qonunchilik palatasining 4 banddan iborat mutloq vakolatlari ko'rsailgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati 14 band etib belgilangan.

Quyidagi palata mahalliy hokimiyat vakillaridan butunlay bo'shatiladi, uning shaklanishini siyosiy partiyalarning o'zlari amalga oshiradi. Yuqori palata esa, asosan tajribali, hayotni ko'rgan, xalq obro'-e'tiborini qozongan kishilar bo'ladi.

Ikki palatali parlament bir qancha o'ziga xos afzalliklarga ega. U eng avvalo, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat yanada barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Ikki palatali parlament mintaqalarining, kichik tuzilmalarning, mamlakatlarning, uzoqda joylashgan qismlarning manfaatlariga rioya etishga olib keladi. Ikki palatali tizim ijroiya hokimiyati bilan bir palatali parlament va hukumat vakolat-vazifalarining aralashib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Shunday qilib, ta'kidlash joizki, ikki palatali parlament huquqiy davlat barpo etishning, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishning eng muhim qurolidir.

Hozirdan yangi tizimga o'tganimizdan so'ng nimalarga ega bo'lishimiz ko'z oldimizda nomoyon bo'layotir. Ha, fuqarolik jamiyati shakllanishi asnosida parlamentimiz tarkibi o'zgaradi. Ya'ni, qonun ijodkorlari bilan shug'ullanuvchi deputatlarimiz kasbiy malakaga ega bo'lishadi, o'z qobiliyatini va iqtidorlarini shu ishga sarflashadi. Insondagi imkoniyatlar esa qachon o'z joyida ishlatilsa, ko'proq samara beradi, foyda keltiradi.

O'zida ikki palatani birlashtirgan Oliy Majlis bugungi kundagidan ko'ra kengroq vakolatga ega bo'ladi. demak hayotimizga ta'siri ham kuchayadi. Yangi tizimga o'tganimizdan so'ng barcha subyektlarda mas'uliyat tuyg'usi yanada oshadi.

Fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirishda Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakolat (Ombudsman) instituti muhim rol o'ynaydi. Kengroq qilib aytganda Ombudsman inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan mansabdor shaxs. U inson huquqlarini turli ma'muriy organlar tajovuzidan himoya qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ombudsman fuqarolarning murojaati yoki o'z tashabbusi bilan tekshiruv ishlarini olib boradi, huquq buzilishini aniqlagan vaqtda, shu buzilishida aybdor bo'lgan organga qonunga xilof hujjat yoki harakatni bekor qilishni taklif etadi. Agar taklif bajarilmasa sudga yoki parlamentga murojaat qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning faoliyat ko'rsatayotganligi faqat tom ma'nodagi huquqiy-demokratik jamiyat qurishga intilayotgan davlatlargagina xos xususiyatdir.

O'zbekistonda insoniyat orzu qilib kelgan demokratiyaning, xalq hokimiyatining qaror topganligini ko'ramiz. Respublikada Prezident lavozimi Parlamentning 1990 yil 24 mart qarori bilan ta'sis qilindi va Prezident faoliyatining demokratik tamoyillari

ko'rsatib berildi. Uning huzurida Prezident kengashi ishlaydi. Kengashning vazifasi davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish, fuqaro xavfsizligini ta'minlash choralarni ishlab chiqishdan iborat edi. Prezident Respublika Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish yuzasidan farmonlar chiqaradi. O'zbekistonda yangi jamiyat qurish borasida tajribalar orttirilishi bilan Prezidentlik boshqaruvi tobora takomillasha bordi. Jumladan, 1990-1992 yillarda Prezidentlik Hokimiyati bilan Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shilib Vazirlar Kengashi Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. 1990 yil 15 noyabrda Prezident I.Karimov "O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida" Farmon chiqardi.

Prezidentning ushbu farmoni asosida xalq xo'jaligi dehqonchilik sanoati, xalq iste'moli mollari, qurilish, mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, umumiy-tasodiyot, milliy-texnika, madaniyat ishlari komplekslariga ajratilib, uning rahbarlari belgilandi va ular Vazirlar Mahkamasi raisi bo'lib qoldi. Bu bilan Prezident va Hukumat apparati birlashtirildi. Shunday qilib, Prezident ikkinchi bosqichda respublika oliy ijroiya va boshqaruv hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxsga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasining birinchi bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishning kafolati bir paytda davlat boshlig'i ham hisoblandi.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining yanada takomillashuvida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki yangi Asosiy qonunga muvofiq, Prezidentning huquqiy maqomi yanada kengaydi. Chunonchi, Prezident lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekistonda muqim yashagan respublika fuqarosi saylanishi mumkin deb belgilandi.

Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda siyosiy partiyaga a'zoliqini to'xtatib turidi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi mumkin emas deb ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25 banddan iborat vakolatlari ko'rsatilib o'tilgan. Yangi Konstitutsiyada belgilab qo'yiladiki, Prezident mustaqil davlat rahbari sifatida muzokaralar olib boradi va respublika shartnomalarini imzolaydi, ularning bajarilishini ta'minlaydi, o'z huzuridagi akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillarining ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi, viloyat, tuman, shahar va xo'jalik sudyalari tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, o'z vakolatiga berilgan boshqa ichki va tashqi masalalarni hal qiladi.

Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklarining real kafili bo'lishdek ustuvor vazifalarni hal etish, o'tkazilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan asosni - siyosiy barqarorlik va umummilliy totuvlikni ta'minlash va mustahkamlash imkoniyatlari Prezident vakolatlariga kiradi.

Ma'lumki, 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan Referendum O'zbekiston Prezidenti vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirish haqidagi saylov byulleteniga kiritilgan savolni xalq qo'llab-quvvatladi. Bu bilan mamlakatni rivojlantirish bo'yicha o'zi taqdim etgan dasturini hayotga to'liq tadbir etib olish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda prezidentlik instituti o'rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar Kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. 1990-yil 30-martida Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkib 41 kishi, ya'ni, Rais, Bosh Vazir, uning ikki birinchi o'rinbosari, to'rt o'rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo'mitasi raisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari tobora takomillashib bordi.

Jumladan, hukumat tarkibi ham yangi talablar asosida shakllantirildi. 1995 yil 5 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasi bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi to'g'risidagi farmonini tasdiqlash masalasi ko'rildi. Sessiyaga yangi Vazirlar Mahkamasining 35 kishidar iborat yangi tarkibi saylandi.

Shulardan 2 nafari Vazirlar Mahkamasining rahbariyati, ya'ni Bosh Vazir va o'rinbosarlari, 15 nafari-vazirlar va 8 nafar davlat qo'mitalarining raislari edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashining Raisi lavozimiga ko'ra Vazirlar Mahkamasiga kirdi.

Yuqoridagi misoldan ko'rinib to'ribdiki, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi, iqtisodiy sohadagi yangi voqealarga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi jiddiy ravishda qayta tuzildi.

Shunday qilib, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarni belgilab beruvchi, fuqarolarni himoya qiluvchi oliy darajadagi ijroiya hokimiyati vujudga keltirildi, milliy davlatchilikda jahon tan olgan o'ziga xos tajriba to'pladi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi - inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qiluvchi, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirishga xizmat qiladigan yuridik shaxs huquqiga ega. Prezident tomonidan tayinlanadigan direktor boshchilik qiladigan tashkilotdir. Ushbu tashkilot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, 1986-yil 31-oktabr kuni tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari etub milliy harakat rejasini, shuningdek, konstitutsiya, qonunlar va inson huquqlari sohasida umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash, davlat jamiyati va boshqaruv organlariga, jamoat birlashmalariga maslahatlar berish faoliyatini amalga oshirish, targ'ibot, o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat organlarining inson huquqlariga rioya etish va bu huquqlarni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan ularga tavsiyalar tayyorlash, inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlarini yuzasidan tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish kabilar belgilangan.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng bu borada katta ishlar amalga oshirildi.

O'tgan tarixan qisqa davrda sud hokimiyatini mustahkamlash, sud islohotlarini izchillik bilan o'tkazish masalalari hamisha davlat rahbarining diqqat markazida bo'lib keldi. Jumladan, Oliy Majlisning 1995-yil 24-fevralida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq,

1995-yil 21-dekabrda o'tinchi, 1996-yil 28-avgustda oltinchi sessiyalarida sud hokimiyati uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmoq ekanligiga, odil sudlov tizimini kengaytirish va demokratiyalash lozimligiga e'tibor berildi.

Prezident I. Karimov Oliy Majlisning VI sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlab o'tganidek, - "Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratiyalash - huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir...". Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim.

Sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik Sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar xo'jalik va harbiy sudlaridan iborat.

Huquqiy demokratik insonparvar davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida yangi tizim - huquq tarmoqlarini birlashtirishni va ular o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi Konstitutsiyaviy Sud yuzaga keldi. Bu tizimning vujudga kelishi demokratik davlat uchun ulkan voqeadir.

Konstitutsiyada sud hokimiyati mustaqilligining mustahkamlanishi odil sudlovni amalga oshirishda keng imkoniyatlarni ochdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi.

Konstitutsiyaning 106 va 116-moddalarida sud hokimiyatining asoslari aniq belgilanib, sud hokimiyati va sud'yalarning mustaqilligi mustahkamlangan. Bunga ko'ra sud hokimiyati va sud'yalar faqat qonungagina bo'ysunadilar.

Mustaqil sud hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini tartibga soluvchi va uning sud'yalarni saylash, tayinlash hamda ularni vazifasidan ozod qilish tartibi, sud ishlarini ko'rishda aralashganlik uchun javobgarlik va hokazolarning asosiy kafolati hisoblangan "Sudlar to'g'risida"gi qonun 1993-yil 2-sentyabrda Oliy Kengashning XIII sessiyasida qabul qilindi. Ilgariroq 1992-yil 10-dekabrda Oliy Kengashning XI sessiyasida qabul qilingan "Prokratura to'g'risida"gi qonun uning sud bilan butunlay yangi sharoit va talablar doirasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab bergan edi. Jinoyat protsessual va fuqarolik protsessual to'g'risidagi qonunlar qabul qilinib, ularda sud mustaqilligi tamoyillari, taraflarning tengligi, sud ishlarini yuritishda tortishuv va odil sudlovning boshqa demokratik me'yorlari mustahkamlandi.

Oliy Majlisning 1996 yil 26 dekabrda bo'lgan VII sessiyasida Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunlarga jiddiy o'zgartirishlarni kiritib sud islohotlarining ikkinchi bosqichini boshlab berdi.

2000 yilda yangi taxrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi sud tizimini isloh qilishda muhim bosqich bo'ldi. Unda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini isloh qilish borasida orttirilgan tajribadan xulosa chiqarildi hamda sudlar faoliyatining yanada demokratlashuvi va takomillashuvi uchun sharoit vujudga keltirildi.

Respublikamiz Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq Oltinchi sessiyasi sud-huquq islohotlarining navbatdagi bosqichini boshlab beruvchi tayanch nuqtasi bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Konstitutsiyada belgilangan qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanib Oliy Majlis muhokamasiga "Jinoiy jazolarning liberalashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasini kiritdi. Davlatimiz boshlig'i o'z ma'nuzasida mustaqillikning beqiyos ahamiyati, mamlakatni demokratiya va taraqqiyot yo'lidan mustaqil rivojlantirishning o'tgan o'n yili mobaynida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida sodir bo'lgan tub o'zgarishlarning mohiyatini ta'kidlar ekan, sud-huquq tizimini takomillashtirish, jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini insonparvarlashtirish, adolat, huquqiy fuqarolik jamiyati prinsiplariga muvofiq ravishda liberalashtirish masalalariga alohidato'xtalib o'tdi.

Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining pirovard natijasi qonun ustivorligini ta'minlash, tom ma'noda adolatga erishishga olib kelishi lozim. Sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning mazmun va mohiyati nimalarga qaratilgan? Bu islohatlar zamirida qanday natijalar kutilmoqda?

Bunday islohatlarning maqsadi, mazmuni va yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, jamiyat ijtimoiy hayotida adolatning barqaror bo'lishini ta'minlash; kishilarni qonun kuchi va roliga bo'lgan ishonchini orttirish; shaxs jamiyat va davlat munosabatlaridan izchillik hamda o'zaro mutanosiblikni ta'minlash.

Ikkinchidan, sud hokimiyatini tom ma'noda mustaqil hokimiyat sifatida faoliyat yuritishini, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati tarmoqlari bilan teng tarzda salmoqligini ta'minlash, sudlarning kishilar jamiyatida roli va obro'sini ko'tarish.

Uchinchidan, sudlarni jazo beruvchi organlar emas, balki inson huquqini himoya qiluvchi organ sifatida qarashni shakllantirish, ularni fuqarolar huquqini davlat tomonidan himoya qiluvchi asosiy organga aylantirish.

To'rtinchidan, qonun ustivorligini ta'minlash, ularni ijro etish madaniyatini yuksaltirish, qonun buzilishi holatlariga murosasiz munosabatni vujudga keltirish, jamiyatda huquqiy ongning yangi pog'onaga ko'tarish.

O'zbekiston Konstitutsiyasining to'rtinchi bo'limi XVI bobi 68-moddasida "O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidagi iborat", deb belgilangan.

U yoki bu viloyatning amaldagi hududida o'zgarish bo'lishi u yoki bu sabablar bilan zaruriyat tug'lsa, huquqiy davlatning tabiatidan kelib chiqib aholining keng jamoatchilikning fikri va ijtimoiy adolat prinsiplaridan kelib chiqqan holda hal etishi ko'zdatutilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston tarkibiga kiruvchi respublika bo'lib, O'zbekiston Konstitutsiyasining XVII bobi 70-75 moddalarda Qoraqalpog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar to'liq aks ettirilgan. "O'zbekiston Qoraqalpog'iston Respublikasining maqomini tan oladi va uning suverenitetini muhofaza etadi. O'zbekiston bilan Qoraqalpog'istonning o'zaro munosabatlari har ikki respublika o'rtasida tuziladigan shartnomalar va kelishuvlar asosida tartibga solinadi. qonunlar Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir"¹

Mahalliy hokimiyatlar o'z islohatlarida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarni, Prezident farmonlarini, Vazirlar Mahkamasi farmonlarini amaliy hayotga tatbiq etish ishlarini amalga oshiradilar.

¹ Узбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Узбекистон", 2003.

5.2. QONUN USTUVORLIGI TAMOYILINING O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI QURILISHIDAGI AHAMIYATI

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilida qonunni hamda adolatni, haqiqatni jamiyatimizda qaror topishini ta‘minlanishiga alohida e‘tibor berilgan ijtimoiy adolatni hayotga joriy etilishining Oliy namunasi sifatida ilgari surilgan besh tamoyildan to‘rtinchisi qonun o‘stivorligiga bag‘ishlangan. Demak, qonunning hamma narsadan ustun bo‘lishi, qonunga itoatkorlik prinsipi O‘zbekistonda demokratik odil fuqarolik jamiyatini qurishning bosh yo‘nalishidir.

Qonunga og‘ishmay itoat etilgan jamiyatdagina demokratiya qaror topadi va mustahkam bo‘ladi. Barcha demokratik institutlar, huquq va erkinliklar qonun vositasi bilan joriy etiladi.

Prezidentimizning "Adolat - qonun ustivorligida" degan hayotiy tamoyilga qat‘iy amal qilib yashash g‘oyasi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Xo‘sh, nima uchun bu tamoyilning ahamiyatiga asosiy e‘tibor qaratiladi? Buning sababi shundaki, qonun ustivorligi, birinchidan, mamlakatdagi barcha aholining millati, tili, irqi, diniy e‘tiqodi, ijtimoiy ahvoli va boshqa bir qator belgi-xususiyatlaridan qat‘iy nazar, barcha fuqarolar tengligini ta‘minlaydi, ularning huquqlari poymol etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi; ikkinchidan, qonun xalq manfaati, xohish-irodasiga muvofiq qabul qilinadi, shuning uchun ham unga itoat qilish, uning ustivorligini e‘tirof etish shu mamlakatda yashayotgan har bir insonning fuqarolik burchi hisoblanadi. Mazkur tamoyilning buzilishi yoki poymol etilishi mamlakatdagi barqarorlikning buzilishiga, turli ijtimoiy tabaqalar, siyosiy kuchlar o‘rtasida ziddiyatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday beqarorliklar esa fuqarolar manfaatdor emas. Shuning uchun ham, qonun ustivorligini ta‘minlashda, birinchi navbatda, ularning manfaatlarini yuzaga chiqarish nazarda tutiladi. O‘z navbatida, davlat ham aholisining tinchligi, jamiyat barqarorligini himoya qilishda, o‘ziga yuklatilgan mas‘uliyatdan kelib chiqqan holda, qonunlarning poymol etilishi yoki buzilishining oldini olish imkoniyatlarini ishga soladi. Yana ham aniqrog‘i, bordiyu ayrim siyosiy kuchlar yoki ijtimoiy guruhlar g‘ayriqonuniy harakatlarga yo‘l qo‘yadigan bo‘lsa, davlat mamlakat aholisining umum manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o‘z kuchidan foydalanishga majbur bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, taraqqiyotga salbiy ta‘sir qiluvchi jarayonlarning oldini olish imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan ko‘rinib tumbdiki, qonun ustivorligini ta‘minlash nafaqat iqtisodiy sohadagi islohatlarning samarali bajarilishini, shuningdek, fuqarolarining huquqlari va tinchligini ta‘minlash, ularning farovon hayot kechirishi uchun kerak bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish va fuqarolik jamiyatiga o‘tishning asoslarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Qonun ustivorligiga erishishning jamiyatda yaratilgan barcha moddiy va manaviy boyliklardan teng foydalanishga ya‘ni ijtimoiy adolat tamoyillarining amal qilishiga imkon yaratadi.

Prezidentimiz Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis to‘qqizinchi sessiyasida so‘zlagan ma‘ruzasida qonun ustivorligini ta‘minlash g‘oyasi har tomonlama keng yoritilishining sababi, mustaqillik yo‘llarida bu yo‘nalishda katta yutuqlar qo‘lga karitilishiga qaramasdan rivojlanishining hali oldimizda ko‘lami jihatdan yanada ulkan vazifalar turganini ko‘rsatib berish edi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash yuzaki qaraydigan engil vazifa emas. Bu vazifa ilk bor mamlakatimizda bozor munosabatlarini o'zbek modelidagi asosiy tamoyillaridan biri sifatida Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan edi. Qonun ustuvorligi nafaqat osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlash, balki mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, harbiy qudratini oshirish va mustahkamlash, fuqarolar imkoniyatlarini yuzaga chiqarishning mezonini hisoblanadi. Jamiyat qonunlar negizida boshqarilishi va fuqarolarning qonunlar bilan yashashining barcha uchun yagona qoidaga aylanishi fuqarolik jamiyatining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Uni amalga oshirish esa nafaqat davlat tuzilmalariga, balki fuqarolarning o'zlariga ham bog'liqdir. Chunki hokimiyat jamiyatda demokratik jarayonlarni rivojlantirishga qanchalik imkoniyat yaratmasin, xalq ana shu imkoniyatlardan foydalana olmasa, fuqarolik jamiyatiga o'tish borasida ijobiy samaraga erishish qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham fuqarolarning siyosiy, huquqiy bilimlarini oshirib borish, ularning umumiy manaviy saviyasini ko'tarish qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Bu masala amalga oshuvining natijasi esa ularning o'z huquq va erkinliklari buzilishi yuzasidan boshqaruv organlarga emas, balki aynan sud hokimiyatiga murojaat qilish va shu tariqa o'ziga nisbatan adolatni tiklash ko'nikmasiga ega bo'lishda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish uchun fuqarolar o'rtasida huquqiy, siyosiy bilimlarni targ'ib qilishni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

Demokratik huquqiy davlat bu insonning eng yuqori sivilizatsiyasining mahsulidir. Uning asosiy belgilari insoniyat tomonidan asrlar davomida to'ldirilib, takomillashtirilib kelindi.

Chinakam, demokratik huquqiy davlat bo'lishi uchun mamlakatda adolatli, insonparvar, demokratik qonunlar tantana qilmog'i shart. Demokratik huquqiy davlatda qonunning ustuvorligi davlat vajamiyat hayotining muqaddas prinsiplaridan biridir. Ijtimoiy-siyosiy turmushda qonun muqaddas sanalib, uni yuksak e'tiborga ega bo'lishining boisi, sababi shuki, unda xalqning hukmron irodasi, xohish-istagi, manfaati va intilishlari o'zining mujassam ifodasini topadi.

Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linishi demokratik huquqiy davlaga xosdir.

Hokimiyat bo'linishi tamoyili ham, qonunlarning ustunligi tamoyili ham huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri bo'lgan shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunligini ta'minlashga qaratilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar qanday bo'lishi va kimlarning manfaatlarini ifoda etishi kerak?

2. Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasining qaysi moddalarida belgilab berilgan?

3. Fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan parlament nazoratini amalda qanday institut zimmasiga yuklatilgan?

4. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar tomonidan chiqarilgan

normativ huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaviyligini nazorat qilish qaysi sud zimmasiga yuklatilgan?

5. O'zbekistonda tashkil etilgan ikki palatali parlament qabul qilinadigan qonunlarni sifatli, mukammal qilib yaratishga xizmat qiladi. Ularni mukammal qonunlar bo'lishligini ta'minlovchi omillar haqida o'zingizning fikringizni ayting

6. O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasi davlat hokimiyatini tashkil etilishi haqida.

7. O'zbekistonda Parlament taraqqiyotini yangi bosqichi.

8. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini shakllantirishda saylov tizimi va saylov huquqining ahamiyati.

9. Saylovlar va ommaviy axborot vositalari.

10. O'zbekiston Prezidentlik instituti va uning faoliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон 2003.

2. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.1. - Т.: "Ўзбекистон", 1999.

3. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. т.3, -Т.: "Ўзбекистон".

4. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.

5. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.

6. Каримов И.А. Адолат қонун устуворлигида. Т.10. -Т.: "Ўзбекистон", 2002.

7. Каримов И. А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларнинг янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Т.11. -Т.: "Ўзбекистон", 2002.

8. Каримов И. А. Ҳаётимизнинг, тараққиётимизнинг ҳуқуқий асоси. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. -Т.: "Ўзбекистон", 2003.

9. Каримов И. А. Қонун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Сурхондарё вилоят халқ кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган маърузаси. // "Халқ сўзи", 2004 йил 2 июн.

10. Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократиялаш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: "Ўзбекистон", 2005.

11. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Т.: "Академия", 2005.

12. Ҳалилов Э. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи Олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. -Т.: "Ўзбекистон", 2004.

13. Жўраев С. Фуқаролик жамияти: назария амалиёт. (илмий таҳлилий мақолалар тўплами) -Т.: 2003.

14. Истиқлол, демократия ва фуқаролик жамияти. -Т.: "Шарқ", 2003.
15. Эргашев И. Сиёсат фалсафаси. -Т.: "Академия", 2004.
16. Ўзбекистон - 13 йил мустақил тараққиёт йулида. -Т.: "Ўзбекистон", 2004.
17. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номли маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.
18. www.edu.uz
19. www.zuyo.edu.uz
20. www.ec.edu.uz
21. www.performance.edu.uz
22. www.gov.uz
23. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
24. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.anp.ru
25. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm
26. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

VI BOB

MILLIY-MANAVIY NEGIZLARGA TAYANISH - DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ZARUR SHARTI

6.1. MUSTAQILLIK VA O'ZBEKISTON JAMIYATI MANAVIY NEGIZLARINING O'ZGARISHI. MA'NAVIY YANGILANISH TUSHUNCHASI

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, manaviyat unga ruhiy oziq va qudrat beradi. Ma'naviyat - odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir.

Ma'naviyat - jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir. U muayyan ijtimoiy-iqtisodiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq eta boradi va aksincha, manaviyat qashshoqlansa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi.

Dunyodagi har bir davlat katta-kichigidan qat'iy nazar o'zining taraqqiyoti jarayonida manaviyatga ehtiyoj sezgan va sezadi. Bu tarixiy zaruriyatdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixning burilish davrida ayniqsa beqiyos bo'ladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz: "Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan manaviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq mustaqil davlatimizga sadoqat, insonga hurriyat, ishonch, xotira, vijdon, ekinlik-manaviyatning ana shunday ma'nosi juda keng. Inson uni Inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamrab olmaydi. Inson o'zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina manaviyat bilan tutashadi.

Yangi tarixiy davr - milliy istiqlol davri mamlakatimiz tarixida ma'rifat davri, ma'rifatlik davri sifatida kirib kelmoqda. Istiqlol g'oyalari asosida bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat odamlar ongi va tafakkurida tub burilishlar yasash, har qanday islohotlarni fuqarolar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o'tkazish yo'lini tanladi. Ana shu yo'l odamlarning o'tmishiga, bugungi va kelajakka bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish, muayyan manfaatlariga yondoshish texnologiyasini yangilash orqali asta sekinlik bilan ularni ma'rifatli, komil inson qilib voyaga yetkazishga olib keladi. Fuqarolarning ma'rifatligi orqali ma'rifatli jamiyat barpo etiladi.

Mustaqillik zaminini mustahkamlash mamlakat barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti bu manaviyatdir. Mustaqillik iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda odamlar ongi va dunyoqarashida, odob-ahloqi, imon-e'tiqodi, bilim-saviyasi va ruhiyatida, madaniyati va manaviyatida, ta'lim-tarbiyasida ham tub asosli o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi.

Agar mustaqillikning manaviy zamini zaif bo'lsa, xalqimiz o'zining milliy tilini, madaniyati va an'alarini, hurmat qiladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlaydigan, ulardagi oliyanob g'oyalardan oqilona va ijodiy foydalanadigan darajadagi kamolot bosqichiga erishgan bo'lmasa mustaqillikning manaviy zamini baquvvat bo'lmaydi.

Odamlarning, mabodo, madaniy-manaviy saviyasi past bo'ladigan bo'lsa, uning salbiy ta'siri iqtisodiyotga ham, kishilarning o'zaro munosabatlari va odob-ahloqida, turmush tarzi va yurish-turishida, tijorat ishlarida ham muqarrar seziladi. Fuqarolarning imon-e'tiqodlari sustlashgan joyda mehr-oqibat ko'tarila boshlaydi, haqiqiy insoniy munosabatlarda darz ketadi, taraqqiyot sustlashib tanazzul kuchaya boshlaydi. Agar vaqtida uning oldi olinib, manaviyatni yuksaltirish masalasiga birinchi darajali vazifa sifatida qaralmasa, uning salbiy oqibati sifatida katta ijtimoiy larzalar va ko'ngilsiz hodisalar ro'y berishi hech gap emas.

Prezidentimizning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida, "Manaviyat, millatga, har bir insonga havodek, suvdek, quyoshdek zarur va behodir" deb juda o'rinni ta'kidlagan.

Dunyodagi har bir davlat o'zining taraqqiyoti jarayonida manaviyatga ehtiyoj sezgan va sezadi. Bu tarixiy zaruriyatdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixning burilish davrlarida ayniqsa beqiyos bo'ladi.

Ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchdir. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jamiyat manaviyatini yuksaltirish Vatanimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi, deb belgilandi.

Jamiyat manaviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan manaviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu boisdan mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixi yurtboshimiz I.Karimov tashabbusi bilan chuqur tahlil etildi, xolisona, haqqoniy yoritildi, bunga taalluqli bir qator adabiyotlar nashr etildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin dolzarb muammolardan biri - yangi tarixiy sharoitlarda o'zgarayotgan jamiyatga munosib har tomonlama yetuk va barkamol kishilarni tarbiyalash edi. Bu o'z navbatida bir necha o'n yillar mobaynida xalqdan o'z manaviy mulki va madaniy me'rosidan beganalashtirib kelingan, sinfiy partiyaviy maskura tomonidan ta'qiqlangan moddiy boyliklarni qaytarish va tiklash hamda yanada kamol topishi uchun keng imkoniyatlar ochish vazifalaridan iborat edi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida "O'zbekistonning ilmiy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barangligi, milliy o'zligini anglash va manaviy qayta tiklanishning kuzatib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qadriyatli omil bo'lib, xizmat qiladi va respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi".

Darhaqiqat, ijtimoiy-siyosiy hayotda amalga oshirilgan yalpi manaviy yangilanishlar komil inson shaxsini tarkib toptirish uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi va istiqlol yo'lini har tomonlama mustahkamlash uchun xalqni yalpi safarbar qila olish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida boy me'rosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobokalonlarimizning manaviy me'rosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat xalqlari miqyosida nishonlandi.

YUNESKO bilan hamkorlikda buyuk allomalar, davlat arboblari, mutafakkir va shoirlarimizning yubileylari nishonladi.

Buyuk shaxslarning xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorliklar majmualari jamiyat manaviyatini yuksaltirishga milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga hamda xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongida mustaqillik mafkurasini shakllantirishda xizmat qilmoqda.

Ko'plab Sharq alomalarining o'nlab nodir va noyob asarlari o'zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa xorijiy tillarda nashr ettirildi.

YUNESKO homiyligida Sharq madaniyati, san'ati va tarixiga bag'ishlangan lazer disketlari chiqarildi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketganlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui, fashizmga qarshi kurashda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida "Xotira maydoni" barpo etildi.

Mustaqillik yillarida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi.

Tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Buni nimalarda ko'rish mumkin? Birinchidan, tarixni anglash orqali hayotni anglash, insonning insoniyligini anglash qobiliyati shakllanadi. Ikkinchidan, tarixiy tafakkur va tarix falsafasi orqali bugungi hayot mazmuni chuqurroq tushuniladi va istiqbolni ko'rish falsafasi dunyoga keladi. Bu har bir insonning o'ziga xos tafakkur tarzini shakllantirish orqali shaxs sifatida o'zligini vujudga keltirishga, fe'l-atvorining shakllanishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, tarixni o'rganish orqali mustamlakachilik ta'sirida va kommunistik zo'ravonlik mafkurasi natijasida o'zligini yo'qotgan, o'z qadru-qimmatini butkul unutgan fuqaroni uyg'otishga, o'zligini anglashga, o'z haq-huquqini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishga davat etadi. To'rtinchidan, ajdodlari buyuk bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaro qalbida o'tmishini o'rganish orqali milliy g'ururining uyg'onishi mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan bir paytda katta ijtimoiy-manaviy qudrat va ulkan siyosiy iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi. Beshinchidan, har bir fuqaroni manaviy-ruhiy va axloqiy jihatdan yangilash orqali jamiyatni yangilash, turmush tarzini yangilash kabi g'oyatda chuqur, keng miqyosli islohot amalga oshiriladi.

Aslini olganda tarix faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlar yoki tushunchalarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Uning buyuk qudrati, tarbiyaviy kuchi, murabbiylik mohiyati o'tishini o'rganish, tadqiq etish orqali bugunni baholash, bugunni anglash, bugungi odamlarni tushunish va ularni yo'lga solish borasida fikrlarni, g'oyalarni o'zida mujassam etganda namoyon bo'ladi. Prezident I.Karimov tarixga ana shu nuqtai-nazardan qaraydi va uning barcha imkoniyatlarini inson manaviyatiga to'la safarbar etish zarurligini asoslab beradi.

Jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazish, mavjud turmush tarzini sindirib tashlab butunlay yangicha sharoitni vujudga keltirish eng avvalo, ong va tafakkur bilan bog'liqligini alohida uqtirar ekan, Prezident I.Karimov "Jamiyat taraqqiyotning asosi, uni muqarrar holatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir" degan edi. Ana shu konsepsiya bugungi siyosatning va bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlatimiz strategiyasining asosini belgilaydi.

Taraqqiyot mantig'i, sivilizatsiya ehtiyojlari shunday. Biz o'tmishda yashamasligimiz, uni takrorlamasligimiz aksincha, uni o'rganishimiz, tadqiq etishimiz va aniq xulosalarga kelib yashashimiz kerak. Ayni shu xulosalar asosida istiqbolimizni belgilashimiz, o'zimizni ham jamiyatni ham manaviy jihatdan kamolotga yetkazishimiz darkor. Biz o'tmishimizni xolisona o'rganish, tarix haqiqatini o'z o'rniga qo'yish orqali tafakkurimizni boyitishimiz tushunchalarimizni kengaytirishimiz, hayot falsafasi orqali islohotlar falsafasini, islohotlar mohiyatini chuqurroq anglay boshlaymiz. Natijada o'z-o'zimizni isloh qilamiz, o'z-o'zimizni yangilaymiz, hayotni yangilaymiz, uning mazmunini boyitamiz. Zotan, milliy istiqbol mafkurasining, davlatimiz olib borayotgan keng miqyosli islohotlarining ilmiy-nazariy, siyosiy va amaliy ahamiyati ana shundaydir.

Ko'p qirrali islohotlar davrida, jamiyat mintaliteti tubdan o'zgarayotgan, tuzum yangi mazmun va tartibotlar kirayotgan bir paytda aholi manaviy-ruhiy ehtiyojlariga mos keluvchi, xalqni istiqbolga etaklovchi hayotbaxsh intilishlari ifodasi bo'lgan g'oyalar va maqsadlar bilan qurolanish katta aqamiyatga egadir.

Shunday ekan, islohotlar samarasi xalq dunyoqarashi, madaniy va manaviy qadriyatlarga ongli munosabati bilan bevosita bog'liq hodisadir. Agar yangilanishlar odamlar ongi va dunyoqarashi, qalbi va ruhiyati orqali o'zini namoyon etsa, u yashovchan va samarali bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekistonda davlatning yangilanish strategiyasi sifat jihatdan o'zgarayotgan jamiyat, yangicha tafakkur asosida vujudga kelayotgan ijtimoiy guruhlarining qadriyat mo'ljallari bilan uyg'unlashib ketgan.

Ma'naviyat va ma'rifatning ustuvor hodisa sifatida talqin etilishi manaviy voqelik sifatida takomillashuv jarayonining chin insoniylik mohiyatini belgilaydi. Inson ayni ana shu qadriyatlar orqali kamolotga yetadi, hayotda, jamiyatda o'z mavqeiga, o'rniga, nufuziga ega bo'ladi. Inson faoliyatlari mahsuli aynan ana shu manaviyat va ma'rifat orqali qadriyatga aylanadi.

Prezident I.Karimovning "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz" Turkiston gazetasi muxbiri savollariga bergan javobida mafkura masalasida keltirgan quyidagi so'zlari biz uchun qimmatlidir. "Shaxsan mening bu boradagi qarashlarim quyidagicha: modomiki biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, manaviyat sohasidagi yigirma birinchi asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz ham ana shundan kelib chiqmog'i darkor. Ya'ni erkin fuqaro - ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs manaviyatini kamol toptirish, bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi kerak".

Xulosa qilib aytganda jamiyatni manaviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi masalalardan iborat. O'tgan 13 yil davomida amalga oshirilgan ulug'vor ishlar bu haqda muayyan tasavvur beradi.

6.2. MILLIY-MANAVIY NEGIZLAR TUSHUNCHASI. UNING MAZMUN VA MOHIYATI

Yuqorida ta'kidlaganimizdek. Jamiyatni yuksaltirish, uning manaviyatini yuksak cho'qqiga ko'tarishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analar alohida o'rin tutadi.

Milliy-manaviy negizlar deganda milliy ong, milliy birdamlik, milliy o'nglash, milliy hissiyot, milliy fahr-iftixor haqida gapirish kerak bo'ladi. Milliy ong milliy madaniyatning millat manfaati, millat istiqboli, millatning taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan tomonlari yig'indisidir. Milliy ong milliy madaniyat negizida shakllanadi va rivojlanadi. Milliy madaniyat milliy ongga nisbatan ancha keng.

Milliy ong - milliy madaniyatning millat manfaati, millat istiqboli, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan muammolarning inson ongidagi ifodasidir.

Milliy ongning shakllanishi murakkab jarayon. U milliy madaniyat zaminida shakllanishi va rivojlanishi mumkin. Milliy madaniyatning birlik va hamkorlikka, milliy tarixni xolisona anglashga, milliy til va madaniyatni qadrlashga, milliy ahloq-odob va boshqa manaviy xislatlarni saqlashga xizmat qiluvchi tomonlari milliy ongning negizini tashkil etadi.

Milliy madaniyat rivojlanmagan, milliy birlik, milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg'ulari zaif bo'lgan xalqlarda yuksak milliy ong bo'lishi amrimaholdir. Chunki milliy ong mustaqillikka yo'nalish beradi, xalqni yakdil qiladi.

Mazkur g'urur o'z xalqining tarixi, manaviy-axloqiy qadriyatlari, udumlari, adabiyoti, san'ati va madaniyatini bilish, hurmat qilish, qadrlash bilan bog'liq bo'lgan ajoyib insoniy fazilatdir. "O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini, or-nomusi va shon-sharafi, uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini manaviy yuksaltiramiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan yashovchi O'zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo'lgan boshqa barcha xalqlar bilan birgalikda intilamiz"¹.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi tarixiy bosqichi kelajakda buyuk davlat egasi bo'ladigan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishni manaviyatimiz zimmasiga yukladi. Odob - ahloqli, madaniyatli komil inson birinchi navbatda o'z Vatani, milliy tili, urf-odatini, tarixi marosimlarini sevmog'i, avlod-ajdodlari yaratgan ilmu-hunar javohirlarini egallamog'i, umuminsoniy qadriyatlardan xabardor bo'lmog'i lozim. Bu g'oyatda murakkab va ancha qiyin masala.

Inson kamoloti millat va mamlakat rivojiga asos bo'ladi. Buyuk davlat bo'lish uchun jamiyatning har bir a'zosi kamolotga erishgan, millat esa buyuk, madaniyatli, ma'rifatli dunyo tanigan bo'lishi lozim. Ana shu g'oyatda murakkab vazifani bajarishda milliy manaviyatimiz asosiy omildir. U - istiqbolimiz va istiqbolimiz tayanchidir.

Milliy manaviyatimiz har bir insonda ona yurtga muhabbat va sadoqatni qaror toptirishda, shu muqaddas tuproqqa egadorlik tuyg'ularini shakllantirishda, Vatanni himoya qilishdek olijanob insoniy fazilatlarini ildiz orttirish va rivojlantirishda katta o'rin tutadi.

Manaviyat insonning o'zligini anglab olishda unga yordam beradi, o'zligini anglagan insongina, o'zligini anglagan millatgina kuchli davlat, erkin davlat barpo eta oladi.

Milliy jihatdan o'zligini tanigan inson millatini, Vatani, uning o'tmish tarixini, madaniyatini, jahon sivilizatsiyasiga unitilmas hissa qo'shgan va tafakkur osmonida yulduzday porlab turgan buyuk allomalar vorislari ekanligini bilib oladi.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиқдол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т.: «Ўзбекистон». 1996.

O'zligini anglagan inson, o'zligini anglagan millat ulug' ajdodlarining qutlug' meroslariga hamisha munosib bo'lishga harakat qiladi. Vatanni o'zgacha mehr bilan sevadi. u bilan cheksiz faxrlanadi.

Milliy o'zlikni anglash - olamni bilish, unda ro'y berib turgan murakkab hodisa va jarayonlarni mohiyatini ilmiy faxmlab olish demakdir. Milliy jihatdan o'zini anglagan insongina mamlakati va millati oldida turgan asosiy maqsad-muddaolar nimadan iboratligini tushunib yetadi, o'zining yurt-el oldidagi burch va mas'uliyatini chuqur anglaydi.

Siyosiy madaniyat o'sgan, milliy o'zlikni anglagan xalq va millatning hayoti mazmunan boyiydi, go'zallashadi, o'zini-o'zi anglash - bu milliy birlikka, milliy ahillik va milliy totuvlikka erishishning asoslaridan biridir.

Xalqni milliy jihatdan o'zini-o'zi anglashiga erishmasdan turib, umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib, g'oyaviy-siyosiy jihatdan uyushtirib, har qanday murakkab vazifalarni hal qiladigan buyuk ijtimoiy kuchga aylantirib bo'lmaydi.

O'zini-o'zi chuqur anglab etgan, ko'zi ochilgan, aqli yetilgan, g'oyaviy siyosiy jihatdan uyg'ongan vaji-pslashgan xalq va millatni, o'tmishda bo'lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyat, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarni talab ketish, huquqlarini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas.

Siyosiy madaniyati, milliy ongi rivojlangan, o'zini-o'zi milliy jihatdan anglab etgan xalq mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi. Xalqning kuch-qudrati uning soni bilan o'lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongining o'sganligi, o'zini-o'zi anglab yetganligi, milliy uyushganligi bilan belgilanadi. Buni Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlari va xalqlari misolida ko'rish mumkin.

Milliy o'zligini anglashning birinchi belgisi, milliy tildir. Til birligi millatning millat bo'lib shakllanishida eng muhim shartlardan biridir. Til bo'lmasa el ham, millat ham bo'lmaydi. El bo'lmasa, millat bo'lmasa, turgan gapki, til ham yo'qolib ketadi. Til - millat tirikligining, uning yashab turganligi va faoliyat ko'rsatayotganligining asosidir.

Til xalq manaviy hayotining asosidir. Binobarin, milliy til gurkirab rivojlanmasa milliy ong o'smaydi. Milliy ong, milliy madaniyat bo'lmasa kishilarda milliy g'urur, milliy faxr-iftixor rivojlanmasdan qoladi. Til - har bir xalq va millatning milliy o'zligini namoyon qilishning muhim vositasidir.

Har bir milliy tilning va madaniyatning o'ziga xos muayyan xislat va fazilatlar bor. O'zbek tili ham shunday tillar sirasiga kiradi.

O'zbek tili inson faoliyatning hamma sohalar uchun eng murakkab ilmiy tushunchalarni va inson qalbining eng nozik tuyg'ularini ifodalash uchun bab - barobar layoqatli, chuqur va boy madaniyat an'analar va imkoniyatlarga ega bo'lgan tillardan biridir.

O'zbek tili qadimiy va yetuk, imkoniyatlari bitmas - tugamas bo'lmaganda, unda ilmiy, falsafiy, badiiy tafakkurning bu qadar ko'p bebaho va jozibali durdonalari yaratilmas edi! Bu - isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

O'zbek tilini astoydil muhofaza qilish, unga davlat tili maqomini berish, bu tilni aslidagiday qilib tiklash va tobora rivojlantirish, uni jahondagi yetuk millatlar tillari darajasiga ko'tarish borasidagi orzu - istaklari 1989 yil 21 oktabrda Davlat tili haqidagi qonunni qabul qilinishi bilan ro'yobga chiqdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, manaviyat o'z xalqi tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyatning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati aytib o'tilganlardangina iborat emas. Ma'naviyatning bebaholigi uning turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini birlashtirishda, ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtirishda ham yaqqol ko'rinadi. Ma'naviyat inson hayotini go'zallashtiradi, turmushga mazmun va mohiyat bag'ishlaydi. Yuksak manaviyat va madaniyat sohibi bo'lgan inson otashin vatanparvar bo'ladi.

Ma'naviyati yuksak inson mustaqillikka xavf soladigan mahalliychilik, guruhbozlik, tarafkashlikni hech qachon yo'l qo'ymaydi. Milliy birlik, ahillik, totuvlik, hamjihatlikni butun vujudi bilan qo'llab quvvatlaydi.

Milliy ongi, milliy madaniyat rivojlangan yuksak manaviyatli odam o'zidan boshqa kishilarga katta hurmat va ehtirom bilan qaraydi.

Ma'naviyati ustivor bo'lgan inson o'zini xarom - xarishdan tiyadi, manmanlik, takabburlik qilmaydi. Unday odamning qalbi, vujudi ilm-ma'rifat nuri bilan charog'on, rahm-shafqat, mehr-muruvvat bilan to'la bo'ladi.

Ma'naviyati yuksak insonlar jamiyatimiz, millatimiz, xalqimiz va davlatimizning eng katta, bebaho boyligidir.

Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan millatgina porloq istiqbol, haqiqiy mustaqillik uchun kurashga o'zida kuch va qudrat topa oladi. Ma'naviyat bu oldinga qarab harakat qilmoq, taraqqiyotning yuksak oliy cho'qqilariga to'xtovsiz intilmoq demakdir. Ma'naviy barkamollik bo'lgan joyda taraqqiyot bo'ladi. "Ma'naviyat insonning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini biladi".¹

Bebaho boylik hisoblangan manaviyat qilishlarda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ma'naviyat taqdirining ehsoni ham emas. Ma'naviyatga ega bo'lishning asosiy sharti - mehnat. Kimda-kim tinmay mehnat qilishdan qochmasa, qiyinchiliklardan qo'rqmasa, tirishqoq, sabr-toqatli bo'lsa, bilimni doimiy ravishda oshirib, boyitib va chuqurlashtirib boradi, avlod-ajdodlarning tomonidan yaratilib meros sifatida saqlanib kelinayotgan ilmiy bilim xazinalarini o'zlashtirib oladi, jahon fani, texnikasi va madaniyati yutuqlaridan xabardor bo'ladi.

Hozirgi dunyo insoniyat aql-zakovati tufayli o'zining yuqori sivilizatsiya bosqichiga kirib kelmoqda. Sivilizatsiya manaviyat olamida bebaho o'rin tutadi. Insonning o'z taqdirini o'zi belgilash, ijtimoiy tanlovda adashmasligi uning har tamonlama komil inson sifatlarini namoyon eta olishda sivilizatsiyaning roli bebahodir. Inson o'z-o'zini anglash, milliy maqsadlarni to'g'ri anglab olishda sivilizatsiya yordam beradi.

Bilim va tadbirkorlik har bir odamga nechog'lik zarur bo'lsa, sivilizatsiya tug'dirgan imkoniyatlardan foydalanib, insoniy fazilatlariga ega bo'lish ham shu darajada zarur. Ana shu ikkisi birlashsa, odamzot manaviy boy, axloqiy pok bo'lishni ravon yo'lga kirib oladi. Ma'naviyat yo'lga kirib, hayotini unga bag'ishlagan odam albatta iymonli bo'ladi. Imonli odam esa so'zi bilan ishi bir, xalq, Vatan ishqida fidoyi mard, olijanob, insofdiyonatli bo'ladi. Ma'naviy boylik tashqi go'zallik bilan uyg'unlashib, odam o'zi ulug'

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. -Т.: «Ўзбекистон» 1996.

va mo'tabar zot ekanini hamma xatti-harakatlari, faoliyatida namoyon etib turadi.

Madaniyatli inson, ayniqsa bo'lg'usi iqtisodchi mutaxassis boshqalar bilan muloqotda g'oyat xushmuomala, shirin suhan, gapga chechan, tashqi qiyofasidan nur-ziyo yog'ilib turadigan dilkash bo'lishi kerak. Bu, hozirgi sivilizatsiya talabidir. Dilozor, qo'pol, kalandimog' odamlardan hamma qochadi, ulardan nafratlanadi. Shunday insonlar haqida so'z yuritar ekan Prezidentimiz aytadi: "Ei ishonib topshirgan vazifani suiste'mol qiladigan, shaxsiy manfaatini xalq va davlat manfaatidan ustun biladigan, o'ziga ortiqcha bino qo'yib, barchaning nafratini qo'zg'atadigan rahbarlar bilan aslo kelisha olmaymiz"¹.

Har bir talaba bo'lg'usi ziyoli, yetuk mutaxassis, barkamol inson. U demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishning oldingi marralarida bo'ladigan madaniyatli kishidir shunday ham bo'lishi kerak, bu hayot talabidir.

6.3. AGRESSIV MILLATCHILIK; SHOVINIZM, EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING DEMOKRATIYA VA MILLIY-MANAVIY NEGIZLARGA ZIDLIGI

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik avvalo tarixda yangi hodisa emas, asrlar davomida shakllanib, kuchayib kelgan. Buyuk davlatchilik shovinizm va agressiv millatchilik deganda ayrim yirik davlatlarning, aholisining soni jihatdan ko'p millatlarning atrofidagi mamlakatlar, ularning aholisi bilan o'z munosabatlarini ustunlik va mumtozlik nuqtai nazaridan amalga oshirishga intilishlarini tushunamiz. Buyuk davlatchilikdan iborat shovinistik siyosat ko'p martalab katta to'qnashuvlarga, qonli urushlar va mojarolarga olib kelganligi tarixdan ma'lum. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik butun-butun xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ishonchsizlik va shubha tug'dirgan, avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Insoniyat XXI asrga qadam tashlagan hozirgi kunda ham buyuk davlatchilik shovinizmi xavfidan qutulganicha yo'q. To'g'ri bugungi kunda jahon hamjamiyatida uning barcha subyektlari o'rtasidagi munosabatlarda to'la teng huquqlilik qilmoqda. "Biroq, deb yozadi I.Karimov - shovinistik va agressiv millatchilik inertsiasining kuchi hali shu qadar zalvorliki, bu kuch unga duch kelganlar uchun ham uni boshqalarga qaratayotganlar uchun ham naqadar xavfli ekanligini payqamaslik mumkin emas"¹.

Shovinizm qanday xollarda sodir bo'ladiq Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go'yo to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqalar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini (mumtozligini) targ'ib etadi.

Shovinizm nimadan kelib chiqadi? Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa davlatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor bo'limaslikdan va madaniy hamkorlik qilishni xohlamaslikdan kelib chiqadi.

Mustaqil O'zbekiston uchun bugungi kunda buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tug'dirayotgan taxdidlarning real xavfi quyidagilardan iborat;

¹ Каримов И. А. «Халқ сўзи» 1999 16 ноябр ҳамда Қонун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Сурхондарё вилоят Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқи. // «Халқ сўзи» 2004 йил 2 июн.

Birinchidan, xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama-qarshilikni keltirib chiqarish;

Ikkinchidan, xalqaro-huquq va ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish;

Uchinchidan, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo'lmagan sharoitga olib qo'yishga urinish;

To'rtinchidan, mamlakatimiz aholisiga elektron, radio-axborot vositalari orqali mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilish;

Beshinchidan, millatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtiri;

Oltinchidan, yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondoshuvlarni zo'riab qabul qildirish, hamma sohalaridagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi.

XX asrda "ekstremizm", "terrorizm" tushunchalari eng keng tarqalgan siyosiy so'zlar qatoridan joy oldi. Bombalarning portlashi, siyosiy arboblarga nisbatan qotilliklar, samolyot va odamlarni garovga olish hozirgi zamon turmush tarzining ajralmas belgisiga aylanib qoldi. Terrorizm nima? Bu so'z lotin tilida "qo'rquv", "dahshat" ma'nolarini ifodalaydi. Oddiygina aytganda, terror insonlarda qo'rquv uyg'otish, ularni dahshatga solish orqali biror maqsadga erishishni anglatadi. Hozirgi kunda terrorizm eng xavfli va oldini ko'ra bilish murakkab bo'lgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Terror ko'lamining kengayib borayotganligi va uning aql bovar qilmas shakllarni olayotganligi jahondagi eng xavotirli muammolardan biridir.

Terrorizmning bugungi mohiyatini tashkil etuvchi eng xavfli tamoyillar - qurbonlar sonining keskin ko'payishi, jug'rofiy va siyosiy chegaralar tushunchasining oshirilishi eng zamonaviy texnologiya va qurol-aslahadan foydalanish imkoniyatlarining beqiyos kengaygani, terroristik harakatlar sonining muntazam oshib borayotganligida o'zini namoyon etmoqda.

O'zbekistonning mustaqilligini ko'rolmaydigan ham tashqi, ham ichki g'animlar mavjudligi hammamizga ma'lum. Eng xavfli ichki yovuz kuchlarning jamiyatimiz hayotiga solayotgan taxdididir. Bunday urinishlar 1990 yil dekabrda Namanganda, 1999 yil 16 fevralda Toshkentda sodir bo'ldi. Terrorchi kuchlar, siyosiy, diniy ekstremistlar tomonidan Toshkentda uyushtirilgan terrorchilik harakati oqibatida 16 nafar begunoh insonlar shaxid ketdi. 120 nafar kishi tan jarohati oldi. O'zbekiston markazida diniy ekstremistlar maxsus mashinalarga, xuddi Avg'onistonu Chechenistonda terrorchilar ishlatayotgan qo'lbola bombalarni eng muhim mahkamalar qoshida portlatdilar.

Xalqaro terroristik markazlarning xomiyligida va moliyaviy qo'llab-quvvatlashi oqibatida xorijiy mamlakatlarda tashkil topgan va Avg'oniston hududida o'mashib olgan terrorchi kuchlarning bir guruhi 1999 yilda Yangiobod, 2000 yilda Sariosiyo va Uzun tumanlariga bostirib kirib, mamlakatimiz tinchligini buzishga urindilar. O'zbekiston qurolli kuchlari ularni tor-mor etib, mamlakat tinchligi va osoyishtaligini himoya qilishga qodir ekanligini ko'rsatdi.

¹ И.А.Каримов "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари" -Т.: "Ўзбекистон", 1997.

2004 yil 28 mart 1 aprel kunlari Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyatlarida takroran terrorchilik harakatlari sodir etildi. Yovuz kuchlar harakati bostirildi.

Hozirgi vaqtda terrorizmning yadro, kimyoviy, biologik ko'rinishlari mavjud. Ommaviy qirg'in qurollaridan foydalanayotgan terrorizmning oldini olish xalqaro va milliy xavfsizlik uchun birinchi darajali vazifa bo'lib turibdi. Hozirda biror-bir terrorchilik tashkiloti yadro kimyoviy yoki biologik qurollarga ega ekanligi to'g'risida ma'lumot yo'q, shunga qaramasdan mazkur qurollarga ega bo'lish imkoniyati real mavjud. Buning misollaridan biri - hozirda AQSH va boshqa mamlakatlarga qarshi biologik xujum uyushtirish bilan bog'liq do'q-po'pisalarning kuchayib borayotganidir. Bu odamzotni larzaga keltiradi.

Terrorchilik harakatlari oqibatida aynan olingan u yoki bu davlatga yetkazilgan manaviy va moddiy talofatlar sanog'ining adog'iga yetib bo'lmaydi. Moddiy talofatlar-ku mayli, vaqti-soati kelib, ularni o'rni qoplanar, vayron etilgan imoratlar joyida, extimol, ulardan-da go'zalroq va muhabbatliroq binolar qad ko'tarar. Biroq yetkazilgan manaviy ziyonning aks sadosi asrlar osha o'chmasligi muqarrar, bu dahshatning izlari xalqlar xotirasida abadul-abad muhrlanib qolishi aniq.

Terrorchilik degan illat tag-tomiri bilan sug'urilib tashlanmas ekan, bu achchiq qismat dunyodagi har bir inson yoki xalqning boshiga tushishi mumkinligini bugun jahon ahli teran anglamoqda.

6.4. MILLIY-MANAVIY NEGIZLARNING DEMOKRATIK JAMIYAT, OZOD VA OBOD VATAN, ERKIN VA FAROVON HAYOT QURILISHIDAGI ROLI

Jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchlarning manbalari xususida turli davrlarda turli yondoshuvlar mavjud bo'lgan va uning xilma-xil konsepsiyalari asoslab kelishgan. Bunday yondoshuvlar hamda konsepsiyalar nazariyotchilari o'z g'oyalari ni mantiqan asoslash va isbotlash uchun jiddiy harakat qilganlar.

Jumladan, Manteske ijtimoiy taraqqiyotda geografik muxit alohida o'rin tutishini aytadi. U mamlakatning jug'rofiy iqlimi va geopolitik o'ziga xosligiga taraqqiyotning bosh omili sifatida qaraydi. Freyd esa inson qalbidagi xoxish-istak jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, degan nazariyani ilgari surib, insoniy mayl, qiziqishlar ijtimoiy taraqqiyot sur'atlari mohiyati va mazmunini tashkil etilishini asoslashga intiladi. Shuningdek, rus olimi N.Berdyayev ijtimoiy taraqqiyot mavhum tushuncha bo'lmasdan, har qanday jamiyat a'zolarining kamolot darajalari majmuidan iborat ekanligini asoslashga uringan. Hayot, kishilikning ongli tarixi bu g'oyalarning barchasi muayyan ratsional jihatlari bo'lgani holda qaysidir darajada bir yoqlama ekanini ko'rsatadi. Islom Karimov asarlarida manaviyat ijtimoiy taraqqiyotning bosh harakatlantiruvchi kuchi sifatida asoslanadi va amaliyotning barcha jabhalarida sinovdan o'tkazilib, hayotchanligi va darajasi yuqoriligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan isbotlab beriladi.

Aytish mumkinki, manaviyat nafaqat mamlakatimizning ko'p ming yillik tarixi, ijtimoiy taraqqiyotning barcha jabhalariga bevosita ta'sir ko'rsatgan, ayni chog'da xalqimiz mintaliteti ham manaviy qadriyatlar asosida shakllangan va sharq sivilizatsiyasi bevosita manaviyat, ilm-fan ahloq, ruhiy pokizalik asosida yuzaga

kelgan. Xuddi shu jihatdan ham Sharq insoniyat taraqqiyotiga, jahon sivilizatsiyasiga o'ziga xos madaniyat va ma'rifat olib kirgan.

Jamiyatning milliy-manaviy negizlari demokratik davlat fuqarolik jamiyatini qurish, gullab-yashnagan farovon hayotni barpo etishning qudratli zamini hisoblanadi. U odamlarni yagona maqsad-mustaqillik uchun kurashga safarbar etadi, uyushtiradi, jipslashtiradi, boshini-boshigaqovushtiradi, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishini ta'minlash singari ulug'vor vazifalarni hal etishga yo'naltiradi, xalqimizni ona Vatan, unga bo'lgan sevgi sadoqat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Mustaqillikning eng katta ne'matlaridan biri shu bo'ldiki, endilikda odamlardagi millat, Vatan, ona zamin haqidagi tushunchalar o'zining asl ma'nlari qaytmoqda. Vatan, bu endi ilgariidek siyosat va mafkura asosiga qurilgan, milliy his va idrokdan uzoq, allaqanday mavhum tushuncha emas. Mustaqillik tufayli biz o'zimizning haqiqiy Vatanimizni topdik. Jahon siyosiy xaritasida O'zbekistondек mustaqil davlat paydo bo'ldi.

Sizu bizning bugungi kunda haqiqiy azaliy Vatanimiz bu - butun dunyo ahli e'tirof etgan va hurmat qiladigan jonajon O'zbekistondir. "Bugun Vatanning har bir asl farzandi o'zini ona yurtining ajralmas bo'lagi deb his etyapti va bundan faxrlanyapti. Istiqloq bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yanglishmagan bo'lamiz"¹.

1. Yuksak manaviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Yurtida barqarorlik va millatlararo totuvlik mustahkam bo'lsa xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratish shunchalar jadallashadi, demak shunday to'kin-sochin jamiyat qurishning sababchisi bo'lgan insonning komilligi yanada rivojlanadi.

2. Demokratik ne'matlarni va himoyachisi bo'lgan inson fuqarolik jamiyati qadriyatlarini nodir ne'mat kabi asrab-avaylab, parvarish qiladi, demokratiya, qonun ustuvor bo'lgan muhitga noma'qul kuchlar, mustabidchilik taxdidlariga qarshi kurashning ilg'or saflarida bo'ladi.

Qisqacha xulosalar

Mustaqillik yillarida manaviy merosga va milliy madaniyatga bo'lgan munosabatlar tubdan o'zgardi. Ma'naviy me'rosimiz qaytadan tiklandi. Shu hududda yashab, ijod qilgan, jahon fan va madaniyatiga o'zining ulkan hissasining qo'shgan ajdodlarimizning nomlari qaytadan tiklandi, ularga yodgorliklar o'rnatildi. Ularning qoldirgan me'rosi xalqimizga yetkazildi. Milliy g'urur va iftixorimiz bo'lgan tilimizga Davlat tili maqomi berildi. Milliy san'atimiz mustaqillik sharofati bilan bir necha o'n yilliklarda ta'qiqlanib yotgan nodir boyliklarimizni ro'yobga chiqardi. Vatan va mustaqillikni qadrlash kuchaydi.

Ma'naviyati yuksak bo'lgan, o'z kuchiga, o'z tanlagan yo'lining to'g'riligiga ishonch bo'lgan yerda inson doimo kelajakka intiladi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga hayot haqiqatga suyangan holda har qanday g'arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh qilishga qodir bo'ladi.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: «Ўзбекистон» 1996.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ma'naviy meros deganda nimani tushunasiz?
2. Sho'rolar hukmronligi davrida manaviyat sohasida qanday siyosat olib borildi?
3. Mustaqillik yillarida manaviy merosni tiklash uchun qanday ishlar amalga oshirildi?
4. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishiga sabab nima?
5. Istiqloq yillarida milliy san'atimizda qanday o'zgarishlar bo'ldi?
6. Ma'naviy meros va milliy madaniyatning mustaqillikning mustahkamlashdagi roli qanday, uni tushuntirib bering?
7. Ma'naviy yangilanishning mustaqillik nilan bog'liqligi?
8. Agressiv millatchilik va shovinizm?
9. Ekstrimizmning terrorizm bilan bog'liqligi?
10. Milliy manaviy negizlar tushunchasi va uning mazmuni?

Foydaldirilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.
2. Ўзбекистон Республикаси: Қонун ва Фармонлар. Тошкент, "Ўзбекистон", 1992-2003.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқдол ва тараққиёт йўли. Т.1 - Т.: "Ўзбекистон", 1992.
4. Каримов И.А. "Иқтисодиёт ва маънавият ажралмасдир", // "Халқ сўзи", 1997 йил 23 август.
5. Каримов И.А. Бухоро шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимлардаги табрик сўзи // "Халқ сўзи", 1997 йил 20 октябр.
6. Каримов И.А. "Тарихий хотирасиз келажак йўқ" Тарихчи олимлар ва журналистлар билан суҳбат. // "Халқ сўзи", 1998 йил 5-сон.
7. Каримов И.А. "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари" Т.6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.
8. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.
9. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. -Т.: "Ўзбекистон". 1998.
10. Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 1999.
11. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 1999.
12. Каримов И.А. Иккинчи чақриқ Олий Мажлиснинг еттинчи сессиясида сўзлаган нутқи. Т.10. -Т.: 2002.
13. Каримов И.А. Эл-юртга ҳалол, виждонан хизмат қилиш ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи. Андижон вилояти халқ депутатлари кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқ. // "Ишонч". 2004 йил 26 май.
14. Каримов И. А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-

қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ, Т.: "Ўзбекистон", 2004.

15. Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократиялаш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: "Ўзбекистон". 2005.

16. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Т.: "Академия", 2005й.

17. Маънавий-маърифий ислоҳатлар давлат сиёсатининг асосий устивор йўналишдир. -Т.: "Ўзбекистон", 1998.

18. Умарова Н. Замона зулми қўтармас ёхуд инсониятнинг қулфати ҳақида. // "Халқ сўзи", 2004 йил 19 май.

19. Ўзбекистон 13 - йил мустақил тараққиёт йўлида -Т.: "Ўқитувчи", 2004.

20. Эргашев И. Демократия миллий ва умумбашарий қадрият. Жамият ва бошқарув. № 2, 2004.

21. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номли маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.

22. www.edu.uz

23. www.zuyo.edu.uz

24. www.ec.edu.uz

25. www.performance.edu.uz

26. www.gov.uz

27. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru

28. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru

29. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm

30. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

VII BOB

JAMIYAT IQTISODIY HAYOTINI ERKINLASHTIRISH VA DEMOKRATLASHTIRISH

7.1. DEMOKRATIK JAMIYATDA IQTISODIY HAYOTNI ERKINLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA MAZMUNI

Prezidentimiz birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida (1999 yil aprel, O'zbekiston XXI asrga intilmoqda) qilgan ma'ruzasida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish g'oyasini ilgari surgan edi.

Aslida, demokratik jarayonlar rivoji erkinlashtirishning real amalga oshishi natijasidagina sodir bo'ladi. Ammo erkinlashtirish oddiy farmon yoki qonunlarni qabul qilish bilan amalga oshavermaydi, balki u juda murakkab jarayon hisoblanadi. U iqtisodiy hayotda, ijtimoiy-siyosiy va manaviy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalarning amalga oshirilishi, fuqarolarning real hayotida nechog'li namoyon bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ana shu murakkab jarayonni hisobga olib davlatimiz boshlig'i erkinlashtirish konsepsiyasini amalga oshirish jamiyatimizning barcha sohalarini o'zida qamrab olgan 6 ta ustuvor vazifani bajarishni taqozo etishini asoslab bergan edi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;

Jamiyat manaviyatini yuksaltirish;

Kadrlar masalasi;

Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish;

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;

Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxtsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash.

Ushbu vazifalar taraqqiyotimiz modelining asosini tashkil etgan mashhur beshta tamoyilning mantiqan davomidir.

Albatta bularning har birini amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan erkinlashtirish konsepsiyasi mustaqilligimiz dastlabki yillarida fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan pirovard maqsadimizni amalga oshirish borasidagi yangi sharoitda qilinayotgan yangi qadam edi.

Vatanimizda demokratik jarayonlarning tobora chuqurlashib borayotganligi, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolar ishtiroki ortib borayotgani barcha-barchasi, avvalo, davlatning erkinlashtirish jarayonlarni yanada kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishga e'tiborni kuchaytirilayotgani tufayli namoyon bo'layotganini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan jarayonlar uzluksiz bo'lib, pastdan yuqoriga rivojlanib borganagina fuqarolik jamiyati qurish uchun mustahkam zamin vujudga keladi. Ana shunday zaminni mustahkamlash jarayoni mamlakatimizda evolyutsion yo'l bilan bormoqda. Bu yo'l bizning mentalitetimizga mos bo'lib, u mamlakatimizning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turli siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar vujudga kelishining oldini olish, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni ta'minlash

va fuqarolarimizning yurtimizda olib borilayotgan islohotlarni qo'lib-quvvatlashi hamda ularning davlatga ishonchining mustahkamlanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jamiyat hayotining barcha jabhalarini yangilash uzluksiz jarayon hisoblanadi, shuning uchun ham uni takomillashtirishning imkoniyatlari yanada kengaytirilishi va bu borada samarali mexanizmlar izlab topilishi hamda ularning ishga tushirilishi yana ham aniqrog'i, yurtimizdagi butun o'zgarishlar jarayoniga yangi kuch-qudrat bag'ishlash lozim bo'ladi. Aks holda, ularning kuchayishi, islohotlarni amalga oshirishda muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish quyidan yuqoriga, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi yuqoridagi fikrlarni to'liq tasdiqlaydi.

Yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan uchinchi ustuvor yo'nalish vazifalarining boshqa ustuvor yo'nalishlar bilan biralikda kompleks yechimining mohiyati mamlakatimizning real iqtisodiy mustaqillikka erishishi va bozor munosabatlariga to'liq o'tishini ta'minlab berishga qaratilgan.

Markazlashgan ma'muriy boshqarish tizimiga asoslangan iqtisodiyot o'zining hayotiy emasligini, aholining o'sib boruvchi ehtiyojlarini ta'minlay olmasligini to'liq ko'rsatdi. Hayotning o'zi u tizimni yuqori samara beruvchi, inson manfaatlariga mos tushuvchi va unga xizmat qiluvchi yangi iqtisodiy tizim, yangi bozor munosabatlari tizimi bilan almashtirish lozimligini kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'ydi.

Bozor iqtisodiyoti deganda, tovar munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillari asosida boshqariladigan iqtisod tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud. U bir necha ming yillardan beri rivojlanib, turli iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar doirasida saqlanib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish-bu shunchaki maqsad emas, balki iqtisodda bozor munosabatlarini shakllantirish, jamiyatni yangilash yo'lidir, ya'ni iqtisodiy faoliyat erkinligicha, mulkchilikning xilma-xilligiga, narx erkinligiga, raqobat kurashiga, shaxsiy huquq va erkinliklarning qaror topishiga, daromadning cheklanmaganligiga erishish demakdir. Faqat bozor munosabatlari zaminidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, ko'plab sifatli mahsulotlar yaratish, ularga bo'lgan talablarni qondirish, tejamli xo'jalik yuritish, to'kinchilik yaratib, xalqning farovon turmushini ta'minlash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolat o'rnatish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti faoliyatida erkinlikka, xo'jalik yuritishda oqilonalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyot bo'lib, eng avvalo, mulkchilik shaklini ta'minlaydi. Bunday iqtisodiyotda xususiy mulk, jamoalar mulki va davlat mulki mavjud bo'lib, u yoki bu mulkning yakka hokimligi bo'lmaydi. Barcha mulklar teng, ular cheklanmagan holda rivojlanadi. Mulchilikning asosini xususiy mulk tashkil etadi.

Erkin iqtisodiyot erkin tadbirkorlikka, bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda ish ko'rish imkoniyati borligiga asoslanadi, muxtasar qilib aytganda, erkin iqtisodiyot tamoyillari mulkchilikning xilma-xilligini, narx-navo erkinligini, ochiq raqobat kurashini va daromadning cheklanmaganligini bildiradi.

Bozor iqtisodiyoti, o'z mohiyatiga ko'ra ochiq iqtisodiy tizim bo'lib, unga avtarkiya va o'zini o'zi ta'minlash qoidalari begonadir. Bozor xo'jaligi qonunlari katta jug'rofiy maydonlarda amal qiladi, raqobatni kuchaytiradi va ishlab chiqaruvchilarning qaysi mamlakatda bo'lishidan qat'iyy nazar, ularning chiqimlarini kamaytirishga, mahsulot sifatini oshirishga, iste'molchi haqida g'amxo'rlikka majbur etadi. Fransuz iqtisodchisi Mishel Pabroning fikricha: "ochiqlik, erkin savdo-bu eng qulay o'yin qoidasidir".

Erkin ochiq iqtisodiyotning shakllanishi va tarkib topishi olamshumul rivojlanishning obyektiv tendensiyasidir. Erkin ochiq iqtisodiyot tamoyillari joriy etish bu jahon bozori standartlarini tan olish, uning qonunlariga monand ravishda ish yuritishdir.

Erkin ochiq iqtisodiyotning ustunliklari quyidagilar:

Ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashishi;

Samaradorlik darajasiga bog'liq holda resurslarning ratsional taqsimoti;

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali jahon tajribasining keng yoyilishi;

Jahon bozorida raqobat orqali milliy ishlab chiqaruvchilar orasidagi raqobatning rag'batlantirilishi.

Ochiq iqtisodiyot jahon xo'jaligiga, dunyo bozoriga integratsiyalashgan yagona iqtisodiy kompleks, yaxshi milliy iqtisodiyotni taqazo etadi. Ochiq turdagi bozor iqtisodiyotini qurmay turib, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etmay turib, mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi.

Bozor tizimi iqtisodiy islohatlar tufayli yuzaga keladi. Buni bozor islohatlari deyviz.

Bozor islohatlari bozor iqtisodiyotini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan mamlakat fuqarolari va xo'jalik subyektlarining faol ishtiroki bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy chora-tadbirlar tizimidir.

Bozor islohatlari iqtisodiyotning barcha sohalarida amalga oshiriladi, chunki bir sohaga bozor munosabati yuzaga kelib, boshqasi eskilgicha qolaversa, nomutanosiblik yuz beradi. Bozor islohatlarining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

Mulkchilikni isloh qilish;

Turli tarmoq tuzilmalarini (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish) isloh qilish;

Moliya-kredit islohatlari;

Tashqi iqtisodiy aloqalar islohatlari;

Ijtimoiy sohadagi islohatlar.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bozorning ko'p bo'g'inli infratuzilmasiga ega bo'lmasdan bozor mexanizmlari to'liq ishlay olmaydi. Bozor infratuzilmasi besh bo'g'indan iborat bo'lib, unga ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi (transport, aloqa yo'l xo'jaligi, suv va energetika ta'minoti va h.k.) tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi (birjalar, savdo uylari, aksioner, reklama firmalari va agentliklari, bojxona va h.k.), moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi (tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, soliq idoralari va h.k.) aholiga xizmat qiluvchi yoki ijtimoiy (maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, uy-joy, kommunal xizmati va h.k.) axborot xizmati ko'rsatuvchi infratuzilmalar kiradi.

Bozor iqtisodiyotining tamoyillari, qonun-qoidalari bir xil bo'lsada, ularni

joriy etish yo'llari har-xil. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach uning oldida ikki strategik vazifa turar edi. Biri mustaqillik uchun iqtisodiy poydevor qurish, ikkinchisi - bozor iqtisodiyotiga o'tish. Iqtisodiy mustaqillikka bozor mexanizmi orqali erishiladi. Lekin uning O'zbekistonda shakllanishi o'ziga xos yo'l bilan yuz bermoqda. Bu yo'l bozor iqtisodiyotining umumiyligini e'tirof etgan holda O'zbekistonning milliy xususiyatlarini hisobga oladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda O'zbekiston jahon tajribasiga tayanib, shu yo'l bilan birga, o'z milliy manfaatini, bu erdagi real sharoitni hisobga olgan holda bu boradagi islohatlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirib bermoqda.

Birinchi bosqichdagi islohatlar bozor iqtisodiyotining negizlarini shakllantirishga qaratildi. Eng avvalo, shu negizlarni yaratishni ta'minlovchi qonunlar ishlab chiqilib, ular islohatlar uchun asos bo'ldi, ya'ni bozor iqtisodiyotining huquqiy poydevori ta'minlandi. Bu bosqichdagi bosh masala mulkchilikning yangi shakliga o'tib, ko'p ukladli iqtisodiyot uchun asos solishdan iborat bo'ldi.

Islohatlarning ikkinchi bosqichi O'zbekistonning milliy valyutasi-so'm muomalaga kiritilishidan boshlangan. Bu bosqichdagi bosh masala bozor iqtisodiyotiga mos bo'lgan ijtimoiy adolat qoidalarini yuzaga chiqarish hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish siyosatining yangi bosqichi birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida Milliy iqtisodiyotni har tomonlama erkinlashtirish bo'yicha belgilangan aniq chora tadbirlar majmuini amalga oshirishdan boshlandi.

Birinchidan, bu mulkchilik va uning asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini yechishga bevosita tegishlidir, boshqacha so'z bilan aytganda, respublikada bozor islohatlarini amalga oshirish jarayonining boshlanishida qo'yilgan - xususiy mulkchilik yetakchi o'rin tutuvchi ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadini oxiriga yetkazishdir.

Ikkinchidan, bu iqtisodiyotni erkinlashtirish masalasi bo'lib, u mamlakat hududida real raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog'langan.

Uchinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni bank va moliya tizimlari faoliyatini takomillashtirish, bozor infratuzilmasini kompleks shakllantirish va rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

To'rtinchidan, bu turli xo'jalik faoliyatini tartibga solish va boshqarish sohasidagi masaladir.

Beshinchidan, valyuta bozorini erkinlashtirish va milliy valyuta-so'mni erkin almashtiriladigan valyutaga to'liq konvertatsiya qilish masalasini bosqichma-bosqich yechish bo'yicha aniq vazifalar turibdi.

Oltinchilan, ichki va tashqi investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni shakllantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha imtiyoz va kafolatlarni kengaytirish hamda ularni mustahkamlashni rag'batlantirish bo'yicha ishlar davom ettirilishi lozim.

Ettinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish ko'p jihatdan korxonalarni xo'jalik faoliyatiga turli xil nazorat qiluvchi va tekshiruvchi organlarning davlat tomonidan aralashuvini cheklash bilan bog'liqdir. Bu o'z navbatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z faoliyati natijalari bo'yicha iqtisodiy va moliyaviy mas'uliyatini oshirish demakdir. Shu bilan birgalikda xo'jalik sudi, bankrotlik institutining roli kuchaytiriladi.

Umuman olganda, bozor islohatlarini chuqurlashtirish, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish erkinlashtirish jarayonlarining mazmuni hukumatimizdan mamlakat iqtisodiy hayoti jo'shqinligini ta'minlash, bozor mexanizmining samarali ishlashi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan asosiy funksiyalarining kuchaytirilishini taqozo etadi.

7.2. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING IJTIMOY-IQTISODIY NEGIZI. MULKCHILIKNING XILMA-XIL SHAKLLARI

Bozor islohatlarini amalga oshirish va chuqurlashtirishda iqtisodiyotning xususiy sektorini-tarmog'ini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyatga egadir.

Xususiy tarmoqni rivojlantirish davlat mulkchiligiga asoslangan totalitar tuzumdan xususiy mulkchilik prinsiplari amal qiladigan demokratik jamiyatga o'tish jarayonining uzviy qismi bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayni mulkchilik shaklining o'zgarishi iqtisodiyot va jamiyat hayotida ortga qaytarib bo'lmaydigan jarayonlar va o'zgarishlar uchun mustaqil zamin, keng asos yaratadi. Shundagina jamiyat hayotida ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatining tamomila yangicha tamoyillari amal qila boshlaydi.

Xususiy tarmoqni rivojlantirish istiqbollari haqida gapirganda, eng avvalo, kichik va o'rta biznes hamda xizmat ko'rsatish sohalarda rivojlanadi. Bunday davlatlarda xususiy tarmoqning yalpi mahsulotidagi ulushi 50-60% ni tashkil etadi. Mehnat bilan band bo'lgan aholining 65-68% i esa aynan mana shu sohada faoliyat ko'rsatadi.

Xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyot va davlat taraqqiyotiga, shu bilan birga, farovonlikka erishish yo'lidagi ishlarning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu sohaning afzallik tomoni moslashuvchanlik, tez orada faoliyat yo'nalishini o'zgartirish xususiyatidir. Katta-katta kompaniya millionlab so'mli mahsulot chiqarib, to'satdan boshlangan inqiroz tufayli uni sota olmay sinishi mumkin. Kichik va o'rta biznes vakillari bunday vaziyatlarda, tabiiyki, ancha oson yechim topadi.

Albatta davlatga qaramlikda yashab ongiga boqimandalik kayfiyati qattiq o'rtnashib qolgan odamlarda mulkdorlik hissini uyg'otish oson kechmaydi. Lekin ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi hozirgi vaziyat 13 yil ilgorigidan ancha boshqacha. Ko'pchilik mulkka egalik qilish hissini anglab yetadi, mulkdorlar sinfi kengayib borayotir. Ayni shu mulkdorlar sinfi kengayishiga mos ravishda mamlakatda rivojlangan davlatlardagidek o'rta tabaqa shakllanib, ko'lamini oshirmoqda.

2003 yil 1 yanvarga mamlakatdagi barcha korxonalar va tashkilotlarning 89,2% i iqtisodiyotning nodavlat sektorida faoliyat ko'rsatdi. Nodavlat sektorda yalpi mahsulotning 73,3% i, sanoat mahsulotlarining 71,4% i ishlab chiqarildi. Iqtisodiyot sohasida band bo'lganlarning 76,6% i ushbu sektor hissasiga to'g'ri keldi.

Agar O'zbekiston aholisining asosiy qismi yirik korxonalar qurish imkoniyati bo'lmagan, xizmat ko'rsatish sohasi kam rivojlangan qishloq joylarda istiqomat qilishni inobatga olmaydigan bo'lsa, xususiy tarmoqni har tomonlama rivojlantirish va rag'batlantirish bu eming sharoitida naqadar zarur ekanligini anglab yetish qiyin emas. Masalaning yana bir e'tibori shundan iboratki, agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha zamonlarda ham o'zbek xalqining dunyoqarashi, o'ziga xos tafakkur va turmush

tarzida xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga intilish doimo juda kuchli bo'lgan. Bu mintaqada azaldan hunarmandchilik rivojlangan bo'lib, to'qimachilik, etikdo'zlik, naqqoshlik bilan shug'ullanadigan kichik-kichik ustaxona va do'konlar ko'p bo'lgan. Aholining bir qismi shu kasb-hunar bilan band bo'lib, ularning mahorati avloddan-avlodga o'tib kelgan. Albatta, hunarmandchilik turli sohalarni bugungi dunyo taraqqiyotidan kelib chiqqan holda, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tiklash talab etiladi.

Xususiy sohalarni rivojlantirish uchun mamlakatda puxta qonunchilik asoslari yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shaxsiy mulkning daxlsizligi va uning davlat tomonidan himoya qilinishi aniq belgilab berilgan (53-moddaga qaralsin).

Qator sohalarda, ayniqsa qishloq xo'jaligida xususiy tarmoq ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ulushi tobora o'sib bormoqda. Hozirgi kunda savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida bu tarmoq yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Bu tarmoq mamlakat yalpi-ichki mahsulotidagi yalpi ulushi 2002 yilda 2000 yilga nisbatan 4,6 foizga oshdi va 34,6 foizni tashkil etdi. Shu jumladan, dehqon va fermer xo'jaliklarimiz bu ko'rsatkichlar 2000 yilda 21,6 foizni tashkil etgan bo'lsa 2001 yilda 24,5 foizgacha ko'tarildi. Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishni istaydigan odamlarning soni kundan-kunga ortib bormoqda. 2001 yili 63 mingga yaqin korxonalar xususiy tarmoq vakillari sifatida faoliyat ko'rsatdi. Kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlarining respublika aholisining har mingiga to'g'ri keladigan soni 6 dan 7,1 birlikka oshdi. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan aholining 54 foizini kichik va o'rta tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda. Ularning yarmidan ko'prog'i xizmat ko'rsatish sohasida, har oltitadan bittasi sanoat sohasida faoliyat ko'rsatmoqda.

2007 yilga kelib kichik biznesni yalpi maqsulotdagi ulushi kamida 45% ga yetkazish vazifasini qo'yilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznes taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan katta mablag' talab etmaydigan va resurslarning o'sish tezligini kafolatlovchi kichik va o'rta biznes korxonalar iqtisoddagi katta tuzilishlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni nisbatan tez va ortiqcha sarf xarajatsiz yechishga, ichki bozorni, moliyaviy resurslar chegaralangan bo'lishiga qaramay, iste'mol mollari bilan to'ldirishga qodirdirlar.

Kichik va o'rta biznesning taraqqiy etishi ko'p ustuvorliklarga ega:

Jamiyatda siyosiy turg'unlikni kafolatlovchi bosh garant - o'rta sinfning shakllanishida;

Turli ijtimoiy guruhlar daromadlarining mutanosibliini ta'minlab turuvchi iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan aholi ulushining o'sishida;

Faol va tadbirkor shaxslarni tarbiyalashda;

Nisbatan kam mablag' xarjlab, yangi ish o'rinlarini yaratishda;

Texnologik, texnik va tashkiliy yangiliklarni ishlab chiqarishda va joriy etishda;

Raqobat muhitini yuzaga keltirishda;

Moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni safarbar etishda, ulardan yanada samaraliroq foydalanishda;

Iqtisodning turli sektorlari o'rtasidagi o'zaro aloqani yaxshilashda;

Amaldagi qonunlarga muvofiq qilish va o'rta biznes egalari quyidagi guruhlarga ajratiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi haqida guvohnomasi bo'lgan jismoniy shaxs:

Mikrofirma - mulk shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqarish tarmoqlarida aholi bandligining o'rtacha yillik hisobida 10 kishigacha savdo sohasida, xizmat ko'rsatish va boshqa tarmoqlarning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan sohaslarida - 5 kishigacha xodimi bo'lgan korxonalar;

Kichik korxonalar - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar sanoat sohasida band aholining o'rtacha yillik soni 40 kishigacha bo'lgan: qurilishda, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishigacha, fan, ilmiy xizmat sohasida, chakana savdo va ishlab chiqarish bilan band bo'lmagan boshqa tarmoqlarda 10 kishigacha bo'lgan korxonalar;

O'rta korxonalar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ishchilarning o'rtacha yillik hisoboti kichik korxonalar uchun belgilangan sondan yuqori bo'lgan, lekin sanoat tarmog'ida 100 kishidan; qurilishda 50 kishidan, qishloq xo'jalik va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida, ulgurji savdoda 30 kishidan, chakana savdoda, xizmat ko'rsatish va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlarda - 20 kishidan oshmagan korxonalar.

Dunyodagi eng rivojlangan, jahon iqtisodiyotida yetakchi mavqega ega bo'lgan ayrim mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'p masalalarni hal etishga, birinchi navbatda, aholi turmush darajasining doim yuqori bo'lishini ta'minlashga, avvalo, kichik va o'rta biznesni jadal rivojlantirishni rag'batlantiradigan davlat siyosatini amalga oshirish orqali erishiladi. Masalan, Germaniyaning qisqa vaqt mobaynida Yevropa iqtisodiyotining ustunlaridan biriga aylanishida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hal qiluvchi rol o'ynadi. Davlatning bu boradagi oqilona siyosati tufayli urushdan keyingi yillarda kichik va o'rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 10 foizga ko'tarildi. Ko'pchilik xayrat va havas bilan qaraydigan "Yaponiya mo'jizasi" ham shu davlatning kichik va o'rta biznesni jadal rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyoti samarasidir. Hozirgi kunda bu yerda iqtisodiyotning mazkur bo'g'imi mamlakat ishlab chiqarayotgan yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'ini bermoqda. Jahonning eng qudratli davlati bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotining asosini ham kichik va o'rta biznes tashkil etadi. Uning mamlakatda ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi keyingi 40 yil mobaynida 10 foizdan 50 foizga o'sdi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik va o'rta biznes ulushi 67 foizdan ortiq ekani ham bejiz emas.

O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida bu borada izchil davlat siyosati olib borilib, muayyan ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Xususan, agar 1991 yilda bu sohaning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi atigi 1,5 foiz bo'lsa, yuqorida qayd etilgandek, 2002 yil natijalariga ko'ra bu ko'rsatkich 34,6 foizga etdi. 2002 yilda 47,2 mingta mikrofirma, kichik va o'rta korxonalar barpo etildi va 2003 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami ro'yxatdan o'tganlar soni 239,5 mingni tashkil etdi. Tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 369,3 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi yoki ishga tushirilgan yangi ish o'rinlarining umumiy sonidan 84,6 foizni tashkil etdi. Ushbu sektorda ish bilan band bo'lganlar soni 508,4 ming kishini yoki iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 54,5 foizini tashkil etdi.

Keyingi yillarda kichik va o'rta biznes faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi, qulay soliq tartibi yaratildi.

Bank tizimi xususiy tadbirkorlik tuzilmalari bilan samarali hamkorlikda ishlay

boshladi. 2003 yilda tijorat banklarining kichik va o'rta biznes subyektlariga bergan jami kreditlari 69,5 milliard so'mni, shu jumladan, o'z mablag'lari hisobidan 187,1 mlrd so'm va 4 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, deydi Prezidentimiz 2004 yil 2 dekabrda Oliy Majlis o'n oltinchi sessiyasida so'zlagan nutqida, Oliy Majlisning qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasida iqtisodiyot, jumladan mulkchilik masalalari bo'yicha, xususiy korxonalar, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish, ishlab chiqarish sohalarini erkinlashtirish, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifasini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi navbatda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash, bu borada qat'iy huquqiy poydevor yaratish bo'yicha qabul qilingan qonunlar taraqqiyotimiz sur'atlarini tezlashtirishga xizmat qilmoqda¹.

7.3. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT VA VALYUTA BOZORI. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING ROLI

Tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish maqsadida o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat o'zini faqatgina erkin bozor girdobiga tashlab qo'ya olmaydi va bu sharoitda davlatni rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuvi zaruriyati tug'iladi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan tartibga solishi, ayniqsa muhimdir. Bu esa, birinchi navbatda, tashqi savdoni va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllarini tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni oqilona tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi.

Tashqi iqtisodiy siyosat mohiyatini ko'rib chiqishdan oldin ushbu tushuncha mazmunini almashtirib olish zarur.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish - bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga qaratilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish borasidagi chora-tadbirlar tizimidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish deganda, eng avvalo, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashuvchilarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tashqi savdoni tartibga solish ma'muriy uslublarining ma'lum qadar qisqarishi, mavjud to'siq va g'oyalarning bartaraf qilinishi tushuniladi. Bu mutlaqo muqarrar, ichki iqtisodiy munosabatlar erkinlashuvining mantiqiy oqibatlaridir. Samarali bozor mexanizmini faqatgina jahon bozor munosabatlari bilan uzviy aloqada tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Yana bunda eng muhimi turli mamlakatlar iqtisodiy va huquqiy shakllarining ma'lum darajada o'xshashligidir. Tashqi iqtisodiy siyosatni erkinlashtirish islohotlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'tish davri iqtisodiyoti masalalari yechimini tezlashtiradi.

¹ "Халқ сўзи". 2004 йил 3 декабрь.

Bunday erkinlashtirishning asosiy shakllari - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelishini kuchaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishida (tashqi iqtisodiy operatsiyalar markazlashuviga) barham berish, import qilish jarayonidagi ortiqcha to'siqlarni olib tashlash, eksportning rivojlanishini faollashtirish (bojlar, lisenziyalar, kvotalar va imtiyozlarni qisqartirish orqali), milliy valyutaning konvertatsiya qilinishini ta'minlashdir.

Bu shakllar, jahon tajribasi ko'rsatganidek, garchi to'liq holda ular hatto rivojlangan bozor iqtisodiyotida ham qo'llanilmasa-da, amaldagi bozor mexanizmlarini kuchaytiradi. Milliy ishlab chiqarishni himoya qilgan holda davlat ma'lum cheklanishlarni o'rnatadi, bojxona ta'riflaridan keng foydalanadi, turli xil ta'qiqiqlarni kiritadi va hokazo. Bozor mexanizmi endi shakllanayotgan, mavjud ishlab chiqarish bozor sharoitlariga hali to'liq moslashmagan o'tish davrida davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish va boshqarishdagi roli yanada muhimdir.

Shuning uchun bu davrda tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish siyosati ichki milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda zarar keltirmagan holda mamlakatda bozor munosabatlarini tezkor rivojlantirish va uning jahon xo'jaligiga uyg'un qo'shilishini maqbul darajada ta'minlash zarur.

Biroq, madhiya singari har qanday davlat milliy suverenitetining o'zgarmas atribut pul birligi-milliy valyutaning mavjudligi hisoblanadi.

Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda milliy pul birliklari jahon pullari funksiyasini bajaradi. Xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan pullarni valyuta deb atash qabul qilingan.

Valyutaning aylanuvchanligi ichki va tashqi tusda bo'lishi mumkin. Tashqi aylanuvchanlik valyutani chet-ellik sheriklar hisob-varaqlariga erkin o'tkazish va mablag'larning mazkur valyutaga erkin konvertatsisi mumkinligini anglatadi. Ichki aylanuvchanlik mazkur malakatning xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun chet-elga to'lovlar va xorijiy valyutani sotib olishni cheklashsiz amalga oshirish imkoniyatini beradi. Valyutaning tashqi va ichki aylanuvchanligini birlashtirish valyuta konvertatsiyasining to'liq shakli hisoblanadi. "Konvertatsiyalanish" tushunchasi bir mamlakatning pul birligini boshqa mamlakatning pul birligiga shunchaki almashtirilishidan yoki valyutalar oldi-sotdisiga qaraganda ancha kengdir. Konvertatsiyalanish tushunchasini milliy valyutadagi mablag'lar egalari uchun nafaqat mamlakat ichida, balki xorijda ham muayyan operatsiyalarni bajarish erkinligi ta'minlaydigan mamlakat iqtisodiy va valyuta-moliyaviy tizimining holati va xarajatleri sifatida ta'riflash mumkin. Konvertatsiyalashga faqat ochiq bozor xo'jaligi sharoitlarida erishsa bo'ladi. Mamlakatning o'z milliy valyutasini konvertatsiyalanishiga erishish va buni qo'llab-quvvatlashi murakkab iqtisodiy muammodir. Valyutaning konvertatsiyalanishi tartibini joriy etish zarur iqtisodiy sharoitlarni barpo etishni taqozo etadi.

Valyutaning uchta guruhi mavjud.

Birinchi guruhi - erkin konvertatsiyalanadigan (aylanadigan) valyuta - (EKV). Bu valyuta boshqa chet el valyutalariga erkin va cheklanmagan holda almashtiriladi. EKV ni almashtirish sohasi kundalik tashqi savdo faoliyati bilan bog'liq joriy operatsiyalarga, shuningdek, tashqi kreditlar va chet el investitsiyalarga doir operatsiyalarga tadbiq etiladi.

Ikkinchi guruh - qisman konvertatsiyalanadigan valyuta (QKV), bu - operatsiyaning ayrim turlari bo'yicha yoki valyuta bitimlarining ba'zi ishtirokchilari uchun miqdoriy cheklovlar yoki maxsus ruxsat berish rusum qoidalari mavjud bo'lgan mamlakatlarning milliy valyutasidir. Bunday mamlakatlar hukumatlari foydalanadigan usullar: importni lisenziyalash, almashtirish kurslarining ko'pligi, import depozitlari talab qilinishi, miqdoriy nazorat. QKV faqat ba'zi chet el valyutalariga almashinadi va xalqaro to'lov aylanmasining ba'zi turlariga amal qiladi.

Uchinchi guruh - mavjud (konvertatsiyalanmaydigan) valyuta. Bu faqat bitta mamlakat hududida faoliyat ko'rsatadigan va chet el valyutalariga almashtirilmaydigan (bu holat ham yuridik, ham jismoniy shaxslar uchun taqiqlangan) milliy valyutadir. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar, iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar milliy valyutasi ana shunday valyutalardan hisoblanadi.

Valyuta bozori liberallashtirishining ta'minlanganligi tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi uchun jiddiy to'siqdir. Valyuta bozorining to'liq liberallashtirishi, albatta, kapital hisobi bo'yicha konvertatsiya qilinishini ham ko'zda tutadi. Biroq, moliyaviy tizim samarasi past mamlakatlar valyutaning to'liq konvertatsiya qilinishiga shoshilmaliklari maqsadga muvofiq.

Har qanday kichik va katta mamlakatlar uchun milliy valyuta-milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu har bir mamlakat milliy iqtisodiyotiga tegishli umumiy boylik mulkdir. Milliy valyutaning barqarorligi, uning ichki va tashqi bozorda erkin almashinuvi, yetarli miqdordagi raqobatbardosh mahsulotlar, zarur oltin-valyuta zahiralari orqali taqminlanadi. Bunga erishmoq uchun quyidagilarni amalga oshirmoq lozim:

Birinchidan, o'z valyutamiz tovar bilan barqaror ta'minlangan taqdirdagina real kuch va obro'ga ega bo'ladi. So'mning xarid quvvatini oshirish uchun milliy bozorni mumkin qadar tezroq iste'mol mollari bilan to'ldirish zarur. Tashqi savdoni rag'batlantirish bilan bir qatorda mahsulotlarimizning raqobatbardoshligini oshirishimiz lozim.

Ikkinchidan, milliy valyutaning barqaror bo'lishi, uning muqimligi, erkin almashinuvi yetarli oltin-valyuta rezervi (zahirasi) bo'lishiga bog'liq. Buning uchun eksport imkoniyatlarini kengaytirish, korxonaldarni eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga rag'batlantirish, jahon bozorida o'z mustahkam mavqeimizni qo'lga kiritishimiz darkor. Eksportga yo'naltirilgan korxonalarga bevosita investitsiyalar jalb qilishni va ularni xom-ashyolar bilan yetarli ta'minlashni yo'lga qo'yish muhimdir.

Uchinchidan, har bir korxonada, har bir tadbirkor ishlab topgan so'mini qadrlashni o'rgangan taqdirdagina milliy valyuta real to'lov vositasiga aylanadi. Biz milliy valyutani hurmat qilishni, u bilan faxrlanishni, uni ehtiyot qilishni o'rganib olishimiz darkor.

To'rtinchidan, milliy valyutani mustahkamlashning eng muhim sharti - inflyatsiyaga qarshi baquvvat, puxta o'ylangan makroiqtisodiy siyosat o'tkazishdir. Inflyatsiya darajasini keskin pasaytirishgagina milliy valyutani barqaror valyutaga aylantira olishimiz mumkin. Bu valyuta quvvati va aylanuvchan bo'lishining garovidir.

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi investitsiyalarni talab etadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli quyidagilar bilan izohlanadi:

xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

raqobatbardosh tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoq va sohalariga yo'naltirish va pirovardida, aholining me'yordagi turmush faoliyatini ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi;

kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish bilan ta'minlash;

korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnika bazasini yangilash imkonini beradi va texnik qayta qurollantiriladi;

tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va h.k.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy qiymati 3,6 mlrdlik 109 ta ustuvor investitsiya loyihalari, jumladan, 725 millionlik 35 ta to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb etilgan loyiha amalga oshirilmoqda. Agar 2001 yili 824 mln. dollarlik mablaq to'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan investitsiya o'zlashtirilgan bo'lsa, 2002 yilda 905 mln., jumladan, 183 millionlik to'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan investitsiya o'zlashtirilgan ya'ni, o'sish sur'ati bo'yicha 110 % va 1,7 barobarni tashkil etdi.


2002 yilda eksportbop va import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish borasida chet el investitsiyasini jalb etish jarayoni davom etdi. 2003 yilning 1 yanvariga ko'ra mamlakatda chet el investitsiyali 2000 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Eng ko'p qo'shma korxonalar AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ukraina va boshqa davlatlar investitsiyalari ishtirokida barpo etildi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor berildi. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Mazkur qonunlar sponsornlarni jalb qilishni, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni mustahkamlashni va rivojlantirishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati avvalo ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neftni qayta ishlash va kimyo sanoati, energetika, transport, oltin, mis va boshqa qazilma boyliklarni ishlab chiqarishga, telekommunikatsiya tarmoqlariga qaralishi lozimki, bu o'z navbatida, oltin-valyuta zahiralarnimizning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Diagramma 1-ga qaralsin.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha chet el investitsiya va kreditlarini o'zlashtirish.



● Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun, avvalo, qulay investitsion muhitni barpo etish lozim. Investitsiya muhiti keng tushuncha bo'lib, u investorming u yoki bu davlat iqtisodiyotiga mablag' sarflash uchun shart-sharoitlarning qulayligini, ya'ni barqaror siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning yaratilganligini baholashdagi barcha hisob-kitoblar majmuasini o'z ichiga oladi.

● Har bir mamlakatning investitsiya muhiti, birinchi navbatda uning siyosiy barqarorligidadir. Xuddi ana shu omil chet el investorlariga boshqa mamlakatlarga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni jalb qilish imkoniyatini beradi.

● Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri jahon andozalariga mos keluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning mavjudligidir. Bu esa investorlarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun kafolat vazifasini o'taydi.

- Xorijiy investorlarini jalb qilishning bir qancha usul va shakllari mavjud, bulardan: ulush qo'shib qatnashish orqali qo'shma korxonalarni tashkil etish; 100% mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo'lgan korxonalarni tashkil etish; yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish; konsessiya va lizing shartnomalarini tuzish; erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish; moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Qisqacha xulosalar

Mustaqillikning 13 yili ichida iqtisodiyotimizda ulkan o'zgarishlar bo'ldi. Mamlakatimiz don va yoqilg'i mustaqilligiga erishdi. YaIM o'sish darajasi 2003 yil 110,8 % ga ko'paydi. 1994-2003 yillarda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar 28,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish moddiy - iqtisodiy sohada iqtisodiy siyosatning mustaqil amalga oshirilayotganligi erkin bozor munosabalariga o'tilayotgani, mulk shakllarining xilma-xilligiga erishilgani, mamlakatimiz jahon iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylanganida namoyon bo'lmoqda.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida Oliy majlis qonunchilik palatasi va Senatning qushma majlisida Prezident I.A.Karimov ma'ruzasida milliy iqtisodiyotni har tomonlama erkinlashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar, shuningdek, mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan yetti ustuvor yo'nalishlariga tegishli vazifalar o'zini amaliy namoyon etib bormoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasining mohiyati qanday, mazmuni nimadan iborat?

2. Prezident I. A. Karimov erkinlashtirish konsepsiyasini amalga oshirish jamiyatimizning barcha sohalarini o'zida qamrab olgan oltita ustuvor vazifani bajarishni taqazo etishni asoslab bergan edi. Bu vazifalar qaysilar?

3. Bozor iqtisodiyoti islohatlarini chuqurlashtirish siyosatining yangi bosqichi birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida milliy iqtisodiyotni har tomonlama erkinlashtirish bo'yicha belgilangan aniq chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishdan boshlandi. Ushbu chora-tadbirlar qaysilar?

4. Kichik va o'rta biznesning taraqqiy etishi qanday ustuvorliklarga ega. ?

5. Har qanday kachak va katta mamlakatlar uchun milliy valyuta - milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Aytinch, milliy valyutaning barqarorligi, uning ichki va tashqi bozorda erkin almashinuvini nimalar orqali ta'minlanadi?

6. Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi investitsiyalarni talab etadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli nimalar bilan izohlanadi?

7. Bozor iqtisodiyotini mohiyati va asosiy belgilari?

8. Demokratik jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish tushunchasi va mazmuni?

9. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat boshqaruvi?
10. Raqobatning demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati -

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон", 2003
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон иқтисодиётида хусусий секторнинг улуши ва аҳамиятини тубдан ўзгартириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. 2003 йил 24 январ.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мамлакатимизни сиёсий-иқтисодий ривожлантиришнинг 2004 йил 9 ойи якунлари тўғрисида ҳисоботи. // "Халқ сўзи", 2004 йил 11 ноябр.
4. Каримов И. А. "Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида". Т.3 -Т.: "Ўзбекистон", 1996.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон: XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.
6. Каримов И. А. "Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.
7. Каримов И. А., Ўзбекистонда демократик ислохатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Т.11. -Т.: "Ўзбекистон", 2002.
8. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: "Ўзбекистон", 2005.
9. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. Т.: "Академия", 2005.
10. Иқтисод, демократия ва фуқаролик жамияти. -Т.: "Шарқ", 2003.
11. Ўзбекистон: 13 йил мустақил тараққиёт йўлида. Т.: "Ўқитувчи". 2004.
12. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номли маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.
13. www.edu.uz
14. www.zuyo.edu.uz
15. www.ec.edu.uz
16. www.performance.edu.uz
17. www.gov.uz
18. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
19. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru
20. Академия труда и социальных отношения www.ap177.chat.ru
www.atiso.htm
21. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

VIII BOB
DEMOKRATIK JAMIYAT SHAKLLANISHIDA MAHALLA VA
FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI

8.1. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT SHAKLLANISHIDA
MAHALLA VA FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH
ORGANLARINING O'RNINI

Prezident I. Karimov birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekistondaagi islohatlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekan, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyati e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy belgilovchi bo'g'iniga aylanganligini aytadi. "Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir".

Ho'sh, o'zini-o'zi boshqarish nima? Uning mohiyati va xususiyatlari nimalardan iborat?

Ilg'or demokratik davlatlarda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish jarayonida o'z-o'zini boshqarish institutining roli (demokratik davlatlarda, ko'proq G'arbda "Munitsipal" deyiladi) ortib, uning takomillashuv jarayoni yanadatezlashmoqda. O'zini-o'zi boshqarish deb, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish markazlashmagan tamoyil asosidagi boshqaruv bo'lib, uning asosiy belgilari, bu - mazkur organlarning fuqarolar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanishligi va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan o'zini-o'zi boshqarish faoliyatiga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqilligidir.

1985 yil 15 oktabrda Yevropa ittifoqi tomonidan qabul qilingan, "Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa partiyasi"ning 3-moddasida bu tushuncha quyidagicha ifodalanadi: "Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish deganda, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'z mas'ulligida, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarishga va uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi. Bu huquqlar erkin, yashirin, teng, to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlarda saylangan a'zolaridan iborat kengashlar yoki majlislar o'zlariga hisobot berib boruvchi yoki ijroiya organlariga ega bo'lishi mumkin. Bu qoidalar fuqarolar majlislariga, referendumlarga yoki fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishining qonun yo'l qo'ygan boshqa shakllarga murojaat etishni istisno etmaydi.

Munitsipalitetlar jamiyatning barchatabaqalari manfaatlarini ta'minlovchi va qo'riqlovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraladi. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munitsipal kengashlar huquqiy jihatdan munitsipal ijroiya boshqaruvidan yuqori turib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi. Mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy Qarorlar qabul qilish, mahalliy soliqlarni joriy

etish, qarzlarni olish va ularni ishlatish masalalarini yechish va h.k. kiradi.

Oddiyroq qilib aytganda, o'zini-o'zi boshqarish tushunchasi jamiyat ishlariga rahbarlik qilishning shunday tizimi bilan bog'liqki, bunda olimlar o'z faoliyatining asosiy masalalarini o'zlari ishlab chiqadilar, o'zlari uchun majburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarini o'zlari yaratadilar va qabul qiladilar hamda ularga rioya etadilar.

O'zbekistonda ham milliy mustaqillik yillarida mahallalar o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida fuqarolik jamiyatini tashkil etuvchi institutga aylanib bormoqda. "Mahalla" arabcha so'zdan kelib chiqib, "shahar ichidagi shahar" ma'nosini anglatadi. Tarixchi olim Narshahiy "Buxoro tarixi" asarida bundan 1100 yil muqaddam bir qancha mahalla bo'lganligini yozgan. O'tmishda har bir mahallada asosan bir kasb-kor odamlari - hamkasabalar istiqomat qilishgan. Mahallalar shunga qarab nomlangan: zargarlik, misgarlik, ko'pchilik, qoshiqchilik, pichoqchilik, egarchi, temirchi, taqachi, o'qchi va hokazo. Hozirgi kunda zamona zayli bilan bir mahallada turli kasb-kor kishilari yashaydi. Lekin shu bilan birga asosan hamkasblarning xonadonlari yashaydigan mahallalar ham yo'q emas. Masalan, "Professorlar", "Olimlar", "Shifokorlar", "Geologlar" kabi mahallalar mavjud.

Mahalla O'rta Osiyoda qadimdan hududiy-ma'muriy birlik hisoblanadi. Bu yerda har bir yashovchi taqdiri, orzu-umidi, hayotga va odamlarga munosabatlari qat'iy nazoratda turgan. Bir-biri bilan hisoblashib yashagan. Shu bilan birga mahallachilik uzoq an'analarga va xalqimiz tarixiga, uning boy manaviy-axloqiy udumlariga bog'liq bo'lgan ulkan hayot maktabi.

Mahalla bo'lib, birlashib, uyushib yashash arablar istilosigacha yoki islom dini qabul qilinishidan ancha ilgari paydo bo'lgan. Mahalla ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi odamlar uyushmasi bo'lib, unda odamlar faqat qo'shnichilik munosabatlari bilan bog'liq emas, balki ming yillar mobaynida shakllangan o'ziga xos ichki tartib-qoida, manaviy-axloqiy normalar, aniq intizom, urf-odat va an'analarga ega bo'lgan.

8.2. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK TAMOYILLAR ASOSIDAGI O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH TIZIMINING TIKLANISHI

Mustaqillik yillarida mahallaning tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy maqomini mustahkamlash borasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Eng avvalo mahalla atamasi tarixda birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi. Unga aholining o'zini-o'zi boshqaruvining noyob shakli sifatida Konstitutsiyaviy maqom berildi. 1992 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika mahalla" xayriya jamg'armasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, 1993 yil sentyabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Prezidentining 1998 yildagi, "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida"gi, 1999 yildagi "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qator farmon, qarorlar, qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni e'lon qilinganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida "Shaharda, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslahatchilarini saylaydi" deyilgan. Bu bilan mamlakatimiz birinchi marta fuqarolar yig'ini o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida e'tirof etildi va ularning huquqiy maqomi, vakolatlari Qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yildi.

"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida o'zini-o'zi boshqarish organlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashishga doir o'z huquqlarini ro'yobga chiqarishlarida fuqarolarga ko'maklashadi, o'z hududidagi ijtimoiy va xo'jalik masalalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga O'zbekiston Respublikasi Qonunlarini, mamlakat hukumatining qarorlarini bajarishda yordamlashadi.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni ifodalovchi muhim belgilardan biri o'z faoliyatini hududiy tamoyil asosida tashkil etishdir.

Ma'lum bir hudud birlashgan jamoa o'zini-o'zi boshqarish idoralarini ma'lum turar-joy mavzesi, qishloq poselkasi, ko'cha hududida tashkil etadi.

Mazkur qonunning 2-moddasida hududiy yondoshishning o'ziga xos xususiyatlari alohida belgilangan. Jumladan, mahallalar faoliyat ko'rsatayotgan hududlar fuqarolarining taklifiga ko'ra tuman, shahar hokimi tomonidan belgilanib, qabul qilingan qaror tegishli hokimliklar tomonidan tasdiqlanadi.

Qonun fuqarolar yig'inida yoki majlisida qaror qabul qilishga imkon beruvchi huquqiy me'yorlar va imtiyozlarni ko'rsatib berdi. Fuqarolar yig'ini unda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganlarning kamida yarmi, vakillar majlisi esa deputatlarning uchdan ikki qismi qatnashganda qonuniy kuchga kiradi. Yig'inni rais yoki uning maslahatchilaridan biri olib boradi. Qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi va u hokimga yuboriladi.

Bularning hammasi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish idoralari faoliyatining demokratik asoslari mahalliy sharoitga yaqinlashtirilganini, ortiqcha rasmiyatchiliklarga barham berilganini va aholining jamiyatni boshqarishda mumkin qadar ko'proq ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishda xizmat qiladi.

Fuqarolar yig'ini vakolatlari kengaytirildi. Ular Qonunning 17-moddasiga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan kelishilgan holda savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining ish vaqtini aholiga qulay holda belgilashlari, ma'muriy komissiya tashkil etishlari mumkin. Bu mamlakatda fuqarolar faolligini oshirish, shu asosda o'z turmushini yo'lga qo'yish va jamiyat umumiy qiyofasini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992 yil 12 sentyabrdagi hamda mamlakat "Mahalla" xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992yil 8 oktabrdagi farmoni katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Yurtimiz farmoniga binoan "Mahalla" xayriya jamg'armasining tuzilishi mahallaning an'anaviy tarbiya o'chog'i ekanini yana bir bor tasdiqladi, uning zimmasiga zamona talablaridan kelib chiqib, yangi vazifalar yukladi, mahalla maqomini har qachongidan ko'ra oshirdi. Ko'p qavatli binolar joylashgan hududlarda ham yangi-yangi mahallalar tuzilayotgani, respublikamizda yashovchi boshqa

xalqlar orasida ham mahalla sharofatiga chuqur tushunuvchilar safi tobora kengayib borayotgani ushbu farmonning xalqchilligini yana bir bor tasdiqlaydi. Endilikda ilg'or fikrli kishilar boshchilik qilayotgan mahallalardagi jamoatchilik fikri muayyan manaviy kuch bo'lib qoldi. Ayni paytda mahalla qo'mitalari o'z hududlarida istiqomat qiluvchi kambag'al oilalarga nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi keng miqyosli ishlarni olib bormoqda.

Hukumat dastlab byudjet hisobidan 25 mln. so'm mablag' ajratdi. Bu joylarda mahallalar rolini oshirish, ular faoliyatini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatdir. Keyingi yillarda ham odamlarning turmush tarzini, ularning xulqi va kayfiyatiga odatda qishloq va mahalla komitetlariga saylanadigan hurmatli oqsoqollar ta'sir ko'rsatuvchi asosiy kuch ekanini hisobga olib qishloq va mahalla komitetlarining roli va obro'sini yanada mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi.

Keyingi yillarda mahallalar hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Buni 1996 yil may-iyun, 1999 yil noyabrda, 2001 yil may-iyun oylarida O'zbekistonda bo'lib o'tgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylovlar yakunlari ham ko'rsatdi. 2001 yil may-iyun oylarida mamlakatimizda o'zini-o'zi boshqarish organlari - mahalla, ovul, qishloq, shaharga fuqarolar yig'inlariga o'tkazilgan saylov bu sohada rahbarlarni yetuk kadrlar hisobiga sifat jihatdan o'zgartirishga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2001 yil 12 apreldagi "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etish to'g'risida"gi qarorida tashkilotchilik qobiliyatiga hamda aholi o'rtasida yuqori obro'-e'tibor va hurmatga sazovor bo'lgan davlat hokimiyati organlari vakolatlarining bir qismi bosqichma-bosqich fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berilishi munosabati bilan, ushbu organlar oldida turgan vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan shaxslar orasidan fuqarolar yig'inlari rais va oqsoqollari va ularning maslahatchilari lavozimlariga nomzodlar tanlash maqsadi qo'yildi.

Saylov marosimi davridagi tashkiliy ishlar va amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakatimiz bo'yicha fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylovlar ijtimoiy-siyosiy va tashkiliy jihatdan yuksak saviyada va fuqarolarning ijtimoiy faolligi oshgan holda amalga oshdi. Saylovlarda 12 mln.ga yaqin fuqarolar qatnashdilar. Bu ko'rsatkich mamlakat katta yoshli aholisining qariyb 90% tashkil etdi.

Fuqarolarning 9627 yig'inida, shu jumladan, 1556 shaharcha, qishloq va ovul yig'inlarida, qishloqlardagi 4151 mahallalar va shaharlardagi 2133 mahallalar yig'inlarida, shuningdek jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan 1782 mahalla fuqarolar yig'inlarida saylovlar bo'lib o'tdi.

Mamlakatdagi o'zini-o'zi boshqarish organlarining 9627 ta yig'inlari oqsoqoli va rameligiga jamoatchi ishchi guruhlari tomonidan tavsiya etilgan 22 ming nafardan ortiq nomzod orasidan tanlab olinishi saylovlarni muqobilik asosida o'tishiga va fuqarolar yig'inlari oqsoqoligi va raisligiga munosib nomzodlarni saylanishiga imkon yaratdi.

O'zini-o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlar natijasi shuni ko'rsatdiki, bu saylovlar aholining keng qatlamlari uchun ijtimoiy-siyosiy faollik bag'ishladi va o'ziga xos demokratiya maktabi vazifasini ham o'tadi. Shuningdek, 2003 yilning noyabr va dekabr oylarida o'zini-o'zi boshqarish organlariga yangi saylovlar bo'lib o'tdi. Mazkur saylovlardagi majlislar, undagi muhokamalar, bahs va munozaralar mahalliy davlat hokimiyati organlari vazifalarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga

bosqichma-bosqich o'tkazish borasidagi siyosatni fuqarolar qo'llab-quvvatlaganliklarini, davlat qurilishi va jamiyatning barcha sohalarini erkinlashtirishda, fuqarolar yashash joylaridagi muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda, aholi faolligini oshirishda mahallaning o'rni va ahamiyati yildan-yilga ortib borayotganligini "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" kontseptual siyosiy dasturni hayotga tatbiq etish o'zining ijobiy va samarali natijasini borayotganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini takomillashtirish, davlat rolini asta-sekinlik bilan mahalliy organlar zimmasiga yuklaydi. Bu hozirgi zamon jahon ilg'or tajribalariga mos keladi va dunyoviy davlat tamoyillarini boyitadi.

8.3. MAHALLIY O'ZINI-O'ZI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI

Jamiyat hayotida nodavlat, jamoat tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirish, "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyilini amalda hayotga joriy etishning muhim omilidir. Mazkur kontseptual g'oyaning amaliy ahamiyati shundaki, unda mamlakatimizda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishning vazifalari o'z ifodasini topgan. Ular mustaqillik yillarida bu sohada amalga oshirilgan yangi islohotlar strategiyasining uzviy bir qismi bo'lib, mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichidagi o'zgarishlar zaruratini o'zida aks ettiradi.

Hozirgi vaqtda mahalla yo'nalishida olib borilayotgan ishlar ikkita yo'nalishni nazarda tutadi. Birinchisi manaviy vazifa bo'lib, u xalqimizning yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat. Ikkinchisi, siyosiy vazifa bo'lib, Prezident I.Karimovning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash barobarida viloyat, shahar va tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishish.

Prezident I.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida belgilab bergan beshinchi ustuvor yo'nalishda ikki muhim yo'nalishda vazifa belgilab berilgan. Birinchidan, boshqaruv tizimini takomillashtirish, hokimiyat quyi bo'g'inlari rolini oshirish va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv funksiyasini kengaytirib borishni yangi bosqichga ko'tarish; ikkinchidan, iqtisodiy sohada erkinlashtirishni chuqurlashtirish mahalliy jamiyatning byudjetlar daromadlari va xarajatlarini taqsimlash hamda ulardan foydalanish jarayonidagi rolini oshirish zarurligini ko'rsatib berdi. Bu vazifalarni amalga oshirishda ham fuqarolar, ayniqsa, ularning o'zini-o'zi boshqarish organlari ishini faollashtirish zarur bo'ladi. Bu jarayondagi asosiy masala erkinlashtirishni amalga oshirishda mahalliy hokimiyat yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralari hokimiyatning yuqori organlar tomonidan beriladigan imkoniyatlardan qay darajada foydalana olishiga bog'liqligidan iborat. Chunki, hokimiyat qonunlar yoki me'yoriy hujjatlar asosida quyi hokimiyat tarmoqlariga yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlariga o'tkazilsa ham, ularning bunga salohiyati yetmaydigan

bo'lsa, berilgan imkoniyatlar qog'ozda qolib ketaveradi. Uning reallikka aylanishi uchun mahalliy hokimiyat tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan kadrlar korpusining ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish, ayniqsa, ular ongida demokratik qadriyatlarni shakllantirib borish, fuqarolar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga erishish muhim ahamiyatga egadir.

Shuning bilan bir qatorda, birinchidan, davlat hokimiyati bo'g'imlarining boshqaruv jarayonidagi faoliyatini takomillashtirish, ularning yuqoridan ko'rsatmalar kutib faoliyat ko'rsatishga moyilligidan tezroq qutulish; ikkinchidan, fuqrolarning o'zini-o'zi boshqarish idoralarining o'rni va nufuzini oshirib borishga erishish, ular faoliyatiga mahalliy hokimiyat organlarining aralashuvini cheklash kabi juda katta vazifalar mavjud.

Bu vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa, aholining o'zini-o'zi boshqarish institutlaridan biri bo'lgan mahallaning roli qilib berishi uchun imkoniyatlar yaratish katta ahamiyatga molikdir. Birinchi galda, uning avlod-ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan qadriyatlarni rivojlantirish borasidagi vazifasi beqiyos ahamiyatga ega. Mahalla o'zini-o'zi boshqarish institutining eng maqbul vositasi sifatida, hokimiyat idoralari bilan hamkorlik qilgan holda, tashabbuskorlik ko'rsatishi va jamiyat hayotiga ta'sir o'tkazishga qodir bo'la oladigan institutga aylanishi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng asosiy sharti ekanini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim bo'ladi.

Demokratik rivojlanish jarayonida mahalla instituti rolining oshib borayotgani millatimiz mentalitetiga xos bo'lgan xususiyat bilan bog'liqdir. Xalqimizning "Otang - mahalla, onang mahalla" degan hikmatni o'z qadriyatiga aylantirgani bejiz emas. Ya'ni, xalqimiz o'z turmushini va hayot mazmunini mahallasiz tasavvur eta olmaydi. Mana shu omil demokratik jarayonlar rivojida mahalla imkoniyatidan foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda. Ana shuning uchun ham Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida 2003 yilni "Obod mahalla yili" deb e'lon qilish taklifini kiritdi va u xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek "Obod mahalla deganda xalqimiz, millatimiz nafaqat ko'rkam, chiroyli, shu bilan birga, aynan tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat, ahillik, qut-baraka hukmron bo'lgan joylarni tasavvur qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda mahalladek noyob tizim haqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman.

Nega deganda, har qaysi inson, har qaysi xonadon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, odamlarning boshini qovushtirish, turar joylarda tartib-intizomni mustahkamlashda, o'zini-o'zi boshqarish tizimini joriy qilishda mahallaning roli, ahamiyati va mohiyati kundan-kunga oshib borayotganligini barchamiz ko'rib turibmiz".

Mahallaning ana shu imkoniyatlarini yana ham kengaytirib borish bugungi kunimizning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Prezidentimiz, bu masalada fuqarolik institutlari o'zini-o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish uchun eng maqbul tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni, ya'ni tegishli qonunchilik asoslarini shakllantirish, tashkiliy-texnikaviy, moddiy shart-sharoitlarni, davlat va jamiyat birlashmalari hamkorligining samarali usul-uslublarini vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zini-o'zi boshqarish organlarining mustaqilligini va huquqlarini hayotda to'la amalga oshira olish darajasiga yetkazish maqsadida ular faoliyatining quyidagi yo'nalishlarida isloh etish davom etmoqda.

Huquqiy me'yorlar qabul qilish masalalaridagi mustaqillik - o'z hududi darajasida hamma bajarishi majburiy bo'lgan qoidalar, nizomlar, qarorlar, o'z hududi doirasidagi aktlar qabul qilish erkinligi;

Kadrlar masalasidagi mustaqillik - boshqaruv organlari shtatlarini shakllantirish - fuqarolar yig'ini raislar va oqsoqollari yig'inining o'zi tanlashi va saylashi qoidalarini yanada demokratlashtirish;

Boshqaruv masalalaridagi mustaqillik, ya'ni mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish va ularni ijrosini ta'minlash imkoniyatlarini yaratishi;

Moliyaviy masalalardagi mustaqillik - o'z vakolatlarini amalga oshira olish uchun ularning moliyaviy asoslarini yaratish, mavjud soliqlaridan tushadigan mablag'larni ma'lum qismini mahallalarning obodligi va o'zini-o'zi boshqarishni rivojlanishi uchun ajratish;

Mazkur yo'nalishlarda o'zini-o'zi boshqarish organlarini mustaqilligini tiklash, ularni davlat organlari emas, balki fuqarolik instituti sifatidagi faoliyatini ta'minlash fuqarolik jamiyati qurishning eng asosiy kafolatlaridan biri, shuningdek, jamiyatni erkinlashtirish va boshqaruvning nomarkazlashtirish omili ekanligi amaliyotini joriy etish hozirgi davrda bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishning dolzarb vazifasidir. Albatta, o'zini-o'zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rnini yuksaltirish hozirgi davrda mamlakat hukumati parlamenti tomonidan olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Obod mahalla yili" dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasini tuzish to'g'risidagi" gi farmoyishida (2002 yil 16 dekabr) ustuvor yo'nalish va vazifa sifatida ko'rsatilgan bandlardan biri quyidagicha ifodalangani: "Mahallaning fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimidagi eng muhim tuzilma sifatida tutgan o'rnini va rolini aniqlash; mazkur institutning davlat va jamoatchilik hokimiyati va boshqaruv tizimida o'z o'rnini egallashi uchun zarur shart-sharoit yaratib boradigan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; Albatta bu fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadini bajarishda mahallalardagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini demokratik tamoyillar asosida takomillashtirish va siyosiy qarorlar qabul qilishda ular ishtirokining faollashuvi muhim o'rin tutishi shubhasizdir.

Qisqacha xulosalar

Kishilarning tarixan shakllangan, oiladan keyingi birligi - bu mahalladir. Har qaysi inson, har qaysi xonadon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, odamlarning boshini qovushtirish, turar-joylarda tartib-intizomni mustahkamlashda, o'zini-o'zi boshqarish tizimini joriy qilishda mahallaning roli, ahamiyati va mohiyati kundankunga oshib bormoqda. Shu bilan mahallaning hayotimizdagi mavqei yuksak, uning qonuniy, huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va manaviy hayotining ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechog'li kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy-moliyaviy sharoitlarni tashkil qilsak jamiyat o'z oldiga qo'yan maqsadga erishadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aytinchchi, G'arbda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari qanday nomlanadi?
2. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari kimlar orqali saylanadi va uning vakolatlari qanday?
3. "Shahar ichidagi shahar" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
4. Ta'bir joiz bo'lsa, mahallani yirik bir oila deyish mumkinmi?
5. O'tmishda har bir mahallada asosan bir kasb-kor odamlari - hamkasabalar istiqomat qilganlar. Mahallalar shunga qarab nomlangan. Siz katta yoshdagilardan ular haqida ma'lumotga egamisiz? Ularning belgilarini nomlarini keltira olasizmi?
6. Siz "Obod mahalla" deganda qanday munosabatlar hukmron bo'lgan joylarni tasavvur etasiz?
7. Fuqarolik jamiyati qurishda mahallaning roli?
8. Prezident I.A.Karimovning O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari?
9. Mahalla - demokratiya maktabi?
10. Mahalliy davlat hokimiyatining asoslari?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги (Янги таҳрири) Қонуни. 1999 йил 14 апрел.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органларини қўллаб-қувватлаш тўғрисида"ги Фармони. 1998 йил 23 апрел.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Республика маҳалла" ҳайрия жамғармаси фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. 1993 йил 1 декабр.
5. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. // "Халқ сўзи", 2002 йил 30 август.
6. Каримов И.А. Ҳаётимизнинг, тараққиётимизнинг ҳуқуқий асоси. // "Халқ сўзи", 2002 йил 6 декабр.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 10 йиллигига бағишланган тантанали маросимида сўзлаган маърузаси // "Халқ сўзи" газетаси 2003 йил 7 декабр.
8. Каримов И.А. Қонун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. // "Халқ сўзи". 2004 йил 2 июн.
9. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. -Т.: "Ўзбекистон", 2005.

10. Эргашев И. ва бошқалар. Дарслик. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. Т.: "Академия", 2005.
11. Маҳалла - фуқаролик жамиятининг асоси. -Т.: "Адолат". 2003.
12. Истиқдол, демократия ва фуқаролик жамияти. -Т.: "Шарқ". 2003.
13. Ўзбекистон: 13 йил мустақил тараққиёт йўлида. Т.: "Ўқитувчи", 2004.
14. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номли маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.
15. Гадоёбоев А. Обод маҳалла - адолатли демократик жамият таянчи. "Демократиялаштириш ва инсон ҳуқуқлари". 2003, № 1.
16. www.edu.uz
17. www.zuyo.edu.uz
18. www.ec.edu.uz
19. www.performance.edu.uz
20. www.gov.uz
21. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
22. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru
23. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm
24. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

IX BOB

DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHIDA KUCHLI IJTIMOYIY HIMOYA VA ADOLAT TAMOYILLARI

9.1. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHIDA KUCHLI IJTIMOYIY ADOLAT VA IJTIMOYIY KAFOLAT TUSHUNCHASI VA TAMOYILLARI

O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalaridan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir. qolgan barcha qoidalar ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qat'iy kafolatni vujudga kelirishga bo'ysundirilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash-aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlardan saqlash, shu oqibatlarining aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ta'sirini yumshatish. Bozor iqtisodiyotiga o'tish narx-navoning oshishi va ishsizlikning kuchayishi kabi ijtimoiy muammolarni paydo qiladi, aholining boy va kambag'al qatlamlarga ajralishini kuchaytiradi. Shu asosda ijtimoiy barqarorlik uchun sharoit bo'lishi mumkin. Iqtisodiy o'sish uchun esa ijtimoiy xotirjamlik va siyosiy barqarorlik talab etiladi. Jamiyatda muvozanatni ta'minlash uchun aholining ma'lum atlamini ijtimoiy himoyalash zarur bo'ladi. Bu ishni davlat, korxonalar jamoasi va jamoat tashkilotlari bajaradi. Ijtimoiy himoyalash, eng avvalo, daromadlarni indeksatsiyalash shaklida boradi. Ya'ni, narx-navoning o'zgarishiga qarab aholi oladigan puli daromadi ham o'zgarib boradi. Bu, avvalo, qat'iy belgilangan pul daromadi oluvchilarga - o'qituvchilar, shifokorlar davlat xizmatchilari, ilmiy xodimlarga taalluqli bo'ladi. Pulbay ishlovchilar esa o'zlari ishlab pul topishlari kerak. Lekin bunga sharoit hozirlash zarur. Aholini ijtimoiy himoyalash ishiga kam ta'minlangan oilalar, ko'p bolalilar, nogironlar, nafaqaxo'rlar muhtoj bo'ladi. Ularga beriladigan yordam iste'mol tovarlari narxi oshishi bilan ko'rgan zararni qoplash (kompensatsiyalash) shaklida yoki ularni qat'iy narxda va normallashtirilgan miqdorda eng zarur tovarlar bilan ta'minlash tarzida amalga oshiriladi. Aholini ijtimoiy himoyalash ishsizlarga nafaqa puli to'lash, ularning malakasini oshirib, kasbini o'zgartirib, ishga joylashtirish yo'nalishlarida ham olib boriladi. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining eng muhim qismidir. Davlat ijtimoiy himoya siyosatini yurgiza borib, mustaqillik yillarida bir qator milliy dasturlarni qabu qildi va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda. Masalan, kadrlarni tayyorlash miliy dasturi vazifalarini bajarish maqsadida davlat byudjetining 38-40 foiz sarflanmogda.

Endi ijtimoiy adolat haqida:

Adolat insoniyat manaviy qadriyatlarining oliy ko'rinishi bo'lib, "baxt", "ozodlik", "tenglik", "tinchlik" tushunchalari kabi, inson erki va irodasini o'zida ifoda etadi.

"Adolat" tushunchasi turli tarixiy davrlarda turlicha talqin qilingan. Hukmron sinflar o'z manfaatlariga mos tartiblarni axloqiy va huquqiy me'yorlar yordamida yoqlab, ularni adolatli deb ta'riflaganlar. Ma'lum sinflar esa ularni yangi, o'z manfaatlariga monand, adolatli munosabatlar bilan almashtirishni talab qilganlar. Shu sababli jamiyatda hamma vaqt, nima adolatli va nima adolatsiz, degan masala atrofida mulohaza mavjud bo'lgan. Bu muammo har bir voqea, hodisa va jarayonning

jamiyat rivojlanishiga, insoniyat taraqqiyotiga, insonparvarlik va demokratiya qoidalariga hamnafasligi bilan belgilanadi. Aytish mumkinki, Sharqda shakllangan boy manaviyat va ma'rifat insoniyat tarixining turli davrlarida, turli mintaqalarida keskin burilishlarga sabab bo'lgan taraqqiyotga ma'rifat va tafakkurga keng yo'l ochib berilgan.

Chindan ham, odam ma'rifat va bilimga qanchalik intilsa, jamiyat hayotining manaviy qiyofasi shunchalik ko'rkam bo'ladi. Shuning uchun ajdodlarimiz hamma vaqt yetuklikka intilib yashashgan. Komillikni orzu qilib ulug'lagan, bunday zaminda nodonlik va xurofot qoralangan.

Ma'rifatga intilish, ma'rifatli bo'lish qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, u mohiyat e'tiboriga ko'ra inson hayotining mazmunini o'zida mujassam etadi. Ma'rifatli jamiyat ma'rifatli shaxslardan tarkib topadi. Bunday jamiyatda sog'lom aql-idrok, sog'lom fikr va adolat ustuvorlik qiladi. Bunday jamiyat shukuhli va fayzli, xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik ishiga rag'batli kuchli bo'ladi. Odam bolasida turli illatlar tufayli yuzaga kelgan ruhiy aziyatlar barham topadi.

Adolatning tabiati, fe'l-atvori, kuch-qudratini yaxshiroq tushunish va tasavvur qilish uchun ko'hna qissalarga ham murojaat qilmay iloji yo'q. Shunda uning "murosa-mudora", "muruvvat", "shafqat", "sabr-toqat" degan axloqiy-manaviy hodisalar bilan tug'ishgan birodar ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Dunyoning osoyishtaligi, do'stlarga muruvvat, dushmanga murosa-mudora bilan bo'ladi deyilgan ko'hna so'zning tagida bugun ham insoniyat uchun tuganmas ibrat to'lg'anib turibdi. Adolat hech qachon muruvvat, murosa bo'lmagan yerda yuzaga chiqqan emas. Yana ham to'g'rirog'i, qacda muruvvat va shafqat, silash, rahm bo'lsa, o'sha yerda adolat bor. O'sha yerda adolat qaror topadi.

Xalqimiz ruhiga jarohat yetkazgan totalitar tuzumning g'ayriaxloqiy siyosati asoratini keskin tugatish mustaqillikning ilk kunlaridanoq hayotiy zaruratga aylandi.

Istiqlol tufayli jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq adolat tamoyillariga asoslanmoqda. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar va muassasalarning vujudga kelishi, inson manfaatlariga e'tibor, jahon huquqiy andozalari va milliy urf-odatlarining talab va qoidalari tantana qilayotganligining belgisidir. "Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurishga intilyapmiz. - deydi Prezident I. A. Karimov. - ... adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor".

Sohibqiron Amir Temur aytganidek, "Kuch - adolatdadur". Adolat qonun-qoidalariga suyangan davlat va jamiyat kuchli bo'lishi muqarrarligi to'g'risidagi sharqona qarashlar bugungi O'zbekiston siyosatining muhim asoslaridan birini tashkil etadi. Bu "Inson huquqlari haqida umumjahon Deklaratsiyasi" tamoyillariga javob beradi, chunki:

- a) demokratik umuminsoniy tamoyillarga suyanadi;
- b) insonning daxlsiz huquqlari oliy qadriyatlar hisoblanadi;
- v) demokratik huquqlar va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi;
- g) barchaning qonun oldida tenglik tamoyili ta'minlanadi.

Taqsimotda va taqdirlashda, mehnat natijalarini baholashda adolatning qaror toptirish demokratiya orqaligina amalda bo'lmagan yerda adolat ham ishlamaydi. Bularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Bugun jamiyatda ijtimoiy mulkiy jarayonlarning obyektiv o'zgarishi yuz berayotgan bir paytda adolat g'oyasi ixcham bir xulosa bilan ifodalash mumkin. Ya'ni, davlat jamiyatning keskin tabaqalashuviga oshib-toshib ketgan boylaru-

kambag'allar-qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Mustaqillik bizga ma'rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonini berdi. Ulug' alloma Nosiriddin Tusiy ijtimoiy adolatning ucha asosiy talabi mavjudligini va u jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omil ekanini alohida uqtirgan edi:

"Adolatning birinchi talabi aholi tabaqalarining o'zaro uyg'un bo'lishini ta'minlashdir. Ikkinchi talabga ko'ra, el-ulusning haq-huquqi teng ta'minlangan holda kishilarni xizmatga tayinlashda shaxsning salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqish lozim. Adolatning uchinchi talabi esa barchaning teng farovonligini himoya qilish bilan birga bu farovonlikni yuzaga keltirishdagi xizmati va huquqiga qarab har bir inson o'z ulushini olishga imkon yaratishdan iborat".

Hayotda tasdiqlangan bu fikrlar oradan sakkiz asr chamasi o'tib, Prezidentimiz I. A. Karimovning rahbarlik faoliyati o'ziga xos tarzda ifoda topmoqda. Prezidentimiz mehnat taqsimoti, mehnatga haq to'lash mezonlar, inson mehnatini qadrlashda adolatga amal qilish xususida ko'p bora o'z fikrini bildirgan.

Adolatni uchinchi talabi sifatida Prezident jamiyat taraqqiyoti va uning muhitini belgilashda rahbar kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yishga katta ahamiyat beradi va bu masalaga hal qiluvchi manaviy-siyosiy omil, tub islohatlarning tayanchi va bosh yo'naltiruvchi kuchi deb qaraydi: "Xalqning dardiga befarq qaraydigan, o'z manfaatlaridan boshqa narsani o'ylamaydigan, xudbin va tamagir rahbarlar mamlakatimiz ravnaqiga, xalqimiz farovonligiga to'siq bo'lmoqda. Endi ular bilan murosa qilib bo'lmaydi. Bizga shunday rahbar kerakki, toki ular elim deb, yutrim deb kuyib-yonib, halovatidan kechib, mehnat qilsinlar! Barcha bo'g'inlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbarlar boshchilik qilmas ekan, mustaqil mamlakatimiz obro'si, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyariлик bilan ishlamas ekan, ishlarimiz ko'ngildagidek bo'lmaydi".

Prezidentimiz tasavvurida "adolat" tushunchasi insonning jamiki fazilatlarini qamrab olish bilan birga uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rini ham belgilaydi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, biz bugun mamlakat hayotining barcha sohalarini isloh qilish bilan xalqning manaviyati va ruhiyati chambarchas bog'liq ekaniga guvoh bo'lib turibmiz.

Xulosa qilib aytganda, adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olishi darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari, mehnat va uy-joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish, aholining davlat himoyasiga muhtoj bo'lgan qatlamlarini muhofaza qilish davlatning insonparvarlik, demokratik, adolatli davlat ekanligidan yana bir bor dalolat beradi.

Oddiyroq qilib aytganda, har bir kishining sharafi, oriyati, nomusi, jamiyatdagi obro'-e'tibori uning shaxsi, to'leining daftari, faoliyatida adolat degan hodisaning qanchalar mujassam bo'lgani bilan o'chanadi. Chunki sharaf va nomus hech qachon adolatdan uzoq yerda yurmaydi. Adolat oqillikdan hosil bo'ladi. Samimiylik, soddalik, ochiq yuzlilik, oqillik, olijanoblik, mehr-oqibat, muruvvat va murosa-i madora kabi manaviyat hodisalari hammasi adolatga qanday munosabatda ekanligi bilan sanaladi, qimmatli anglanadi. Bular adolatning qo'shnilari. Ular adolatga xizmat qilmasa, mustahkamlanmasa, harakatchan kuchga aylantirilmasa o'z mohiyatini to'la yuzaga chiqara olmaydi. Ulardan adolat tug'ilmasa, o'rini munofiqlik, ikki yuzlamachilik, g'irromlik mug'ombirlik egallab oladi. Adolat shunday bir narsaki, u hech qachon zo'ravonlik, milliy ezish, talonchilik, asoratda tutish bilan chiqisha olmaydi. Bular bilan adolat o'rnatida antagonizm mavjud.

Ijtimoiy kafolat - bu nima degani?

Ijtimoiy kafolat - bu eng kambag'al, muhtoj tabaqalarga vaqtida madad berish, turli sotsial xizmatlar tizimi, fuqarolar osoyishtaligi va milatlararo totuvlikni ta'minlashdan iborat bo'lib, islohatlarni muvaffaqiyatli o'tkazishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy kafolat - ijtimoiy ta'minot bo'lib, insoniyatning, jamiyatning demokratiya va huquqiy davlat tomon rivojlanish jarayonida qo'lga kiritgan yutug'i. Ijtimoiy kafolat deganda O'zbekistonning barcha fuqarolarining millati, tili, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar bilan birga ularning hayot darajasi pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ehtiyojmand oila va fuqarolarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, g'amxo'rlik qilish, ish bilan ta'minlash demakdir.

Adolatni saqlashning barchaga barobar prinsipini qanday ro'yobga chiqarish mumkin? XX asrning o'rtasida insoniyat faqat inson haq-huquqlari va asosiy erkinliklarini saqlab, ro'yobga chiqaribgina, tinchlik, birodarlik, demokratiya sharoitidagina erishish mumkin degan qat'iy xulosaga keldi. Shu bilan chambarchas bog'liq tarzda Yevropa va AQSH ilmiy-siyosiy, falsafiy taraqqiyotida insoniylik mezonlari (o'lchovlari) degan yangi bir tushuncha, atama dunyoga keldi. Insoniylik mezonlari Umumjahon Deklaratsiyasida, Xelsinki yakunlovchi hujjatida, EXHT ning keyingi o'n besh yil davomida qabul qilgan hujjatlarida keng, har tomonlama tahlil, tadqiq etildi. Insoniylik mezonlarini hayot amaliyotiga kiritilishining yo'l-yo'riqlari, qoidalari ishlab chiqildi. Bugungi Yevropa, EXHT ga a'zo davlatlar, jumladan Prezident Islom Karimov rahbarligida O'zbekiston Respublikasi shu yo'nalishlarni hayotga kiritish uchun keng miqyosda ish olib bormoqda.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya siyosati, uning maqsadi, bosqichlari, xususiyatlari, rivojlanishi.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohatlar-iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohatlardan ko'zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijobiy va manaviy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat.

O'zbekistonda aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustivor vazifa, amaliy harkatlarning eng asosiy qoidasi bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Bozor munosabatlariga o'tishni jadallashtirish davrida ijtimoiy siyosatni kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar qatoriga qo'yish bir qancha omillar bilan bog'liq.

Birinchidan, Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni noqulay sharoitda boshlandi. O'zbekiston tub iqtisodiy islohatlarni aholining turmush darajasi juda past bo'lgan sharoitda o'tkazishga majbur bo'ldi.

Ikkinchidan, oldingi taqsimlanish tizimi munosabatlarning tabiati iqtisodiy islohatlarning ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirishni taqozo etar edi. Chunki bozor munosabatlari bozorni mollar va xizmatlar bilan to'ldirish orqali har bir kishining va jamiyatning etiyolarini qondirishga qaratilgan.

Bozor tomon harakat qilgan sari, ijtimoiy siyosatning ustivor jihatlari, aholiga ijtimoiy madad berish va uni himoya qilish choralari ham o'zgara boradi.

Masalan, bozor munosabatlarini vujudga keltirishning dastlabki bosqichida (1992-1994 yillar) ulgurji va chakana narxlarning anchagina qismi erkin tus oldi. Bu davrda asosiy vazifasi butun aholining moddiy ahvoli keskin yomonlashib, ommaviy

ravishda qashshoqlashishiga, umumiy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'lgan ijtimoiy siyosat mos kelgan.

Bu bosqichga ijtimoiy himoyalash choralari asosan tovon to'lash vazifasini bajardi. Asosiy e'tibor hayotiy zarur oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi pasayishiga yo'l qo'ymaslikka, kerakli ashyoviy mollarning kamaytirilmasligiga, ularni bemalol xarid qilish kafolatini vujudga keltirishga valyutaning ko'p kirib kelishi natijasida ichki bozorning barbod bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka, aholining daromadlari va narx-navo darajasini boshqa mustaqil respublikalardagi darajaga bosqichma-bosqich tenglashtirib borishni ta'minlashga qaratiladi.

Aholining eng kam daromadli tabaqalariga nogironlarga, nafaqaxo'rlarga, ko'p bolali va kambag'al oilalarga, o'quvchi yoshlarga, ya'ni eng qiyin ahvolga tushib qolgan odamlarga amaliy yordam ko'rsatish ijtimoiy himoya tizimining asosiy yo'nalishi bo'ldi. Shu maqsadda aholining mazkur toifalari uchun kundalik zarur mollarni sotib olishda, kommunal va transport xizmatiga haq to'lashda qo'shimcha imtiyozlar joriy etildi. Pensiyalar, nafaqalar vasti pensiyalar miqdori ancha oshirildi.

Hozir Respublikada 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga nafaqa to'lash tizimi amal qilmoqda. Ikki yoshgacha bo'lgan go'daklar hamda kamqonlik kasaliga uchragan xomilador ayollarning bepul ovqatlanishi tashkil etildi. Umumiy ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarning o'quvchilariga bepul nonushta berildi. Maktab o'qituvchilari va talabalar tushlik ovqati qiymatining 50% i chegirib tashlandi.

Narx-navoning o'sishi munosabati bilan ish hajmining miqdorini qayta ko'rib chiqishni aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlari qatoriga kiritish zarur. 1991 yildan boshlab ish haqini oshirish to'g'risida ettita hujjat qabul qilindi. Shu maqsadlarda 0,5 trillion so'mdan ko'proq mablag' sarflandi. 1993 yilning yanvaridan boshlab respublikada barcha xodimlar uchun yagona tarif jadvali joriy etildi. Bu esa jami haq to'lash tizimini tartibga solib, turli kasbdagi va toifadagi xodimlar ish haq-i farqlarida xolisona nisbatni vujudga keltiribgina qolmay, shu bilan birga mehnatga haq tulasini eng kam miqdordagi ish haqi bilan qat'iy bog'lashga imkon berdi.

Vaqtincha ish bilan ta'minlanmagan shaxslarga ijtimoiy madad berishga katta e'tibor qaratildi. Ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunga muvofiq ishsizlarga maxsus nafaqa to'landi, ularni qayta o'qitish va yangi kasblarga o'rgatish tashkil etildi. Hozir mehnat bozorini tartibga solishning respublika tizimini barpo etish asosan tugallandi. Davlat ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoyalashga ko'maklashuvchi jamg'arma barpo etildi. Shaharlarda va tumanlarda 220 ta mehnat birjasi ishlab turibdi.

Byudjetdagi kamomadga qaramay ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari bo'lmish sog'likni saqlash, ta'lim, jismoniy tarbiya va madaniyatning moddiy bazasini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash choralari ko'rildi. Iqtisodiy islohatning dastlabki bosqichida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat o'z oldiga qo'ygan barcha vazifalarni to'la-to'kis bajardi.

Respublikada erkin narxga o'tish amalda tugallandi va bu jarayon kamroq ijtimoiy larzalar bilan kechdi.

"Biz, - degan edi I.Karimov, - aholining ijtimoiy jihatdan nochor tabaqalari - pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar, shuningdek qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilarni himoya qilish davlatning muqaddas burchidir, degan qoidaga asoslanib ish tutdik".

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatdan yangi bosqich (1994 yil ikkinchi yarmidan) ya'ni ijtimoiy himoyalash vositasini chuquriyashtirish, uni o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirish zarurati chinakam etildi. Ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari butun aholiga emas, balki faqat shunday himoyaga haqiqatdan ham muxtoj bo'lganlarga nisbatan qo'llashga o'tildi. 1994 yil 24 avgustda "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid ta'birar to'g'risida" Prezident farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra 1994 oktabrdan aholini ijtimoiy himoyalash tizimi takomillashtirildi. Negaki, ilgari faqat respublika byudjeti yo'li bilangina 30 ta turli soha va yo'nalishlar bo'yab ijtimoiy himoya amalga oshirilardi. Bunday holat mablag'larning sochilib ketishiga olib keldi. Natijada yuqoridagi Prezident Farmoniga binoan 1994 yilda ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarining qamrab oladigan tizimga o'tildi.

Aholini ijtimoiy himoyalash, odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal qilishda davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamolarining jamoa tashkilotlari va xayriya tashkilotlarining ("Navro'z", "Mahalla", "Mehr-shafqat" hamda boshqa xayriya jamg'armalarining) mablag'lari ham ishga solindi. Ijtimoiy himoyalash davlatning ham, jamoat tashkilotlarining ham asosiy vazifasi bo'lib qoldi.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi bosqichida quyidagilar ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari deb belgilanadi.

Birinchidan, fuqarolarning iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat erkinligi, kasb-korni va mehnat sohasini erkin tanlash bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoyalash aniq maqsadni ko'zlagan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Uchinchidan, aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalari va guruhlarini qo'llab-quvvatlash avvalgidek ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

To'rtinchidan, iqtisodiy jihatdan faol aholiga davlat mehnatni rag'batlantirishning kuchli vositasini joriy etish hisobiga bu tabaqaning mehnat va ijobiy imkoniyatini to'liq darajada ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratib beradi.

Beshinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida real mehnat bozorini shakllantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradigan sharoitni yaratish asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Oltinchidan, bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy soha- sog'likni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek ilm-fan, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Uchinchi bosqichda (1999 yildan boshlab) davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hajmi va miqdorini ko'paytirish bilan bir qatorda, to'plangan ijobiy tajribani hisobga olib fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari orqali aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya tajribasini yanada amalga oshiriladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga mahallalar berayotgan bir oylik moddiy yordam miqdori 1996-2002 yillarda 13,6 barobarga, bolali oilalarning farzandlariga berilayotgan nafaqalarning o'rta oylik miqdori esa 20 barobardan ziyodga ko'paydi.¹

1992-2005-yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha bor oshirildi. Masalan: eng kam ish haqi 1995 yilda 1994 yilga nisbatan 2,5

¹ Ўзбекистон иқтисодийёт вазирилик маълумотлари.

marta oshdi. 1996-yilning 1 - yarmida esa 1995-yil 1- yarmiga nisbatan 2.7 marta kapaydi. 1990 yil 1 finvardan ish haqining eng kam miqdori 1320 so'm bo'lgani qolda, qarilik pensiyasining eng kam miqdori 2520 so'mni tashkil etgan bo'lsa, nogironlarning pensiyasining eng kam miqdori 1530 so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan 2005 yil 1 maydan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, barcha turdagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar, o'rta Oliy o'quv yurtlari talabalarining, o'rta maxsus kasb hunar o'quv yurtlari o'quvchilarining stipendiyalari 1.2 barobar oshirildi.

1 maydan boshlab eng kam ish haqi oyiga 7835 so'm, yoshga doir pensiyalar oyiga 15505 so'm, bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa 15505 so'm, ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 9390 so'mni tashkil etdi.¹

"Obod mahalla" yilida qabul qilingan dastur asosida 1,2 mlrd so'mlik xayriya yordami ko'rsatildi. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa tayinlandi. Shuningdek, 180 mingta kam ta'minlangan oilaga qariyb 14 mlrd so'm miqdorida yordam ko'rsatildi.²

Shuningdek, nogiron bolalarni tibbiy-ijtimoiy jihatdan reabilitatsiya qilish bo'yicha bolalar nogironligining oldini olishni, ularga tibbiy, ijtimoiy jihatdan madad berish va mehnat qobiliyatini tiklashni, kasb o'rgatish va so'ngra ishga joylashtirishni ko'zda tutgan maxsus Davlat dasturini xayriya tashkilotlari, davlatga qarashli bo'lmagan jamg'armalarni, tadbirkorlar va homiylarning mablag'larini jalb etish orqali amalga oshirish; yangi ish joylarini barpo etish va aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash bo'yicha faol siyosat o'tkaziladi.

Shuni aytib o'tish zarurki, har bir jamiyat ijtimoiy muhofaza tizimida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Albatta, ijtimoiy himoya tizimining rivoji mamlakat iqtisodiyotining ahvoriga demografik vaziyatga, nodavlat sektorning muayyan darajasiga, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning mavqeiga va boshqa ko'pgina xususiyatlarga ega.

Ma'lumki, O'zbekiston agrar mamlakat bo'lib, uning ko'pgina hududlarida ishlab chiqarishning texnologiyalashuvi endigina oyoqqa turmoqda.

Mamlakat aholisining 65%i qishloqlarda yashaydi. Agrar sohaning yetarli rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko'pligiga sabab bo'ladi.

Mamlakat aholisi orasida yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali muhofaza qilishni alab etadi.

Prezident I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahon tan olgan "O'zbek modeli" da O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi davrda dunyoda aholini ijtimoiy himoya qilishda bir qator modellar mavjud. Ulardan biri Skandinaviya mamlakatlarida (Finlyandiya, Shvetsiya) qo'llanilayotgan sotsial-demokratik model bo'lib, bunday modelga ko'ra davlat ijtimoiy himoyaning barcha mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan.

Neoliberal modelga ko'ra esa (AQSH) ijtimoiy himoyaning aksariyat qismini tadbirkorlar va kasaba uyushmalari bajaradilar.

¹ "Халқ сўзи" газетаси 2005 йил 14 апрел.

² "Халқ сўзи" газетаси 2003 йил 6 декабр.

Neokonservativ modelga ko'ra (Germaniya) ijtimoiy himoya davlat kafolatlari javobgarligida xususiy tadbirkorlar va davlat federal byudjeti asosida bajaradilar.

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot asosan davlat byudjeti hisobidan tashkil etilgan. Undan tashqari nodavlat jamoat birlashmalari va xayriya tashkilotlari ham qatnashadilar.

Xulosa shuki, butun ijtimoiy sohani tubdan isloh qilish, uning moddiy-texnik negizini mustahkamlash, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, ijtimoiy tarmoqlar majmui xodimlarning kasb mahoratini hamda mehnat samaradorligini oshirish uchun qudratli mehnat omillarini vujudga keltirish va shu asosda aholini ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlashni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, pirovard maqsad O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millionlab oilalarning munosib turmush kechirishi uchun sharoit vujudga keltirishdan iborat.

9.2. IJTIMOY HIMOYA TIZIMIDA INSON OMILI

Prezident I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan taraqqiyotimiz modeli O'zbekistonning o'ziga xos yo'lini ifodalab uning tub mohiyati inson baxt-saodati uchun xizmat qiladi. Bu o'ziga xoslikning mohiyati shundan iboratki, inson omili, shaxs manfaatlari muammosi hamma davrlarda ham jamiyatimizda adolatli taqsimot tamoyilini taqazo etib kelgan. G'arbdagi moddiy, real manfaatlar ustuvorligi qadriyatidan farq qilib "Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat manaviy omillar, ayniqsa inson sha'ni, obro'-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan. Ma'naviy talablar esa o'z-o'zidan qadriyatlar qatorini ma'naviy ravishda ikkinchisini qo'yishni taqozo etgan".

Xususan, otaga ehtirom, onani e'zozlash, aka va ukaga hahrmnat, qavmu-qarindoshlarning totuvligi, qo'ni-qo'shnilar ahilligi o'ziga xos qadriyat sifatida muayyan ketma-ketlik, ierarxik shaklda amal qilgan va qadriyatlar qatoridagi tartiblarning buzilishi jamiyatning, davlatning nurashiga sabab bo'lgan.

Shu boisdan ham, O'zbekistonda xalqimiz manaviy yahlitligini saqlab qolish, o'zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlariga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilishdan iborat keng ko'lamdagi siyosat izchil yuritilmoqda.

Binobarin, demokratiyaning asl mohiyati jamiyatimizda adolat tamoyilini qaror toptirishdan iborat ekanligini olsak, mamlakatimizda mazkur jihat quyidagi omillarda yaqqol ko'rinadi:

Birinchiidan, fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topganda;

Ikkinchiidan, fuqarolarning turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlanganligi va real amal qilayotganligida;

Uchinchiidan, manaviyat, ma'rifat va odob-ahloq tamoyillari orqali insonning insonligini o'ziga anglatishdan iborat umumjamiyat harakatining izchil amalga oshirilayotganida;

To'rtinchiidan, bozor iqtisodiyotiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mazkur omillarning umumiy va pirovard majmui esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o'ziga xos tantanasini ifoda etadi.

Respublika Prezidenti o'tish davrining og'ir sharoitlarida, moliyaviy imkoniyatlar cheklanganligiga qaramay, aholining turmushi bilan, ya'ni uning yashashi, mehnat qilishi, yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishi, sog'ligini saqlash kabi dolzarb vazifalar bilan bog'liq masalalarni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu boradagi ishlar aholi rivojlanishida sotsial-demografik masalalarning o'zagi bo'lib xizmat qildi. Shu

bilan bir qatorda, mamlakatimizda bacha sohalarda olib borilayotgan islohatlar fuqarolarning ijtimoiy jihatdan ishonchli himoyalinishiga qaratilgan. Masalan, o'rt va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish natijasida jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qatlarga mansub odamlar keskin kamayib boradi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti o'zining mohiyat e'tiboriga ko'ra odamlarning individuallashuvini talab etadi, ayni chog'da inson imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish asnosida uning ijtimoiy, siyosiy faoliyatiga ham yo'l ochadi. Bozordagi talab va taklif jarayonlarida mavqeni qo'ldan bermaslik ehtiyoji ham o'z navbatida odamlarning jo'shqinligi va harakatchanligini doimiy ravishda taqozo etib turadi.

Ayni omillar fuqarolarning o'z-o'ziga bo'lgan talabchanligini beqiyos darajada oshiradi, insonlarda "ego", ya'ni, "men" obrazi barqaror shakllana boradi.

Istiqlol tufayli odamlarning o'z taqdirini belgilash imkoniyatlariga ham keng yo'l ochildi.

Shu yo'nalishda odamlarning individual ravishda kamolotga farovonlik va to'kinlikka intilish xususiyatlari ham ravshan namoyon bo'la boshladi.

Inson omili masalasi - jamiyatda odamlardagi ijtimoiy fazilatlar, ularning qadriyatlar tizimi ham demakdir. Boshqacha qilib aytganda, inson omili jamiyatdagi axloqiy tamoyillar, xulq-atvor me'yorlari, odamlarning mehnat jarayonidagi, hordiq chog'idagi, iste'mol qilish, hayotiy rejalarini tuzish, bilish va axborotga ega bo'lish, malaka va tajriba, g'oya va maqsadlari, ijtimoiy adolatga bo'lgan intilish, huquq va majburiyatlari, fuqarolik burchlari, milliy taraqqiyot haqidagi tushunchalarining majmuidir.


Odamlardagi ana shu manaviy-ma'rifiy bilim va ko'nikma, malaka va sifatlar majmui ijtimoiy taraqqiyotning inson omilini kuchaytiradi. Bedard, beg'am, loqayd odamning xarakteri taraqqiyotning inson omilini susaytiradi. Inson omili tushunchasi faqat bir kishiga emas, balki guruh va jamoalardagi ijtimoiy-manaviy muhit, odamlarning xulq-atvoriga ham bog'liq bo'ladi.

XXI asrga kelib jahonda inson omili ahamiyati ortib borayotgani kuzatilmoqda, shu tufayli unga e'tibor oshmoqda. Ya'ni, hech qanday mehnat yoki ishlab chiqarish alohida olingan kishi yoki guruh tomonidan, boshqalar bilan aloqasiz, munosabatlarsiz amalga oshirilmaydi. Ular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bir-birlari bilan albatta o'zaro munosabatlar, o'z xulq-atvorlarini, xatti-harakatlarini belgilaydilar.

Inson omili - har bir odamning imkoniyat va salohiyatini oshirish demakdir. Bu esa har bir kishiga xos biologik, psixologik va intellektual jarayonlarni kuchaytirishni taqozo qiladi. Buning uchun ushbu jarayon kuchli va puxta bo'lishi, bir marotabalik tadbir bo'lmisligi kerak. Ya'ni, inson omilini takomillashtirishning nazariy, empirik asoslarini yaratish, o'zbekistonliklarning mehnat faolligini, ularni jamiyatni boshqarishga real jalb qilishning ijtimoiy mexanizmlarini ifodalashning oshkoraligini ta'minlash zarur.

Xulosa qiladigan bo'lsak, inson omili - amalga oshirilayotgan barcha islohatlarning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jihatni o'z ichiga oladi. Birinchi jihat O'zbekistonda jami ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va sog'likni saqlash, nafaqa bilan ta'minlash tizimini, aholini ekologik va boshqa xavf-xatarlardan himoya qilishdan iborat davlatning doimiy e'tiborini o'zida ifodalaydi. Ikkinchi jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida shaxsning o'z ishtiroki, bunyodkorligi, yaratish zavqi, sa'y-harakatlari va shijoatini ifodalashtirishni nazarda tutadi. Prezident I. A. Karimov ilgari surayotgan ijtimoiy siyosat markazida ongli va faol, bunyodkor shaxsning anglangan manfaatlari, maqsadlari, o'zi va jamiyatni baxtli, farovon qilish yo'lidagi sa'y-harakatlari mujassamdur.

IJTIMOIIY ADOLAT QOIDALARI



- Demokratiya mavjudligi
- Insonning ijtimoiy himoyalanganligi
- Barchaning qonun oldida tengligi
- Shaxsning har tomonlama rivoji uchun sharoitlarning mavjudligi
- Fuqarolarning ish bilan ta'minlanganligi, bandligi
- Ta'lim, tibbiy xizmat, madaniyat ne'matlarining fuqarolar uchun etariligi
- Yuqori mavqega ega bo'lgan va maosh to'lanadigan ishga ko'tarilishning zarur asosga ega bo'lishi

Qisqacha xulosalar

Odamlar ijtimoiy himoyalangan va kafolatlarining kuchli, ta'sirchan vositasi mavjud bo'lgan taqdirdagina bozor iqtisodiyoti sari jadal harakatni ta'minlash, tarkibiy qayta qurish, ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish va ayni paytda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin.

O'zbekiston ichki siyosatining negizi - inson manfaatlariga qaratilgan mehnatni rivojlantirish kuchli mexanizmiga ega bo'lgan va aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat yo'li bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qurishdan iboratdir.

Ana shu qoidaga asoslangan holda O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti nomini oldi, o'tish davrining barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish asosida olib borilishi ko'zda tutildi. Iqtisodiy islohatlarning hamma tamoyillari va barcha qoidalari ijtimoiy islohatlarning vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasidagi qat'iy kafolatlarni vujudga keltirishga bo'ysundirildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ichki siyosatning negizini nima tashkil etadi?
2. Bozor iqtisodiyotini barpo etishdan ko'zlangan maqsad nima?
3. Bozor munosabatlariga o'tishni jadallashtirish davrida faol ijtimoiy siyosatni kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar qatoriga qo'yish bir qancha omillarga bog'liq. Ushbu omillar qaysilar?
4. Bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi bosqichida ijtimoiy siyosat qanday yo'nalishlar asosida olib borilmoqda?
5. Adolat inson hayotida qaerdan paydo bo'ldi?
6. Prezident I. A. Karimov "Davlat jamiyatning keskin tabaqalanishiga - oshib-toshib ketgan boylaru-kambag'al qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak" so'zidan qanday xulosa kelib chiqadi?
7. Adolatni saqlashning barchagabarobar prinsipi qanday ro'yobgachiqarish mumkin?
8. Inson omili va uning ahamiyati, milliy taraqqiyotdagi o'rni deganda nimalar nazarda tutiladi?
9. Ijtimoiy adolat prinsiplari?
10. Ijtimoiy kafolat nima?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. Т.1 -Т: "Ўзбекистон", 1996.
3. Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т.3 - Т.: "Ўзбекистон", 1996.
4. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. -Т.: "Ўзбекистон", 1997.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда.Т.7. -Т.: "Ўзбекистон", 2000.

6. Каримов И. А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Т.11. - Т.: "Ўзбекистон", 2002.

7. Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократиялаш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. -Т.: "Ўзбекистон". 2005.

8. Эргашев И. ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Дарслик. Т.: "Академия", 2005.

9. Азизхўжаев А. А. Чин ўзбек иши. -Т.: "Академия", 2003.

10. Азизхўжаев А. А. Давлатчилик ва маънавият. -Т.: "Шарқ", 1997.

11. Азизхўжаев А. А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар. қувончлар. - Т.: "Академия", 2001.

12. Раҳимов И. ва бошқалар. Мустақиллик мафқураси ва Ўзбекистонда демократик жамият қуришнинг иқтисодий, ижтимоий ва маънавий негизлари. Т.: "Университет", 2001.

13. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамияти. Т.: "Шарқ", 2003.

14. Ўзбекистон 13 йил мустақил тараққиёт йўлида. Т.: "Ўқитувчи", 2004.

15. Каримов И. А. Эл-юртга ҳалол, виждонан хизмат қилиш - ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи. Андижон вилоят халқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқ. // "Ишонч", 2004 йил 26 май.

16. Каримов И. А. Қонун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Сурхондарё вилоят халқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқ. // "Халқ сўзи", 2004 йил 2 июн.

17. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номли маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.

18. www.edu.uz

19. www.zuyo.edu.uz

20. www.ec.edu.uz

21. www.performance.edu.uz

22. www.gov.uz

23. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru

24. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru

25. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm

26. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

X BOB

O'ZBEKISTONING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISHI

10.1. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

Jahon hamjamiyatda faol ishtirok etish va O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama siyosat yuritish davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashning muhim shartidir. Buning uchun eng muhim shart-sharoit-o'zbekistonni dunyodagi 143 tadan ortiq davlat tan olganligi bo'lib, 120 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilganligidir. Endilikda O'zbekiston jahon siyosat maydonidan tobora munosib o'rin egallamoqda. O'zbekiston poytaxtida 43 tadan ortiq mamlakatning, shu jumladan buyukligi e'tirof etilgan AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy kabi davlatlarning elchixonalari ishlab turibdi. Hozir dunyoning 30 dan ortiq davlatida (AQSH, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Hindiston, Rossiya va boshqalar) respublikamizning diplomatiya elchixonalari ish boshladi.

O'zbekiston Respublikasi qo'ygan amaliy qadamlar: Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib kirish, Ovro'pada xavfsizlik va hamkorlik kengashi ishiga qo'shilib, Xelsinki jarayonida qatnashmoqda. O'zbekiston mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kirgan davlatlar ichida birinchi bo'lib qo'shilmaslik harakatiga qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Parlamentlarar ittifoqqa kirganligi yosh o'zbek davlatining demokratiya va parlamentarizm g'oyalari sodiqligidan dalolat beradi.

Mustaqillikka erishganimizga qadar qizil imperiya markazi O'zbekistonni qo'lida mahkam ushlab turgan va juda deganda, chet ellardan kelgan yuqori martabali mehmonlar oldida " Gullab yashnayotgan Sovet Sharqi" ni ifodalashgina bizning ixtiyorimizda qoldirgan edi. Rasman milliy davlatchiligiga ega bo'lgan O'zbekiston amalda boshqa "Suveren ittifoqdosh" respublikalar singari, jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan jarayonlarda ishtirok etishdan chetlashtirib qo'yilgan edi. Ayniqsa jahon iqtisodiy tizimidan ajratib qo'yilganlik mamlakatimizning milliy manfaatiga o'ta putur yetkazgan. Bunday xol SSSRning parchalanib ketishiga olib keldi va O'zbekistonning xalqaro munosabatidan chetlashtirilishiga abadiy barham berildi. Endi xuddi Samoniylar, qoraxoniylar, Xorazmshoxlar, Amir Temur va Shayboniyxon, o'zbek xonliklari zamonida bo'lgani singari, Yana Vatanimiz o'zining davlatlararo ishini, tashqi siyosatini mustaqil ravishda belgilamoqda.

Hozirgi kunda o'z mustaqil tashqi siyosatini konstitutsiyaviy qoidalarga tayanib yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subhektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida ana shunday so'zlar yozib qo'yilgan.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq quydagi ishlab chiqilgan asosiy tamoyillarga amal qilmoqda.

1. O'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi.

2. Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlarga aralashmaslik.

3. Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiklik, umuminsoniy kadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saklashga sodiqlik.

4. Xalqaro huquqiy normalarning davlat ichki normalaridan ustunligi.

5. Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O'zbekiston butun dunyoda o'zini tashqi siyosiy va madaniy aloqalarning boy tarixiga ega bo'lgan vamusta qil ravishdazamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon etmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatining jug'rofiyasi uzluksiz kengayib bormoqda. Bu esa davlatimizning strategik yo'liga mos keladi. Davlatimiz suverenitetining eng muhim kafillaridan biri esa jahon hamjamiyatining ishonchidir. Respublikamiz Prezidentining xalqaro aloqalari kengaydi. O'tgan yillar ichida Turkiya, Xitoy, Saudiya Arabiston, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Pokiston, Finlyandiya, Avstriya, Eron, Misr, Germaniya, Niderlandiya, Hindiston, Yaponiya, Polsha kabi mamlakatlarga rasmiy do'stona safar uyushtirdi. Ayni paytda O'zbekiston zaminida Hindiston, Fransiya, Afg'oniston, Turkiya, Finlyandiya, Malayziya, Koreya, Xitoy kabi davlatlarning oliy martabali rahbarlari bilan muzokaralar olib bordi. Tinchlik va hamkorlikni ko'zlab bir qator tarixiy bitim va shartnomalar imzolandi, bu O'zbekiston Prezidentining o'z xalqi oldidagi buyuk xizmatidir.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosida davlat mustaqilligi, o'zbek xalqining, butun xalqning yuksak manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi yotadi. Tabiiyki, bunda o'z sheriklarining manfaatlari, ularning o'ziga xos yo'nalishlari hisobga olinadi, chunki mushtaraklik bo'lmasa tashqi siyosat ham bo'lmaydi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari, jahon hamjamiyati hayotida faollik ko'rsatishni o'z mustaqilligining tashqi siyosatdagi ustivorligi deb hisoblaydi. O'zbekiston jahon hamjamiyati va davlatlararo xavfsizlik tizimida o'zining munosib o'rini mustahkamlab bormoqda. Bu esa O'zbekistonni Dunyo hamjamiyatiga kirish muddatlarini tezlashtirmoqda, turli xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari, birinchi navbatda BMT va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ishlarida faol qatnashuvini ta'minlamoqda.

Xalqaro tashkilotlar iqtisodiyotimizni qayta qurishga ko'maklashsa, ikkinchidan uning faoliyatida qatnashish milliy xavfsizlikni, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonning dunyoning 18 mamlakatini o'z ichiga olgan Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lishi katta voqeadir. O'zbekiston Prezidenti 1993 yil 23 oktabr kuni - BMT tashkil topgan kunda O'zbekistonda BMT vakolatxonasining rasmiy ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda qatnashib shunday degan edi: "Go'zal Toshkent shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining vakolatxonasi ochilayotgani katta tarixiy voqeadir. Bu tarixiy hodisa umumjahon tashkiloti tuzilgan kunda ro'y berayotgani alohida

e'tiborga molik. O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida jo'shqin, ziddiyatli davrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda tinchlik va xavfsizlik yo'lidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu nufuzli tashkilot Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining faol xalqaro siyosati Prezident I.A.Karimov nutqlarida o'z aksini topdi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 48 sessiyasi minbarida turib so'zlagan nutqida (28 sentyabr 1993 yil) u qator takliflarni kiritdi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan BMT seminarini chaqirish;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi qoshida xalqaro ixtiloflarning yuzaga kelishini tahlil etish va oldindan aytib berish uchun maxsus guruhni tuzish;

Markaziy Osiyoni yadrosiz mintaqa deb e'lon qilish;

Markaziy Osiyo mintaqasida kimeviy va bakteriologik qurollarni joylashtirish ustidan xalqaro nazoratni o'rnatish;

Yadro qurollarini butunlay tugatish;

Narkobiznesga qarshi birgalikda kurashish uchun Markaziy Osiyoda BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish;

Orof bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish;

Hozirgi dunyodagi sotsial-iqtisodiy, etno-madaniy, diniy xilma-xillikni bir xilda aks ettirish maqsadida xavfsizlik kengashini yangitdan tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishi va tobora chuqurlashtirishi alohida o'rin tutadi. 1996 yil 2 iyunda Florentsiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa ittifoqi o'rtasidagi "Sherklik va hamkorlik to'g'risida" gi bitim, uning 1999 yil 1 iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi.

O'zbekistonning Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy gumanitar aloqalari rivojlanib, chuqurlashib bormoqda. Bugungi kungacha respublikamizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalarini akkreditatsiya qilindi. Yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 491ta korxonalar ishlayapti, ulardan 111 tasi yuz foizlik Yevropa kapitaliga ega. 1995-2002 yillarda Yevropa ittifoqi malakatlarinig firma va kompaniyalari respublikamizda umumiy qiymati qariyb 8 mlrd. AQSH dollarilik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi. 2002 yilda O'zbekistonning Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 1 mlrd 65,8 mln. AQSH dollarini, 2003 yilda 1,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston 1999 yilda GUUAM xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, Yevropa Ittifoqi, EKR bilan samarali hamkorlik qilmoqda. Vatanimiz, shuningdek, Xalqaro valyuta fondi, Butunjahon tashqi xalqaro moliya Korporatsiyasi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IXT), Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy Komissiyasiga a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekiston BMTning homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot - YUNESKO bilan aloqalari kengayib bormoqda. 1993 yil 29 oktabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKO ga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'lib o'tdi. 1994 yil oktabrda Parijda vatandoshimiz Mirzo Ulug'bek tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan Ulug'bek haftaligi tantanali bo'lib o'tdi. 1996 yilda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat xaftaligi, "Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning qo'llab-quvvatlash" bobsiga xalqaro konferentsiya va ko'rgazmalar bo'lib o'tdi. 1997 yilda jahon madaniyatining durdonalari hisoblangan qadimiy Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi.

2.O'zbekiston - AQSH strategik hamkorligi. O'zbekiston Yevropa, Osiyo davlatlari bilan hamkorligi.

O'zbekistonning dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakat - AQSH bilan o'zaro manfaatli aloqalari 1991 yildanoq boshlangan edi.

AQSH bilan aloqalar to'g'risida prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlagan edi: - "Dunyoning yetakchi davlati bo'lgan, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy - texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish hozir biz uchun ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. qo'shma Shtatlar jamiyatimizni anglash, isloh qilish va demokratlashtirish, respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash jarayoniga salmoqli hissa qo'shmoqda. Biz Amerika firmalari va kompaniyalari bilan qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o'zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga, Amerika kapitalining bizning bozorimizdagi ishtiroki kengayishiga katta ahamiyat beramiz".

O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992 yil 15-16 fevral kunlari AQSH davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Toshkentda AQSH elchixonasi ochildi.

1993 yili Amerika-O'zbekiston savdo palatasi tuzildi. Ushbu qo'shma palata ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashish va O'zbekiston iqtisodiyotiga Amerika sarmoyasini jalb qilish vazifasini o'z oldiga qo'ydi.

Buning natijasi sifatida Muruntov oltin konida O'zbekiston-Amerika "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasi tashkil topdi. Yuqori sifatli oltin ishlab chiqarish bo'yicha respublikamiz jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Mazkur qo'shma korxonada 1995 yildan foydalanishga topshirilgan. "Zarafshon-Nyumont" butun sobiq sho'ro respublikalari ichida chiqindilardan tijorat asosida oltin oluvchi yagona korxonasi hisoblanadi. Qo'shma korxonada qo'llanilayotgan o'ta zamonaviy texnologiya tufayli olinayotgan oltin arzonga tushmoqda. Korxonada ishga tushirilgan yili bir tonna oltin olingan bo'lsa, bu miqdor korxonada ishga tushirilgandan buyon 2000 yilda 70 tonnadan oshib ketdi.

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimovning 1996 yil 23-28 iyun kunlari AQSHda bo'lishi, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirib Yangi pog'onaga ko'tarilishiga xizmat qildi. Prezidentlar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni

chuqurlashtirish, tomonlar manfaatlariga daxldor bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalarini muhokama qildilar. AQSH prezidenti Bill Klinton Markaziy Osiyo mamlakatlarning mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdor ekanligi, O'zbekiston bilan yaqindan munosabatlar o'rnatish niyati borligini, O'zbekiston tezroq dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvchi yo'lida yordam berajagini takidladı.

1996-yil 25-iyun kuni O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ochildi. Bu marosimda O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov, AQSH mudofaa vaziri qatnashdilar.

Ushbu safarida yurtboshimiz Vashingtondagi xorijiy xususiy sarmoyadorlar korporatsiyasi(OPEK) AQSH qarorgohida, Texas shtatining markazi Xyustonda, Kolorado va boshqa shtatlarida bo'lib, gubernatorlar, korporatsiyalar rahbarlari va O'zbekiston bilan qiziqayotgan ko'plab sarmoyadorlar bilan uchrashib, O'zbekistonning boy tabiiy resurslari va imkoniyatlari to'g'risida hamda chet el sarmoyadorlari va sarmoyadorlari uchun yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar to'g'risida batafsil axborot berildi. Bu uchrashuvlarda ko'pgina bitimlar shartnomalar tuzildi. Jumladan: "O'zbekneftgaz" milliy korporatsiyasi bilan OPEK o'rtasida loyihalarni mablag' bilan ta'minlash va sug'urta qilish, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati milliy banki bilan "Keys" korporatsiyasi o'rtasida "Lizing" kompaniyasi tuzish, "O'zbekneftgaz" korporatsiyasi va "Teksako" kompaniyasi o'rtasida qo'shma korxonalar tuzish, respublikamizdagi "Gazomators" va "gazkompressor" qo'shma korxonalarini tuzish to'g'risida hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston sanoatining bugungi kundagi ravnaqi uchun AQSH sarmoyasining kiritilishi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Masalan, AQSHdagi xorijiy xususiy sarmoyalar korporatsiyasi OPEK ajratgan 400 million AQSH dollari O'zbekistonda gaz sanoatini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo'lsa, AQSH ning Eksport-import banki (Eksimbank) 800 million AQSH dollari hajmidagi krediti bilan O'zbekistonda undan ortiq loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda. Jumladan, Ko'kdumaloq Kompressor stansiyasi, Buxoro neftini qayta ishlash zavodi, Sho'rtangaz Kime majmui va boshqalardir.

O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanib borishida "Keys korporeyshn" kompaniyasi alohida o'rin tutmoqda. Respublikamiz qishloq xo'jaligiga ushbu kompaniya 1600 ga yaqin "Keys" rusumli traktorlar va 1000 ga yaqin kombaynlar yetkazib berdi.

1998 yil 3 dekabrda yurtboshimiz I. A. Karimov va korporatsiya rahbari J.P.Rosso o'rtasidagi muloqot chog'ida ushbu kompaniya bilan hamkorlikda, to'rtinchi qo'shma korxonani ochishga kelishib olindi. Ushbu kompaniyaning zamonaviy texnikalaridan dehqonlarimiz unumli foydalanmoqdalar.

AQSH ning yirik kompaniyalaridan bo'lgan "Prokter end Gembl" bir necha yillik faoliyati davomida O'zbekiston xalqi uchun 50 mil. dollardan ortiq shaxsiy gigena va ozodalik mollari ishlab chiqarish bilan birga, "Sog'lom avlod dasturi"ni amalga oshirishda ko'maklashmoqda.

Siyosiy sohada ham ikki davlat o'rtasida hamkorlik rivojlanmoqda. Ayniqsa, 2001 yil 11 sentyabrdagi AQSH ning yirik shaxarlari Vashington va Nyu-Yorkda terrorchilar

tomonidan yo'lovchi samalyotlarning portlatilishi natijasida, Jahon savdo palatasi va Pentagon binosida to'rt mingdan ortiq begunoh kishilar qurbon bo'ldilar. Bu mudxish voqealar butun insoniyatni tashvishga soldi. 2001 yil 25 sentyabrda AQSH kongressi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" qonun qabul qildi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashga juda ko'p mamlakatlar ko'maklashdilar. Jumladan, O'zbekiston ham o'zining bir harbiy aerodromiga AQSH ning transport samalyotlari va vertolyotlarining qo'nishi uchun ruxsat berdi. Bu samalyotlar va vertolyotlardan faqat qutqaruv ishlarini amalga oshirish va gumanitar maqsadda foydalanildi.

2001 yil 5 oktabrda O'zbekistonga kelgan AQSH mudofaa vaziri Donald Ramsfeld Prezidentimiz I.A.Karimov bilan suhbatlashgan chog'ida xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston berayotgan yordamdan AQSH hukumati minnatdor ekanligini bildirdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi munosabatlar yanada rivojlanmoqda. AQSH ning "Boing", "Uayd-end", "Koka-kola", "Katerpillar", "Kargil", "Enron", "Ekson", "Nyumont Gold", "Ameriken interneyshtanl Grupp", "Teksako" kabi jahonga mashhur kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamiz Prezidenti o'zining "O'zbekiston XXI bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida shunday deb yozadi: "O'zbekistonning johon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropa imkoniyatlari hayotiy muhimdir. Yevropa va butun G'arb texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. XXI asrga xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lib kirish maqsadida yangilanish va taraqqiyotni o'zining strategik vazifasi qilib olgan O'zbekiston davlati uchun hayotiy zaruratdir". Yevropa bilan hamkorlik 1993 yil 28 aprel kuni Prezidentimiz I.A.Karimovning Germaniyaga rasmiy tashrifi bilan boshlandi. Bu safarni jahon jamoatchiligi katta qiziqish bilan kuzatgan edi chunki, ular iqtisodiy inqirozdan chiqayotgan yosh O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan baquvvat Germaniyaga moddiy yordam so'rab kelmoqda, degan fikrda edilar. Islom Karimov samalyot pillapoyasidan tushgan zamon jumalistlarning savollariga shunday javob berdi: - "Men O'zbekistonni nemeslarga tanitgani keldim, O'zbekiston hech kimdan sadaqa so'ramaydi, faqat tengma-teng hamkorlikka tayyor". Bunday javob ko'pgina jurnalistlar va siyosatdonlarni hayratga soldi.Safar chog'ida I.A.Karimov GFR federal prezidenti Rixard Fon Vayzeker va federal kontsler Gelmut Kol bilan muzokaralar olib bordi. Bir qancha ishlab chiqarish korxonalarida bo'lib, nemis sanoati bilan yaqindan tanishdi. Shundan so'ng ikki davlat o'rtasida sarmoyalar qo'yish,tadqiqotlar o'tkazish, mutaxassislar fondini tashkil etish, madaniy aloqalar qili shva boshqa bir qancha shartnomalar imzolandi.Safar samarali bo'lib, "Doyche bank", "Mercedes -bents" kompaniyalari bilan hamkorlik qilishga kelishib olindi.Shunga ko'ra Xorazmda 1994 yilda "Mercedes - bents" kompaniyasi ishtirokida yuk mashinalarini yig'adigan zavod qurilishi boshlandi. Hozirgi kunda zavod mahsulot ishlab chiqarmoqda.

1995 yil aprelda Germaniya federal Prezidenti Roman Gertsogning o'zbekistonga rasmiy tashrifi, 1995 yil 14-15 noyabrda I.Karimovning GFR ga ikkinchi tashrifi

bilan ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar yanada kuchaydi. O'tgan yillar ichida O'zbekistonda Germaniyaning 60 dan ortiq qo'shma korxonalar va kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular orasiga "Mercedes - bents", "Alkatel", "Semens" va boshqalar kiradi. 2000 yilning bahorida Germaniya va Avstriya hamkorligida Toshkentda qurilib ishga tushirilgan "Hobas - TAP0" qo'shma korxonasi no metall, turli diametrdagi plastmassa quvurlar ishlab chiqara boshladi. Bu quvurlardan foydalanish muddati metall quvurlarga nisbatan 3-4 barobar yuqori. Bunday zavod MDH da yagonadir. Korxonalar mahsulotiga bo'lgan ehtiyoj O'zbekistonda ham, xorijda ham ortib bormoqda. Nemis hamkorlarimizda bunday zavodni qaerda qurish tanlovi imkoniyati bor, ular O'zbekistonni ma'qul qo'rishdi. Chunki, bizda istiqbolli imkoniyatlar etarlidir.

Yevropada rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Fransiya Prezidentimiz I.A.Karimovning rasmiy tashrifi 1993 yil 28-30 oktabr kunlari bo'ldi. Ushbu tashrif bilan ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos solindi. Do'stona suhbat chog'ida Fransiya Prezidenti F.Mitteran Markaziy Osiyoda O'zbekiston yetakchi o'ringa ega ekanligi, u Sharq bilan G'arb o'rtasida ishonchli ko'priklarni bo'lishi mumkinligi, o'tmishi buyuk bo'lgan O'zbekiston doim fransuzlar diqqatini tortib kelganligiga to'xtalib, O'zbekistonning o'tmishi va hozirgi kundagi harakatiga yuksak baho berdi. Fransiya poytaxti Parijda O'zbekiston Respublikasi bilan Fransiya Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik, madaniyat, ilmiy-texnikaviy, maorif sohasida, sarmoniyalarni o'zaro rag'batlantirish va hamoyalash to'g'risidagi bitimlar imzolandi. O'zbekiston prezidentining "Parij xaritasi"ni imzolashi, O'zbekistonning Yevropa va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston milliy banki bilan Fransiya yirik "Kredit komertsial de frants" banki o'rtasida maqsadli bitimlar natijasida kafolat uchun mablag' qo'yildi.

1994 yil 25-27 aprel kunlari Fransiya Prezidenti F.Mitteran O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. U tashrif chog'ida O'zbekiston bilan yaqindan tanishdi. Ikki davlat rahbarlari bir qator bitimlar va shartnomalar imzolashdi. Keyingi yillarda Fransiyaning bir qancha firma va kompaniya rahbarlari O'zbekistonda bo'lib, hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari bilan tanishdilar.

Hozirgi kunda Fransiyaning "Texnil", "Dileplang", "Ron-pulenk agroshimi", "Elf-akiten", "Kopiko", "Sofinpro", "Shobon sa", "Bofuribsen" kabi taniqli firma va kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan: "Texnil" firmasi "O'zbekneftgaz" korporatsiyasi bilan birgalikda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi. Bu zavod 300 gektar yerni egallab, qiymati 500 mln. AQSH dollariga teng. 1997 yildan bu korxonaning ishga tushirilishi natijasida respublikamiz neft borasida mustaqillikka erishdi. 1991 yilda respublikamizga 4,5 mln. tonna neft va neft mahsuloti olib kelingan bo'lsa, hozirgi kunda bu mahsulotlarni eksport qiladigan mamlakatga aylandi. Yoki "Bung" qo'shma korxonasi 21 oyda qiymati 181 mln. frank turadigan "Xiltoy - Toshkent" mexmonxonasini qurib ishga tushirdi. O'zbekiston - Fransiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash 1995-yil 16 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 200 mln. AQSH dollaridan oshib ketdi.

Yevropaning nufuzli mamlakatlaridan biri bo'lgan Buyuk Britaniya bilan aloqalar 1993-yil 15-oktabrda Buyuk Britaniya tashqi ishlari bo'yicha davlat vaziri Daglos Xochning

O'zbekistonga tashrifi bilan boshlangan bo'lsa, o'sha yilning 22-23 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov delegatsiyaning Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiyaga rasmiy davlat tashrifi bilan yanada rivojlandi. O'zbekiston prezidenti bosh vazir Sh.Meyjor va qirolicha Elizaveta II bilan muzokaralar olib bordi, natijada bir qancha shartnomalar imzolandi. Keyingi yillarda ikki davlat o'rtasida aloqa va hamkorlik rivojlanib bormoqda. Masalan: "Omontov - Gulgifilde" O'zbekiston - Britaniya qo'shma korxonasi Dovgizdov va Omontovning oltinga boy konlarini o'zlashtirilmogda.

O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi aloqalar sobiq ittifoq davridanoq boshlangan edi. 1998-yil Italiyaning "Alma Roza" firmasi bilan hamkorlikda "Sovplastikal" qo'shma korxonasi tashkil etilgan edi. Hozirgi kunda bu korxonada 4 ming turdagi mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. Ular orasida gullar, shisha va chinnidan yasalgan bejirim buyumlar, plastmassadan tayyorlangan rangli mebellar, milliy asbob-anjomlar, vannalar, taqinchoqlar va boshqalar. Bu korxonada dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan buyurtmalar olmoqda. Korxonada mahsulotlaridan Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Gollandiya, Italiya, AQSH, Ispaniya, Vengriya va boshqalar bahramand bo'lmoqdalar. Korxonada o'n marta xalqaro sovringa sazovor bo'lgan. Birgina 1998-yilda "Eta" xalqaro mukofoti Amerikaning "Sifat uchun" oltin mukofoti ham bor.

1997-yil rasmiy tashrif bilan Italiya prezidenti Oskar Skalfaroning O'zbekistonga kelishi bilan ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik yangi pog'onaga ko'tarildi.

Hozirgi kunda "O'zbektelekom" va Italiyaning "Stet interneyshtl" korporatsiyalari hamkorlikda "Udinet" qo'shma korxonasi asos soldilar. Bu qo'shma korxonada O'zbekistondagi telekommunikatsiya tarmoqlarini takomillashtirish maqsadida faoliyat ko'rsatmoqda. Ayni paytda mamlakatimizda 30 dan ortiq O'zbekiston - Italiya qo'shma korxonalarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu davlatlardan tashqari Yevropaning Finlandiya, Niderlandiya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatildi va bu aloqalar kengayib bormoqda.

Yevropa mamlakatlari bilan savdo - iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda darvoza vazifasini bajaruvchi Boltiq bo'yi mamlakatlari bilan O'zbekistonning aloqalar o'rnatishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1995 yil 6-8 iyun kunlari O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov davlat tashrifi bilan Latviya davlatiga bordi. Latviya Prezidenti Guntis Ulmanis bilan uchrashuv chog'ida ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolandi.

1996 -il 23-mayda O'zbekistonga Latviya prezidentining tashrifi bilan ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik yanada rivojlandi. Bu tashrif chog'ida hukumatlararo huquq - tartibot, xalqaro avtomobil qatnovi, temir yo'l transporti, madaniyat, bojxona ishida o'zaro hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi. O'zbekiston Latviyadan elektr mashinalari, uskunalar, efir moyi, qora metall sotib olmoqda. O'zbekiston esa Latviyaga ipak, paxta va boshqa mahsulotlar yetkazib bermoqda. Bir necha qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Boltiq dengizida o'zining bandargohlariga ega bo'lgan Litva davlati bilan aloqalar 1995 yil iyun oyidagi Islom Karimovning tashrifi bilan boshlandi. Ikki davlat rahbarlari ikki tomonlama do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzolashdi.

O'zbekiston va Litva o'rtasida ta'lim, fan va texnika, savdo - iqtisodiy va boshqa qator masalalarda aloqalarni yo'lga qo'ydilar.

O'zbekiston Litva transport xo'jalik kommunikatsiyasida dengiz yo'lidan, Klaypeda bandargohida ikki davlat kelishuvlari bo'yicha foydalanib kelmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yildan - yilga rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligining birinchi kunlaridayok urf - odatlari va tarixiy an'analari yaqin bo'lgan O'rtaSharq davlatlari bilan madaniy iqtisodiy vadi plomatik aloqalarini yo'lga quyishga kirishdi.

1991-yil 16-19 dekabr kunlari Prezident I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasi Turkiya mamlakatida bo'ldi. Turkiya Prezidenti Turg'ut Uzol, bosh vazir Sulaymon Demirel va boshqa rahbarlar, ishbilarmonlar turli kompaniyalar, firmalarning rahbarlari bilan amaliy uchrashuvlar o'tkazib, fikr almashdilar. Ikki mamlakat o'rtasidagi davlatlararo hamkorlikning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida protokol, iqtisodiy, savdo, madaniyat, fan, ta'lim, sport, turizm, transport va kommunikatsiyalar sohalaridagi hamkorlik to'g'risidagi bitim, axborot ayirboshlash, televideniya va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar, boshqa rasmiy hujjatlar imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash 1992 yili 75 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1997 yilda 320 millionni, 1998 yilda esa, 275 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

1999-yil 15 martda Turkiya prezidenti S.Demirelning O'zbekistonga tashrifi chog'ida, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik tahlil qilinib, imkoniyat darajasida emas, deb topildi. Bunda keyin iqtisodiy hamkorlikni yanada kuchaytirish to'g'risida kelishib olindi.

Hozirgi kunda ikki davlat o'rtasida 200 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bulardan "Koch xolding", "Ay sel", "Damo" firmalarning o'rni alohida. Samarqandagi "Samkochavto" qo'shma korxonasi minglab turli rusumdagi avtobuslar va yuk mashinalari ishlab chiqara boshladi. "Doma" firmasi esa Samarqandagi "Sino" zavodi bilan hamkorlikda zamonaviy sovitgichlar ishlab chiqara boshladi. Ular 2001 yilda 150 ming dona zamonaviy sovitgichlar ishlab chiqardilar. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hamma sharoitlar yaratilgan.

1992-yil 27-28 iyunda Pokiston Islom respublikasining bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari, iqtisodiy, savdo, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, turizm ommaviy axborot sohalarida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. 1994 yili Pokiston va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 4,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan, O'zbekiston Pokistonga charm-xom ashyosi, pilla, engil sanoat uchun mashina va uskunalar yetkazib bersa, Pokiston xalq iste'mol mollari, poyafzal, tamaki, tayyor kiyimlar, charm buyumlar, kakao va shakar yetkazib berishni yo'lga quydi. O'zbekistonda Pokiston ishbilarmonlari ishtorikida 120 ta qo'shma korxonalar tuzildi. "Tabani", "Merkuriy", "Metro", "Laskon", "Taraka", kabi 19 ta yirik firma va kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi qator mintaqaviy muammolar, jahonshumul loyihalarni birgalikda amalga oshirish yuzasidan shartnomalar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taklifiga binoan Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Parvoz Musharraf 2005 yil 5-7 mart kunlari O'zbekistonga tashrif Doirasidagi muzokaralar choqida ikki davlat raqbarlari o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama etdilar. Muzokalar yakunlari bo'yicha qator ikki tomonlama bitimlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlar uzoq tarixga ega. Ushbu aloqalarga mustahkam asos O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1991-yil 17-19 avgustda Hindistonga qilgan tashrifida solingan. Yaxshi bilasiz, mamlakat sanoat ishlab chiqarishni jalb qilinayotgan xorijiy sarmoyasi hajmi jiqatidan Hindiston dunyodagi dastlabki o'nlikka kiradi. Yadroviy texnologiyalar va koinotni zabt etish borasida ham eng ilqor mamlakatlar safida turadi. Jahonda axborot texnologiyalari yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yarmidan ortiqi Hindiston qissasiga to'g'ri keladi. Bunday ulkan salohiyatga ega mamlakat bilan hamkorlik qilish qar ikki tomon uchun manfaatlidir.

An'anaviy do'stlik va yangi asosdagi hamkorlik rivojlantirishda Prezident I.A.Karimovning 2005 yil 4-6 aprel kunlari Hindistonga qilgan safari aloqida o'rin egallaydi.

Muzokaralarning amaliy natijasi tashrif davomida imzolangan 13 hujjatda ifodasini topdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, ta'lim va madaniyat soqalanda hamkorlik bo'yicha hujjatlar imzolandi. Mudofaa vazirliklari o'rtasida qarbiy va qarbiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim, O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi bilan Hindiston davlat savdo Korporatsiyasi o'rtasida anglashuv memorandum, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi o'rtasida anglashuv protokoli, O'zbekiston Savdo-Sanoat palatasi bilan Hindiston Savdo-Sanoat palatalari o'rtasida hamda Hindiston eksport tashkilotlari federatsiyasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitimlar, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki o'rtasida hamkorlik memorandumlari, "o'zsanoatmashimpeke" davlat aksionerlik tashqi savdo kompaniyasi bilan Hindistonning "Kompetent" kompaniyalari guruhi o'rtasida savdo uyi tashkil etish to'g'risida memorandum va boshqa memorandumlar imzolandi.

O'tgan 2004 yili mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo hajmi 160 million AQSH dollarini tashkil qildi. O'zbekistonda Hindiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 40 qa yaqin qo'shma korxonalar hamda Hindistondagi 4 kompaniyaning vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz Hindistonga asosan rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar ayrim xizmat turlarini, poliz mahsulotlarini, ipak vakimyoviy tolalarni eksport qiladi. Import esa qoqoz va karton, dori-darmon, uskuna, organik va kimyoviy birikmalar kabi maqsulotlardan iborat. Bu ro'yxatlarni ancha kengaytirish mumkin. Samolyotsozlik, neft kimyosi, o'g'it, qishloq xo'jaligi maqsulotlari, teri va yog'ochni qayta ishlash singari imkoniyatlari ko'p. Yuqori texnologiyalar, jumladan, axborot texnologiyalari, shuningdek, tog'-kon sanoati borasidagi aloqalarni ham zamon talalariga mos ravishda rivojlantirish mumkin.

O'zbekiston Saudiya Arabistoni, Misr, Eron, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa Osiyo mamlakatlari bilan ham madaniy, savdo-iqtisodiy, Fan-texnika, turizm va boshqa sohalarda bitimlar, shartnomalar imzolandi. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirib, mustahkamlab borish uchun O'zbekiston barcha imkoniyatlarini ishga solmoqda.

Bu mamlakatlarning O'zbekiston bilan hamkorligining hususiyati shundaki, tarixiy taqdirleri, turmushi, madaniyati, diniy qarashlari yaqin bo'lib, hozirgi kunda ham bu mamlakatlarning umumiy manfaatlariga, xavfsizligiga, iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan umumiylik mavjud. Prezidentimiz bu davlatlar rahbari bilan bo'ladigan oliy darajadagi uchrashuvlarda teng huquqlilik asosida hamkorlik qilish g'oyasini ilgari surmoqda.

1977-1979 yilda Eron, Pokiston va Turkiya davlatlari birgalikda tashkil etgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga (EKO) 1992 yilda O'zbekistonning qo'shilishi, Istambul-Pekin Trans-osiyo temir yo'lining tarkibiy qismi bo'lgan Mashhad-Saraxs-Tedjen yo'lining (1998 yilda) ishga tushirilishi, O'zbekistonning eng avvalo, respublika janubidagi mamlakatlarga, keng suv havzalariga chiqish imkonini berdi. Ushbu yo'l yordamida O'zbekistonning Eron Islom Respublikasi bilan bog'lanish imkoni tug'ildi. Uzunligi 295 kilometrga teng bo'lgan bu yo'l Markaziy Osiyoni Fors qo'ltig'i bilan bog'ladi va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

Yurtboshimiz O'zbekistonning EKO faoliyatida qatnashishidan ko'zda tutilgan maqsadlar haqida to'xtalib shunday deydi:

"Tashkilot ishida ishtirok etish, bizga qo'shni davlatlar bilan o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun zarur. Bu o'z navbatida mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi,

Miuntaqadagi gumanitar muammolarni birgalikda hal etish, tarixiy zamini bir bo'lgan xalqimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashdan iboratdir:

Bu mavjud tabiiy salohiyatimizni dunyoga olib chiqish uchun kommunikatsiya tarmoqlarini vujudga keltirishdan iboratdir. Chunki, muammolarni hal etmay turib, 300 mln. aholi yashaydigan o'lkaning hududida iqtisodiy taraqqiyotga erishish qiyin".

O'zbekiston tashqi faoliyatida qo'lga kiritgan yutuqlaridan yana biri shundaki, respublikamizning Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni o'z vaqtida amalga oshirganligidir.

O'zbekiston tashqi faoliyatida qo'lga kiritgan yutuqlaridan yana biri shundaki, respublikamizning Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni o'z vaqtida amalga oshirganligidir.

O'zbekiston va Xitoy xalq revsublikasi o'rtasidagi aloqalar bir necha ming yillik tarixga ega.

Qudratli Xitoy davlatini Sharq va G'arbdagi ko'plab mamlakatlar bilan bog'lovchi "Buyuk ipak yo'li" bizning mamlakatimizdan o'tgan bo'lib, bu yo'l orqali do'stlik va hamkorlik yo'llari qatnagan. Mustaqillikka erishmasimizdan oldin 1989 yilda "O'zbekiston Xitoy jamiyati" tashkil etilib, shu jamiyat doirasida olimlar, madaniyat hodimlari, hukumat a'zolarining borib kelishlari ikki davlat xalqlarini bir-biri bilan yaqindan tanishish imkoniyatini bergan edi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng XXR tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Li Lantsining 1992 yil 2-3 yanvar kunlari Toshkentga kelishi, shu yil 12-14 mart kunlari O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning XXR ga rasmiy tashrifi, ikki mamlakat o'rtasidagi

: "Халқ сўзи", 1998 йил 12 май. Ўзбекистон Президенти И.А. Каримовнинг Германияга расмий ташрифи

hamkorlikning yangi salufalarini ochdi. Tashrif chog'ida ikki mamlakat o'rtasida 15 ta muhim hujjatlar inzoland. 1994 yil 18-20 aprel kunlari XRR davlat kengashining raisi Li Penning O'zbekistonga davlat tashrifi bilan kelganida ikki davlat o'rtasida kredit, xalqaro iqtisodiy aloqalar, havo transporti avtomobil aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Shartnomaga binoan Xitoy O'zbekiston IL-76 va IL-144 samolyotlarini xarid qiladigan bo'ldi. 1994 yil 25-26 oktabrda Prezident I.A.Karimov ikkinchi bor XRR ga tashrif buyurdi. Bu bilan aloqalar rivojlanishining Yangi bosqichi boshlandi. Toshkent - Pekin, Toshkent - Urumchi havo yo'llari ochildi.

Hozirgi kunda O'zbekiston - Xitoy qo'shma korxonalarining soni 80 dan oshib ketdi. Ulardan "Oydin - Maniza" qo'shma korxonasi bolalar uchun kiyimlar, "Tashinterm" birlashmasining ko'rkam termoslari mamlakatimizdan tashqarida ham mashhur.

O'zbekiston sanoatining rivojlanishida Janubiy Koreya alohida o'rinda turadi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga 1992 yilda asos solingan. 1992 yil iyun oyida I.A.Karimovning Koreyaga safari chog'ida bir qancha shartnomalar imzolandi. Shulardan biri "DEU" kompaniyasi bilan hamkorlikning boshlanishidir. 1992 yil noyabr oyida Respublika Vazirlar Mahkamasining Asaka avtomobil zavodini qurish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida "O'zDEU" avtokorxonasini qurish boshlanib ketdi. Bu zavod qisqa muddat 3 yilda qurib, ishga tushirildi. Jalb etilgan mablagning 52 foizi O'zbekiston hissasiga, 48 foizi esa Janubiy Koreya hissasiga to'g'ri keldi. 1996 yilga kelib birin - ketin "Tiko", "Damas", "Neksiya" avtomobillari chiqa boshladi. Shunday qilib, O'zbekiston respublikasida mashinasozlikning yangi tarmog'i - avtomobilsozlik vujudga kelib, davlatimiz dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 davlatdan biriga aylandi. Bu korxonalar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqaradigan yana bir necha: "O'zKoram", "O'z Dong", "O'z tong Xong", "O'z dong Yang" kabi qo'shma korxonalar tashkil topib, faoliyat ko'rsatmoqda.

1999 yilning oktabr oyida prezidentimiz i.A.Karimovning Koreya Respublikasiga rasmiy tashrifi paytida Asaka avtomobil zavodida "Matiz" va "Neksiya - 2" rusumli avtomobillarni ishlab chiqarish bo'yicha bitim imzolandi. Shuningdek, "DEU" avtomobillari uchun Toshkentda dvigatellar ishlab chiqarish korxonasi qurilishiga ham kelishib olindi. Hozirgi kunda butlovchi qismlarining 20 % mamlakatimizda ishlab chiqarilmoqda. 2003 yilda bu ko'rsatgich 85 % ni tashkil etsa, bu o'z-o'zidan avtomobillar tannarxini arzonlashtirish bilan birga, ko'pgina ish joylarining paydo bo'lishiga ham olib keladi. "O'z DEU" korxonasi O'zbekiston mustaqilligining 10 yilligiga tuhfa kilib "Matiz" avtomobilini ishlab chiqara boshladi. Bu zavod 2004 yilda to'la quvvat bilan ishlasa yiliga 200000 avtomobil ishlab chiqariladi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar tobora rivojlanib bormoqda, buning uchun imkoniyatlar etarli.

O'zbekiston bilan Sharqning eng rivojlangan mamlakati Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik 1994 yil 16-17 mayda Prezidentimiz I.A.Karimovning Yaponiyaga tashrifi bilan boshlangan. Bu tashrifda yurtboshimiz Yaponiya bosh vaziri Sutomu Xata, Yaponiya imperatori Akaxito, savdo va sanoat vaziri Eytiro Xatani va boshqa hukumat a'zolari bilan uchrashib, davlatlararo munosabatlar asoslariga doir qo'shma bayonot imzolandi.

O'zbekistonda Yaponiyaning dunyoga mashhur "Mitsuy va XO LTD", "Mitsubisi korporeshn", "Sumitot korporeshn", "Sumitot korporeshn", "Tomen korporeshn",

"Chori" kompaniyalarining doimiy vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Yaponiya hukumati Ko'kdumaloq neft - gaz kondensati konini o'zlashtirishda, Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurishda, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlashda, telealoqa tarmoqlarini ta'mirlashda o'z sarmoyalari bilan qatnashmoqdalar.

1995 yildan buyon Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi 1 mlrd. AQSH dollaridan oshib ketdi. 1999 yildan boshlab Yaponiya O'zbekiston uchun yangi imtiyozli kreditlar ajratishni boshladi. Bu kreditlardan 12,690 mlrd. ieni viloyatlardagi telekommunikatsiya sohasini zamonaviylashtirish uchun, 670 mln. ien esa onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan. Keyingi yillarda ham ikki davlat o'rtasidagi hamkorliklar rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston mustaqillik yillarida bir qator Tinch okeani havzasi va Okeniya mintaqasidagi davlatlar bilan o'zining diplomatik savdo - iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o'rnatdi va bu aloqalar har tomonlama rivojlanib bormoqda. Mazkur mamlakatlar bilan yaqindan, uzoq muddatli hamkorlik qilishimiz, savdo - iqtisodiy aloqalarning kengaytib borishi, har ikki tomonning mavjud imkoniyatlaridan faol foydalanish uchun katta istiqbollar ochib bermoqda. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ko'p yillar davomida eksport qilinayotgan mollar import qilinayotganga nisbatan ancha kam edi. Butungi manzara butunlay boshqacha, eksport hajmi ortib bormoqda. 2004 yil natijalariga ko'ra, tashqi savdo buyicha 815,3 mln. AQSH dollari hajmidagi ijobiy saldo natijalariga erishildi. quyidagi jadvaldan ruy bergan ijobiy o'zgarishlar haqida ma'lumot olish mumkin.

O'zbekiston respublikasining tashqi savdo hajmi. (million, AQSH dollari hisobida).

1-jadval

Yillar	Jami	Shundan		Hajmiga nisbatan foiz	
		Eksport	Import	Eksport	Import
1994	2689,9	5299,4	2609,5	50,7	49,3
1995	6612,6	3719,9	2892,7	56,3	43,7
1996	9311,3	4590,2	4721,1	49,3	50,7
1997	8910,5	4387,5	4523,0	49,2	50,8
1998	6816,9	3528,2	3288,7	51,8	48,2
1999	6346,5	3235,8	3110,7	51,0	49,0
2000	6212,1	3264,7	2947,4	52,6	47,4

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'lini tanladi. Prezidentimiz I.Karimov o'zining asarlari, ma'ruza va nutqlarida tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy tamoyillarini nazariy va Amaliy jihatdan puhta asoslab bordi. Tashqi siyosatda tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi.

O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlik qilishda teng huquqlik, ikki tomonlama manfaatdorlik asosida ish olib bormoqda. AQSH

bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish biz uchun ustuvor ahamiyatga egadir.

O'zbekistonning Yevropadagi davlatlar bilan hamkorlik qilish milliy manfaatlarimiz nuqtai nazardan hayotiy zaruratdir. Yevropa va butun G'arb biz uchun yuksak texnologiya va sarmoyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir.

O'z urf - odatlarimiz va tarixiy an'analарimiz yaqin bo'lgan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan madaniy - iqtisodiy aloqalarimiz yildan - yilga rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy va Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlari alohida o'rin tutmoqda. Umuman O'zbekistonning tashqi aloqalarida bu davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun har tomonlama imkoniyatlar yetarli.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi qanday tamoyillarga asoslangan? O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida ushbu tamoyillar o'z aksini topgan?

2. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi unga qanday imkoniyatlarni ochib berishi mumkin?

3. Prezident I. Karimovning aytgan quyidagi so'zlari "Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda eng avvalo, BMT faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz" qaysi asariga tegishli?

4. Aytinchchi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti qanday tashkilot? O'zbekiston unga qachon a'zo bo'lgan? O'zbekiston u bilan hamkorlikdan qanday naf ko'radi?

5. O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot - YUNESKO bilan hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan. YUNESKO - O'zbekiston hamkorligida qanday tadbirlar amalga oshirilgan?

6. Dunyoda turli doiralarda faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar anchagina. Siz qanday yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan shunday tashkilotlarni bilansiz?

7. O'zbekiston AQSH strategik hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan. Aytinchchi, strategik hamkorlik qanday ma'noni anglatadi?

8. 15 mart 2005 yil Prezident I. A. Karimov Yevropada iqtisodiy imkoniyatlarga ega Sloveniyaga tashrif buyurdi. Aytinchchi, u qanday imkoniyatlarga ega?

9. Demokratik tartibotlar va uning asosiy yo'nalishlari?

10. o'zbekiston va jahon hamjamiyati munosabatlarining huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy asoslari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.

2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Президент И.Каримовнинг БМТ нинг 1993 йил 28 сентябрда бўлиб ўтган. 48-сессиясида сўзлаган нутқи. Т.2. -Т.: "Ўзбекистон".

3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6 -Т.: "Ўзбекистон", 1997.

4. Каримов И.А. Миллий давлатчилик, истиқлол, мафкура ва ҳуқуқий маданият тўғрисида. -Т.: "Ўзбекистон", 1999.
5. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. -Т.: "Ўзбекистон".
6. Каримов И.А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, халқимизнинг ҳамжиҳатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ. -Т.: "Ўзбекистон", 2004.
7. Каримов И.А. Соғлом халқ, соғлом миллатгина буюк ишларга қодир бўлади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 12 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. // "Халқ сўзи", 2004 йил 8 декабр.
8. Эргашев И. ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Дарслик. -Т.: "Академия", 2005.
9. Истиқлол, демократия ва фуқаролик жамияти. "Шарқ", 2003.
10. Ўзбекистон: 13 йил мустақил тараққиёт йўлида. -Т.: "Ўқитувчи", 2004.
11. Нуриддинов З. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. -Т.: 2002.
12. Жўраев С., Маҳқамов Х., Рустамов С. Америка Қўшма Штатлари. -Т.: 2003.
13. Ўзбекистон - 13 йил мустақил тараққиёт йўлида. -Т.: "Ўқитувчи", 2004
14. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номи маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.
15. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. -Т.: "Ўзбекистон", 2005.
16. Мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг 2004 йил 9 ойи якунлари тўғрисида Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Мажлиси. // "Халқ сўзи", 2004 йил 11 ноябр.
17. www.edu.uz
18. www.zuyo.edu.uz
19. www.ec.edu.uz
20. www.performance.edu.uz
21. www.gov.uz
22. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
23. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru
24. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm
25. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

XI BOB

O‘ZBEKISTON: MDH, SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI, MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HAMJIHATLIGI: IKKI TOMONLAMA VA KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK

11.1.MDH DAVLATLARIDAGI DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR VA DAVLATLARARO MUNOSABATLAR

1991 yilning oxirlariga kelib Sobiq Ittifoq respublikalarning deyarli barchasi mustaqilligini e‘lon qildi.

1991 yil 8 dekabrda uch slavyan respublikalar rahbarlari B.Elsin, A.Kravchuk va S.Shushkevichlar Belorussiyaning Belovenjskoe Pushcheda uchrashishdi. Uchrashuvda MDHni tuzish to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi va bunga xohlaganlar kirishi mumkinligi e‘lon qilindi. Shartnomada yagona iqtisodiy makon, yagona valyuta va moliya - bank sistemasi bo‘ladi, fan, ta‘lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik qilinadi, tashqi siyosat va armiyasohasidagi diplomatik kelishuvgabinoan ish olib boriladi deyilgan edi.

1991 yil 12 dekabrda S.Niyozov tashabbusi bilan Ashxobodda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib, unda qabul qilingan bayonotga ko‘ra MDX ixtiyorlik va tenglik asosida tuzilsa ular ham ta‘sis etuvchilar sifatida kirishlari mumkinligi bildirilgan edi. Takliflar tahlil qilingandan keyin 11 respublika rahbarlari 1991 yil 21 dekabrda Almati shahrida uchrashdilar. Bu kengashning qarori, bitimi va pratokoli e‘lon qilindi, MDX tashkil topdi.

O‘zbekistonning MDX davlatlari bilan tutgan siyosiy yo‘li, tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Buni turli sabablari bor, eng muhimi Islom Karimov so‘zi bilan aytganda: - "Mamlakatlarimiz xalqlarining yaqinlashuvi - tabiiy kechayotgan jarayon - bu yaqinlik. Sobiq Ittifoq mavjud bo‘lganligidan qat‘iy nazar, hamma vaqt bo‘lib kelgan. Bu xalq integratsiyasi bo‘lib, sun‘iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o‘laroq, haqiqiy integratsiyadir." Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, O‘zbekiston MDX mamlakatlari bilan bo‘layotgan siyosiy va iqtisodiy munosabatlarga ustivorlikka etibor berar ekan, bu sof insoniylik va insonparvarlik pozitsiyasidir. Shu bilan birga O‘zbekiston o‘zining mustaqilligidan orqaga chekinishni ho‘xlamaydi. O‘zini MDX davlatlarining teng huquqli azosi sifatida integratsiyani haqiqiy mustaqil davlatlar integratsiyasi sifatidagi g‘oyasini ilgari surdi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov MDX davlatlari o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar, hamma integratsiya jarayonida bir muhim holatga katta etibor beradi. Mustaqil respublikalarda, xususan O‘zbekistonda ham Sobiq Ittifoq ko‘lamida yaqin-qarindosh, urug‘chilik aloqalariga ega bo‘lgan ko‘p millatli aholi yashaydi. Hamdo‘stlik doirasida chegaralarning ochiqligini, aholining bir joydan ikkinchi joyga borishi va axborot uzatish erkinligini saqlab qolish, respublikalarda fuqarolar, hamda millatlararo totuvlikni ta‘minlash sharti, ijtimoiy - siyosiy barqarorlikning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Bu siyosatning muhim tomoni shundaki, ijtimoiy - siyosiy

⁴ И.А. Каримов "Ўзбекистон XXI аср бугағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққийёт кағолатлари". Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1997.

barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikni qaror toptirish, ayni paytda mamlakatlararo munosabatlarni ham barqaror rivojlanishning kafolati bo'lish bilan birga MDH davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaga rahna soluvchi har qanday to'siqlar olib tashlanishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, hali MDH mamlakatlarining hamkorlik masalalaridagi yo'li aniq bo'lmasdan ancha ilgari, ya'ni O'zbekiston mustaqilligining birinchi kunlaridanoq MDH davlatlari uchun o'ta foydali bo'lgan integratsiyali holatni egallagan hamda uni o'zining tashqi siyosati asoslarida bayon qilgan edi.

Mana Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzilganiga 13 yildan oshdi. Bu tuzilma qabul qilgan qarorlar va shartnomalar hammasi qog'ozlarda qolib ketmoqda. 2001 yilning 30 noyabrida MDH davlatlari rahbarlarining Hamdo'stlik tuzilganining 10 yilligi munosabati bilan Moskvada uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda o'tgan o'n yil tahlil qilindi. Haqiqatan ham MDH o'z oldiga qo'ygan shartnomalarni bajarmagani, ba'zi mustaqil davlatlarning ikki tomonlama aloqalar qilayotganligi ta'qidlandi. Keyingi yillarda Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi aloqalari rivojlanish o'rniga siyosiy uzoqlashuv jarayoni kuchaygani, jumladan, Gruziya hukumati bilan Rossiya hukumati o'rtasida ya'ni Rossiya hukumati Gruziyaning chechen jangarilariga yordam berganligi to'g'risida aybladi. Yoki Rossiya passajir samolyoti TU - 154 ning Ukraina harbiylari urib tushirganligi ham Ukraina va Rossiya o'rtasidagi nizolarga sabab bo'ldi. Moldova va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar ham keyingi yillarda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning sovuqlashtirishga olib keldi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, MDH davlatlari o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa integratsiya kutilgan natijalarni bermadi.

Quyida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi mamlakatlar orasida O'zbekistonning tutgan mavqeiga to'xtalamiz:

2-jadval

	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida					
	Tutgan o'rimi			Ulushi		
	1991	2002	2003	1991	2002	2003
Aholisi	3	3	3	7,3	8,8	9,1
Yalpi ichki mahsulot	5	3	3	4,5	6,3	6,5
Neft	6	4	4	0,5	1,8	2,1
Gaz	3	2	3	5,2	8,0	8,6
Oltin	2	2	2	28,0	33,0	34,0
Elektr quvvati	4	4	4	3,4	3,8	3,9
Engil avtomashinalar	-	2	2	-	3,1	3,4
Mineral o'g'itlar	4	4	4	6,0	4,6	4,7
Tsement	4	3	3	5,0	7,2	7,3
Gazlamalar	3	2	2	5,6	12,8	13,1
G'alla	6	5	4	1,2	3,7	4,2
Paxta	1	1	1	60,2	72,0	7,2
Qoramol	5	3	3	4,6	9,3	9,4
Qo'y va echkilar	3	3	3	7,2	16,0	17,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston MDH davlatlari ichida aholasi jihatdan uchinchi o'rinda tursada, ba'zi ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'rinlarni egallaydi. Agar, MDH mamlakatlari imzolangan hujjatlarni to'liq amalga oshirishganda edi, bu ko'rsatkichlar yanada yuqori bo'lishi mumkin bo'lardi.

MDH mamlakatlari bilan MDH doirasida iqtisodiy munosabatlar sust bo'lsada, undagi davlatlar bilan ikki tomonlama aloqalar rivojlanib bormoqda. Masalan: O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga mustaqillikning dastlabki yillaridan alohida e'tibor bergan bo'lsa, bu aloqalar hozirgi kunda ham rivojlanib bormoqda. Bunga ikki sabab borligini ta'kidlashimiz mumkin. Birinchisi, bu inson manfaatlari bo'lsa, ikkinchisi, iqtisodiy hamkorlikdir. Ma'lumki, O'zbekistonda rus tilida so'zlashuvchi millat vakillari anchagina, shuning uchun aholining ko'pchiligi Rossiya bilan do'stlik va hamkorlikning saqlanib qolishi tarafdori. Insonning ruhiy va manaviy ehtiyojiga aylanib qolgan do'stlik va hamkorlikni saqlab qolishdan Rossiya ham O'zbekiston ham bir xil manfaatdordirlar. Masalaning ikkinchi tomoniga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirish uchun Rossiyadan mamlakatimizga hayotiy muhim resurslar - metall, yog'och, taxta, transport vositalari, texnologiya uskunlari va boshqa mollar yetkazib berilishi ahamiyatga egabo'lsa, ayni vaqtda O'zbekiston Rossiyagapaxtatolasi, kunjara, ipak, meva- sabzavot va boshqa mahsulotlar yetkazib berayotgan respublikadir. Har ikkala davlat rahbarlari ham ana shu muhim ikki tomonni e'tirof etgan holda har tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga ahamiyat berib kelmoqdalar.

Bunday aloqalar 1991 yilning 26 oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning rasmiy davlat tashrifi bilan Moskvaga borganida boshlangan edi. Bu tashrifda ikki davlat rahbarlari davlatlari o'rtasida o'zaro bir-birini hurmat qilish, tashqi siyosatda va iqtisodiy masalalarda hamkorlik qilishga kelishib olgan edilar.

1992 yil 30 mayda I.A.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasining ikkinchi bor Rossiyaga davlat tashrifi paytida ikki mamlakat o'rtasida qator masalalar jumladan, do'stlik, hamkorlikni rivojlantirishga huquqiy asos solindi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar yo'lga quyilib, elchixonalar ochildi.

Ikki davlat rahbarlarining bir necha marta tashriflari natijasida madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm, harbiy sohalarida aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilishi natijasida savdo - sotiq, kommunikatsiya, fan - texnika va iqtisodiy integratsiya ham kengayib bormoqda.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan savdo oborotida Rossiya yetakchi o'rinni egallaydi. 1997 yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo oboroti 1 milliard 600 million AQSH dollarini tashkil etib, qo'shma korxonalar soni 260 dan oshgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000 yilning o'zida O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 17 foizga o'sib, O'zbekistondan Rossiyaga eksport qilish 545 million dollarga, Rossiyadan O'zbekistonga import qilish esa 464 million dollarga teng bo'ldi.

1998 yil 13 oktabrda Toshkentda Rossiya va O'zbekistonning 1998-2007 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorligi to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra IL-76samolyotlarini ishlab chiqarish, IL-78 samolyotlarining ekspluatatsiyasi

va modifikatsiyalash sohasida hamkorlik qilinadi. Bu bilan V.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya birlashmasining yanada kengaytirilish imkoniyatlari ochildi.

2001 yil 4 may kuni Moskvada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida asosiy etibor O'zbekiston va Rossiyaning savdo-iqtisodiy hamkorligiga, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm hamda qurol va giyohvand moddalar tarqatilishiga qarshi birgalikda kurashishga qaratildi.

Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi mol ayirboshlashning umumiy hajmi to'g'risida to'xtalar ekan, Rossiya Prezidenti V.Putin shunday deydi: - "Bu ko'rsatkichlar qudratli Rossiya davlati va yuksak darajada rivojlanayotgan, taraqqiyot ishonch bilan qadam tashlayotgan O'zbekiston uchun yetarli emas. Agar bor imkoniyatdan to'liq foydalanarsak, bu ko'rsatkichni ikki milliardga yetkazish mumkin. Bu har ikki tomon uchun ham unchalik og'irlik tug'dirmaydi. Buning uchun zarur shart-sharoitlar mavjud".

Keyingi yillarda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi aloqalar yanada rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha asosiy o'rinni Rossiya egallaydi. O'zbekistonda 520 ta Rossiya federatsiyasining firma va kompaniyalari ro'yxatdan o'tkazilgan. Rossiyada esa O'zbekistonning 250 ga yaqin qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2004 yil 16 iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitm imzolandi. Uchrashuv davomida O'zbekiston Respublikasi bilan "Lukoil" neft kompaniyasi, OAJ hamda "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi bilan "Gazprom" ochiq aksiyadorlik jamiyati o'rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi. Bu hujjat Rossiya tomonidan O'zbekiston yoqilg'i - energetikasi sohasiga qariyb 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi 2003 yil 1 mlrd 149 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston nafaqat Rossiya bilan iqtisodiy - madaniy aloqalar qilmoqda undan tashqari Belorussiya, Moldava, Ukraina, Gruziya va Boltiq bo'y davlatlari bilan ham ikki tomonlama aloqalar o'rnatgan. Masalan: Belorussiya davlati rahbari S.Shushkeivichning 1991 yil 6 noyabrda O'zbekistonga rasmiy tashrifi natijasida ikki davlat o'rtasida iqtisodiy aloqalar boshlanib ketgan edi. 1994 yil 21-22 dekabrda Belorus Prezidenti A.Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy tashrifi, O'zbekiston va Belorus o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishning yangi bosqichi bo'ldi.

Ukraina davlati bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarga O'zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1992 yil avgust oyidagi Kievga bo'lgan rasmiy tashrifi asos soldi. Bunda ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.

1994 yil 10 - 11 noyabrdagi Islom Karimovning Ukrainaga tashrifi, 1998 yil 20 - 21 iyunda Ukraina Prezidenti Leonid Kuchmaning O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning yanada kengayishiga asos bo'ldi. Jumladan, Ukraina va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida daromad va mulkdan ikki tomonlama soliq olmaslik, qo'shma korxonalar, aksiyadorlar jamiyatlarini barpo etish, erkin savdo - sotiq tartibini o'rnatish, samolyotsozlik sohasida hamkorlik qilish to'g'risida kelishib olindi. So'nggi yillarda Ukraina engil sanoatiga O'zbekiston paxta tolasi, og'ir sanoatiga O'zbekiston rangli metallar yetkazib berish, O'zbekistonning neft va gaz konlari

uchun Ukrainadan uskunlar keltirish yildan - yilga rivojlanib bormoqda.

Ikki davlat rahbarlarining uchrashuvlarida neftni qayta ishlash, kommunikatsiya, fan - texnika, sanoat, savdo va boshqa sohalarda 70 dan ortiq hujjatlar imzolandi. O'zaro savdo hajmi 1992 yilda 20 million AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 400 million AQSH dollariga yaqinlashib qoldi. Hozirgi kunda 20 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

1995 yil 30 - 31 mart kunlari O'zbekiston Respublikasining davlat delegatsiyasi Islom Karimov boshchiligidagi Moldova Respublikasiga rasmiy tashrif buyurdi. Bu ikki davlat o'rtasidagi erkin savdo munosabatlarini rivojlantirish, fan - texnika, madaniyat va san'at, pochta xizmati, aloqa, bank sohasida ikki tomonlama soliqlar olmaslik to'g'risida shartnomalar imzolandi. O'tgan davr ichida Moldova O'zbekistonga shakar, dori - darmon, qishloq xo'jalik texnikasi, elektrotexnika asbob uskunlar, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan nasoslar yetkazib bermoqda. O'zbekiston o'z navbatida Moldova sanoatini paxta, kimyoviy tolalar va qattiq metallar bilan ta'minlayapti.

1995 yil Gruzija davlat rahbari Eduard Shevmedzening O'zbekistonga rasmiy tashrifidan boshlab ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik yo'lga qo'yildi. Fan - texnika, bank sohasi, qishloq xo'jalik, xalqaro taransport aloqalari, erkin savdo, maorif, madaniyat, sport, sayyohlik, atrof - muhitni muhofaza qilish to'g'risida hujjatlar imzolandi.

1996 yil may oyida esa, Islom Karimovning Gruzijaga davlat tashrifi bo'ldi, bunda Trans-Kavkaz yo'li, uning Gruzijadan o'tishi, Gruzijaning Poti bandargohidan O'zbekiston yuklarini tashish imkoniyatlari to'g'risida va ikki davlat o'rtasida hamkorlikni yanada kengaytirishga kelishib olindi.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon - ikki turkiy tilli mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar uzoq tarixga ega. Ana shu tarixiy aloqalarning qaytadan yo'lga qo'yilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil 27 may kuni rasmiy davlat tashrifi bilan Ozarbayjonda bo'lishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ikki davlat rahbarlari o'rtasida bir qator rasmiy hujjatlar imzolandi. Bu imzolangan hujjatlar orasida do'stlik va hamkorlik shartnomasi, ikki davlat o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish, savdo, iqtisodiy, soliq, bojxona, havo yo'llari, avtomobil va temir yo'l aloqalarini mustahkamlash to'g'risidagi hujjatlar imzolandi. Ikki davlat rahbarlari xalqaro Trans - Kavkaz yo'lini barpo etish, uni Ozarbayjondan o'tadigan qismini shakllantirish, O'zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa mamlakatlariga chiqarish, Ozarbayjon bandargohlarini ta'mirlash masalalari to'g'risida kelishib olishdi.

Kavkaz orti mamlakatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalarining davomi sifatida Prezidentimiz Islom Karimov 1998 yil 8 sentyabrda Ozarbayjon poytaxti Bokuda "Buyuk ipak yo'li"ni tiklashga bag'ishlangan Yevropa - Kavkaz - Osiyo (TRASEKA) transport tarmog'ini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro anjumanda so'zlagan nutqi bo'ldi. Bu yo'lning ahamiyatiga to'xtalib: Jahon davlatlari Hamjihatini iqtisodiy integratsiyalashuvida TRASEKA - ning ahamiyati katta ekanligini takidladi.

Agar O'zbekistonning Trans- Kavkaz yo'lidan olib o'tilgan eksport- import yuklari hajmi 1996 yildan 140 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2002 yilda 350ming tonnadan oshib ketdi.

Bu yo'lni ochilishi O'zbekiston iqtisodiyotiga ancha foyda keltirdi. O'zbekiston o'z paxtasini Qozog'iston va Rossiya orqali Ukraina va Bo'ltiq bo'yi bandargohlarga yetkazish uchun har bir tonnasiga 100 dollrdan mablag' sarflasa ,bu TRASEKA yo'nalashida 55 dollar sarflaydi . Yo'lning uzunligi ham 2 ming kilometr qisqaradi va to'xtamay boradi. Faqat paxta tashish uchun sarflanadigan xarajatdan 12 million AQSH dollarini tejab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xullas bu yo'lni ishga tushishi O'zbekiston uchun muhim savdo - iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ldi

Quyida biz O'zbekistonning MDX davlatlari bo'yicha eksport va import tarkibini (1996 yilida 2002 yilgacha, hosobida).

3-jadval.

Davlatlar	Eksport hajmi		Import hajmi	
	1996	2002	1996	2002
MDH	22,9	30,4	32,1	26,0
Rossiya	11,6	13,4	21,0	13,9
Ukraina	0,8	3,8	3,5	4,2
Qozog'iston	2,6	4,6	4,7	2,7
Tojikiston	1,5	3,7	0,5	1,0
Turkmaniston	3,8	2,4	0,4	0,3
Boshqalar	2,6	2,6	2,0	2,6

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida yuk va yo'lovchilar tashish indeksi. 2002 yili 1991 yilga nisbatan (1991 yil-100 foiz).

4-jadval.

Yuk tashish bo'yicha		Yo'lovchi tashish bo'yicha	
O'zbekiston	102	O'zbekiston	103
Qozog'iston	35	Rossiya	92
Ozarbayjon	28	Belorussiya	80
Rossiya	21	Ozarbayjon	71
Belorussiya	20	Qirg'iziston	63
Gruziya	17	Ukraina	58
Ukraina	17	Moldaviya	55
Qirg'iziston	8	Gruziya	42
Tojikiston	6	Qozog'iston	31
Moldaviya	6	Armaniston	30
Armaniston	4	Tojikiston	25
MDH bo'yicha	24	MDH bo'yicha	75

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda MDX davlatlari ko'p tomonlama hamkorlik ancha susaydi. Shuning uchun matbuot sahifalarida uning kelajagi haqida ko'plab tashvishli fikrlar aytilmoqda. Buning isboti sifatida 2005 yil 14 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning "Nezavisimaya gazeta" si saqifasida chop ettirilgan "Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb

qisoblashar edi" intervyusini (gazeta muhbiri savollarga javobini) keltirish mumkin.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "bugungi kunda MDH rasman mavjud moqiyatan qaraganda, unig istiqboli ham yo'q emas. Biroq bu savolga Ukraina, Moldava, Gruziya va ayrim boshqa mamlakatlardagi vaziyat oydinlashgandan so'nggina aniqroq javob berish mumkin"

11.2.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIDAGI O'RNI

1996 yilda Shanxayda, 1997 yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risidagi shartnomalar imzolandi. Shu tariqa "Shanxay forumi"yoki "Shanxay beshligi" Tashkiloti tuzildi.

2001 yil 14-15 iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov qatnashdi va O'zbekistonning "Shanxay forumi" ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi.

O'zbekiston Prezidentining taklifi bilan "Shanxay forumi" nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti SHXT deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilardan biri bo'ldi.

2001 yil iyunda bo'lgan sammit yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risida deklaratsiya hamda terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi Shanxay konvensiyasi imzolandi.

Deklaratsiyada Shanxay hamkorlik tashkilotining maqsadi a'zo mamlakatlarning bir-biriga o'zaro ishonchi, do'stlik va qo'shmachilikni mustahkamlash, ular orasida siyosiy, savdo - iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalardagi hamkorlikni rag'batlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan.

SHXT doirasida a'zo mamlakatlar Tashqi ishlar vazirliklarining kengashi, Mudofaa vazirliklarining kengashi tuzilgan va faoliyat yuritmoqda. Davlat va hukumat, tashqi ishlar va mudofaa vazirliklari, huquq - tartibot, xavfsizlik organlari rahbarlari va eksporrtlarining uchrashuvlari va maslaxatlashuvlari muntazam o'tkazilmoqda. Hamkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, tegishli organlarning bahamjihat harakatni ta'minlash maqsadida a'zo davlatlarning milliy muvofaqlashtiruvchi kengashi (MMK) tashkil etildi. MMK 2004 yilning iyun oyida Tashqi ishlar vazirligi imzolagan Nizom asosida faoliyat yuritmoqda.

2002 yil 6-7 iyun kunlari SHXT ga a'zo mamlakatlar davlat boshliqlarining Sank-Peterburg shahrida navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida SHXT ga a'zo davlatlar rahbarlarining Dekloratsiyasi, tashkilotning ta'sis hujjati-SHXT xartiyasi, SHXT ga a'zo davlatlar o'rtasida Mintaqaviy -aksilterror tuzilmasi haqidagi bitim imzolandi. 2003 yil 29 may kuni Moskvada bo'lib o'tgan sammitda SHXT ning doimiy amal qiluvchi idoralari-Pekinda kotibiyat va Toshkentda Mintaqaviy aksilterror- tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasini ishga tushirishga qaror qildi. Bu tashkilotlar 2004 yil yanvardan boshlab ish boshladilar.

2003 yil sentyabrda Pekinda SHXT davlatlar hukumat boshliqlari (Bosh vazirlar) kengashi bo'lib o'tdi. uning qarori bilan ko'p tomonlama hamkorlikning

uzoq muddatli dasturi ishlab chiqildi va imzolandi. SHXT doirasida a'zo mamlakatlarning Tashqi Ishlar Vazirliklari, Iqtisodiy va Savdo vazirliklari, Xavfsizlik kengashlari o'rtasida muntazam aloqalar yo'lga qo'yildi.

2004 yil 17 iyun kuni Toshkentda SHXT ga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala-Xavfsizlik va sovd-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitda 2004 yil mart oyida O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakat nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoda terroristik harakat kuchayib, yadroviy, ximiyaviy, biologik, elektror terorchilik xavfi paydo bo'lganligi, terrorchilarning bazalarini yo'qotish, odamlarning ongini zaharlaydigan, terorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi. Shu boisdan Toshkentda tashkil etilgan MATT zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarining hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terorchilikning oldini olish vazifasi yuklatilgan.

SHXT ning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Sammitda SHXT ga a'zo mamlakatlarni havfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir, deb ta'kidlandi. Sammitda iqtisodiy hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini rag'batlantirishga kelishib olindi.

transport infratuzilmasini rivojlantirish;

tabiiy mineral xom-ashyo zahiralarini o'zlashtirish;

suv-energetika zahiralaridan unumli foydalanish;

ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish;

fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohalarida integratsiyalashish,

investitsiyalar xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevor yaratish;

Xitoy Xalq Respublikasi raisi Xu Szin hukumati SHXT doirasidagi iqtimodiy munosabatlarni rivojlantirishga 900 mln. AQSH dollari miqdorida kredit ajratishini ma'lum qildi.

Sammit yakunida Toshkent deklaratsiyasi SHXT ning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvetsiya, narkotik vositalar va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risida bitim imzolandi.

SHXT qarbiy blok yoki yopiq emas, boshqa mamlakat yo davlatlar guruqiga qarshi qo'yilmagan SHXT boshqa tashkilotlar va mamlakatlar bilan o'zaro manfaatdorlik asosida, xalqaro huquq me'yorlariga mos holda, keng ko'lamli hamkorlik qilishi, yangi a'zolar hisobiga safini kengaytirish mumkin. Ya'ni, u xalqaro munosabatlar tizimida demokratiya o'zaro qurmat va ishonch tamoyillariga asoslangan holda ish yuritadi.

SHXT mintaqasini, strategik nuqtai nazardan xavfsizlik zonasi va iqtisodiy integratsiya rivoji uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lgan makon deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, SHXT ning shakllanish davri nihoyasiga etdi, hamkorlikning yangi davri boshlandi. SHXT ning Toshkent kelishuvlari xavfsizlikning mustakamlanishiga, iqtisodiyotning yuksalishi va xalq farovonligining oshishiga katta umid uyg'otdi.

11.3. MARKAZIY OSIYODAGI DEMOKRATIK JARAYONLAR VA DAVLATLARARO HAMKORLIK

Mustaqil Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, qardoshlik munosabatlarini mustahkamlash, ular bilan qalin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish O'zbekiston tashqi siyosatining g'oyat muhim ustivor yo'nalishi hisoblanadi. Bu, bir tomondan, azaliy qon-qardosh bo'lgan an'analari, turmush tarzlari va urf-odatlari bir bo'lgan xalqlarni yaqinlashtirish asosida ulkan hududda iqtisodiy barqarorlikni vujudga keltirib, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, turli ig'vogarliklar avj olayotgan bir paytda mazkur xalqlar bir-birini to'g'ri tushunib, og'ayni bo'lib, eng og'ir paytlarda bir-biriga suyanib turishini ko'zda tutadi. Ikkinchidan, qiyin sharoitlarda iqtisodiy barqarorlikni saqlab turish va xalq turmush darajasini ko'tarishda mintaqaviy imkoniyatlardan ko'proq foydalanish zaminini yaratadi.

Mazkur respublikalarning iqtisodiyoti o'zaro chambarchas bog'langan va bir-birlariga ta'sir o'tkazib turgan bo'lib, bab-barobar mushkul ahvolda qolgan xo'jalik aloqalarini saqlab qolish va mustahkamlash zarurligi yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmoqlaridan, suv va gaz ta'minoti tizimidan birgalikda foydalanish shart-sharoitidan ham kelib chiqadi. Mineral xom-ashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash sohasida tarkib topgan ichki mintaqaviy kooperatsiya ham shuni taqozo etadi.

Orol buyidagi ekologiya falokati oqibatlarini bartaraf etish Orol Dengizini qutqarish buyicha birgalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mintaqalararo hamkorlik doirasida alohida ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlarining samarali hamkorligi chegaradosh mamlakatlar, avvalo musulmon Sharq mamlakatalari bilan qo'shma loyihalarni birmuncha muvaffaqiyatli ravishda ro'yobga chiqarishga ham ko'maklashadi. Xullas, Markaziy Osiyo Hamdo'stligi hayot haqiqat taraqqiyot zaruratini mintaq xalqlarining ruhiy, manaviy va ijtimoiy ehtiyojidan kelib chiqqan obyektiv zaruriyatidir. Jahon davlatchilik tarixi turli xildagi hamkorliklar; iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy hamjihatlik mintaqalarini vujudga keltirishga guvoh bo'lmoqda. Eng taraqqiy etgan davlatlarda ham ana shunday hamkorlik mintaqalarini tashkil etishga ehtiyoj sezilmoqda. Yevropa Hamdo'stligi, Arab davlatlarida Mavrit uyushmasi deb ataladigan OPEK neft ishlab chiqaradigan davlatlar hamkorligi faoliyat ko'rsatmoqda.

Bunday hamkorlikning boshqa turlari Afrika va Lotin Amerikasida ham bor. Hozirgi zamon jahon taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hech bir mamlakat yakka o'zi, hech qaysi mamlakat bilan hamkorlik qilmasdan rivojlana olmaydi. O'z xalqi ehtiyojini har tomonlama qondirish imkoniyatiga ega bo'lolmaydi. Mabodo o'zini-o'zi ta'minlab, o'z ehtiyojlarini o'zi qondirgan taqdirda ham, hozirgi zamon siyosati bunday o'ziga "ishonuvchan" likni man-manlik, ibtidoiy, asabiy va zo'rma-zo'raki ravnaq deb ta'riflaydi.

Qaysidir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan hisob-kitob qilishi, qaysidir qo'shni davlat bilan umumiy bozorni vujudga keltirishi, mahsulot ayirboshlashi, qolaversa, bir qator xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib, uning doirasida faoliyat ko'rsatishi tabiiydir. Ana shunday yo'ldan bormagan davlatlar ham mavjud. Jumladan, Samoli, Sudan, Zamiya va boshqa mamlakatlarda faqat o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib ish tutish ayanchli oqibatlariga olib keldi. Bu mamlakatlarda urug'-aymog'chilik, toju-taxt uchun

kurash ommaning kambag'allashib, qashshoqlikda yashashiga, mamlakat boshqaruvining izdan chiqib ketishiga olib keldi. Hokimiyat tepasiga kelgan yangidan-yangi hukmdorlar milliy boylikni talon-taroj qilishdi, mamlakat qarzga botdi. Qadimiy Turon hududidagi besh mamlakatning o'zaro ittifoqini vujudga keltirishi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyot yo'lidir. Milliy ravnaq, tinch-totuv yashash, o'zligini namoyon qilish siyosatidir!

1993 yilning yanvarida Prezident I. Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Unda Hamdo'stlikning maqsad va mohiyati aniq-ravshan ko'rsatib berildi. Ya'ni, mustaqil davlatlar suvereniteti daxlsizdir. Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan mamlakatlar xalqaro huquq normalariga to'la amal qilgan holda davlat tizimiga, boshqaruv usuliga va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlat Konstitutsiyasini hurmat qilish va tan olish, faqat iqtisodiy va madaniy hamkorlikni vujudga keltirish, yagona bozor, mol ayirboshlash imkoniyatlarini kengaytirish, bojxona va chegaralardagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy hamkorligi ijobiy natijalar bermoqda. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu hamkorlik doirasida yirik xalqaro kontsortsiumlar tuzish, qimmatli qog'ozlar bozorini barpo etish hamda butun mintaqa iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan boshqa dasturlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berishmoqda.

2004 yil may oyida Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga Rossiya a'zo bo'lib kirdi va uning nomi Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligi deb atala boshlandi. Buyuk ajdodlarimiz, xalq dostonlari, Sharq durdonalari bo'lmish qadimiy shaharlarimiz, yubileylarini birgalikda o'tkazish ham yaxshi an'anaga aylanib qolgan. Bunday madaniy anjumanlarni tashkil etish va utkazish tarixiy ildizi bir, tili va madaniyati yaqin xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga, ularning manaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, bu sanalarning har biri xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiriga, madaniy muloqotga, o'zaro ahillik va bir-birini anglashga ko'maklashadi.

1999-2001 yillarda 35 marotabadan ortiqroq davlat rahbarlarining ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlari bo'lib o'tdi va mamlakatlar o'rtasidagi muammolar o'z yechimini topdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan uyushtirilgan 2001 yil 28 dekabr Toshkent sammiti alohida ahamiyat kasb etdi. Uchrashuvda ta'kidlanganidek, o'tgan 10 yil ichida amalga oshirilgan ishlar tufayligina bugungi kunda mintaqamiz davlatlari xalqaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tizimining faol ishtirokchilariga aylandilar.

2001 yilgi sammit avvalgilaridan shunisi bilan farq qiladiki, u dunyoda tub o'zgarishlar ro'y berayotgan paytda o'tdi. Bugungi shart-sharoit har tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan Islom Karimov Markaziy Osiyo iqtisodiy masalalar bilan cheklanmay, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni hamma jahada kengaytirish vazifasi qo'yildi. Ushbu taklif bir ovozdan qabul qilindi. Islom Karimov o'zaro iqtisodiy hamkorlik yanada ravnaq topishi uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida Toshkentda Markaziy Osiyo ishbilarmonlarining anjumanini o'tkazishni taklif qildi.

Ishlab chiqarish kooperatsiyasi, xo'jaliklararo bevosita sheriklik, transport kommunikatsiyalari, suv-energetika zahiralariidan foydalanish, atrof muhit, tabiiy ofatlarning oldini olishga oid masalalar muhokama etildi. Muzokaralarda tomonlarning Afg'onistonlagi voqealarga munosabati bir xil ekanligi ta'kidlandi. Bugungi kunda Sobiq Ittifoq o'rnida vujudga kelgan mustaqil davlatlar o'rtasida qaror topayotgan munosabatlar mutloqo yangicha mazmun kasb etmoqda. Yangi mustaqil davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar o'zaro manfaatdorlik va teng huquqlilik asosida qurilmoqda.

Sir emaski, Hamdo'stlik doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlik Ittifoq parchalanib ketgandan so'nggi iqtisodiy inqirozdan chiqish yo'lida kutilgan natijalarni bermayotir. Imzolangan hujjatlarning aksariyati qog'ozda qolib ketayotgani Hamdo'stlikka a'zo davlatlar o'rtasida, bu Markaziy Osiyo davlatlariga ham taalluqli, ko'p tomonlama aloqalar bilan birgalikda ikki tomonlama aloqalarni ham kengaytirishni taqozo etmoqda. Endi mustaqil davlatlarga Sobiq Markaz manfaatlarinigina ko'zlagan g'ayriixtiyoriy hamkorlik emas, aksinrcha, har bir xalq va mamlakat manfaatlariga mos keladigan, farovonligiga xizmat qiladigan iqtisodiy integratsiya zarur. Bunday integratsiya Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishni ham nazarda tutadi.

Hamkorlik to'g'risida gap ketganda Markaziy Osiyodagi har bir mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari nihoyatda keng ekanini aytib o'tish joiz. U qo'shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari tuzish, birgalikda ilm talab texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, tog'-konchilik, mashinasozlik, engil sanoat, gaz va neft konlarini qidirib topish hamda ishga tushirish kabi o'nlab istiqbolli sohalarni qamrab oladi. Bu savolga yanada oydinlik kiritish maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik munosabatlariga to'xtaylik.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari davlat rahbarlarining Toshkent bayonoti imzolandi.

Hozirgi kunda Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ulkan boyliklarga ega bo'lgan ikki mustaqil davlat siyosiy, iqtisodiy manaviy va insoniy salohiyatlarini tag'in ham jipsroq birlashtirish yo'lidan bormoqda.

Bunga bizni faqat jug'rofiy yaqinlik tarixiy etnik, til, madaniyat, diniy mushtarakligigina emas, shu bilan birga faqat birgalashib, mustahkam hamkorlikda hal qilish mumkin bo'lgan umumiy iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik muammolarning ko'pligi ham undamoqda.

1993 yilning iyul oyida Qozog'iston bilan O'zbekiston o'rtasida 1994-2000 yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi bitim imzolandi. 1998 yil 2 noyabrida bu shartnoma 1998-2005 yilgacha uzaytirildi. 1994 yilning yanvarida yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. 1998 yil 2 noyabrda imzolangan Abadiy do'stlik haqidagi shartnoma yangi yuz yillikda ham mamlakatlararo ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish uchun mustahkam zamin sifatida xizmat qiladi.

Ilm-fan sohasidagi hamkorlik ham kengayib bormoqda. Xususan, hozirgi paytda ilm-fan va texnologiyalarning 16 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 107 loyihadan iborat qo'shma ilmiy-texnika dasturi ishlab chiqilib ularning ko'pchiligi bo'yicha birgalikda ish boshlab yuborildi.

1994 yilda yangi texnologiyalar bo'yicha O'zbekiston-Qozog'iston Markazini barpo etish to'g'risida ahdomaga kelishildi.

Tenglik asosida axborot materiallari almashtirishd, bazalar va ma'lumot banklarini ayirbosh qilish to'g'risida takliflar qabul qilindi. 1998-1999 yillarga mo'ljallangan bitim qabul qilindi. Bu bitim chinakam yagona ilmiy-texnikaviy axborot hududini vujudga keltirishga imkon beradi.

Patentga doir ma'lumotlarni ayirbosh qilish to'g'risida Qozog'iston Respublikasi Milliy patent mahkamasi bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat patent mahkamasi o'rtasida bitim tuzildi.

Xalq xo'jaligining barcha sohaslarida hamkorlik qilish bo'yicha boshqa bir qator loyihalar ham bor. Xullas har ikkala davlat integratsiya yo'nalishini belgilab olgan. Bu xalqlarimiz farovonligi, respublikamiz iqtisodiy salohiyatining yuksalishiga kuchli turtki bo'ladi. Har bir davlatda va butun bir mintaqada iqtisodiy vaziyatning sog'lomlashishiga ko'mak beradi. Respublikalarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalar ham an'anaviydir. Chuqon Valixonov, Abay Jambul, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Anvar Olimjonov, O'lmas Sulaymonovning o'zbek va Qoraqalpoq tillariga tarjima qilingan asarlari kutubxonalarimizda o'zbek yozuvchilari asarlari bilan doimo yonma-yon turadi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda 1 milliondan ortiq qozoq, Qoraqalpog'istonda esa yarim milliondan oshiq o'zbek istiqomat qiladi.

Bizda 605 qozoq maktab va litseylar bor. Ularda 15 ming bola o'qiydi. Hozir milliy madaniyatlarining qayta tug'ilyotgani hammamizga ma'lum. Toshkentda qozoq madaniyati markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Nukus va Navoiy pedagogika universiteti va institutlarida qozoq tilida tahsil olib borilayotgan bo'limlar bor. Ko'plab oliy o'quv yurtlari va kollejlarda kirish imtihonlari qozoq yoshlaridan ularning ona tilida olinishi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi huzurida qozoq adabiyoti kengashi muvaffaqiyatli ishlab turibdi.

Jizzax viloyat teatrida "Kuktem" Qozoq teatr studiyasi tashkil etilgan. Mana sakkiz yildirki, qozoq tilida "Nurli yol" respublika gazetasi nashr etilmoqda.

O'zbekistonda Qozog'iston kunlarini o'tkazish an'anaga aylangan, bu Turon zaminda o'z mustaqilligi yo'lidan dadil odimlayotgan ikki mamlakat o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga, integratsion jarayonlarni jadallashtirishga, qardosh o'zbek va qozoq xalqlarining do'stlik rishtalarini mustahkamlashga yaqindan xizmat qiladi.

Qardosh O'zbekiston bilan Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlari chuqurlashish yo'lidan bormoqda. Har ikki davlatlar o'rtasida Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma ratifikatsiya qilingan, 1998-2005 yillarda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi shartnoma imzolangan, yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilgan.

Qirg'iziston bilan avtomobilsozlik sohasida hamkorlik qilinishi xususan, "UZDEU avto" uchun bu qo'shni mamlakatda jamlovchi detallar tayyorlanishi diqqatga sazovordir. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Qirg'izistonga yiliga qariyb bir milliard kub metr gaz yetkazib bermoqda. Qirg'izistonning suv zahiralariidan foydalanish, xususan gidroenergetika sohasini rivojlantirish borasida ushbu mamlakatga yordam

ko'rsatilmogda. Qirg'izistonning o'zida ham, xorijda ham kam. O'zbekiston bu borada muayyan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ularga yordam ko'rsatmoqda.

Qirg'iz xalqi mustaqillikka erishganidan buyon iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, porloq va farovon kelajakni ta'minlash yo'lida mehnat qilar ekan, hamisha o'zbek xalqining manaviy madadi va amaliy ko'magini his qilib kelmoqda, - deydi sobiq Prezident Asqar Akaev. - Agar uch yil avval Qirg'iziston tashqi savdosida O'zbekiston uchinchi o'rinda turgan bo'lsa bugungi kunda u birinchi o'ringa chiqdi. Mamlakatimiz o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash hajmi 1998 yilda oldingi yillarga nisbatan 4 barobar oshdi va qariyb 200 million AQSH dollariga yetdi.

Shuningdek, O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari hukumatlari o'rtasida fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi shartnoma, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, valyuta va eksportni muvofiqlashtirish sohasida axborot almashish, foyda va daromaddan ikki yoqlama soliq olmaslik kabi jami 20 ga yaqin hujjat imzolangan.

Mutaxassislarning fikricha, 2002 yilda O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi o'zaro mahsulot ayirboshlash hajmi 100 million AQSH dollariga yetishi mo'ljallangan. Har ikkala davlat xalqaro terrorizm, narkobiznes, zo'ravonlik va ekstrimizm g'oyalari, noqonuniy qurol-yarog' savdosi kabi xavflarga qarshi kurash borasida hamkorlikni mustahkamlash hamda kuchlarni muvofiqlashtirishni yoqlab harakat qilmoqdalar.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish, o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish har ikki davlat manfaatlariga ham birdek mosdir. Eng asosiysi, bu sa'y-harakatlarning zahirida bitta jihat-ertangi kun mas'uliyatli, kelajak avlod oldidagi javobgarlik hisi yotadi. O'zaro aloqalarni mustahkamlash, mavjud muammolarni bahamjihat bartaraf etish davlatlarimiz ravnaqi uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

2004 yil 22 noyabrda Buxoro shahrida ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlashda sifat jihatdan yangi bosqichni ochib berdi. Ushbu uchrashuv chog'ida uchta muhim hujjatning imzolanishi do'stlik, ishonch va yaqin qo'shnichilik muqitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayrim juz'iy tafovutlarni bartaraf etishga imkon yaratadi.

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi aloqalar yuqori darajadagi uchrashuvlardan ancha keyinroq qaror topgan bo'lishiga qaramay O'zbekiston qardosh Tojikistonga har taraflama yordam ko'rsatib kelmoqda. 1998 yil 4 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taklifiga binoan Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonov O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki davlat rahbarlari qo'shma axborot imzoladilar. Shu vaqtgacha O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida 30 dan ortiq hujjatlar imzolandi. Ular o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1997 yili 50 million AQSH dollaridan oshdi, bu avvalgi yillarga nisbatan 50 foiz ko'pdir. O'zbekiston bilan Tojikiston davlatlari orasidagi hamkorlik rivojlanish pallasiga kirib bormoqda.

2002 yil 27 dekabrda Tojikiston Respublikasi Prezidenti ikki kunlik rasmiy tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. O'zbekiston va Tojikiston Respublikasi Prezidentlarining tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Suhbat chog'ida ikki mamlakat o'rtasida siyosiy, savdo-

iqtisodiy, gumanitar va boshqa boshqa sohalagi hamkorliklarni rivojlantirish hamda xalqaro mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashildi.

O'tgan muzokaralarda prezidentlarning ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya tuzish, yaqin vaqt ichida uning birinchi majlisini o'tkazish to'g'risidagi qarori ayni muddao bo'ldi. Shuningdek, transport kommunikatsiyasi, xususan, avtomobil, temir yo'l, havo aloqalarini yo'lga qo'yish, suv havzalari enegetikasi zahiralari va suv xo'jaligi qurilmalaridan birgalikda oqilona foydalanish zarurligi ta'kidlandi.

1995 yil noyabrda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi tashkil etildi. Uning oldiga qo'yilgan bosh maqsadi xalqlarimizni bobolarimizning boy tarixiy me'rosi bilan tanishtirish, qadimdan hamkoru hamfikir bo'lib kelgan xalqlarni yaqinlashtirish va shu asosda o'tish davrining murakkabliklarni engishga qaratilgan.

Yaqin o'tmishga nazar solaylik. Bir necha ming yilliklar mobaynida joni va qoni bir-biriga payvand bo'lgan Markaziy Osiy-qadimiydir. 2500-3000 yillar oldin qo'llanila boshlagan "Turon" atamasi yonida, u bilan birga, uning ma'nodoshlari sifatida-"Turk yurt", "Turk eli", "Turk budun", "Turkiston" atamalari yozma bitiklarda uchraydi. U turkiy xalqlarning jahoniy hamda ijtimoiy-etnik birligini ifodalovchi asosiy tushuncha va nom sifatida XX asrgacha yetib kelgan.

Turon xalqlari Sobiq SSSR davrida turli millatlarga ajratib tashlandi. Qog'ozda suveren, aslida esa, Markazga qaram sovet respublikalari barpo etildi. Bu soxta siyosat tufayli an'analari, turmush tarzlari, ruhiy va manaviy qadriyatlari bir bo'lgan xalqlar o'zbebu qozoqqa, tojigu qirg'izga, turkmanga bo'lib yuborildi.

Albatta, mazkur xalqlar o'tgan 70 yildan ko'proq vaqt mobaynida millat sifatida shakllandi. Endi ularni butunlay birlishtirib yuborish milliy qadriyatlarni toptash bilan barobar. Biroq, masalaning boshqa tomoni bor. Ya'ni, yagona Turkiston zaminida sobiq SSSR tarqalgach vujudga kelgan mustaqil davlatlar o'z tarixiy kelib chiqishlari, xalqlarining boy o'tmishi, ma'niviy va ruhiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan o'zaro yaqinlashishga hayotiy zarurat sezishlari tabiiy holdir.

Mustaqillik sharoitida bizning millat, millatlararo munosabatlar, milliy madaniyat, yaqin qardosh xalqlarning madaniy me'rosi, etnik muammolari, jug'rofiy va iqtisodiy birligi haqidagi tasavvurlarimiz o'zgarimoqda.

11.4. O'ZBEKISTONNING XALQARO TERRORIZM, EKSTRIMIZM VA SEPARATIZMGA QARSHI KURASHDA O'ZARO HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Mustaqilligimizga rahna solishi mumkin bo'lgan turli kuch va oqimlar mavjudligi bugun hammamizga ayon. Istiqolga erishgandan beri mamlakatimiz har-xil shakldagi turli tahdidlarni ham boshidan kechirdi. 1991 yil dekabrda Namanganda, 1999 yil 16 fevralda Toshkentda ro'y bergan fojiali voqealar, o'sha yili Yangiobodda, 2000-2001 yillarda Surxondaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlarida sarhadlarimizga qilingan tajovuz va xurujlar 2004 yil 28 mart-1 aprel kunlari Toshkent shahri, Buxoro viloyatida bo'lgan terrorchilik harakati misolida yaqqol namoyon bo'lishi, bu unchalik uzoq tarix emas. 1999 yil 16 fevral kuni Prezident I. Karimov: "Men ey odamzod, oghoh bo'linglar.

ogoh bo'linglar, ogoh bo'linglar, deb doim kuyib-yonib da'vat etaman. Bu gap ehtimol ba'zi birovlar uchun ortiqchaday tuyular. Lekin men ogohlik, ogoh bo'lish haqida gapirganimda bugungiga o'xshash voqealarni nazarda tutaman" degan edi.

Har qanday qudratli davlat o'z ichki muammolarini o'zi hal qila oladi. Lekin, umumbashariy muammolar qatoridagi narkobiznes o'zidan dahshatliroq boshqa umumbashariy illatlarini ham yetaklab kelmoqda. Bugungi kunda narkobiznesning xalqaro terrorchilik bilan bog'lanib ketgani hech kimga sir emas. Bu esa oilada, mahallada, butun jamiyatda hushyorlikni oshirishni talab qilmoqda. Keng ma'noda ana shunday illatlarni davlatlararo hamkorlik asosida bartaraf qilish zamon talabi bo'lib qoldi.

Davlatimiz rahbari umumiy xavfga qarshi kurashda tinchliksevar kuchlarni birlashtirish zarurligi haqida "Ekstrimizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilikka va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurash olib borilmas ekan, maqsadga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa, yakka-yolg'iz, tarqoq holda va noizchil usullar bilan kurash olib borish istiqbolsiz ekani tobora ravshanlashmoqda"2 deb qat'iy ta'kidlagan edi. Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining 1998 yil noyabr oyida Istambulda bo'lgan sammitida Prezidentimiz terrorchilikka qarshi davlatlararo miqyosdagi kurashni muvofiqlashtiruvchi xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifni ilgari surgan edi. Keyinchalik bu fikr qanchalik vaqtda aytilganiga butun dunyo ishonch hosil qildilar. Xalqaro terrorizm tahdidi tobora kuchayib bordi. O'zbekiston tashabbusi bilan terrorchilikka qarshi bir qator davlatlar uyusha boshladi.

2000 yil 20-21 aprel kunlari Toshkentda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatining davlatlararo kengashi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston rahbarlari mintaqaviy xavfsizlik va mamlakatlararo munosabatlarga doir masalalarni muhokama qildilar hamda "Terrorchilik, siyosiy va diniy ekstrimizm xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqa davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to'g'risida" gi shartnomani imzoladilar. Bu Markaziy Osiyodagi mavjud vaziyatdan kelib chiqqan muhim va oqilona qadam edi.

Endilikda terrorchilik, aqidaparastlik, narkobiznes kabi umumjamiyat uchun yot bo'lgan yaramas illatlarni va uning kirdikorlarini deyarli butun dunyo tushunib yetdi. 2000 yil 21 iyunda Moskvada bo'lib o'tgan MDH davlat rahbarlarining sammitida terrorchilikka qarshi kurash markazini tuzishga qaror qilindi.

2001 yil iyun oyi boshlarida Minsk shahrida bo'lib o'tgan MDH davlat rahbarlarining sammitida jinoyatchilik, ekstrimizm, terrorchilikning turli ko'rinishlariga qarshi birgalikda kurashish masalasi muhokama qilindi. 2001 yil 14-15 iyun kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida terrorchilik, ayirmachilik va ekstrimizmga qarshi kurash borasidagi "Shanxay konventsiyasi" imzolandi. Ayni paytda barcha chegara bilmaydigan bu muammolarni bartaraf qilish maqsadidajipslashmoqdalar.

2004 yil 17 iyun Toshkentda SHXT ga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo'ldi. Unda O'zbekistonda sodir bo'lgan terrorchilik harakatida nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni ildan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Unda terrorchilarning bazalarini yo'qotish, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi.

Ayniqsa, 2001 yil 11 sentyabr kuni xalqaro terroristik kuchlarning Nyu-York va Vashington shaharlarida sodir etgan mudhish xujumlaridan keyin dunyodagi yetakchi

davlatlar AQSH boshchiligida koalitsiya tuzib, bu yovuz dushmanga qarshi ayovsiz kurashga kirishdilar. O'zbekiston hukumati birinchilardan bo'lib AQSH da sodir etilgan terrorchilik harakatlarini qoraladi va AQSH boshchiligida tashkil etilgan koalitsiyani qo'llab-quvvatladi. Shu maqsadda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, terrorizm balosini tag-tomiri bilan qo'porib tashlash ishiga hissa qo'shish maqsadida o'z aerodromlaridan birini mazkur koalitsiya qurolli kuchlari ixtiyoriga berdi. Afg'onistondagi aksilterror ijrosining birinchi bosqichida "Tolibon" va "Al-qoida" kuchlariga zarba berildi. Aksilterror operatsiyasining keyingi bosqichi shubha ostiga olingan terrorchilarni qidirishdan iborat bo'ldi. Bunda ekstrimizm, terrorizmga qarshi kurash uchun xalqaro sammitlar va boshqa xalqaro kelishuvlarda ishtirok etgan davlatlar bir-birlariga o'zaro yordam qo'lini cho'zmoqda va u o'z natijalarini bermoqda.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston o'zining ahdida qat'iy turgan davlatlardan hisoblanadi. 2003 yilning mart oyida AQSH ning Iroqni qurolsizlantirish borasidagi faoliyatini O'zbekiston to'la qo'llab-quvvatladi. Chunki, Iroqdagi mavjud tuzum demokratik qadriyatlarini inkor etib, mintaqada xavfli siyosat yurgizayotgan edi. AQSH ning Iroqqa nisbatan tutgan siyosatining negizida, ozodlikni himoya qilish niyati, o'zini-o'zi himoya qilish chorasi turadi. Terrorizmning kuchayib borishi, kamikadze gunohlarining tayyorlanishi eng qudratli harbiy-sanoat majmuasiga ega davlatlarning ham xavfsizligiga rahna sola boshlagan edi. Terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlar yakdil fikr bildirgan bo'lsalar-da amaliy faoliyatda ayrim davlatlar qat'iyatsizlik qilgan bo'lsalar, ayrimlari ochiqdan-ochiq o'zining siyosiy manfaatlarini yo'lidagi tor maqsadlarni ko'zladilar. Holbuki, Iroqda olib borilayotgan urush aslida terrorizmni tag-tomiri bilan qo'porib tashlashga qaratilgan uzoq muddatli kompleks siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

MDH ning tashkil topishidan asosiy maqsad mustaqil davlatlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy, umuminsoniy aloqalarning uzilib qolishiga yo'l qo'ymaslik, bu davlatlar o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama iqtisodiy, madaniy va do'stlik aloqalarini o'rnatib, hamkorlik qilish edi. O'zbekiston o'zining tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi qilib, shu davlatlar bilan hamkorlik qilishni hisoblar edi. Hozirgi kunda ham O'zbekiston MDH a'zolari ichida eng faol a'zo bo'lib, tashqi faoliyat, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida imzolangan shartnomalarni bajarib kelmoqda.

O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan mintaqada xavfsizlikni ta'minlash, Osiyo qit'asida xavfsizlikni izdan chiqarishga qaratilgan terrorchilik harakatlarini oldini olishda, turli yo'nalishlarda iqtisodiy hamkorlikni olib borishda roli tobora ortib bormoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari darajasidagi integratsiya chuqurlashib bormoqda, Prezident I. Karimov asarlarida Markaziy Osiyo biz hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika obyektlarini birgalashib ishlatish energiya zahiralari bilan ta'minlash ehtiyoji taqozo etgan obyektiv zaruriyat deb hisoblaymiz, deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda terrorchilik, siyosiy va diniy ekstrimizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqa davlatlariga tahdid soladigan xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan siyosatini faol olib bormoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Shanxay hamkorlik tashkiloti qanday maqsadlarni ko'zlab tashkil etilgan. Unga qaysi davlatlar a'zo?

2. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi strategik sheriklik to'g'risida bitim imzolangan. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik qanday tamoyillarga asosan chuqurlashib bormoqda?

3. AQSH ni sinovli damlarda qo'llab-quvvatlagani uchun O'zbekiston Prezidenti I. Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan qanday mukofotga sazovor bo'ldi?

4. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Osiyo davlatlari bilan ikki va ko'p tomonlama o'ib borayotgan hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan, uning amaldagi natijalari qanday?

5. Markaziy Osiyo davlatlari (MDH) o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik, uning amaldagi natijalari qanday?

6. Jahon hamjamiyati va demokratik jarayonlar?

7. BMT va O'zbekiston Respublikasi?

8. O'zbekiston Respublikasi va Shanxay hamkorlik tashkiloti?

9. O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasi?

10. O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro terrorizm, ekstrimizm va separatizma qarshi kurashi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.

2. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Президент И. Каримовнинг БМТ нинг 1993 йил 28 сентябрда бўлиб ўтган 48-сессиясида сўзлаган нутқи. Т.8. -Т.: "Ўзбекистон", 1996.

3. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўлагасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6 -Т.: "Ўзбекистон", 1997.

4. Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. -Т.: "Ўзбекистон", 2002.

5. Каримов И. А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. -Т.: "Ўзбекистон", 2003.

6. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. -Т.: "Ўзбекистон", 2005.

7. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: "Ўзбекистон", 2005.

8. Эргашев И. ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Дарслик. -Т.: "Академия", 2005.

9. Ўзбекистон 13 йил мустақил тараққиёт йўлида -Т.: "Ўзбекистон", 2005.

10. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги

"Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номли маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.

11. Каримов И.А. "Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб ҳисоблашар эди". // "Халқ сўзи", 2005 йил 19 январ.

12. Каримов И.А. Бизнинг мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. // "Халқ сўзи", 2005 йил 26 январ.

13. Каримов И. А. Шанхай Ҳамкорлик Ташкилотига аъзо давлатлар раҳбарларининг саммитида сўзлаган нутқи. // "Халқ сўзи", 2002. 3 июн.

14. Каримов И. А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-қудратимизга, ҳалқимизнинг ҳамжиҳатлигига ва букилмас иродасига боғлиқ. // "Халқ сўзи", 2004. 30 апрел.

15. Каримов И. А. Соғлом халқ, соғлом миллатгина буюк ишларга қодир бўлади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 12 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. // "Халқ сузи", 2004. 8 декабр.

16. Каримов. И. А. Биз танлаган йўлимиздан ҳеч ким қайтара олмайди. // "Халқ сўзи" газетаси 2005 йил 17 май.

17. МДҲ: Иқтисодий интеграциянинг муқобили йўқ. // "Халқ сўзи", 2001. 4 декабр.

18. Ҳамфикрлик тараққиётга етаклайди. Марказий Осиё давлатлари ҳамда МДҲ нинг Алмати Саммити. // "Халқ сўзи", 2002 й. 2 март.

19. Ҳамкорликнинг янги босқичлар. // "Халқ сўзи" 2005 йил 30 май.

20. Ҳамкорлик - тараққиёт ва фаровонлик омили. // "Халқ сўзи" 2005 й. 30 май.

21. www.edu.uz

22. www.zuyo.edu.uz

23. www.ec.edu.uz

24. www.performance.edu.uz

25. www.gov.uz

26. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru

27. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru

28. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru
www.atiso.htm

29. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

XULOSA

Mustaqillik - tom ma'noda inson erki, ozodligi va xaq-huquqlari bilan bog'liq bo'lgan ulkan qadriyat. Shunday ekan, mustaqillikni demokratiya uchun shart-sharoit deb hisoblasak bo'ladi.

Ma'lumki, o'zida dunyo tajribasini mujassamlashtirgan jamiyatni idora etish uslubi sifatida demokratiya insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi va o'zining afzalligini doimo isbot qilib kelgan va kelmoqda. Lekin bu uni shunchaki qanday bo'lsa shunday O'zbekistonga tatbiq etsak bo'laveradi degani emas. Har bir davlat yoki millat umirboqiylikka yo'g'rinishi uchun aholisi va yashash joylaridan tashqari, o'ziga xos va mos urf-odat va ahloq qonunlar majmuasi, bosh qomus, ya'ni Konstitutsiya hamda ularga tayanib tuzilgan milliy boshqaruv uslubi ya'ni davlatchilik va hayot tarzini shakllantirish kerak. Demokratiyaga keladigan bo'lsak, adolatli jamiyat qurish uchun O'zbekiston aynan shu omillarga amal qildi.

Demokratiyaning O'zbekiston uchun eng maqbul boshqaruv uslubi bir tomondan uning umumiy tomonini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan milliy xususiyatga, ya'ni vazminlik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va muruvvat, insoflilik, atrof-muhitga falsafiy munosabat, donolik, o'z qarori va ajdodlar o'gitiga sodiqlik va jamoatchilik ko'nikmalari. qolaversa, geografik joylashuv, unga monand holda asrlar osha shakllangan xo'jalik yuritish vositalari va ko'nikmalari hamda insonlararo aloqalarni ham hisobga olishni taqazo etadi. Ana shundagina demokratiya xalqimizga beminnat xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston qandaydir bechora, kimningdir yetaklashiga muxtoj bo'lgan davlat yoki xalk emas.

O'zbekiston o'z kelajagining buyukligini siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va manaviy-ma'rifiy ta'minlash uchun barcha asoslarga ega bo'lgan davlatdir.

O'zbekistonning qulay geografik - strategik o'rni va imkoniyatlari haqida gapirganda, avvalo, u:

Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istig'bollari jihatidan qulay jugrofiy-strategik mavqega ega;

Markaziy osiyoning qoq o'rtasida joylashgan bo'lib, u boy tabiiy boyliklar, homashyo resurslarga egadir;

Hududlaridan qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li o'tgan;

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlari o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi.

O'zbekistonning haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar, saxiy va mehmondo'st xalqidir. Jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan xalq abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishni ta'minlab beradi.

Mamlakatimizda ochiq demokratik davlatni qurish bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e'tirof etilgan Konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosga qurilgan. Bu asos iqtisodiyotni isloh qilishi, uning keng ko'lamda jahon hamjamiyatga integratsiyalashuvi uchun qulay huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta'minlab beradi.

Sharq xalqlari uchun qudratli manaviyat manba'i bo'lib xizmat qilayotgan madaniy qadriyatlarimiz, manaviy me'rosimiz Yangi jamiyat qurishning manaviy negizi hisoblanadi. Bizning manaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatimizning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishning garovidir.

Respublikaning o'ziga xos shart-sharoitlari va xususiyatlari, an'analari, urf-odatlari, turmush tarzini har tomonlama hisobga olgan O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning "O'zbek modeli" ning hayotda o'z aksini topayotganligi va boshqa ko'plab obyektiv va subyektiv omillar Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, - "O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va ma'daniyatimiz qayta tiklanishini, insoning manaviy-axloqiy barkamolligini ta'minlash kerak".

O'zbek xalqi, O'zbekiston yuqorida tilga olingan o'z kuch qudratiga tayangan va ishongan holda demokratik, adolati fuqarolik jamiyatini qurish tomon ishonchli odim tashlab bormoqda.

Demak, biz kim ekanligimizni, hayotni qanday qurayotganligimizni, undan nimalarni kutayotganligimizni yahshi bilamiz.

Milliy uyg'unish jarayonini boshidan kechirayotgan har bir xalq o'zining milliy qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda his qilish lozim. Millatning millat sifatida anglashi dastavval insonning inson sifatida o'z-o'zini anglashdan boshlanadi. Aks holda milliy mahdudlik, milliy kalondimog'lik, milliy mansubligi orqali o'ziga bino qo'yish illatlari avj oladi va natijada demokratik tamoyillar barbod etiladi.

Milliy qadriyatlar insonning inson sifatida anglatishi, o'zini-o'zi himoya qila olishi, erishgan zafar yo'li va mag'lubiyatlari, sitamli damlarining yodnormalidir. Har bir xalq dunyoga o'zining ana shu tarixiy dasturi bilan kirib keladi. Demak, inson o'zini bashariyatning uzviy bir bo'lagi deb his etishi orqali milliy biqlik, tor manfaatparastlik, xudbinlik botqog'idan xalos etadi. Shundagina u olam va odam o'rtasidagi munosabatlar, alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'liqliklar haqida o'ylashga qodir bo'ladi. Ana shu manaviy, intellektual-ruhiy, axloqiy unkoniyatlar insonni har qanday tor doiralardan keng dunyoga olib chiqadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yalpi yangilanishlar jarayonida demokratik tamoyillar alohida o'rin tutadi. U demokratiya jarayonlarini chuqurlashtirishda, jamiyatni erkinlashtirishda, fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda tub o'zgarishlarning "O'zbek modeli" sifatida jahon islohotchilik tajribasida o'ziga xos va o'ziga mos hissa bo'lib qo'shiladi. Chunki, unga bizning milliy manfaatlarimiz, taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalari, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olingan.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va havfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi.

Xalqaro terrorizmga, diniy va siyosiy ekstremizmga qarshi kurashni tashkil etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan o'tkazilayotgan nufuzli yig'ilishlarda O'zbekiston faol qatnashmoqda, o'zining samarali takliflarini ilgari surmoqda.

Xalqaro hamjamiyat O'zbekistonning, u puxta o'ylab amalga oshirayotgan ichkil ichki va tashqi siyosatining Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni barqarorlashtirish hamda olishdagi ahamiyatini va kuchayib borayotgan rolini borgan sari ko'proq anglamoqda.

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

12-BOB. Demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari

Reja:

1. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning shakllari. Mahalla - fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida.
2. Prezident Islom Karimov O'zbekistonda Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida.
3. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari, uning ayrim vakolatlarining o'zini-o'zi boshqarish organlariga berib borishi maqsadlari va uning demokratik, fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati.
4. O'zini-o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон". 2003.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги (янги таҳрири) Қонуни, 1999 йил 14 апрел.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органларини қўллаб-қувватлаш тўғрисида"ги Фармони, 1998 йил 23 апрел.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Республика "Маҳалла" хайрия жамғармаси фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори, 1993 йил 1 декабр.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон-бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. Т.1. - Т.: "Ўзбекистон", 1996.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.6. - Т.: "Ўзбекистон", 1997.
7. Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар деб ҳисоблашар эди. Т.: "Ўзбекистон", 2005.
8. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз-жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Т.: "Ўзбекистон", 2005.
9. Эргашев И. ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Дарслик. -Т.: "Академия", 2005.
10. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг IX сессиясидаги маърузаси. // "Халқ сўзи", 2002 йил 30 август.
11. Каримов И.А. Эл-юртга ҳалол, виждонан хизмат қилиш-ҳар бир раҳбарнинг муқаддас бурчи. Андижон вилоят халқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзланган нутқ. // "Ишонч", 2004 йил 26 май.
12. Каримов И.А. Қонун ва адолат устуворлиги фаолиятимиз мезони бўлсин. Сурхондарё вилоят халқ депутатлари Кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзланган нутқ. // "Халқ сўзи", 2004 йил 2 июн.

13. Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қаранг ва ёндошувлар билан қуриб бўлмайди. "Маърифат" газетаси, 2005 йил 19 феврал.

14. Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги "Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари - энг олий қадрият" номи маърузаси. // "Халқ сўзи" 2005 йил 7 декабр.

15. Каримов И.А. Азим пойтахтимиз ҳар жиҳатдан гўзал ва обод бўлсин. Халқ депутатлари Тошкент шаҳар кенгашининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқи. // "Халқ сўзи" 2005 йили 23 апрел.

16. www.edu.uz

17. www.zuyo.edu.uz

18. www.ec.edu.uz

19. www.performance.edu.uz

20. www.gov.uz

21. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru

22. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru

23. Академия труда и социальных отношения www.ap177.chat.ru
www.atiso.htm

24. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

Muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni qanday?

2. Mahalliy davlat hokimiyati asoslarini bayon eting?

3. Mamlakatimizda qanday mahalliy o'zini-o'zi boshqarish shakllari mavjud?

4. Fuqarolik jamiyatini qurishda mahallaning roli qanday?

5. Prezident Islom Karimovning O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ularni isloh qilishning asosiy yunalishlari haqida gapirib bering?

6. Mahalliy davlat hokimiyati ayrim vakolatlari o'zini-o'zi boshqarish organlariga qanday asosda o'tkazilmoqda?

7. Mahalla - demokratiya maktabi xususidagi qarashlaringizni bildiring?

8. O'zbekistonda hozirgi kunda mahallaga qanday vazifalar yuklatilgan?

9. O'z-o'zini boshqarish va jamoat tashkilotlari?

10. Mahalla va nodavlat tashkilotlar?

Referat mavzulari

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni.

2. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari.

3. Mamlakatimizda mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning shakllari va ularning fuqarolik jamiyatini qurishdagi roli.

4. Mahalla - fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida.

1. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni.

2. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari.
3. Mamlakatimizda mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning shakllari va ularning fuqarolik jamiyatini qurishdagi roli.
4. Mahalla - fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida.
5. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o'zini-o'zi boshqarish tizimining tiklanishi.
6. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi Qonunning yangi tahriri va uning mazmuni.
7. Mahalla oqsoqollari boshqaruvining demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi ahamiyati.
8. Prezident Islom. Karimov Mahalla - demokratiya maktabi haqida.
9. Mahallaning fuqarolarni demokratik qarorlar qabul qilishda ishtirokini ta'minlash va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o'rni. Obod mahalla yili va uning ijtimoiy-siyosiy mazmuni.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish tushunchasi turli xalqaro tashkilotlar, hujjatlar va olimlar talqinida

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish to'g'risidagi Yevropa partiyasi	Mahalliy o'z-o'zini boshqarish deganda, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining o'z mas'ulligiga, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarishga uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi.
G. Xollis va K. Plokker (Yevropa ishtiroki ekspertlari)	«Mahalliy o'z-o'zini boshqarish - milliy boshqaruvdan quyidagidagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlarini asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirish va boshqarish»dir.
Olim Antonio de Tokvil	«Mahalliy o'z-o'zini boshqarish shunday bir siyosiy institutdirki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi»

Munitsipalitetlar - bu qanday boshqaruv organi. Munitsipalitet jamiyatning barcha tabaqalarini manfaatlarini ta'mirllovchi va qo'riqlovchi ijtimoiy xizmat ko'rsatish vositasi sifatida qaraladi. Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiya kabi mamlakatlarda munitsipial kengashlar huquqiy jihatdan munitsipial ijroiya boshqaruvidan yuqori turib, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi: mahalliy byudjetni qabul qilish, yuqori tashkilotlar tomonidan hal qilinmagan ayrim masalalar bo'yicha me'yoriy hujjatlar qabul qilish, ularni bajarish, mulkni tasarruf etish kabilar kiradi.

Mahallada olib borilayotgan ikki yo'nalishdagi vazifalar

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish to'g'risidagi Yevropa partiyasi	Mahalliy o'z-o'zini boshqarish deganda, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining o'z mas'ulligiga, mahalliy aholi manfaatlarini asosida, qonunlar doirasida davlat ishlarining aksariyat qismini boshqarishga uni real uddalay olish qobiliyatiga aytiladi.
G. Xollis va K. Plokker (Yevropa ishtiroki ekspertlari)	«Mahalliy o'z-o'zini boshqarish -- milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlarini asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirish va boshqarish»dir.
Ohim Antonio de Tokvil	«Mahalliy o'z-o'zini boshqarish shunday bir siyosiy institutdirki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki unuman barcha fuqoralar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqorolarning keng siyosiy ishtiroki uchunshart-sharoitlar yaratib beradi»

"Mahalla" jam'armasining vazifasi quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi belgilanadi

Birinchi yo'nalish	Manaviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarini qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat.
Ikkinchi yo'nalish	Prezident I. Karimovning mahalla institutining bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash barobarida viloyat, shahar tuman, shahar hokimliklarimizga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni o'zini o'zi boshqarish organlariga berib ular maqomini joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratlashtirishda yangi imkoniyatlarga erishish.

Fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish

Fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish.

Mahallalarga madaniy, manaviy- ma'rifiy targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish

Fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan bo'lgan munosabatlarini takomillashtirish

Fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro tajriba almashishida ko'maklashish

Ularning vakolat doirasida barcha masalalarni hal etish, moliyaviy xo'jalik faoliyatini yuritish, ish uslubini takomillashtirishda amaliy yordam ko'rsatish

IZOHLI LUG'AT

Agrar munosabatlar - yer bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar.

Aqidaparastlik - dindorlar uchun majburiy hisoblangan dunyoni tushunish va harakatlarni tarqib qiladigan, ilgari surilgan oqim, harakat.

Avtoritarizm - davlatning yakka shaxs tomonidan boshqarilishi.

Avesto - muqaddas diniy kitob.

Baynalminalchilik - arabcha so'z, ma'no jihatdan jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi va hamjihatligi ma'nosini bildiradi.

Bosqichma-bosqich o'tish - jamiyat taraqqiyoti, ya'ni, u bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishining asosiy uch tur va shakllaridan biri.

Bozor infratuzilmasi - bozor aloqalarini o'rnatishga va samarali yuritishga xizmat qiluvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar majmuasi.

Bozor iqtisodiyoti - ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui, yoki iqtisodiyot nazariyasi terminologiyasi nuqtai nazaridan yondashganda, iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Bozor iqtisodiyotining belgilari quyidagilar hisoblanadi: iqtisodiy faoliyat erkinligi (iqtisodiy plyuralizm), mulkchilik, shakllarining xilma-xilligi, narx-navoni erkinlashtirish, iqtisodiyotning antimongopolistik xarakteri, raqobat.

Bozor iqtisodiyotining mohiyati - jamiyat a'zolarining ishlab chiqarish va iste'mol orqali uzviy hamda tarixiy musobaqaning faol ishtirokchilariga aylanishida namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining Xitoycha yo'li - iqtisodiyot nazariyasida «Bozor sotsializmi» deb nomlanadi. Bu andoza rejali iqtisodiyot va bozor iqtisodiyotining oqilona uyqunligi tamoyiliga asoslanadi.

Bozor strukturasi - bozorning tarkibida amal qiluvchi bo'g'inlar (iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, mehnat bozori, intellektual tovar bozori, moliya bozori, valyuta bozori, ishlab chiqarish bozori va b.) ni va bozor xaroratini belgilovchi boshqa birliklarni o'z ichiga oladi.

Davlat bosh islohotchi - bu tamoyillar zamirida davlat iqtisodiyotni va ijtimoiy turmushning ustuvor yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotni tarkiban o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi lozimligi yotadi.

Davlat hokimiyati - xalq hokimiyatining maxsus qurilma - davlat orqali amalga oshiradi. Hokimiyat davlat qo'lida to'plangandagina bir yerga mujassamlashishi va samarali amalga oshirilishi mumkin. Davlat o'ziga tegishli hokimiyat vositasida majburlov va ta'sir choralarini qo'llaydi. Davlat hokimiyati qonuniydir, ya'ni davlatning, davlat organlarining vakolatlari qonun bilan belgilab qo'yiladi.

Diniy fundamentalizm - diniy aqidalarning azaliy va o'zgarmasligini targ'ib qiladigan oqim.

Dinparastlik - diniy tushunchalarda faqatgina o'zini, tor manfaatlarini, ko'proq siyosiy manfaat yo'lida foydalanishga qaratilgan harakatlarni ifoda etadigan tushuncha, so'z.

Demokratiya - yunoncha soʻz boʻlib, xalq hokimiyati degan maʼnoni bildiradi.

Fermer xoʻjaliklari - shaxsiy yoki ijaraga olingan yerlarda faoliyat koʻrsatuvchi, tadbirkorlik tavsifidagi xususiy qishloq xoʻjaligi korxonasi.

Ijtimoiy infratuzilma - ijtimoiy soha tarmoqlarining majmui.

Institutsional (muassasaviy) oʻzgarishlar - ijtimoiy, iqtisodiy, manaviy va boshqa soqalarda zamonga xos muassasalar tizimining shakllanishi.

Iqtisodiy plyuralizm - mulk shakllari va xoʻjalik yuritish usullarining turli-tumanligidir. Mulk shakllarining turlichaligi bironta mulk shaklining qukmron boʻlishiga yoʻl qoʻymaydi. Xoʻjalik yurituvchilar esa oʻzlari xohlaganlaricha tartibda, jamoatchilik, hissadorlik (aktsionerlik) asosida ish yuritadilar.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish - birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va qabul qilingan qarorlarning hayotiyiligiga erishish.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish - makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yoʻl qoʻymaslik.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish - davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini-funksiyalarini qisqartishi, uning korxonalar xoʻjalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashdir.

Iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi - Oʻzbekiston Respublikasi davlat qurilishini va iqtisodiyotni isloh qilish va bozor munosabatlariga oʻtishdagi muqim tamoyillardan biri boʻlib, unda iqtisodiyotning siyosatdan xalos etilganligi, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvining hamda davlat nazoratining kamayib borishi nazarda tutiladi.

Jadidchilik - arabcha soʻz boʻlib, yangilanish, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yoʻllari tarafdorlarining umumiy nomi.

Kompaniya - tadbirkorlarning savdo, sanoat, transport, sugʻurta va boshqa shunga oʻxshash birlashmalari.

Konsalting - maxsus kompaniyalarning ishlab chiqaruvchilar, isteʼmolchilar va xaridorlarga tashkilot, korxonalar, firma va tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini boʻyicha beriladigan maslahat faoliyati.

Kuchli ijtimoiy siyosat - iqtisodiy oʻzgartirishlarningishonchli kafolati.

Liberilzatsiya - ijtimoiy qayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, iqtisodiyotga davlatning aralashuvini qisqartirish, korxonalarga iqtisodiy erkinliklar berish va xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi.

Lizing - vositachi lizing kompaniyalari tomonidan asosiy fondlarga kapital qoʻyilmalarni moliyalashning maxsus shakli.

Mafkura - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va gʻoyalarni majmui.

Maʼnaviyat - insonlarning ichki, ruhiy olami, iroda va eʼtiqodlari bilan bogʻliq boʻlgan, ularga asoslanadigan ijobiy fazilatlar majmui.

Moliya tizimi - mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagi moliya munosabatlari majmui yoki davlatning moliyaviy muassasalari majmui.

Monopoliya - ishlab chiqarishning biron-bir sohasida tanho hukmronlik.

Mulkdorlar sinfi - biron-bir turdagi mulkka (ko'chmas mulk, yer maydoni, kichik korxonalar, do'konlar, va shu kabilar) nisbatan to'liq yoki qimmatbaqo qog'ozlar (aktsiya, pay, sertifikat) orqali qisman sohiblik huquqini amalga oshirilayotgan kishilar guruhi.

Muqobilik - arabcha so'z bo'lib, so'zlamoch qarama-qarshi bo'lgan ikki fikr yoki yo'ldan birini tanlash demakdir.

Muxolifat - arabcha so'z bo'lib, bir-biridan farq qiluvchi alohida siyosiy yo'l; demokratiyaning muhim belgisi.

NATO - «Shimoliy Atlantika Bloki». 1949 yilda tuzilgan, unga a'zo mamlakatlar qariyb soqada muhofaza qilinadi.

O'zbekistonning milliy istiqloq mafkurasi - mustaqillik natijasida O'zbekistonda vujudga kelayotgan, shakllanib, xalqimizning tafakkuri va faoliyatida muhim

Parlament - fransuzcha so'z bo'lib, so'zlamoch, rasmiy so'zlashish ma'nosini anglatadi.

Raqobat - ishlab chiqarish munosabatlarining subyektlari (ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, tadbirkorlar, yollanma ishchilar va h.k.lar) o'rtasida qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo'lish. unumliroq texnologiya, ish joyi, yaxshi bozorni qo'lga olish imkoniyati uchun olib boriladigan kurash.

Referendum - lotincha so'z bo'lib, e'lon qilinishi lozim bo'lgan xabar ma'nosini bildiradi.

Suverenitet - fransuzcha so'z bo'lib, oliy hokimiyat, ya'ni hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to'la mustaqilligini bildiradi.

Totalitar iqtisodiyot - totalitar boshqaruv shakli joriy qilingan mamlakatlarda jamiyat iqtisodiy hayotining barcha sohalarida davlat hukmronligining to'la o'rnatilishi.

Totalitarizm - jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to'la hukmronligi o'rnatilishi.

Ustuvor - mustahkam, yetakchi, muhim yo'nalishlarni, g'oyalarni ifoda etadi.

Vijdon erkinligi - diniy e'tiqod erkinligi bo'lib, demokratik erkinlikning, inson huquqining muhim, ajralmas qismi hisoblanadi.

Xususiy lashtirish - mulkka egalik huquqining davlatdan firmalar va aloqida shaxslarga berilishi.

Zardo'sht - miloddan avvalgi VII asrda yashagan islohotchi, faylasuf shoir. Zardo'shtiylikning asoschisi.

Zardo'shtiylik - miloddan avvalgi VII asrda vujudga kelgan va islomga qadar o'rta Osiyo, Ozarbayjon va Eronda keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va I.A. Karimov asarlari •

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: "Ўзбекистон", 2003.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Хусусий тадбиркорлик, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантиришни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1998 йил, 9 апрелдаги ПФ-1987 - сонли Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон иқтисодиётида хусусий секторнинг улуши ва аҳамиятини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. 2003 йил 24 январ.
4. "Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 14 июндаги Фармони.
5. "Тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 14 июндаги Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикасида микрокредитлашни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори, 2002, 30 август, 309-сон.

II. Mahalliy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlari -

7. Эргашев И., Шарипов Б., Жакбиров М. Жамиятни эркинлаштириш ва маънавият. -Т.: Академия, 2002.
 8. Мустақил Ўзбекистон (Ўзбек ва инглиз тилларида) Тошкент Ислom Университети. -Т.: 2003.
 9. Абдулатиф Қори Ҳошимжон Қори ўғли. Залолатга кетманг. Ҳасбут таҳрир фитнасидадан огоҳ бўлинг. -Т.: "Мовораўнаҳр", 2003.
 10. Абулқосимов Х.П., Ҳасанов Р.Р., Фармонов И. Ўзбекистонда мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш. -Т.: ТДТУ нашриёти, 2003.
 11. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек инши. -Т.: "Академия", 2003.
 12. Жўраев С. Фуқаролик жамияти. Назария ва амалиёт (Илмий таҳлилий мақолалар тўплами) -Т.: 2003.
 13. Истиқлол, демократия ва фуқаролик жамияти. -Т.: "Шарқ", 2003.
 14. Жўраев Н. Мустақиллик ва маънавият. // "Халқ сўзи", 2003 йил 8 октябр.
 15. Ғулмов М. Маҳалла - фуқаролик жамияти асоси. -Т.: "Адолат" - 2003.
 16. Ҳуснутдинов Э.М., Абдусатторов А. Ислomдаги оқимлар: хорижийлик ва -. -Т.: "Тошкент давлат Ислom Университети", 2003.
 17. Эргашев И. Сиёсат фалсафаси. -Т.: Академия, 2004.
 18. Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқлари бўйича шартномалар. -Т.: "Адолат", 2004.
 19. Сайлов ва сиёсий партиялар. -Т.: 2004.
 20. Умаров Н. Замона зулми кўтармас ёхуд инсониятнинг қулфати ҳақида. // "Халқ сўзи", 2004 йил 19 май.
 21. Эргашев И. Демократия - миллий ва умумбашарий қадрият. Жамият ва бошқарув. 2004. № 2.
 22. Ўзбекистон 13 йил мустақил тараққиёт йулида. -Т.: "Ўзбекистон", 2004.
- ### **III. Mahalliy jurnallar va gazetalar dagi ilmiy maqolalar -**
23. Ислom ва дунёвий давлат (халқаро илмий-назарий конференция материаллари) -Т.: 2003.
 24. Жўраев Н. Мустақиллик ва маънавият. // "Халқ сўзи", 2003 йил 8 октябр.
 25. Аббосхўжаев О. Қизил аждаҳо комида. Ёхуд ривожланган социализм "неъматлари". // "Халқ сўзи", 2003 йил 12 июн.
 26. Умаров Н. Замона зулми кўтармас ёхуд инсониятнинг қулфати ҳақида. // "Халқ сўзи", 2004 йил 19 май
 27. Гулямов С. С. "Климат для инвесторов" Узбекистан - страна больших экономических возможностей и инвестиционных возможностей. // "Труд", 26.06.2005.

28. Гулимов С. С. Феномен экономического прорыва. // "Труд" 11 марта, 2005.
29. Ўзбекистон республикаси қонунчилик депутатларини руйхатга утказиш тўғрисида Марказий Сайлов Комиссиясининг қарори. // "Халқ сўзи", 2005 йил 5 январ.
30. Норбоев -Т.: Демократик жамиятни шакллантиришда сиёсий муҳолифат муаммоси. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари журнали. 2003 йил 3-сон.
31. Отамуродов С. Жамият сиёсий ҳаётини эркинлаштириш. / Жамият ва бошқарув, 2003. № 2.
32. Отамуродов С., Қувватов Н. Кучли давлатдан - кучли жамиятга. Олий ўқув юрглари учун ўқув қўлланма (муаллифлар жамоаси) Истиклол, демократия фуқаролик жамияти. -Т.: 2003.
33. Тўрақулов М. Жамият ҳаётини демократиялаштириш. / (Жамият ва бошқарув, 2003 йил 3-сон).
34. Қирғизбоев М. Ўзини-ўзи бошқариш органлари-фуқаролик жамиятининг асоси. Демократиялаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2003, № 1.
35. Жамият ва бошқарув. Илмий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, маънавий-тарихий журнал. 2004 йил № 1,2,3,4.
- IV. Foydalanilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari.**
36. Туйчиева С.С. Ўзбекистон Республикасида бозор муносабатларига ўтиш шароитида шахс ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий маданиятнинг роли. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2004.
37. Бердиалиев Н.Ш. Ўзбекистонда демократик жамият Қуришнинг миллий-маънавий хусусиятлари. Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2004.
38. Валиев Б.Н. Иқтисодий маданият ва уни шакллантириш омиллари. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2004.
39. Каримов Б.Ш. ал-Бухорийнинг ижтимоий қарашлари. Социология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2004.
40. Камолов Х.С. Мониторинг социальных процессов в Республике Каракалпакстан. Диссертация на соискание степени кандидата социологических наук. Ташкент - 2004.
41. Муҳаммадиева О.М. Мирзо Абдулқодир Бедил фалсафасида ахлоқий кадрлар масаласи. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2004.
42. Сабитов Ш.А. Внешняя политика Китая в годы реформ (1978-1998г.) и перспективы сотрудничества с Республикой Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. Ташкент - 2004.
43. Юнусов А.Б. Ўсмир-ёшларда ижтимоий девиантлик ҳолатларининг социологик хусусиятлари. Социология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2004.
44. Шайманова А. Э. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти қурилишида ўрта мулкдорлар синфининг ўрни ва роли. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2005.
45. Чориев С.А. Сиёсий етуқ шахсни шакллантириш муаммолари. Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2005.
46. Бекмуродова Г. Аграр ислохотлар ва қишлоқ фуқаролари ижтимоий қиёфасининг шаклланиши. Фалсафа фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2005.
47. Муллажоновна М.М. Ўзбекистонда демократик жамият қуришда ижтимоий ва сиёсий институтларнинг роли. Сиёсий фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент - 2006.
- V. Statistik ma'lumotlar to'plamlari, Internet yangiliklari, veb saytlar.**
48. www.edu.uz 49. www.zuyo.edu.uz 50. www.ec.edu.uz 51. www.performance.edu.uz
 52. www.gov.uz 53. Академия гуманитарного образования www.liberalarts.spb.ru
 54. Академия народного хозяйства при Правительстве Российской Федерации www.ane.ru
 55. Академия труда и социальных отношения www.apl77.chat.ru www.atiso.htm
 56. Академия управления и предпринимательства www.ame.ru

MUNDARIJA

KIRISH	5
I Bo'lim. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va rivojlanishi	8
I-BOB: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI	8
1.1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	8
1.2. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish fanining qonun va kategoriyalari	11
Qisqacha xulosalar	16
Nazorat va muhokama uchun savollar	17
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati	17
II-BOB: MUSTAQILLIK VA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING "O'ZBEK MODEL"	19
2.1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlari va "O'zbek modeli"	19
2.2. "O'zbek modeli"ning jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va manaviy hayot sohalorida namoyon bo'lishi	21
2.3. Dunyoviy davlat va milliy davlatchilik tushunchalari	23
2.4. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlarining ustivorligi	24
Qisqacha xulosalar	26
Nazorat va muhokama uchun savollar	26
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati	27
III-BOB: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT BARPO ETISHDA O'TISH DAVRINING ZARURLIGI, UNING XUSUSIYATLARI	28
3.1. O'tish davri tushunchasi, uning zarurligi va mohiyati	28
3.2. O'zbekistonning totalitar mustamlaka mamlakattan demokratik jamiyatga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari	31
Qisqacha xulosalar	38
Nazorat va muhokama uchun savollar	38
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati	38
IV-BOB: O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING MILLIY, UMUMBASHARIY TAMOYILLARI VA QADRIYATLARI	40
4.1. Demokratik jamiyatning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlarini tushunchasi	40
4.2. Milliy tamoyillar va qadriyatlarining demokratik jamiyat qurishda aks etishi. Uning tarixiyligi va zamonaviyligi	43
4.3. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarining uyg'unligi	47
Qisqacha xulosalar	49
Nazorat va muhokama uchun savollar	49
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati	50
II Bo'lim. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etish asoslari	51
V-BOB: QONUN USTUVORLIGI DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI QURISHNING ASOSI	51
5.1. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishida qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi	51
5.2. Qonun ustuvorligi tamoyilining O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishidagi ahamiyati	61
Qisqacha xulosalar	62
Nazorat va muhokama uchun savollar	62
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati	63
VI-BOB: MILLIY-MANAVIY NEGIZLARGA TAYANISH-DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ZARUR SHARTI	65
6.1. Mustaqillik va O'zbekiston jamiyati manaviy negizlarining o'zgarishi. Ma'naviy yangilanish tushunchasi	65
6.2. Milliy-manaviy negizlar tushunchasi. Uning mazmun va mohiyati	68
6.3. Agressiv millatchilik; shovinizm, ekstremizm va terrorizmning demokratiya va milliy-manaviy negizlarga ziddligi	72

6.4. Milliy-manaviy negizlarning demokratik jamiyat, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurilishidagi roli.....	74
Qisqacha xulosalar.....	75
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	76
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	76
VII-BOB: JAMIYAT IQTISODIY HAYOTINI ERKINLASHTIRISH VA DEMOKRATLASHTIRISH	78
7.1. Demokratik jamiyatta iqtisodiy hayotni erkinlashtirish tushunchasi va mazmuni.....	78
7.2. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-iqtisodiy negizi. Mulkdchilikning xilma-xil shakllari.....	82
7.3. Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta bozori. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning rofi.....	85
Qisqacha xulosalar.....	89
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	89
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	90
VIII-BOB: DEMOKRATIK JAMIYAT SHAKLLANISHIDA MAHALLA VA FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI	91
8.1. O'zbekistonda demokratik jamiyat shakllanishida mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni.....	91
8.2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o'zini-o'zi boshqarish tizimining tiklanishi.....	92
8.3. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni takomillashtirishning asosiy vazifalari.....	95
Qisqacha xulosalar.....	97
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	98
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	99
IX-BOB: DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHIDA KUCHLI IJTIMOY HIMOYA VA ADOLAT TAMOYILLARI	100
9.1. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishida kuchli ijtimoiy adolat va ijtimoiy kafolat tushunchasi va tamoyillari.....	100
9.2. Ijtimoiy himoya tizimida inson omili.....	107
Qisqacha xulosalar.....	110
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	110
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	110
X-BOB: O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIGIDA DEMOKRATIK TAMOYILLARGA ASOSLANISHI	112
10.1. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.....	112
Qisqacha xulosalar.....	124
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	125
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	125
XI-BOB: O'ZBEKISTON: MDH, SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI, MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HAMJIHATLIGI: IKKI TOMONLAMA VA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK	127
11.1. MDH davlatlaridagi demokratik o'zgarishlar va davlatlararo munosabatlar.....	127
11.2. O'zbekiston Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkilotidagi o'rni.....	133
11.3. Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va davlatlararo hamkorlik.....	135
11.4. O'zbekistonning xalqaro terrorizm, ekstrimizm va separatizimga qarshi kurashda o'zaro hamkorlikning ahamiyati.....	140
Qisqacha xulosalar.....	142
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	143
Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....	143
Xulosa.....	145
Hg'or pedagogik texnologiya.....	147
Izohli lug'at.....	151
Adabiyotlar ro'yxati.....	154
Mundarija.....	156

CONTENTS

Introduction	5
Part 1. Theory and development of building democratic society in Uzbekistan	8
Chapter 1 Subject, aim and tasks of course "Theory and practice of building the democratic society in Uzbekistan"	8
1.1. Subject, aim and tasks of course "Theory and practice of building the democratic society in Uzbekistan"	8
1.2. Law and categories of the subject of "Theory and practice of building the democratic society in Uzbekistan"	11
Brief conclusions.....	16
Questions for discussion and control	17
Main literature	17
Chapter 2. "Uzbek model" of building the independent and democratic society	18
2.1. Peculiarities of building democratic society in Uzbekistan and "Uzbek Model"	18
2.2. Appearance of "Uzbek Model" in social, political, economic and spiritual branches of life of society.....	21
2.3. Meanings of the world government and national government	23
2.4. Priority of freedom, in building democratic society in Uzbekistan	24
Brief conclusions.....	26
Questions for discussion and control	27
Main literature	27
Chapter 3. Necessity of transitional period in building the democratic society in Uzbekistan and its peculiarities	29
3.1. Transitional period, its importance and meanings.....	29
3.2. Peculiarities of transition of Uzbekistan	31
Brief conclusions.....	38
Questions for discussion and control ..	38
Main literature	38
Chapter 4. General principles and values of building the democratic society in Uzbekistan	40
4.1. General principles and values of building the democratic society	40
4.2. Participating of national principles and values in building democratic society Its modest	43
4.3. Connecting of national principles and values in building democratic society in Uzbekistan	47
Brief conclusions.....	49
Questions for discussion and control	59
Main literature	50
Part 2. Principles of establishing democratic and civil society in Uzbekistan	51
Chapter 5. Law priority - base of building the democratic and civil society	51
5.1. Law priority principles in building democratic and civil society	51
5.2. Meanings of Law priority principles in building democratic and civil society.....	61
Brief conclusions.....	62
Questions for discussion and control	62
Main literature	63
Chapter 6. Important condition of building the supporting and democratic society for national and spiritual cores	65
6.1. Independence and changes of spiritual cores of the society. Spiritual datings.....	68
6.2. National and spiritual cores. Their meanings.....	72
6.3. Aggressive nazies: against of Shovinism, Extrimizm and Terrorism from democracy, national and spiritual cores.....	73
6.4. Role of national and spiritual cores in building democratic society, calm life.....	74
Brief conclusions.....	75

Questions for discussion and control.....	76
Main literature	76
Chapter 7. Liberalization and democratization of economic life of society	78
7.1. Liberalization economic life in democratic society.....	78
7.2. Social-economic cores of building democratic society in Uzbekistan	82
7.3. External economic affairs and currency market. Role of investment in development of the economy	85
Brief conclusions.....	89
Questions for discussion and control	89
Main literature	90
Chapter 8. Mahalla (local authorities) and civil self-administrating bodies in forming the democratic society	91
8.1. Mahalla (local authorities) and civil self-administrating bodies in forming the democratic society in Uzbekistan	91
8.2. Rebuild of self-administrating society under democratic principles in present.....	92
8.3. Main tasks of development self-administration.....	95
Brief conclusions.....	97
Questions for discussion and control	98
Main literature	99
Chapter 9. Strong social security and justice principles of building the democratic society.....	100
9.1. Strong social security and justice principles of building the democratic society in Uzbekistan	100
9.2. Human in social security.....	107
Brief conclusions.....	110
Questions for discussion and control	110
Main literature	110
Chapter 10. Basing of Uzbekistan on democratic principles in cooperation with world community..	112
10.1. Uzbekistan and world cooperation	112
Brief conclusions.....	124
Questions for discussion and control	125
Main literature	125
Chapter 11. Cooperation of Uzbekistan with CIS, Shanghai Cooperation Organization, Central Asian countries: bilateral and multi-lateral cooperation.....	127
11.1. Democratic changes and relations in CIS.....	127
11.2. Place of Uzbekistan in Shanghai cooperation	133
11.3. Democratic situations and cooperation in Central Asian countries	135
11.4. Meanings of cooperation of Uzbekistan against for international terror, extremism and separatism.....	140
Brief conclusions.....	142
Questions for discussion and control	143
Main literature	143
Conclusion	145
Advanced pedagogical technology	147
Glossary	151
Additional literature	154
Contents.....	158

B.A.ALIYEV, T.HOSHIMOV

**O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK
JAMIYAT QURISH
NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

O‘quv qo‘llanma

Nashr uchun mas‘ul:

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Adabiyot jamg‘armasi direktori
Qurbonmurod Jumayev

Muharrir:

Faxriddin Hayitov

Musavvir va texnik muharrir:

Akbarali Mamasoliyev
Nodir Ortiqov

Musahhirl:

Mahfuza Aminjonova

Terishga berildi 04.10.2005 y. Bosishga ruxsat
etildi 20.11.2005 y. Qog‘oz formati 60x84 $\frac{1}{16}$.
Ofset bosma usulida bosildi. Nashr bosma
tobog‘i 10,0. Nusxasi 500.
Buyurtma № 126

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot
jamg‘armasi nashriyoti, 700000, Toshkent,
J. Neru ko‘chasi, 1-uy.

«AVTO-NASHR» sho‘ba korxonasi
bosmaxonasida chop qilindi.
700005, Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.